ПХС технологик тизимларида қўлланиладиган эжекторли қурилмаларнинг дросселли қурилмаларга нисбатан асосий жиҳати паст босимли газларни ҳам эжекциялаш натижасида унинг таркибидан суюқ фазаларни ажратиб олиш имкониятларини беради. Бунда эжекторли қурилмаларнинг дросселли қурилмалар билан газни совитиш жараёнида кетма кет ҳолда амалга ошириладиган икки боқичли редуциялаш имкони мавжуд бўлиб, бу усулнинг қўлланилиши кон шароитида ПХС қурилмаларида кўпроқ паст ҳароратлар олинишига эришилиши билан сиқув компрессор станциялари (СКС) нинг ўрнатилиб ишга туширилиши жараёнини анча кейинроқ амалга ошириш шароитини яратади.

Эжектор қурилмаси ўзининг оддий конструкцияда бажарилиши билан, кичик габарит ўлчамлари ва улардан фойдаланишда юқори ишончилиқнинг таъминлиниши, ҳамда кенгайдиган газнинг аниқ босим ҳароратлар қийматлари оралиқларида зарурий босимлар фарқини таъминлаб бериш жиҳатлари улардан қурилмада узоқ муддат фойдаланилиш имкониятларини яратади. Босимлар фарқини ҳосил қилиш натижасида кенгайган газ ҳароратининг $-30...-25$ °С оралиқларида бўлишига эришиш дроссель технологиясининг ундан юқори босимлар фарқида ва конденсат омил юқори бўлган қийматларидаги натижаларга тенг.

“Шуртан” ва “Муборак” нефть ва газ қазиб чиқариш бошқармаларига тегишли газконденсатли конларда фойдаланилаётган ПХС қурилмалари ишлашлари таҳлиллари шуни кўрсатадики, унчалик катта бўлмаган конларда ёки конларни ишлатишнинг дастлабки босқичларида иқтисодий жиҳатдан қимматбаҳо ва қурилиши мураккаб бўлган паст ҳароратли сепарациялаш жараёнини амалга ошириш учун дросселлаш эффектидан ва кейинчалик унга қўшимча равишда эжекциялаш қурилмаларидан фойдаланган ҳолда қурилмаларни ишлатиш яхши самара бериб келмоқда.

Конларни ишлатишнинг кейинги босқичларида суюқ углеводородлар қазиб олишни берилган даражада сақлаб туриш учун хом-ашё газининг сепарация ҳароратини пасайтириш зарурати тўғилади. Шунингдек эркин босимлар фарқининг аста-секинлик билан камайиши ва унинг натижасида газни сепарациялаш ҳароратини ҳам мақбул қийматлар оралиқларида ушлаб туриш зарурати тўғилади. Бундай ҳолатларга эриша олмаслик эса ПХС қурилмаларининг асосий камчиликларидан бири ҳисобланади.

Газконденсатли конлар ПХС қурилмаларида кенг қўлланиладиган газ ҳароратини пасайтириш усулларида бири газни изоэнтропия жараёни ёрдамида кенгайтириш усули ҳисобланади. Газни изоэнтропия кенгайиши детандер жиҳозлари ёрдамида амалга оширилади.

Ҳозирги пайтда мамлакатимиз ҳудудидаги энг йирик ва асосий ҳисобланган газконденсатли конларда кон шароитида табиий газни тайёрлаш қурилмалари турбодетандер агрегатлари (ТДА) ёрдамида газни қурилмага кираётган газни совитиш жараёни кенг қўлланилмоқда. ПХС технологик тизимида ТДА нинг қўлланилиши қурилмага кираётган газни совитишнинг изоэнтропия кенгайишига яқин бўлган политропик жараёнларни ташкил этишга асосланади.

ТДА кўпгина афзалликларга эга бўлсада, бундай ҳолатларда айниқса аралашма таркибидан суюқ углеводородлар ва қатлам сувлари миқдорлари кўп бўлганда оғир

ишлайди. Айниқса ёз ойларида ҳаво ҳароратининг қизиби кетиши сепарация ҳароратининг ҳам ошиб кетишига олиб келади ва қурилмада тайёрланаётган газ аралашмаси таркибидаги компонентларнинг умумий шудринг нуқтаси ҳароратига кескин таъсир қилади. Тайёрланаётган газ учун талаб қилинган зарурий ҳароратлар босимлар фарқи камайиши натижасида эришилиши қийинлашади.

ПХС да дросселлаш ва эжекциялаш жараёнлари учун қурилмалар мавжуд бўлиши ва уларнинг қиш пайтлари захирага олиниб ТДА ни ишлатиш, ёз ойлари эса уларни ишлатиб ТДА ни ажратиш кон шароитида табиий газни сифатли тайёрлаш мақбул ечимларидан бири ҳисобланади.

Литература

1. Истомин В.А. Низкотемпературные процессы промышленной обработки природных газов. –М.: ИРЦ Газпром, 1999. -76 с.
2. Кубанов А.Н. Применение трубохолодильной техники. //Наука и техника в газовой промышленности. -2011, №3. С.55-62


SILVINIT RUDASIDAN KALIY XLORID ISHLAB CHIQRISH JARAYONIDA AJRALIB CHIQRADIGAN SHLAM CHIQINDISINI TARKIBINI O`RGANISH

*Maxmudov Rafiq Amonovich,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti proffesori
Fatilloev Shamshod Fayzullo o`g`li,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti o`qituvchisi
Shodiyev Azim Ziyadullayevich,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti o`qituvchisi*

O`zbekistonda tuproq unumdorligi 0,25 % dan 0,16% ga pasaygan. Birgina fosforli o`g`itlar ishlab chiqaradigan, zavodlarimiz yurtimizdagi fosforli o`g`itlarga bo`lgan talabning atigi 30 % qondirishi fosfor tutgan mineral o`g`itlar tanqisligini keltirib chiqarmoqda. Undan tashqari kaliyli o`g`itlar ishlab chiqarishdagi asosiy muammolardan biri “Dehqonobod kaliyli zavodi”da hozirgi vaqtda birinchi bosqich shlam yig`ish havzasida 242375 kub metr shlam chiqindisi mavjud. Ushbu shlam yig`ish havzasi to`lganligi sababli ajralib chiqayotgan shlam chiqindisi ayni kunda 2-bosqich shlam yig`ish havzasiga chiqarib yuborilmoqda. Korxonada to`laquvvat bilan ishlaganda 2-bosqich shlam havzasini ham 6.5 yilda shlam chiqindisi bilan to`ladi. Ajralim chiqayotgan shlam chiqindisini zamonaviy spektrial analiz qilish usullari orqali va yangi turdagi moddalar sintez qilishga zamin yaratadi. Dehqonobod kaliyli zavodidagi shlam rudasini spektrial tahlil natijalari berilgan (1-rasm).

1-rasm

Loyli shlam tarkibining spektri



Shlam tarkibidagi xromotografik spektral tahlil natijalari shuni ko`rsatadagi ruda tarkibidagi moddalarning elementar nuqtalari K chiziq orqali aniqlangan. Eng yuqori nuqta Cl atomiga tegishli bo`lib, ruda tarkibida miqdori yuqoriligini ko`rsatadi. Quyidagi jadvalda shlam chiqindisining spektral tahlil natijalari asosida tarkibi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Shlam chiqindisini kimyoviy tahlil natijalar

Moddaning elementar tarkibi	Moddaning aniqlash chizig'i	Massa (%)	Atom%
C (uglerod)	K	7.96±0.02	13.74±0.04
O (kislrorod)	K	36.04±0.03	46.68±0.04
Na (natriy)	K	14.65±0.02	13.21±0.01
Mg (Magniy)	K	3.99±0.01	3.40±0.01
Al (alyuminiy)	K	2.78±0.01	2.14±0.01
Si (kremniy)	K	5.74±0.01	4.24±0.01
S (oltingugurt)	K	1.36±0.00	0.88±0.00
Cl (xlor)	K	21.94±0.02	12.83±0.01
K (kaliy)	K	3.52±0.01	1.87±0.00
Ca (kalsiy)	K	1.91±0.01	0.99±0.00
Ti (titan)	K	0.09±0.00	0.04±0.00
Umumiy	K	100.00	100.00

Shlam chiqindisi tarkibidagi elementar tahlillar shuni ko`rsatadiki birikmalar tarkibida O (kislrorod), Cl (xlor), atomlarini yuqoriligi birikmada CaSO_4 , KCl , NaCl , MgSO_4 birikmalarining mavjudligini ko`rsatadi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Amonovich, M. R., Fayzullo o`g`li, F. S., & Mavlon o`g`li, A. B. (2023). Analysis of the Composition of Sludge Waste Released in the Process of Potassium Chloride Production from Silvinite Ore. INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES, 2(9), 40–42. Retrieved from <https://inter-publishing.com/index.php/IJHSMS/article/view/2507>
2. Fatilloyev, S., & Haydarova, M. (2023). POTASSIUM FERTILIZERS AND THEIR BASIC RAW MATERIALS. International Conference on Multidisciplinary Research, 1(5), 87–89. Retrieved from <http://aidlix.com/index.php/sg/article/view/1862>

МОДИФИКАЦИЯ ВЕРМИКУЛИТА И БЕНТОНИТОВОЙ ГЛИНЫ С ХИТОЗАНОМ И ИССЛЕДОВАНИЕ АДсорбЦИОННЫХ СВОЙСТВ ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД

Умаров Бобурбек Носир угли

Бухарский инженерно-технологический институт

boburbekumarov1993@gmail.com

Известно, что во всём мире промышленные предприятия загрязняют сточные воды красителями, тяжёлыми металлами, органическими реагентами, поверхностно-активными веществами. Так, удельное количество сточных вод, образующихся в процессах красильно-отделочного производства, составляет 200 - 350 м³ на 1 т вырабатываемых тканей. Многообразие поллютантов и их природы требует полифункциональных и селективных адсорбентов, обладающих способностями очистки от часто встречающихся полярных и неполярных веществ. Такими характеристиками могут обладать композиционные сорбенты на основе вермикулита модифицированных органическими молекулами, то есть с хитозаном [1].

Вспученный вермикулит обладает выраженными гидрофобными и анионообменными свойствами [5]. Низкий удельный вес является другим важным свойством вспученного вермикулита.




Рисунок 1. - Структурная схема вермикулита

Хитозан является биосовместимым, нетоксичным, биоразлагаемым аминополисахаридом, обладающим антимикробным, сорбционным, антиоксидантным свойствами. Уникальные свойства ХЗ, безусловно, связаны с его молекулярными характеристиками, собственной биологической активностью и способностью образовывать соединения и комплексы с различными химическими веществами. В научно-технической литературе широко освещены способы получения модифицированных минералов бентонитов, вермикулита с хитозаном [2]. Однако, несмотря на это промышленное производство органоминералов в нашей Республике для очистки различных сред отстаёт от требований производства [3-4]. Основной причиной которого является отсутствие научно обоснованной приемлемой технологии, обеспечивающей получение органосорбентов высокими характеристиками в качестве адсорбентов. Поэтому научные экспериментальные исследования в этом направлении в двойне актуальны.

Целью исследований является модификация вермикулита и бентонита с хитозаном синтезированной из подмора пчёл *Apis Mellifera* и изучения их физико-химических свойств, а также сорбционных показателей органо-сорбентов по отношению красителей в сточных водах текстильных предприятий.

Экспериментальная часть

Для исследований были выбраны алюмосиликаты: гидрослюда вспученный Вермикулит (ВВ) месторождения Тебинбулок и бентонитовая глина Навбахорского (На-НБ) месторождения из области Наваи [5]. В качестве модификатора минералов использовался реагент – хитозан *Apis Mellifera* (ХЗ) [6-7]. Синтезированные органосорбенты условно названы ХЗ- На-НБ и органовермикулит ХЗ-ВВ. В качестве

красителя использовали краситель Индиго используемый в производстве “Bukhara cotton” и активный краситель Reactive dye -2В используемый в производстве Bukhara Brilliant silk.

При модифицировании минералов группы смектита, обладающих расширяющую структурную ячейку с сравнительно большими органическими катионами наблюдается внедрение органических молекул практически во всю внутреннюю поверхность минералов. В результате молекулы среды, т.е. воды адсорбируются в основном на их внешней поверхности [8]. Однако, как показывают результаты исследования возможно адсорбция молекул полярных органических веществ не только на внешней, но и на внутренней поверхности вермикулита и бентонитов с органическими катионами в обменном комплексе. С научной точки зрения замена неорганических обменных катионов глинистых минералов органическими должно приводить к резкому изменению их физико-химических и сорбционных характеристик. Есть данные подтверждающие увеличение адсорбционной емкости модифицированного монтмориллонита по отношению к нефтепродуктам, ароматическим и парафиновым углеводородам. Возросший интерес к органопроизводным глинистых минералов можно объяснить с возможностью их использования в качестве селективных сорбентов.

Адсорбционная емкость по отношению красителя Индиго и активного красителя reactive dye 2В производства Турция, измерялась по определению оптической плотности на характерной длине волны с использованием фотоэлектрического калориметра КФК-3М. Активный анионный краситель 2В, представляет собой тёмно-синие кристаллы с блеском.

В лабораторных экспериментах по определению адсорбционной емкости были приготовлены растворы красителя индиго и reactive dye 2В в воде с концентрацией от 1 до 200 мг/л и определялись значения оптических плотностей этих растворов. Для построения калибровочного графика использовались данные об оптических плотностях растворов. В растворы объемом 100 мл были добавлены по 0,1 г адсорбентов в виде порошка. После установления адсорбционного равновесия (от 6 до 24 часов для отдельных образцов) были измерены оптические плотности растворов и используя данные калибровочного графика устанавливались их концентрации мг/л. Количество адсорбированного красителя определялось по формуле:

$$A = \frac{(C_0 - C_1) * V}{m}, \quad (1)$$

где, A – количество адсорбированного красителя мг/г; C_0 и C_1 – исходная и равновесная концентрация красителя в растворе, мг/л; V – объем раствора, л; m – масса адсорбента, г. рН водных растворов измерялись с помощью иономера И160-М.

Основной метод исследования кристаллического строения органо сорбентов является и электронная микродифракция элементный анализ (рис.2).




Рис.2. Электронно-микроскопический снимок Бентонита и органо бентонита и вермикулита и Органовермикулита А) Na-НБ;

В случае хитозана – полимерного модификатора наблюдается образование ассоциатов толщиной в один слой катионов модификатора, вместо гидратно-ионных слоев наружных поверхностей кристаллов монтмориллонита. Вместе с тем повышение размеров

молекул модификатора способствует увеличению степени трехмерного порядка в упаковке силикатных слоев. Под электронным микроскопом видно, что крупные частицы ХЗ-На-НБ и ХЗ-ВВ в основном обладают прямоугольной формой с размерами около 1 мкм и их можно использовать для очистки сточных вод от красителей [9-10].

Данные предположения полностью согласуются с результатами рентгенофазового анализа. С целью определения количественных характеристик были проведены термогравиметрические исследования. Эффекты на термограммах при интервале температур 350-450°C указывают на количества поглощенного органического модификатора, т.е. вошедшего в межслоевое пространство, а не оставшегося на поверхности пакетов. Так, важной характеристикой считается величина потери при прокаливании в пределах вышеотмеченных температур. Для анализа были взяты высушенные при температуре 95°C органоглины, которые содержат минимальные количества молекулярной воды, в связи с чем интенсивность первого термического эффекта должен максимально снизиться по отношению к интенсивности исходной глины. Вместе с тем наблюдается образование второго термического эффекта при более высоких температурах, интенсивность которого характеризует количества химически связанного органического вещества. Образование второго термического – экзо эффекта при температуре около 400°C соответствует сгоранию органики.




Рис. 3. Результаты термического анализа (синхронный дифференциально термогравиметрический анализ и сканирующая калориметрия): 1) Бентонит; 2) Хитозан - бентонит; 3) Вермикулит 4) Хитозан вермикулит

Данный эффект как видно из рис.3. отсутствует в природном образце Na-НБ. У образца ХЗ-На-НБ при термической обработке наблюдается снижение интенсивности первого эндозффекта, характеризующей затрату теплоты на разрыв молекулярно-связанной воды. Так потеря массы природного бентонита при температурах 100-150°C составляет около 4,4%, а его органическом производном ХЗ-На-НБ 1,30 %, соответственно. Дальнейшее заметное уменьшение массы образцов Х- Na-НБ происходит при температурах выше 390°C и составляет 4,02 % от массы исходной органофильной глины. Расположение эндо- и экзоэффектов, а также изменение массы при термической обработке доказывают ранние предположения о внедрении ПАВ в межслоевое пространство глин.

Изменение адсорбционной емкости показывает, что адсорбция активного анионного красителя на ХЗ- Na-НБ зависит не только от количества катионообменных центров, но и от величин его доступной поверхности.

Литература

1. Hu Q.H., Qiao S.Z., Naghseresht F., Wilson M.A. and LuG.Q., Adsorption study for removal of basic red dye using bentonite, Ind. Eng. Chem. Res.45. 2006, pp.54-59.105.
2. Ихтиярова Г.А. Очистка текстильных сточных вод от активных красителей модифицированной бентонитовой глиной. //Журнал проблемы текстиля. –Ташкент. 2009. -№2. -С.40-45.
3. Ikhtiyarova G.A. Adsorption behaviour of reactive dye onto modified bentonite from aqueous solutions // International conference 6th Aegean analytical chemistry days. Turkey. 2008. p.323.
4. Ikhtiyarova G.A., Ozcan A.A., Ozcan A.S. Characterization of natural- and organobentonite by XRD, SEM, FT-IR and thermal analysis techniques and its adsorption behaviour in aqueous solutions // Journal Clay Minerals, V.47, 2012y. P.31-44.

ОЧИСТКА СТОЧНЫХ ВОД ВЕРМИКУЛИТОМ МОДИФИЦИРОВАННОГО ХИТОЗАНОМ

Умаров Бобурбек Носир ўгли

Бухарский инженерно-технологический институт

Введение Известно, что во всём мире промышленные предприятия загрязняют сточные воды красителями, поверхностно-активными веществами, тяжелыми металлами, органическими реагентами. Так, удельное количество сточных вод, образующихся в процессах красильно-отделочного производства, составляет 200 - 350 м³ на 1 т вырабатываемых тканей. Многообразие поллютантов и их природы требует полифункциональных и селективных адсорбентов, обладающих способностями очистки от часто встречающихся полярных и неполярных веществ. Такими характеристиками могут обладать композиционные сорбенты на основе вермикулита модифицированных органическими молекулами.

Вспученный вермикулит используется в качестве сорбента для очистки промышленных и бытовых сточных вод, а также в экологии вспученный вермикулит применяют для удаления нефтепродуктов, органических и токсичных жидкостей с поверхности водоемов и почв, для локализации и удаления нефти при авариях подводных нефтепроводов и при шельфовой добыче нефти, для очистки сточных вод от нефтяных и других загрязнений.

Целью исследований является модификация Вспученного вермикулита соляной кислотой и с хитозаном, изучением их физико-химических свойств, а также сорбционных показателей органоминерала по отношению красителя и ПАВ в сточных водах текстильной промышленности. Превосходные свойства вспученного вермикулита, такие как химическая инертность, термостойкость, прочность, безвредность, высокая адсорбционная емкость, способность к ионному обмену делают его неорганической матрицей для создания сорбента [1-3].

Объекты и методы исследований. Для исследований были выбраны глины вспученный вермикулит месторождения (ВВК) республики Каракалпакистан. Брутто-формула Вермикулита: $Mg \cdot Fe_{0.8} \cdot Al_{0.4} \cdot Si_{2.1} O_9 \cdot H_2O \cdot (CaSiO_3)_{0.9}$. Крупность размола вермикулита (до его модифицирования) - до 0,5-1,0 мкм. В качестве модификатора глины использовался реагент – хитозан *Apis Mellifera* (ХЗ). Синтезированный органобентонит условно назван ХЗ-ВВК.

Получение хитина и синтез хитозана из подмора пчёл осуществляли химическим способом [4-5]. Полученный хитин представляет собой хлопья кремового цвета, растворимые в концентрированных неорганических кислотах, хитозан- бежевого цвета, растворимые в разбавленных растворах органических кислот, в частности в 2% -й $CH_3COOH + 2\% CH_3COONa$.


ИК- спектроскопические исследования проводили на ИК- Фурье спектрометре Inventio-S (Bruker, Германия) с приставкой нарушенного полного внутреннего отражения в диапазоне от 400 до 4000 см⁻¹.

Результаты и их обсуждение. Целью нашего исследования создать сорбент на основе модифицированного вермикулита с хитозаном для сорбции красителя индиго используемого в текстильной промышленности “Bukhara cotton” где выпускают джинсовые ткани.



Рисунок 1. Вспученный вермикулит и Хитозан из пчелинного подмора

Модификацию провели следующим образом: 100 г высушенный вермикулит до 120-150°C с размером 0,10-0,05 мм добавили 200 мл 7 %-ную соляную кислоту и перемешивали в течении 24 часов при помощи магнитной мешалки . Затем добавили хитозан и полученную суспензию также в течении 24 часов при комнатной температуре перемешивали, далее отфильтровали до нейтральной среды и промыли дистиллированной водой. Полученный модифицированный вермикулит с хитозаном высушили до постоянного массы и провели анализ физико-химическими методами [5]. Получены ИК спектры сорбентов в двух видах: на основе вермикулита модифицированного 7% ной соляной кислотой, а также с хитозаном (рис.2).






Рисунок 2. ИК-фурье спектры: а) Вермикулита
б) модифицированного Вермикулита с HCl с хитозаном

Из рис. 2 видно что, полоса поглощения при 1643 см^{-1} принадлежит деформационным колебаниям адсорбированных молекул воды и полоса поглощения 3459 см^{-1} обусловлена валентными колебаниями егидроксильных групп и значительное количество менее прочно связанной со структурой воды. А также в ИК-спектре исходного вермикулита обнаружены полосы поглощения при 1656 OH , $1429,72$ ион Fe, $949,70\text{ Si-O}$, $665,10\text{ Me-O-Si}$ (Fe, Al, Mg), $421,44\text{ Si-O-Mg}^{2+}$, $417,59\text{ Si-O-Ca-OH}$, полосы поглощения 674 см^{-1} и 998 см^{-1} обусловлены валентными колебаниями Si-O связи. Расщепление частот валентного и деформационного колебаний связано с OH воды обусловлено наличием существования H_2O с различной степенью связанности. После обработки кислотой появление аморфной фазы легко идентифицировать по появлению полосы 1200 см^{-1} (рис. 2 а,в), относящейся к валентным Si-O-колебаниям силикатов.

Литература

1. Хальченко И.Г., Шапкин Н.П., Свистунова И.В., Токарь Э.А., Химическая модификация вермикулита и исследование его физико- химических свойств “Международном научном форуме Бутлеровское наследие – 2015”. <http://foundation.butlerov.com/bh-2015/>
2. Марченко Л. А. Исследование возможности сорбционной очистки при ликвидации нефтяных загрязнений / Л.А. Марченко, Е.А. Белоголов, А.А. Марченко, О.Н. Бугаец, Т.Н. Боковикова // Научны й журнал Куб ГАУ. 2012. №84 (10). С. 23 - 32.
3. Жамская Н.Н., Машкова С.А., Бянкина Л.С., Шапкин Н.П. Изучение возможности применения модифицированных сорбентов для очистки сточных вод от белковых веществ Дальрыбвтуз, Владивосток.
4. Ikhtiyarova G.A., Umarov B.N., Turabdjanov S.M., Mengliyev A.S. Physicochemical properties of chitin and chitosan from died honey bees *Apis Mellifera* of Uzbekistan. Journal of Critical Reviews. Vol 7., Issue 4, -2020. P.120-124.

ОСОБЕННОСТИ УТИЛИЗАЦИИ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ НЕФТЕДОБЫЧИ КАЗАХСТАНСКИХ НЕФТЕЙ

Туребекова Г.З., Ажибеков К.Ж., Алтамысова Г.Б., Дайрабаева А.Ж.

Все нефти содержат в своём составе некоторое количество парафинов, содержание их колеблется от 0,2 до 30% массы и более. Нефть как сырьё для получения топлива и масел по содержанию парафинов подразделяется на 3 вида: малопарафинистые (до 1,5% парафинов), парафинистые (от 1,5 до 6,0%) и высокопарафинистые (свыше 6,0%). Парафины ограниченно растворимы в нефтях. На их растворимость больше всего влияет температура, с ростом которой возрастает растворимость. Кроме температуры, на растворимость парафинов влияют давление, состав нефти, количество и состав растворённого газа, состав парафинов. Важной характеристикой нефти является температура насыщения её парафинами, при которой из нефти начинают выделяться первые кристаллы парафина. Особенностью нефтей Казахских месторождений является высокое содержание в них парафинов. Выпадение парафинов из раствора отрицательно сказывается при разработке нефтяных месторождений. На образующихся кристаллах парафинов осаждаются смолы, асфальтены, масла и другие компоненты нефти. Размеры таких конгломератов становятся соизмеримыми с размерами пор коллектора (3-10 мкм и более), и при фильтрации каналы малых размеров будут забиваться парафинами, резко снижая проницаемость продуктивного пласта (в предельном случае — до полного прекращения фильтрации). Выпадение парафинов из нефти отрицательно сказывается не только на Призабойной зоне: осаждение парафинов на стенках скважин (парафинизация скважин) и трубопровода (парафинизация трубопровода) приводит к потере ценного продукта переработки нефти (парафин) и мешает нормальному процессу добычи и транспортировки нефти. Для устранения и предупреждения этого предусмотрен ряд мер: промывка скважин горячей нефтью, Подогрев нефти при её транспортировке, добавление в нефть растворителей парафина, поверхностно-активных веществ, препятствующих парафинизации скважин, трубопроводов и др. Отложение парафинов из нефти в призабойной зоне пласта и на поверхности нефтепромыслового оборудования является одним из серьёзных осложнений при эксплуатации скважин. Парафиновые отложения снижают фильтрационные характеристики пласта, закупоривают поры, уменьшают полезное сечение насосно-компрессорных труб и, как следствие, значительно осложняют добычу нефти, увеличивают расход электроэнергии при механизированном способе добычи, приводят к повышенному износу оборудования.

Резиновая промышленность Казахстана располагает весьма ограниченным ассортиментом ингредиентов резиновых смесей. Важным научным направлением нефтехимии является производство пластификаторов, мягчителей, вулканизирующих агентов, наполнителей на основе техногенных отходов. Это позволяет расширить сырьевую базу, использовать большие запасы отходов нефтепереработки, уменьшить экологическую нагрузку на природу и решить проблему производства импортозамещающих мягчителей для резиновой промышленности Казахстана.

В данной работе показаны результаты испытаний парафина, выделенного из нефтешлама ТОО «ПетроКазахстаОйлПродактс» в рецептурах резиновых смесей на основе каучуков общего назначения в качестве мягчителей, с заменой традиционно используемых мягчителей - масла ПН-6Ш и мягчитель АСМГ. По результатам определения технологических свойств было установлено, что парафин оказывает пластифицирующий эффект

Общепринятым является применение в рецептурах резиновых смесей органических и неорганических низкомолекулярных соединений. По эффективности действия полимеры и изделия низкомолекулярных соединений делят на мягчители и пластификаторы. Мягчителями называются низкомолекулярные соединения, снижающие температуру текучести и не влияющие на температуру стеклования каучуков. Пластификаторами

являются низкомолекулярные соединения, снижающие температуру стеклования и температуру текучести каучуков.

Важным требованием к пластификаторам и мягчителям является их низкая стоимость. Большое значение придается также доступности исходного сырья, используемого для их получения. Различные другие требования к пластификаторам и мягчителям (отсутствие вымываемости водой, маслами и т.д.) определяются конкретными условиями, в которых будет работать готовое изделие, содержащее пластификатор и мягчитель.

Путем последовательного изучения влияния на свойства резин содержания каждого из компонентов в отдельности (парафинов разной плотности) при фиксированных количествах других ингредиентов была проведена оптимизация разработанных резиновых смесей для изготовления наполнительного шнура борта легковых шин.

С целью выявления оптимального количества парафина в составе резиновых смесей были получены резиновые смеси с различным содержанием парафинов. Пластификаторы и мягчители были заменены на парафины. Также в рецептурах резиновых смесей в качестве вулканизирующего агента была использована смесь полимерной и коллоидной серы тенгизского месторождения. Вулканизационные характеристики резиновых смесей, полученные на реометре «Монсанто» подтвердили тот факт, что различные дозировки парафинов в качестве мягчителей не оказывают значительного влияния на кинетику вулканизации резиновых смесей. Добавление парафинов в резиновые смеси приводит к уменьшению минимальной вязкости и жесткости системы эластомерной матрицы. Это снижение прямо пропорционально процентному содержанию парафинов. Оптимальное соотношение компонентов, приводящее к снижению минимальной вязкости и увеличению времени начала вулканизации, характеризующие лучшие технологические свойства резиновых смесей, наблюдаются при 5 и 6 массовых частях парафинов для резиновых смесей, предназначенных для наполнительного шнура. Из анализа вулканометрических кривых резиновых смесей следует, что оптимальным временем достижения вулканизации резиновой смеси для резиновой смеси наполнительного шнура составляет 23 минуты. Физико-механические испытания опытных резин привели к выводу о наибольшей целесообразности использования парафинов в рецептурах резиновых смесей для наполнительного шнура бортовых крыльев, так как при замене традиционно используемых мягчителей на парафины показатели свойств резин, соответствует нормам контроля.

Наилучшие результаты наблюдаются при дозировке 5-6 массовых частях парафинов для резиновых смесей, предназначенных для наполнительного шнура. Незначительное снижение прочностных показателей и повышение эластических свойств резин при увеличении дозировки парафинов может быть объяснено механизмом пластифицирующего действия низкомолекулярных соединений парафинов, которые проникают между макромолекулами, тем самым снижая межмолекулярное взаимодействие макромолекул каучука. Незначительное снижение прочностных свойств резин наполнительного крыла не принципиально, так как основную прочность конструкции бортовых крыльев придают бортовые кольца из латунированной проволоки. Таким образом, результаты расширенных испытаний показали возможность замены традиционно используемых в резиновых смесях мягчителей на парафины.

СВЕДЕНИЯ ОБ АВТОРАХ

1. Туребекова Гаухар Захиевна – руководитель Учебно-методического объединения Южно-Казахстанского университета им. М.Ауезова, к.т.н., профессор кафедры «Технология неорганических и нефтехимических производств»;
2. Ажибеков Канат Жубандыкович – д.п.н., профессор кафедры «Транспорт, организация перевозок и движения» Южно-Казахстанского университета им. М.Ауезова;
3. Алпамысова Гулжайна Байконысовна – к.с.-х.н., зав. кафедры «Биотехнология» Южно-Казахстанского университета им. М.Ауезова;
4. Дайрабаева Айгуль Жаксылыковна – ст. преподаватель кафедры «Экология» Южно-Казахстанского университета им. М.Ауезова

GAZLARNI ABSORBENTLAR BILAN TOZALASHDA KO'PIKLANISH JARAYONLARINI TADQIQ QILISH

prof., H.B.Do'stov, prof., V.N.Axmedov, dots., E.R.Panoyev, ass., S. Toshboyev
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
E-mail:panoyev88@inbox.ru

Annotatsiya. Amin tizimlarida ko'piklanish, gazni qayta ishlash zavodlarida eng keng tarqalgan muammolardan hisoblanadi. Ko'pincha u absorber qurilmasida sodir bo'ladi. Ko'piklangan eritma o'zi bilan toza gaz maxsulotini regeneratsiyalashga qo'shib ketishi mumkin. Shuningdek, boshqa qurilmalarda ham kuzatilishi mumkin. Har bir ifloslantiruvchi ko'piklanish tendensiyasiga va ko'pikning barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu maqolada neft gaz-kimyozavodlarida ko'piklanish muammosi muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Amin, ko'piklanish, eritma, absorber, sirt faol moddalar.

Kirish. Tabiiy gaz yoqilg'isi, boshqa qazib olinadigan yoqilg'ilarga qaraganda, jahonda yetakchi o'rinlarda turadi. Tabiiy gaz zaxiralari juda katta bo'lsada, uning ko'p qismi oltingugurt birikmalaridan bo'lgan konlardan keladi. Mamlakatimizning eng yirik "O'zbekneftgaz" AJ kompaniyasiga qarashli zavodlardan hisoblangan Muborak gazni qayta ishlash, Qandim gazni qayta ishlash, Gazli gazni qayta ishlash, Sho'rtan-gaz kimyo majmualari hisoblanadi.

Uglevodorod xomashyosiga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi, konlarni ekspluatatsiya qilish, xomashyoni nordon komponentlardan tozalash, atrof-muhitga ta'siri, qurilma va jihozalar korrozivasi va boshqa holatlarga duch kelmoqda.

Buning asosiylaridan gazlarni nordon komponentlardan amin eritmaları bilan tozalashda ko'piklanish muammosidir.

Konlardan kelayotgan gazlarni tozalash uchun gorizontal va vertikal seperatorlarda ifloslantiruvchi moddalar, sho'r suv, suyuq uglevodorodlar, qum aralashmalaridan tozalanib absorberning pastki qismidan nordon komponentlardan absorbsion tozalash uchun uzatiladi. Absorbent sifatida amin eritmaları (MEA,DEA,TEA, MDEA va boshqalar) ishlatiladi.

Amin eritmaları gazlarni absorbsiyalash jarayonida ko'piklanadi, chunki oddiy ko'pik sirt faol moddalarni ifloslantirish orqali ko'pikka aylanadi. Afsuski, ko'pikka qarshi vositalarning aksariyati sirt faol modda bo'lib hisoblanadi. Ko'pikni nazorat qilishning eng keng tarqalgan usuli bu ko'pikni sindirish uchun aylanma eritma oqimiga ko'pikka qarshi kimyoviy moddalarni qo'shishdir.

Ko'piklanishga qarshi kimyoviy eritmalar sanoat texnologiyasida ko'pik hosil bo'lishini kamaytirish va to'sqinlik qilishdir. Ko'pikka qarshi vositalarning ko'p turlari turli xil xususiyatlarga va ko'pikni yo'q qilish samaradorligiga ega.

Ko'piklanishga ta'sir qilishning fizik usullaridan quyidagilar mavjud: issiqlik ta'siri (isitish, muzlatish, jonli bug' bilan ishlov berish), elektr toki, akustik to'lqinlar (asosan ultratovush), tebranish, ko'pikda yuqori kapillyar bosim hosil qilish va boshqalar.

Ko'piklanish balandligini aniqlash formulasi:

$$H=H_2-H_1$$


Bu yerda H_2 - ko'pikli suyuqlikning balandligi, mm; H_1 - suyuqlikning filtr ustidagi balandligi, mm.

1-jadval

Absorber qurilmasida amin eritmalarining ko'pikli ishlash me'yorlari

<i>Ko'piklanish balandligi, mm</i>	<i>Ko'piklanish qobiliyati</i>
25 dan kam	Past
25–60	O'rtacha
60 dan ortiq	Oshgan
<i>Ko'pikni yo'q qilish vaqti, s</i>	<i>Ko'pikning barqarorligi</i>
15 dan kam	Past
15–60	O'rtacha
60 dan ortiq	Yuqori

Korroziya ingibitor konsentratsiyasining ko'piklanish balandligiga bog'liqlik grafigi 1-rasmda keltirilgan.



1 - rasm. Korroziya ingibitor konsentratsiyasining ko'piklanish balandligiga bog'liqlik grafigi

Rasmda ko'rish mumkinki, ingibitorning konsentratsiyasi 20 mg/l bo'lganda ko'piklanish balandligi 17 mm, 100 mg/l da esa 24 mm tashkil etdi. Bu esa MDEA eritmasining ko'pikli jarayon ko'rsatkich me'yorlari bo'yicha past ko'piklanish qobiliyatini anglatadi va TFO korroziya ingibitori ko'piklanishga moyil emasligidan dalolat beradi.

Yana shuni inobatga olgan holda, tizimga haydaladigan suvda ifloslantiruvchi moddalarning bo'lishi tizimda tiqilishi va ishlatishda ko'plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Jarayonda issiqlikka chidamli tuzlar bo'lmagan bug' kondensati ishlatilsa, ko'piklanish, korroziya, bug'latkich quvurlarining tiqilib qolishi, nasoslarning tiqilib qolishi, issiqlikka chidamli tuzlar qavatining shakllanishi, keyinchalik bug'latkichda issiqlik almashinish samaradorligining pasayishi va umuman amin bo'yicha o'tkazuvchanlik qobiliyatining pasayishi kabi muammolarga yo'l qo'ymaslik kerak.

Shundan xulosa qilish mumkinki, gazlarni aminli tozalashda eritmalarning ko'piklanishida, gaz pufakchalari sirt faol moddalarni ifloslantiruvchi ko'pikka aylanishidir. Ko'piklanishni nazorat qilishning eng keng tarqalgan usuli bu ko'pikni buzadigan aylanma eritma darajasiga ko'pikka qarshi kimyoviy moddalarni kiritishdir.

Adabiyotlar

1. Н. А. Пивоварова, Р. Ф. Гибадуллин, Р. Д. Салмахаев, Т. И. Сасина Исследование пенообразующей способности аминового раствора под влиянием различных примесей *Технические и естественные науки* 2018 г.

2. Чудиевич Д. А., Альгириева Р. Р. Проблема пенообразования на установках очистки газа от кислых компонентов и пути её решения // Вестн. Астрахан. гос. техн. ун-та. 2016. № 1. С. 22–27.

3. Бусыгина Н. В., Бусыгин И. Г. Технология переработки природного газа и газового конденсата: учеб. для высш. шк. Оренбург: Газпромпечат, 2002. 428 с.

4. Чудиевич Д. А., Тараканов Г. В., Пивоварова Н. А. Интенсификация очистки аминового раствора от механических примесей // Проблемы добычи и переработки нефти и газа в перспективе международного сотрудничества учёных Каспийского региона: материалы Междунар. конф. (Астрахань, 2–6 октября 2000 г.). АГТУ. 2000, С. 71.

ШАРОШКАСИЗ PDC БУРҒИЛАРНИНГ ТОҒ ЖИНСЛАРИГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ

*Курбанов А.Т., катта ўқитувчиси,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт институти
E-mail: azizbek.qurbonov88@mail.ru*

Шарошқасиз PDC бурғилар -чуқур қудуқларнинг пастки интерваллари (2500-3000 м) да жойлашган кам, ўрта абразивли ҳамда қаттиқ (оҳактош, аргиллит, зич гил, гилли қумтош, мергел, доломит ва сланец) тоғ жинсларини бурғилашга мўлжалланган. Бу тоғ жинсларини шарошқали бурғиларда бурғиланганда иш унумдорлиги кескин пасаяди. Бундай ҳолатларда шарошқасиз PDC бурғилардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Шарошқасиз PDC бурғи кесувчи тиғлари табиий ва синтетик олмосдан тайёрланган бўлади. Олмоснинг энг арзони: карбонат, колорадо (бразилия техник олмоси). Қора олмослар ҳисобланиб, улар ишлаб чиқаришда кенг қўлланилади. Ишлатишдан аввал олмос доналари бир – бирига ишқаланиб, ясси шаклга келтирилади. Натижада ясси шаклдагиси дастлабкисидан муштақкам бўлади [1,2].

Қудуқларни чуқурлаштириш жараёнида тубда шарошқали бурғининг таянч элементлари ҳамда бурғи тишларининг синган бўлаклари йиғилиб қолади. Шарошқасиз PDC бурғи билан бурғилашда бу металлларнинг бир қисми майдаланади ва ювиш эритмалари ёрдамида ер юзига чиқарилади. Бу металлларнинг бошқа қисми эса ғовак ва қудуқ деворларига кириб қолади. Бурғилаш жараёнида бу мосламалар яна қудуқ тубига тушиши мумкин. Қудуқ тубидаги металллар олмосларнинг жадал ейилишига олиб келиши мумкин. Чуқур нефт ва газ қудуқларини бурғилашда шарошқасиз PDC коронка ишлатилади. Қудуқ тубидаги тоғ жинсларини емириш усулига қараб шарошқасиз PDC коронка икки турга бўлинади.

а)кернасиз бурғилаш учун ялпи коронка;

б)керна олиш учун халқасимон (айланма) коронка.

Ялпи коронкалар ясси кўндаланг кесимли, овал-ботиқ кўндаланг кесимли ва жуда кичик диаметрли керн олиш учун бурғиловчи коронкаларга бўлинади. Бу коронкалар муштақкам ва ўрта қаттиқликдаги тоғ жинсларини бурғилашга мўлжалланган,

Халқасимон коронка эса керн олиш учун қўлланилади. Бу коронкаларнинг гранулаланган, кўп қатламли, импрегнирланган ва бир қатламли каби турлари мавжуд[1].

Шарошқасиз PDC бурғи кукунсимон қаттиқ қотишмадан тайёрланган фасонли каллақдан ва пўлат корпусдан ташкил топган бўлиб, уларни спиралли, радиалли ва поғонали импрегнирланган турлари мавжуд. Шарошқасиз PDC бурғи таркибида шарошқасиз PDC бурғилаш коронкаси ёки бурғи, кернолувчи мослама, коронка ейилганда қудуқ диаметрини сақловчи кенгайтиргич ва бошқа анжомлар бўлади[2,3].



1-расм. Шарошқасиз PDC бурғилар

1-жадвалда “Ўзбекнефтгаз бурғилаш ишлари” МЧЖси нефт ва газ объектларининг кудукларида шарошкали ва шарошкасиз PDC бурғиларни ишлашининг таҳлили келтирилган.

1-жадвал

	Шарошкали долотода	PDC долотода
Жами бурғилаб ўтиш	272 100 м	10 750 м
Жами қазиб ўтилган ораликка сарф қилинган долотолар сони	1839 дона	13 дона
Қазиб ўтиш (ўртача 1 дона долото учун)	148 м	827 м
Ўртача механик тезлик	1,5 м/соат	3,1 м/соат

Шарошкасиз PDC бурғи билан бурғилашдан олдин кудук танаси калибрланади, кудук туби эса ҳар хил металллардан тозаланади. Нефт ва газ кудукларини бурғилашда шарошкасиз PDC бурғилардан оқилона фойдаланиш орқали қуйидаги афзалликларга эришиш мумкин:

- 1) тушириш ва кутариш операцияларининг сонини камайтиради;
- 2) маблағларни тежайди;
- 3) вертикал кудукларни бурғилашда содир бўладиган эгриланишларнинг суръатини камайтиради;
- 4) кудукларни бурғилашда унинг рейс тезлиги юқори бўлишини таъминлайди.

Хулоса қилиб айтганда шарошкасиз PDC бурғилардан фойдаланиш натижасида анча маблағ ва вақт сарфининг олди олинади. Шарошкасиз PDC бурғилар нефт ва газ кудукларини бурғилаш ишларида традицион шарошкали долоталар билан бурғиланганга нисбатан белгиланган муддатидан олдин тугаллаш, маҳсулдор қатламлардан маҳсулот олиш белгиланган муддатдан олдин бошлаш имконини беради

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Булатов А.И., Аветисов А.Г «Справочник инженера по бурению». Москва. Недра. 1995г. 1,2, 3,4том с.49-54
2. Булатов А.И. «Технология бурения» Москва, Недра – 2003 г.с.120-135
3. Вадецкий Ю.В. Бурение нефтяных и газовых скважин. Москва, Академия 2003г.с.140-150

O‘ZBEKISTONDA NEFTNI QAYTA ISHLASH SANOATINING RIVOJLANISHI

A.T.Kurbanov., katta o‘qituvchisi, D.SH.Choriyev., QMII talabasi.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

E-mail: azizbek.qurbonov88@mail.ru tel:90-4270070

Bugungi kunda biz ilk bor haqiqatan ham go‘zal va noyob o‘lkamiz boyliklarini boshqa mamlakatlar vositachiligisiz namoyon eta olamiz. Bizning jahon hamjamiyatiga birlashish sari intilishimiz, tashqi dunyo uchun ochiq ekanligimiz mazkur boyliklardan foydalanish uchun ajoyib imkoniyat yaratmoqda.

Neftni qayta ishlash – neftdan neft mahsulotlari (benzin, kerosin, dizel yonilg‘isi, mazut, moy, bitum, gudron, parafin va boshqalar) olishda qo‘llanadigan texnologik usullar majmuidir. Neftni qayta ishlashda avval neft tarkibidagi suv, tuz va mexanik aralashmalardan tozalanadi,

keyin uni stabillashtirish, yuqori haroratda bug'latib haydash, distillyatlarni tozalash, qo'shimchalar qo'shish va boshqalar bajariladi. Neftni haydash usuli qadimdan ma'lum edi. Bu usul neftdan dori-darmon tayyorlash maqsadida qo'llangan. Qadimgi yunon tabibi Kassiy Feliks va Abu Ali ibn Sino neftni haydashga oid tajribalar o'tkazishgan. Xorazm geografi Bakron (XIII asr) Boku neftini haydash haqida birinchi bo'lib eslatib o'tadi. XVII asrga kelib neft konlarini qidirish va o'riganish munosabati bilan neftni haydashga katta e'tibor berildi. Neftni haydash laboratoriyalari qurildi. 1823-yilda aka-uka Dubininlar Mozdok shahri yaqinida davriy ishlaydigan neftni haydash zavodini qurdilar. Ular kubga quyilgan 40 chelak neftdan 16 chelak haydalgan neft olganlar. Shu tariqa neftni haydash zavodlari taraqqiy eta boshladi.

Mamalakatimizda neftni qayta ishlash sanoatining rivojlanishini quyidagi qayta ishlash zavodlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi — neftni qayta ishlash sanoati korxonasi. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi bosh korxonasi, uning tarkibiga Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi, Pop va Angren neft bazalari kiradi. "O'zneftmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasining sho'ba korxonasi (2003). Yuqori oktanli benzin, shu jumladan, aviataxnik kerosin, dizel yonilg'isi, turli xil motor va dizel moylari (kompressor, turbina.), parafin, motor moylariga qo'shimchalar, bitum, mazut kabi 56 dan ziyod turli neft mahsulotlari ishlab chiqaradi. Zavodning birinchi navbati 1959 yil 27 yanvarda ishga tushirilib, O'rta Osiyoda birinchi marta surkov moylari ishlab chiqarila boshladi. 1965 yildan zavod quvvatlari to'liq ishga tushirildi. 1966 yildan zavodning ikkinchi navbati qurila boshlandi.



1970 yildan zavodda K—12 markali va oktan soni undan yuqori bo'lgan benzin ishlab chiqarila boshlandi. 90-yillar boshidan to'liq O'zbekistonda qazib olingan neftni qayta ishlashga o'tdi. 1992—2004 yillarda "O'zneftgaz" xolding kompaniyasi tarkibida faoliyat ko'rsatdi. Korxonaning O'zbekiston Respublikasining neft mustaqilligini ta'minlashda xizmatlari katta. 2000 yilda zavod to'liq ta'mirlandi, ishlab chiqarish bo'yicha 44 ta texnologik qurilmaga ega. Bir yilda

8,5 mln.t. neftni qayta ishlash quvvatiga ega. 1996—99 yillarda Yaponiyaning "Mitsui" firmasi bilan xamkorlikda dizel yoqilg'isidan oltingugurtni ajratib olish qurilmasi qurilib ishga tushirildi. Zavod ishtirokida yuqori sifatli motor moylari ishlab chiqaradigan "O'zTeksako" va motor moylariga qo'shimchalar ishlab chiqaradigan "Farmoy" O'zbekiston — Amerika qo'shma korxonalari tashkil etildi. Yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish dasturiga muvofiq yangi texnologiyalar uzlashtirilmokda. Oxirgi yillar davomida D va E sinf motor moylari ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ular muvaffaqiyatli sinovdan o'tdi, ularni ishlab chiqarish va qo'llashga ruhsat berildi. Shu bilan birgalikda FNQIZda "Ferganol" seriyali yangi yuqori sifatli motor moylari o'zlashtirilishi nazarda tutilgan.

Buxoro neftni qayta ishlash zavodi. Zavod bir yilda 2,5 million tonna neft va gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega. Uning avtobenzin, aviakerosin, dizel yoqilg'isi, uglevodorod eritgichi, mazut, suyultirilgan gaz, oltingugurt kabi mahsulotlari xaridorgir. Bu yerda mahsulot sifatini yaxshilash, uni xalqaro standartlarga moslash dasturlari bo'yicha yuqori oktanli "AI-91", "AI-95" rusumli avtobenzinlar ishlab chiqarish texnologiyasi o'zlashtirildi. 2008 yil noyabr oyidan boshlab ekologik jihatdan toza va sovuq haroratga chidamli dizel yoqilg'ilari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani yana bir yangilik bo'ldi. Bundan tashqari, "Boing" va "Aerobus" rusumli havo laynerlariga mo'ljallangan "Djet-A-1" rusumli aviatsiya yoqilg'isi ishlab chiqarila boshlandi. Xorijlik ekspertlar sinovidan a'lo darajada o'tgan bu mahsulot "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasiga muntazam ravishda yetkazib berilmoqda. Shuningdek, zavodda "Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi"ga ko'ra, respublikamizda faoliyat yuritayotgan lok-bo'yoq ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun zaruriy xomashyo-uglevodorod eritgichi ishlab

chiqarilmoqda. Zavod to'rtta xalqaro standart sertifikatiga ega bo'lgan Markaziy Osiyodagi yagona korxonaga hisoblanadi. Bu yerda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, xalqaro andozalarga moslashtirish ishlari muntazam olib boriladi. Masalan, Buyuk Britaniyaning "UNIX TECHNO PLUS LTD" kompaniyasi bilan shartnoma tuzilib, dunyoning yetakchi "UOP" va "HONEYWELL" kompaniyalari bilan hamkorlikda qurilmalarni audit qilish, dastlabki iqtisodiy-texnik asoslarni yaratish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan maqsad mahsulot sifatini "Evro-4,5" darajasiga olib chiqish, qolaversa, ikkinchi bosqichda mahsulot qayta ishlanish darajasini 95 foizga yetkazishdir. Bu yerda hozir 135 nafar ishchi-mutaxassis mehnat qilmoqda. Zavod ishlab chiqarish sexlarida ayni kunda 3300 nafar ishchi xodim faoliyat olib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlari.
2. www.bnpz.uz
3. www.google.uz

NEFT VA GAZ QUDUQLARINI BURG'ULASHDA SODIR BO'LADIGAN FAVVORALAR VA ULARNING OLDINI OLISH CHORALARI

Abdiraximov Ilhom Eshboyevich
Qarshi muhandislik- iqtisodiyot instituti
katta o'qituvchi. +998912237468

Annotatsiya: Ushbu maqolada quduqda gaz, neft, suv paydo bo'lishining asosiy sabablari, burg'ulash eritmasi, gaz, neft, suv paydo bo'lishi belgilari, neft va gaz paydo bo'lishida sodir bo'ladigan xavf, neft suvlari va uning xususiyatlari, neft va gaz quduqlarini burg'ulashda quduqda gaz, neft, suv favvoralari paydo bo'lganda ko'riladigan chora-tadbirlar haqida malumotlar keltirilgan.

Tayanch iboralar: burg'ulash, burg'ulash eritmasi, flyuidlar, gazli gorizontlar, ochiq favvora, grifon.

Quduqlarni burg'ulash jarayonida gaz, neft va suv qatlamlari uchraydi. Gaz yoriklar va g'ovakliklar orqali quduqqa o'tadi. Agar qatlam bosimi quduqni to'ldirib turgan burg'ulash eritmasining ustun bosimidan katta bo'lsa, gaz katta kuch bilan quduqdagi suyuqlikni yuqoriga surib chikaradi. Natijada gazli yeki neftli favvora sodir bo'ladi. Bu esa normal burg'ulash jarayonini buzilishiga, ortiqcha texnika va materiallar resursini sarflanishiga, ayrim hollarda esa katta yong'inlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Quduqda gaz, neft, suv paydo bo'lishining asosiy sababi- qatlam bosimi Rqat. quduqdagi bosim Pqud.dan qandaydir Z chuqurligida P2 kattaligida ortib ketishidir. Bunda boshlang'ich bosim gradiyenti Rng va quduq stvolidagi qatlam flyuidi oqimining qarshiligi Rn va Px.o ning oshib ketishi sabab bo'ladi.

$$Pqat > Pqud + \Delta Png; Pgr + Py + Psp + \Delta Px.o = Pqat.$$

Px.o. kattaligi-halqa oralig'ida quduqni yuvish, burg'ulash asbobni tushirish va ko'tarishida, hamda shtutser uskunasi va quduq ustidagi tartiblashtiruvchi ventillarda (Py) oqim yuqotilishi sababli bosim o'zgarishi bilan topiladi.

Burg'ulash eritmasining zichligi yetarli bo'lmaganda, yutilish natijasida uning hajmi kamayib ketganida, quduq ustida qarshi bosimning kamayishi natijasida, burg'ulash tizmasini ko'tarish jarayonida quduqni eritma bilan to'ldirib turilmaganda, qatlam flyuidlarining quduqqa o'tishi ko'tiladi.

Gazli gorizontlarni ochishda quduq devorlari, tuproqli qobiq orqali xam ma'lum bir miqdorda gaz, qatlamdan quduqqa o'tadi. Buning sababi sirkulyatsiya uzoq vaqt to'xtatilishi natijasida diffuzion, termodiffuzion va osmotik jarayonlarning sodir bo'lishidir. Qatlamdan quduqqa o'tadigan gaz kengayishi natijasida burg'ulash eritmasining zichligi pasayib ketadi va

quduqdagi bosim ham kamayadi. Buning natijasida qatlamdagi gaz quduqqa ko'proq o'ta boshlaydi.

Burg'ilash eritmasi tarkibidagi gaz sirkulyatsiya to'xtatilganda va burg'ulash nasoslarining bosimi kamaytirilganda, eritma tarkibidagi gaz to'lik tozalanmaganda ortib ketadi.

Burg'ilash eritmasi tarkibiga, qatlamdagi neft va mineral suvlarning kirishi natijasida, eritmaning zichligi pasayib ketadi, siljishning statik va dinamik kuchlanishi, hamda plastik qovushqoqligi ortib ketadi.

Ochiq favvora, grifon, yong'inlarni bir necha km uzoqlikdan ham bilish mumkin chunki ularning shovqini juda ham baland bo'ladi.

Texnologlar uchun eng katta qiziqish esa gaz, neft, suv paydo bo'lishini eng birinchi belgilaridan bilib olish va 10 minut oldin bo'lsa ham buni oldini olish uchun chora tadbirlar ko'rish masalasi qiziqtiradi.

Gaz, neft, suv paydo bo'lishi belgilari qanchalik oldin aniqlansa uni oldini olish shunchalik oson bo'ladi.

Gaz, neft, suv paydo bo'lishini boshlanishi: - qabul qiluvchi idishlarda suyuqlik sathini ortib ketishi, burg'ulash eritmasi tarkibida neft plyonkasi va gaz pufakchalarining hosil bo'lishi, eritma zichligining pasayib ketishi, reologik xossalarning va filtrat kimyoviy tarkibining o'zgarishi, sirkulyatsiya to'xtatilganda quduq ustidan eritmaning toshib quyilishi, preventorning chiqarish quvurida alanganing yonishi, gazokarotaj stansiyasining signali va ko'rsatmalari, quduq ustida bosimning ortishi bilan aniqlanadi.

Neft va gaz paydo bo'lishida eng katta xavf-yong'in chiqishi, yonuvchi aralashmaning havo bilan aralashishi va zaxarlanishdir.

Neft, yuqori mineralli qatlam suvlari, namokoblar-katta debit bilan chiqsa burg'ulash maydoni atrofidagi territoriyani ifloslantiradi, o'simliklar dunyosi barbod bo'ladi.

Namokoblar hosil bo'lishida, chuqurlikdan yuqoriga chiqishi natijasida tuz kristallari hosil bo'ladi. Namokobning suyuq holatdan quyuk holatiga, keyin esa kattik holatga o'tishi natijasida quduqdagi halqa oralig'ini yopib ko'yishi, sirkulitsiyaning yo'kotilishi, burg'ulash tizmasining qisilib qolishi va quduqni ishdan chiqarishga olib kelishi mumkin.

Qatlamdan chiqadigan flyuidning tarkibini, xossalari va tahlilini ma'lum usullar bilan burg'ulash eritmasining tarkibi va xossalari o'rganish, gazli va xromatografik tahlillar asosida amalga oshirish mumkin.

Neft va gaz quduqlarini burg'ulashda yong'in sodir bo'lganda alanga rangiga qarab qanaqa favvora ekanligini aniqlash mumkin:

Agar alanganing rangi och-sariq rangda bo'lsa-bu to'liq gazli favvora bo'ladi;

Qora tutun va sarg'ish-mallarang bo'lsa - neftli favvora;

Sarg'ish-mallarang va vaqti-vaqti bilan qora tutunli bo'lsa - gaz-neftli favvora bo'ladi.

Neft va gaz quduqlarini burg'ulashda quduqda gaz, neft, suv favvorolari paydo bo'lsa, kuyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim: birinchidan, quduq ustidan nazoratni kuchaytirish; ikkinchidan burg'ulash eritmasining kattaliklari va qabul qiluvchi idishlardagi sathni to'xtovsiz kuzatib turish; uchinchidan shlam tarkibining o'zgarishini o'rganish; to'rtinchidan rezervdagi burg'ulash va shlam nasoslarining ishga yaroqliligini tekshirib ko'rish; beshinchidan otilishga qarshi uskunalar va zaxiradagi burg'ulash eritmasining miqdori va kattaliklarini tekshirib ko'rish; oltinchidan burg'ulash brigadasi, mexaniklar, slesarlar, elektriklar bilan qayta qo'shimcha instruktaj o'tkazish kerak.

Burg'ulash tizmasi orkali gazning harakatlanishini oldini olish uchun tizmaga, kutiladigan bosimga mo'ljallangan teskari klapan o'rnatish kerak.

Burg'ulash eritmasining zichligini shunday tanlash kerakki quduqdagi gidrostatik bosim qatlam bosimidan taxminan 2-15% ortiq bo'lishi kerak. Neft va gaz quduqlarini burg'ulashda

quduqda hosil bo'lgan neft suvlari qattiq noorganik tuzlar hosil qilishi sababli neft qazib olishni qiyinlashtiradi. Buning oldini olish uchun neft suvlari tuzsizlantiriladi yoki neft suvsizlantiriladi. Neft suvlari neft qazib olishni murakkablashtirishi bilan birga shifobaxsh mineral suv sifatida yoki undan yod, brom, bor, radiy, bariy, stronsiy va boshqa qimmatli kimyoviy elementlar ajratib olish bilan foydali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдирахимов, И. Э., Курбанов, А. Т., Буронов, Ф. Э., & Самадов, А. Х. (2019). Технология переработки тяжелых нефтей и нефтяных остатков путем применения криолиза. *Аллея науки*, 3(12), 310-314.
2. Абдирахимов, И. Э., & Буронов, Ф. Э. (2018). Использование твердофазной спектrophотометрии для определения ионов рения в нефтепродуктах. In *Современные твердофазные технологии: теория, практика и инновационный менеджмент* (pp. 337-339).

АНТИКОРРОЗИЙНАЯ ЗАЩИТА ОБОРУДОВАНИЯ В ПРОМЫСЛАХ НЕФТИ И ГАЗА

*Салохиддинов Фарход Абдираззокович
старший преподаватель*

Каршинский инженерно-экономический институт

Ключевые слова: ингибиторы коррозии, ингибиторы-пассиваторы, соли имидазолинов, имидазолиновый ингибитор

Аннотация: *Коррозия металла в оборудовании нефтегазовых месторождений и системы нефтегазосбора многих месторождений приводит ежегодно к миллиардным убыткам. Следовательно, необходимо создание новых ингибиторных композиций на основе доступного нефтехимического сырья, которые могли бы обеспечивать высокий защитный эффект в широком диапазоне условий применения либо улучшение качества уже существующих составов.*

Современные нефтегазодобывающие отрасли характеризуются использованием установок большой единичной мощности и технологических сред с высокой коррозионной агрессивностью. Продолжительность межремонтных пробегов установок в значительной степени определяется коррозионной стойкостью оборудования. В основном из-за коррозии сталей происходят внеплановые остановки, аварии и, как следствие, потери сырья и металлов. Только за один год в мире «съедается» коррозией 1,5 % металла, применяемого в промышленности, транспорте, строительстве.

Применение ингибиторов – один из самых эффективных способов борьбы с коррозией металлов в различных агрессивных средах [3].

Ингибиторы – это вещества, способные в малых количествах замедлять протекание химических процессов или останавливать их. Ингибирующее воздействие на металлы, прежде всего на сталь, оказывает целый ряд неорганических и органических веществ, которые часто добавляются в среду, вызывающую коррозию. Ингибиторы имеют свойство создавать на поверхности металла очень тонкую пленку, защищающую металл от коррозии.

При этом к ингибиторам коррозии предъявляются определенные требования. Ингибитор должен обеспечить требуемое защитное действие при тестировании в модельных системах как в условиях высоких давлений и температур, так и при обычных условиях — температуре +40 °С и нормальном атмосферном давлении, а также в условиях высоких скоростей потока и наличия в нем абразивных частиц.

Ингибитор должен обладать низкой температурой застывания (не менее – 50 °С), хорошей растворимостью в коррозионной среде и высокой адсорбционной способностью. Ингибитор не должен влиять на стабилизацию водонефтяных эмульсий.

Поэтому следует обратить внимание на то, что необходимо тщательно подбирать ингибиторы для конкретных условий эксплуатации, от этого в значительной мере зависят эффективность и экономичность.

По механизму действия ингибиторы делятся на адсорбционные и пассивационные.

Ингибиторы-пассиваторы вызывают формирование на поверхности металла защитной пленки и способствуют переходу металла в пассивное состояние. Наиболее широко пассиваторы применяются для борьбы с коррозией в нейтральных или близких к ним средах, где коррозия протекает преимущественно с кислородной деполяризацией. Механизм действия таких ингибиторов различен и в значительной степени определяется их химическим составом и строением.


Частицы адсорбционных ингибиторов (в зависимости от строения ингибитора и состава среды они могут быть в виде катионов, анионов и нейтральных молекул), электростатически или химически взаимодействуя с поверхностью металла (физическая адсорбция или хемосорбция соответственно), закрепляются на ней, что приводит к торможению коррозионного процесса.

Следовательно, эффективность ингибирующего действия большинства органических соединений определяется их адсорбционной способностью при контакте с поверхностью металла. Как правило, эта способность достаточно велика из-за наличия в молекулах атомов или функциональных групп, обеспечивающих активное адсорбционное взаимодействие ингибитора с металлом. Такими активными группами могут быть азот-, серо-, кислород- и фосфорсодержащие группы, которые адсорбируются на металле благодаря донорно-акцепторным и водородным связям.

Соли имидазолинов – эффективные ингибиторы коррозии – описаны Стерлином и Лавизи, причем Стерлин считает, что эффективными ингибиторами коррозии являются имидазолиновые соли себациновой, Лавизи – салициловой, а Хьюз – олеиновой кислоты. Риггс для предотвращения коррозии в нефтяных скважинах применяет алкиларилсульфоновую соль имидазолина. Часто используются имидазолиновые соли тех кислот, которые применяются для реакции с аминами, имеющими прямые углеводородные цепи. Смешанные соли имидазолинов (например, олеиновой и димерной кислот) также являются эффективными ингибиторами.

В литературе сообщается о ряде интересных производных имидазолинов, используемых в качестве ингибиторов коррозии. Хьюз, например, получил имидазолидиноны и имидазолидинтионы взаимодействием тетраэтиленпентамина с мочевиной или с тиомочевиной. Получившимся продуктам дают возможность снова реагировать с мочевиной или с тиомочевиной, либо же с монокарбоновой кислотой или альдегидом.

Конечный продукт имеет структуру $C(=Y)NHCH_2CH_2NCH_2CH_2NHCH_2CH_2R$.



где Y – кислород или сера, R – замещенный имидазолидинон или его соль или замещенный имидазолидин.

Другие интересные производные имидазолинов, полученные Хьюзом, – диймидазолины и диймидазолинмоно- (или ди)-пирролиндионы. Хьюз также упоминает об использовании в качестве ингибиторов коррозии имидазолиноксалинов, амидов или имидазолиновых производных диймидазолинов. Он получил эффективные ингибиторы при

взаимодействии малеинового ангидрида с имидазолинами; эффективными ингибиторами считаются также и имидазолинимидазолидины[4].

Было установлено, что имидазолины являются эффективными ингибиторами коррозии мягкой стали, а также коррозии других видов металлов и сплавов в углеводороде, смесях масла/солевого раствора и водных систем в различных условиях. Использование такого ингибитора наиболее эффективно в так называемых малосернистых системах или системах, имеющих высокое содержание CO_2 . Однако такие системы также могут быть использованы в высокосернистых условиях, т.е. с высоким содержанием H_2S . Несмотря на то, что трубопроводы могут быть использованы для транспортировки различных жидкостей, заявляемый имидазолиновый ингибитор может быть использован в различных условиях.

Список литературы

1. Розенфельд И.Л. Ингибиторы коррозии. – М.: Химия, 1977. – 352с.
2. Чухарева Н.В., Абрамова Р.Н., Болсуновская Л.М. - Коррозионные повреждения при транспорте скважинной продукции. – Томск, 2009. – С. 5–6.
3. Саакян Л.С., Ефремов А.П. Защита нефтепромыслового оборудования от коррозии. – М.: Недра, 1982. – 227с
4. Улиг Г.Г., Ревя Р.У. Коррозия и борьба с ней. - Л.: Химия, 2000. – С. 30 – 35.

ОТРАСЛЕВЫЕ ТРЕБОВАНИЕ ПРЕДЪЯВЛЕМОЙ ТОВАРНОЙ ПРОДУКЦИИ ГАЗОКОНДЕНСАТНОГО ПРОМЫСЛА

*Салохиддинов Фарход Абдираззокович
старший преподаватель*

Каршинский инженерно-экономический институт

Газовые и газоконденсатные промыслы представляют собой распределенную систему с многочисленными контролируруемыми объектами добычи, подготовки и сбора газа и конденсата.

Месторождения природного газа в зависимости от состава пластовой продукции условно можно разделить на газовые и газоконденсатные.

В продукции газовых месторождений содержание конденсата минимально; при подготовке к транспорту таких газов не требуется их обработка с целью извлечения тяжелых углеводородов. Подготовка к транспорту продукции газовых месторождений включает в себя извлечение не только влаги из газа, но в случае необходимости и кислых компонентов. Общим для всех схем является также очистка газа от механических примесей и остатков различных ингибиторов, используемых в системе добычи и сбора газа.

Продукция газоконденсатных месторождений перед подачей в магистральные газопроводы должна подвергаться обработке для извлечения из нее наряду с влагой конденсата (пентана и более тяжелых углеводородов).

Надежность эксплуатации газотранспортных систем, составной частью которого является УКПГ, выдвигает определенные требования к процессам подготовки газов к транспорту. Основное из них - установление точек росы газа по воде и углеводородам, обеспечивающих бесперебойную работу ГТС с высокими технико-экономическими показателями. Необходимость в более глубокой переработке газа должна определяться на основании технико-экономических расчетов с учетом эффективности использования ресурсов газа в различных отраслях народного хозяйства.

Вопросы, связанные с определением точек росы газа, обеспечивающих надежность работы магистральных газопроводов, были предметом исследований многих ученых. Внедрение результатов их работ в практику позволило сформулировать ряд общих требований к технологии обработки газа. Эти требования учитывают режим эксплуатации МГ, эффективность работы технологических установок и их оборудования, ретроградную

конденсацию тяжелых углеводородов, а также возможность образования конденсационного гликоля в ГТС.

Качественные показатели товарных газов условно можно разделить на три группы. К первой группе можно отнести точки росы по воде и углеводородам, а также массу механических примесей и труднолетучих жидкостей в газе. Основным принципом установления этих показателей является обеспечение бесперебойной подачи газа потребителям при высокой гидравлической эффективности работы газопроводов.

Показатели второй группы характеризуют потребительские свойства газа. К ним можно отнести теплоту сгорания газа и содержание сернистых соединений в нем. Теплота сгорания газа наряду с КПД горелочных устройств является основным показателем, характеризующим удельный расход газа. Практически природные газы всех ныне эксплуатируемых месторождений по этому показателю выдерживают требования ОСТа. При определенном суммарном содержании в газе азота и диоксида углерода теплота сгорания газов станет ниже ОСТовского показателя.

Концентрация сернистых соединений в газе влияет на интенсивность коррозии металла трубопроводов и, следовательно, на срок их службы. Кроме того, низкие значения этого показателя необходимы для снижения вредного воздействия продуктов сгорания газа на организм человека.

При использовании газа в качестве химического сырья могут устанавливаться более низкие значения сернистых соединений в газе.

Объемная доля кислорода в газе - основной показатель, характеризующий безопасность потребления. При определенных концентрациях кислорода в газе образуется взрывоопасная смесь, что недопустимо. Практически нет ни одного месторождения природного газа, где содержание кислорода было бы близко к величине, регламентированной ОСТом.

На безопасную эксплуатацию ГТС влияют также точка росы газа и содержание механических примесей и труднолетучих жидкостей, так как при их определенных значениях в системе могут произойти аварии. То же касается и сернистых соединений. При определенных концентрациях сернистые соединения могут усиливать коррозию в системе, особенно при наличии в ней капельной влаги.

Рекомендуемая концепция по определению точек росы газа включает в себя учет влияния снижения давления и температуры газа при его транспортировке на равновесное содержание паров воды, гликоля и метанола в газе и ретроградную конденсацию тяжелых углеводородов.

Профиль трассы и скорость газа должны обеспечить вынос жидкой фазы, т.е., исключить ее накопление на отдельных участках газопроводов. Во всех случаях имеется в виду, что жидкая фаза не должна образовывать гидраты с транспортируемым газом.

Таким образом, определяющим фактором, обуславливающим выбор точек росы газа по воде и углеводородам, является режим эксплуатации газопровода, который должен обеспечить бесперебойную подачу газа потребителям при минимальных гидравлических потерях. В связи с этим, прежде чем изложить основные концепции установления качественных показателей газа, необходимо рассмотреть режим эксплуатации магистрального газопровода.

Литература:

1. А.К.Мановян. Технология первичной переработки нефти и природного газа. М.: Химия, 2001.
2. Бекиров Т.М. Первичная переработка природных газов. М.: Химия, 1987 г.
3. Николаев В.В., Бусычина Н.В., Бусычин И.Г. Основные процессы физической и физико-химической переработки газа. М., АОА. «Недра», 1998

ГАЗ СУЮҚЛИК АРАЛАШМАСИНИ ДРОСЕЛЛАШ БЛОКИНИНГ ТАҲЛИЛИ

*Қурбанов А.Т., катта ўқитувчиси,
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти
E-mail: azizbek.qurbonov88@mail.ru tel:90-4270070*

Газ суюқлик аралашмасини дроселлаш блокини қудуқ усти боғланмасининг схемасирасмда келтирилган.

“Қудуқ-қатлам” босимининг мувозанатда ва депрессияда бурғилаш технологиясини қўллаш отилмага қарши қурилмани герметикликка синаш ва махсус жиҳозлар билан монтаж қилиш тугаллангандан кейин бошланади.

Бурғи биринчи рейсни бажарганда мустаҳкамлаш тизмаси бошмоқ тагидан чиққандан кейин қуйидагилар аниқланади:

- белгиланган бурғилашдаги қатламнинг босими;
- қудуқ стволи очик бўлганда максимал рухсат этилган босим катталигида (ютилишни бошланиш босимига) қудуқнинг стволини босим остида сиқиш амалга оширилади;
- айланувчи превенторнинг резина метали зичламаларининг қаршилиқ кучини;
- циркуляция тўхтатилгандан кейин монөфольдаги қолдиқ босим;
- қувур орқа ҳалқасидаги гидравлик қаршилиқ;


Юқорида аниқлаштирилган маълумотлар асосида қуйидагилар амалга оширилади: қатлам босимининг градинтини ва ютилишнинг бошланиш босимини олдиндан тезкор аниқлаш; бурғилаш эритмасининг зичлигини катталигини коррекциялаш (тузатиш); гидравлик оғирлик индикатори кўрсаткичини коррекциялаш.[1]

“Қудуқ-қатлам” тизимида белгиланган депрессия ёки мувозанат босимини ушлаб туриш регламентда келтирилган бурғилаш эритмасининг зичлиги ($\rho_{кел}$), қудуқнинг ҳалқа оралиғидаги гидродинамик қаршилиқни, тушириш-кўтаришда ва бурғилаш эритмасининг циркуляциясини ҳамда қудуқ усти босимининг катталигининг мавжудлигини ҳисобга олиш йўли орқали амалга оширилади.

Юқорида келтирилган мулоҳазаларга мувофиқ қуйидаги вариантларни кўриб чиқамиз:

- депрессияда бурғилаш статик босимда ҳам динамик босим шароитида ҳам қатламнинг очиладиган ҳамма оралиқлари $N_{кр}$ дан $N_{қуд.г}$ бўлган чуқурликларида қўллаш мумкин;

- депрессияда бурғилаш ҳар қандай $N_{жор}$ жорий чуқурликда ($N_{қуд}-N_{жор}$) оралиқда олиб борилади, динамик шароитда қатламга депрессия сақланади.



“Кудуқ-қатлам” тизимида депрессия ва мувозанат босимда кудуқни бурғилашда жиҳозларнинг боғланмаси ва жойлашув схемаси.

1-икки томони ёпиқ плашкали превентор; 2-қувур плашкали превентор; 3-универсал превентор; 4-айланувчи превентор; 5-қудуқ усти бошқарув блоки; 6-дроселлаш блокни бошқарув пульти; 7-сундириш ва дроселлаш блоки; 8-ажратғич; 9-тозалаш блоки; 10-100 мм.ли манифольд.

- ГНСТҚ лардаги ораликларни очишда фақат статик депрессия ушлаб турилади, ювишда эса – репрессия ушлаб турилади.

- статик депрессия маълум $H_{ур}$ ораликларда ушланиб турилади, кудуқни чуқурлаштиришни давом эттиришда қатламни бурғилаш статик ва динамик репрессияларда олиб борилади. [2]

- бурғилаш эритмасининг зичлиги кўпгина ҳолатларда қатлам флюидининг зичлигидан юқори бўлган шароитда ўзгарувчан депрессияда ёки репрессияда олиб борилади, кудуқнинг устига эса ортиқча босим ушлаб турилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Криц В.Г., Шадрин А.В. Основы нефтегазового дела. Томск. Издательство Томского политехнического университета, 2010. 182 стр.
2. Кудинов В.И. «Основы нефтегазопромышленного дела» - Москва – Ижевск. 2005, 720 ст.

ZAMONAVIY KERN OLISH ASBOBLARINING KONSTRUKTSION TUZILISHI VA AFZALLIKLARINI ASOSLASH

Samadov A.X. “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, e-mail: azizbek_samadov1986@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada neft va gaz sanoatining asosiy ustuni bo‘lgan neft va gaz konlarini geologik – izlov ishlarini amalga oshirishda, quduqlardan kern olish orqali qatlamlarni to‘liqroq o‘rganish mumkin. Bu esa o‘z navbatida quduqlarni samarali burg‘ilash, ularni o‘z vaqtida ishga tushirish va burg‘ilash jarayonida avariyalarni oldini olish, mumkin. Maqolada burg‘ilash sanoati jihoz uskunalarini rivojlantirish, burg‘ilarning zamonaviy va innovation ishlanmalarini yaratish va ushbu zamonaviy burg‘ilar orqali quduqlarni kam vaqt, eng tejamkor va samarali burg‘ilash imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit soʻzlar: burgʻi, PDC burgʻi, kern, burgʻilash sanoati, togʻ jinslari, yangi texnologiyalar, shlam.

Geologik qidiruv quduqlarini burgʻilab oʻtishda ulardan namuna, yaʼni kern olinadi. Olingan kernlar laboratoriyada tekshirilib, tahlil qilinadi. Kern yer kurrasining yuqori qobiqlarini oʻrganishda, geologiya ilmini taraqqiy ettirishda muhim ahamiyatga ega.



1- rasm. PDC burgʻilash kallagi.



2- rasm. TSP burgʻilash kallagi.




3- rasm. Qirralari olmosli burgʻilash kallagi.

Kern olish orqali quduqlarini burgʻilash butun dunyoda mineral foydali qazilmalarga geologik qidiruv ishlarini olib borishda ham, muhandislik-geologik qidiruvlarda ham keng qoʻllanilmoqda. Kern olish orqali quduqlarini burgʻilashda asosiy vazifa togʻ jinsining namunasi (kern) olishdir, keyinchalik u togʻ jinsining tuzilishi, qattiqligi, tarkibi va boshqa parametrlarni aniqlash uchun tahlil qilinadi. Quduqdan kern chiqarish uchun turli kolonkali quvurlar mavjud, masalan: standart kolonkali quvurlar (bir, ikki va uch tomonlama), shuningdek, olinadigan yechib olinadigan kern qabul qiluvchi ikkitali quvurlar.

Standartli kolonkali quvurlar bilan quduqlarini burgʻilashda kernni chiqarish uchun quduqdan burgʻilash quvurlarining butun tizmasini koʻtarish lozim, bu ayniqsa chuqur quduqlarini burgʻilashda bu koʻp vaqt oladi. Shuning uchun standart kolonkali quvurlar koʻpincha sayoz quduqlarini burgʻilash uchun, shuningdek muhandislik va geologik tadqiqotlar oʻtkazishda ishlatiladi.

Ajratiladigan kern qabul qiluvchisi boʻlgan ikki tomonlama kolonkali quvurlar oʻta samarali burgʻilash asbobidir, shuningdek, butun burgʻilash quvurlarini yuqoriga koʻtarmasdan kern olib chiqish imkonini beradi. Kernni burgʻilash quvurlarining tizmasi orqali koʻtarish uchun chigʻirga maxsus overshoot qoʻyiladi, u poʻlat arqonga maxkamlab, ichki kolonkali quvurni kern bilan birgalikda yer yuzasiga chiqariladi. Mazkur jarayon butun burgʻilash quvurlar tizmasini koʻtarishdan kam vaqt oladi. Shu sababga koʻra ikki tomonlama kolonkali quvurlar koʻp oʻrinlarda chuqur geologik qidiruv quduqlarini burgʻilashda foydalaniladi, shuningdek, katta vaqtni tejash imkonini beradi va burgʻilash ishlarini olib borishning umumiy samaradorligini oshiradi.



4- rasm. Koronkali quvur.**5- rasm. Ikki kolonkali quvur.****6- rasm. Uch kolonkali quvur.**


Koronkalar – Koronkalar tog` jinsini parchalovchi asbob bo`lib, kern olish orqali quduqlarni burg`ilashda foydalaniladi. Konstruksiyasi, kesuvchi materiallari va oqilona foydalanish sohaslarida farqlanadigan juda xilma-xil burg`ilash koronkalari mavjud.

Ikkitali kolonkali burg`ilar – Ikki kolonkali quvurlar ko`p o`rinlarda muhandislik qidiruvlarda foydalaniladi, shuningdek, buzilmagan tuzilishda yuqori sifatli kern olib chiqish imkonini beradi. Ikki kolonkali quvurlarning asosiy ustunligi shundan iborat: burg`ilashda ichki quvur aylanmaydi ishqalanish ta`sirida, vibratsiya va yuvish suyuqligi bilan kernni buzmaydi, uni to`xtatilmagan holda qoldirmaydi. Ikki kolonkali quvurlar burg`ilanadigan tog` jinslarining xossalari va kernning zarur diametriga qarab turli o`lcham va turda ishlab chiqariladi. Mazkur quvurlar burg`ilash shtangalari va burg`ilash dastgohlari bilan birgalikda oson foydalanishi mumkin.

Uchli kolonkali burg`ilar – Uchta kolonka quvuri bilan burg`ilash sifatli kern olishning, ayniqsa, beqaror, yopishqoq, mo`rt va yumshoq tog` jinslarida o`ta samarali usulidir. Uchtali kolonkali quvur kern chiqarilishining deyarli 100 foiziga erishish imkonini beradi. Uchinchi kern qabul qiluvchi quvur shaffof plastikdan ishlab chiqarilgan va to`liq buzilmagan tuzilmani tabiiy holatda kern olish imkonini beradi. Ichki quvurdan kernni olib chiqarish plastik kern qabul qiluvchi bilan birga tezkorlikda amalga oshiriladi, shundan so`ng ikki tomonidan tiqinlar bilan muhrlanadi va ushbu holatda laboratoriyaga yetkazib beriladi.

Halliburton kompaniyasi mo`rt qatlamdan juda qattiq va abraziv tog` jinslarigacha bo`lgan qatlamlarda qo`llanilishi mumkin bo`lgan asosiy namuna olish texnologiyalarining to`liq spektrini taklif etadi. Butun dunyoda har yili 400 dan ortiq kern olish ishlarini amalga oshiradi va kern olish dunyo bo`yicha o`rtacha 94% ni tashkil etadi.

Kern ko`taruvchi uskunalar tuzilishi va ishlatish sharoiti jihatidan bir qancha toifaga bo`linadi.



7-rasm. Kern oluvchi uskunaning umumiy ko`rinishi:

1-tartibga soluvchi kallak; 2-podshipnik bo`g`ini; 3-korpus; 4-kernuzgich, 5-shurf.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзаев Э.С., Самадов А.Х., Шоназаров Э.Б., Камолов Б.С., Солестойкие буровые растворы. Научный журнал-Международный академический вестник. г.Уфа. 2020. № 12 (44). с.100-102.

2. Самадов А.Х., Шоназаров Э.Б., Пардакулов И.А., Шукуров А.Ш., Бурение и крепление скважин в солях // Школа Науки/Научный журнал. Москва 2020. № 6 (31) 35-36 с.

3. Samadov A.X., Boboyorova N.A, Majidov M.B., Nematova R.SH.. Evaluation of the effect of the composition of drilling solution on the collective property of the layer./International Journal for Innovative Engineering and Management Research/www.ijiemr.org/Volume 10, Issue 01, Pages: 199-202.Paper Authors.

4. Мирзаев Э.С., Самадов А.Х. “Обоснование применения облегченной буровой смеси, используемой при бурении пластов низкого давления” Электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум» <http://www.iupr.ru> стр 764-768.

ГАЗ ЁРДАМИДА ҚУДУҚЛАРНИ БУРҒИЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Курбанов А.Т., катта ўқитувчиси,
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти
E-mail: azizbek.qurbonov88@mail.ru tel:90-4270070

Аномал паст босимли қатлам шароитида ҳаво ҳайдаб нефт қатламларини очиш бўйича энг кўп экспериментлар Михайлов майдонида (Башқир нефт СБ) олиб борилган. Бурғилаш натижасида ҳаво ҳайдаб тугалланган қудуқларнинг солиштирма маҳсулдорлиги гилли эритма қўлланилиб тугалланган қудуқларга нисбатан 3-5 марта юқори бўлган.

Ҳозирги пайтда мустақкам тоғ жинс ораликларини жадал сувнефтгаз пайдо бўлмаган шароитларида газдан фойдаланиб, бурғилаш жараёнларини олиб бориб юқори самарадорликка эришилганлиги ҳақиқатдир. Лекин газлилик қатламларини очишда баъзида ҳаводан фойдаланишларда чегараланишлар мавжуд бўлади, бунга мураккаблик ва аварияларни пайдо бўлиши, иссиқ аралашмаларни қудуқ ичида ёниши ҳамда қудуқнинг стволлида газ пайдо бўлиши билан боғлиқдир.[1]

1-жадвал.

Ҳаво ҳайдаб ва гилли эритма билан ювилган қудуқларни бурғилаш маълумотлари

Кўрсаткичлар	Қудуқлар							
	45	6Б	630Д	640Д	652	624	324	314
Бурғилаш усули	Турбинали	Роторли	Турбинали	Роторли	Электробур	Электробур	Турбинали	Роторли
Ювувчи агентнинг тури	Гилли	Ҳаво	Гилли	Ҳаво	Гилли	Ҳаво	Гилли	Ҳаво
Бурғилаш оралиғи, м	382-1070	350-1065	1252-1468	1254-1469	180-1328	165-1320	280-1509	283-1503
Сарфланган бурғилар сони	46	4	17	2	27	3	46	4
Бурғини ўтиши, м	15,5	225	12,7	107,5	43,3	385	26	366
Механик бурғилаш тезлиги, м/соат	6,6	19,2	3,5	17,2	7,3	28,8	5,3	10,3

Кўпгина тадқиқот ишларни таҳлил қилганимизда ҳаво билан қудуқ стволлари бурғиланганда қатламдаги карбонсувчил флюидларнинг алангаланиши ҳамда қирқимда учрайдиган кучли зарарни газларни нейтраллаштириш муаммолари етарли даражада ўрганилмаган.

Бугунги кунда жаҳон амалиётида газсимон агентлардан фойдаланиб кудукларни бурғилаш ва таъмирлаш ишларини кучайтириш тенденцияси, газсимон агентлардан фойдаланиш технологиясини ишлатиш муаммолари, газ конларида технологик жараёнлар қўлланилганда портлашларни келиб чиқармаслик муаммоларини долзарб ҳисоблаш мумкин. Бундай муаммоларини долзарб ҳисоблаш мумкин. Бундай муаммоларни ечимини топиш нефт ва газ саноатида жуда ҳам муҳимдир.

Нефтьгаз қазиб олишда ҳавони инертгазлар билан алмаштириш муаммоси сўнгги даврларгача суюқлик ёки газсимон азотлардан фойдаланиш йўллари орқали ҳал қилинган. Газланган кислоталардан ва газ азот тизимидан фойдаланиш технологиясини кейинги мавзуларда батафсил кўриб чиқамиз. Суюқ ёки газсимон азотдан фойдаланишда агрегатларни қўллаш технологияси фақат АКШ ва Россия давлатларида эмас балким республикамизда ҳам маҳсулдор қатламларни ўзлаштиришда ҳам қўлланилмоқда.

Кудукларни ўзлаштириш бўйича ИЁД (ички ёнув двигатель) ларнинг газидан фойдаланишнинг учта модификация қурилмаси ишланди.

Д12 дизел моторидан ёнган газни олиш қурилмаси 2ВМ4-9/11 компрессорнинг ишига олиб келувчи СД-9/101 компрессор станцияси.

ЯМЗ-238 дизел моторидан ёнган газни олувчи қурилма СД-9/101 компрессор станциясига тиркалма двигател сифатида хизмат қилади.

Автомобил тиркамасидаги мобил қурилмаси ИЁДнинг газидан ҳар қандай (бурғилаш қурилмаси, дизел-генератор станциясидан) манбадан олиб фойдаланади. [2]

Биринчи икки турдаги модификацияларнинг конструктив хусусияти ёнган газни икки усулда олади. Д12 дизел-моторидан ёнган газни олишда олинадиган газнинг ҳарорати 250-450°С гача кўтарилади, жанубий районларда (Ўзбекистон шароитида) ёзда совутиш учун термик экранли алюминий қувурлардан (ташки ҳарорат +35°С юқори бўлганда) фойдаланилади.

ЯМЗ-238 дизел-мотордан ёнган газларни олишда олинадиган газнинг ҳарорати 70-80 °С-дан ошиб кетмайди, Д12 дизел-мотордан олинадиган газга нисбатан тоза ҳисобланади. Бундай модификациядаги қурилма сув билан суғориш учун термик экранли алюминий қувурларни талаб қилмайди.

Кўрсатилган қурилмалар кенг қамровли саноат синовидан ўтказилган ҳозирги вақтда кенг миқёсда қўлланилмоқда. Уларни амалий ютуғи дизел-моторларда ёнган газларнинг таркибида кислороднинг миқдори 3% дан ошмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Аминов А.М., «Нефт ва газ кудукларини куриш асослари», Дарслик – Тошкент, 2010 й.

2.Басарыгин Ю.М., Будников В.Ф., Булатов А.И., Проселков Ю.М. – «Технологические основы освоения и глушения нефтяных и газовых скважин» Учебник для ВУЗов, Москва, ООО «Недра-Бизнесцентр», 2001 г., - 345 стр.

КОНЛАРНИ ГОРИЗОНТАЛ ҚУДУҚЛАР БИЛАН ИШЛАТИШДА ҚАТЛАМГА КОМБИНАЦИЯЛАНГАН УСУЛЛАРДА ТАЪСИР ҚИЛИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Самадов А.Х.

*“Технологик машиналар ва жиҳозлар” кафедраси катта ўқитувчиси Қарши
муҳандислик иқтисодиёт институти
e-mail: azizbek_samadov1986@mail.ru*

Маҳсулдор қатламларни горизонтал қудуқлар билан очиш уни истиқболда самарали ишлатиш масаласи ўта долзарб ҳисобланади, чунки қатламларни горизонтал ҳолатда қирқишда горизонтал участканинг йўналиши тўғри олинмаганда бирор контакт чегарасига нотўғри кетганда газ ёки сув оқимининг кириб келиши муқаррардир. Мақолада

горизонтал участкани йўналишини олиш бўйича ҳамда икки ёки уч қатламли конларни ишлатиш бўйича таклифлар кўриб чиқилган.

Калим сўзлар: сувланганлик, газ контакти, комбинацияли усул, иссиқлик усули, қовушқоқли, тўлқинли таъсир.

Конлар жадал ва узоқ муддатли ишлатилганда фаол углеводород захиралари аста секин қуриб боради (қатламдаги маҳсулот) ҳамда нефть қазиб чиқариш кўрсаткичи пасайиб кетади. Кейинги даврда конларни ишлатишнинг янги технологиялари пайдо бўлди, яъни қудуқларнинг сувланганлигини пасайтириш ва нефть қатламларини ишлатишни жадаллаштиришга йўналтирилган ҳамда кам ўтказувчан ва сўнгги босқичдаги конларни ишлатишнинг имкониятини бермоқда.

Нефтбераолишликни оширишнинг анъанавий усуллари алоҳида интеграллаштиришни ёки комбинациялашган усуллар (бир нечта усуллар биргаликда қўлланилади) орқали маҳсулдор қатламга биргаликда таъсир этилади. Бунда алоҳида қўлланилган усулга нисбатан юқори жамланмага эга бўлган самарадорликни олишнинг имконияти пайдо бўлади.

Қўйилган масалани ҳал қилиш учун горизонтал қудуқлар тизимидан фойдаланиш ҳамда маҳсулдор қатламга комплекс иссиқлик ва тўлқинли усулларда таъсир қилишни амалга ошириш таклиф қилинади. Таклиф этиладиган бу ёндошишнинг афзаллиги қатламга ҳайдаладиган ишчи агентнинг энергиясининг бир қисми тўлқинларни нурлантиригич асбоби орқали қатламда эластик тўлқинли энергияни шакллантиради (бундай усул тик қудуқларда самарали қўлланилган). Бунда шаклландиган тўлқинли майдон ҳар хил коллекторлик хоссасига эга бўлган қатламга таъсир этишнинг жадал бошқариш имкониятини беради ва маълум технологик жараёнларни бузмасдан бошқа турдаги ишлов бериш усуллари билан енгил бирлашади. Иссиқлик ташигич сифатида газдан ва суюқликдан фойдаланиш мумкин. Худди шундай технологияни тик ва горизонтал қудуқларда қўллашнинг имконияти мавжуд [1].


Ҳозирги вақтда нефть конларида горизонтал қудуқларни бурғилаш оптимал ишлатиш тизимларини шакллантиришда ва сўнгги босқичда ишлатилаётган конларнинг маҳсулдорлигини тиклашнинг самарали усулларида бири ҳисобланади.

Горизонтал қудуқларни қурилиши тик қудуқларга нисбатан қиммат бўлишига қарамасдан уларни қўллаш кўпгина афзалликларга эга: конларда умумий қудуқларнинг сонини камайтириш; нефть қазиб чиқариш кўрстагичини ўсиши; нефть қатламларидаги янги уюмларни ва юқори қовушқоқли нефтларни қазиб олишни амалга оширишнинг мумкинлиги .

Нефть ва битумли конларни ўзлаштиришнинг истиқболли йўналиши уюмларни ишлатишда горизонтал қудуқларни қўлланилиши ҳисобланади.

Горизонтал қудуқларда гидродинамик нуқтаи назардан қарайдиган бўлсак, эркин дренаж юзаларини кучайтириш ҳисобига қуйидаги афзалликларга эга бўлинади: қайсики, нефть оқими тоғ жинслари орқали ўтиб қудуққа кириб келадиган ўртача масофаси қисқаради, чунки горизонтал участка маҳсулдор қатламнинг ўрта қисмидан жойлаштирилади.


Ҳозирги замонавий нефть қазиб чиқариш қазиб олинандиган маҳсулотларнинг катта сувланганлик кўрсаткичи (80% - 90% дан юқори) ва маҳсулотларнинг сувланиш даражасини ошиб бориши билан тавсифланади. Горизонтал қудуқларни қўлланилишида қуйидаги асосий ижобий омилларни белгилаш зарур: қазиб олувчанлик катта қийматга ошади; қатламни дренажлаштиришнинг янги геометрияси яратилади; тик ёриқлар мавжуд бўлганда маҳсулдорлик ошади; кичик қалинликдаги қатламларда ишлатиш шароити яхшиланади ва компонент берувчанлик ошади; паст маҳсулдорли ва амалда қуриган қатламларни ишлатиш самарадорли бўлади.



1 - расм. Иккита горизонтал қудуқ шароитида маҳсулдор қатламга буғгравитацияли таъсир қилиш

Бунда интеграллашган технология ҳар хил турдаги коллекторларга жадал таъсир этишни бошқаришни ҳамда қатламга кимёвий ва гидродинамик ишлов бериш усуллари билан енгил бирлашади ва таъсир этиш самарасини янада оширади. Нефтболаолувчанликни оширишнинг маълум усуллари тўлқинли таъсир қилиш билан бирлаштирилганда юқори самарали қазиб олишга эришилади. Қиздирилган зонадан нефть (битум) ва конденсат пастда жойлашган перфорация қилинган қудуққа оқиб ўтади.

Юқорида жойлашган горизонтал қудуқлар тешилмаганда қатламнинг иссиши иссиқлик ўтказувчанлик ҳисобига содир бўлади ва у узок муддат давом этади. Шунинг учун юқоридаги қувур тешилади ва унинг эвазига қазиб олишнинг напорли режими ҳосил бўлади. Бундай ҳолатда қудуқдан тўлқинли майдонни қатламга кўчиши ҳам самарали бўлади. Бунда ҳайдаладиган ишчи агентнинг сарфини бошқариш орқали буғни ҳайдаш режими бошқарилади.



2 - расм. Иккита горизонтал қудуқ орқали маҳсулдор қатламни ишлатиш схемаси: ҳайдовчи (юқорида) ва қазиб олувчи

2-расмда горизонтал ва буғ ҳайдаш қудуқларининг атрофида буғли зонанинг тик қирқимларининг шаклланиши тасвирланган. Юқорида жойлашган горизонтал қудуқдан буғни қатламга ҳайдашда ва юқори ҳароратли зона ҳосил қилишда фойдаланилади. Буғли зона пастки қазиб олувчи қудуқдан қатламнинг шипигача тарқалади. У ён томонга кенгайганда қизиган битум ва конденсат буғи бўлинма чегарасида пастга қазиб олувчи қудуққа параллел оқади. Бу оқим оғирлик кучи таъсирида сиқилади. Буғ билан машғул бўлган бўшлиқ битум буғ билан сиқилганда доимий ўсади.

Кон шароитида маҳсулдор қатламга иссиқли-тўлқинли усулда таъсир қилиш усули назарий жиҳатдан горизонтал қудуқларнинг дебитини иссиқлик усуллариға нисбатан ўсганлигини кўрсатган [8, 9].

Фойдаланилган адабиётлар

1. *Гатауллин Р.Н., Галимзянова А.Р.* Состояние методов воздействия и технических средств при освоении нефтяных и битумных месторождений / *Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe.* - 2016. - № 2. - С. 33-38.

2. *Иктисанов В.А.* Гидродинамические исследования и моделирование многоствольных горизонтальных скважин.-Казань:Изд-во «Ялутон», 2007-124 с.

3. *Мирзаев Э.С., Самадов А.Х., Шоназаров Э.Б., Камолов Б.С.,* Солестойкие буровые растворы. Научный журнал-Международный академический вестник. г.Уфа. 2020. № 12 (44). с.100-102.

4. *Самадов А.Х., Шоназаров Э.Б., Пардақулов И.А., Шукуров А.Ш.,* Бурение и крепление скважин в солях // Школа Науки/Научный журнал. Москва 2020. № 6 (31) 35-36 с.

ПОИСКОВО-РАЗВЕДОЧНЫХ РАБОТ НА НЕФТЯННЫХ И ГАЗОВЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЯХ

*ассистент кафедры нефтегазовое дело Бокиева Ш.К.
Бухарский инженерно-технологический институт.
Технический руководитель партии Ганиев У.Г.
Бухарская геофизическая экспедиция.*

Процесс поисков и разведки нефтяных и газовых месторождений объединяет различные взаимосвязанные виды работ, комплекс которых должен обеспечить выявление, геолого-экономическую оценку и подготовку к разработке промышленных залежей нефти и газа.

Процесс поисково-разведочных работ на нефть и газ является многоступенчатым (стадийным) и объединяет различные и взаимосвязанные виды работ, которые в совокупности должны обеспечить выявление, геолого экономическую оценку и подготовку к разработке промышленных залежей. Прогноз, поиски и разведка разномасштабных нефтегазогеологических объектов производится в рамках научных тематических исследований с применением комплекса преимущественно геологических, геофизических, геохимических и гидрогеологических методов в сочетании с бурением.

Целью поискового бурения является открытие месторождений нефти и газа или новых залежей в пределах ранее открытых месторождений с задачами:
изучение особенностей геологического строения площади;
выявление в разрезе продуктивных и перспективных горизонтов;
получение исходных данных для подсчета запасов углеводородов и предварительной геолого-экономической оценки месторождений (залежей).

Конечной целью разведочных работ является изучение выявленных месторождений для оценки их промышленного значения и далее определения запасов углеводородного сырья по промышленным категориям с целью ввода в разработку. Разведка месторождений и залежей проводится в том случае, если поисковым бурением доказаны промышленное значение и экономическая целесообразность их разработки. Главнейшими задачами геолого-геофизических исследований на разведочном этапе будут:

- выяснение деталей геологического строения разведываемого объекта, в т.ч. типа ловушки;
- детальное изучение литологического состава продуктивных пластов;
- определение их основных параметров, в том числе общей и эффективной мощности, характера изменений коллекторских свойств (пористости, проницаемости и трещиноватости) и др.;
- определение величин начальных пластовых [давлений](#) по каждой залежи и их изменение в процессе пробной эксплуатации;

- изучение режима каждой разведваемой залежи, газового фактора, взаимовлияния скважин, давления насыщения и др.;
- уточнение положения контуров нефтегазовых залежей;
- детальное изучение физико-химических характеристик нефтей, газов и пластовых вод по каждому продуктивному пласту;
- изучение [гидрогеологических](#) и [гидрохимических](#) характеристик продуктивной толщи;
- подсчет запасов нефти и газа промышленных категорий по каждой разведваемой залежи и по месторождению в целом.



1-рисунок. Основные методы поисково-разведочных работ на нефть и газ (Нефть и газ/Разведка)

Целевым горизонтом является первый природный резервуар под региональной крышкой. Все нижележащие пласты должны быть исключены из проекта глубокого бурения, что позволит снизить риски, а также затраты на строительство скважин и сроки эксплуатации.

Однако следует помнить, что непосредственно под региональной шапкой не всегда залегают пласты-коллекторы. Основными критериями являются удельная плотность углеводородного сырья и дебит скважин. Мощный пласт аккумуляции требует наличия крупной высокоамплитудной структуры, способной вместить всю эффективную газонасыщенную толщу пласта.

Список использованных литератур:

1. А.И. Ипатов, М.И. Кременецкий Геофизические методы контроля разработки месторождений нефти и газа. РГУ нефти и газа имени И.М. Губкина. 2012. - 374 с.: ил.
2. А.А. Abidov, I.X. Xalimatov, O.G. Xayitov. «Neft va gaz geologiyasi». Darslik. T.: ToshDTU. 2005. -272 b

**НЕФТЬ ҚУДУҚЛАРИНИ ИШЛАТИШДА ШТАНГАЛИ ЧУҚУРЛИК НАСОСЛАР
ИШ ҚОБИЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР**

*Юлдашев Т.Р. “Нефть ва газни қайта ишлаш технологияси” кафедраси профессори
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти*

*Самадов А.Х. “Технологик машиналар ва жиҳозлар” кафедраси катта ўқитувчиси
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти*

e-mail: azizbek_samadov1986@mail.ru

Тел рақами: +99890-518-98-98

Ҳозирги пайтда вилоятимиз худудидаги кўплаб нефть конлари кудуқлар фонди штангали чуқурлик насослари (ШЧН) ёрдамида ишлатилади ва кудуқдан маҳсулот қазиб олишнинг асосий кўрсаткичлари унда фойдаланилаётган ШЧН ларнинг ишончли равишда бузилмасдан ишлаш қобилиятлари билан белгиланади. Шунинг учун нефть қазиб олиш техника ва технологияларини доимий равишда ишлаш самарадорликларини таъминлаш ва уларни такомиллаштириб бориш масалалари ўта муҳим ҳисобланади. ШЧН ишлаш кўрсаткичларига таъсир этувчи асосий омиллардан бири қазиб олинаётган суюқликнинг ҳоссалари ҳисобланади. Ушбу омилнинг насос қурилмаси ишлашига салбий таъсир кўрсатувчи тавсифларини алоҳида ўрганиш ва унга қарши чоратадбирларни қўллашни тақозо қилади. Маълумки, қазиб олинаётган кудуқ маҳсулот таркибида механик қўшимчаларнинг бўлиши насос ва унинг жиҳозларининг ишқаланиб ишлайдиган ўзаро туташув сиртларида абразив ейилишни келтириб чиқазади ва унинг натижасида мураккаб авариялар содир бўлиши кузатилади. Насослар маълум режимлар асосида ишлаётганда ва ишлаш жараёнларида тўхташлари натижасида механик қўшимчалар насос устига чўқади, ҳамда плунжер ва цилиндр оралиқларидаги тирқишларга тушиши натижасида плунжернинг тикилиб қолиши ҳолатлари юзага келади. Айниқса тўхтаб турган насосни ишга тушириш пайтидаги уринишлар давомида плунжерни катта куч таъсирида ҳаракатга келтириш талб қилинади ва бунда ишқаланувчи сиртларда сидирилишлар содир бўлиб “цилиндр-плунжер” жуфтлиги орасидаги рухсат этилган тирқишлар кенгаяди. Бунинг натижасида кўтарилиб олинаётган суюқликнинг оралиқдаги орқага сизишлар ошади ва насос узатиш коэффиценти камайиб кетади.

Бундай ҳолатларнинг олдини олиш учун насос юқори қисмига халқалар кўринишида кум қабул қилгич мосламаларнинг қия токчали конструктив бажарилишда жойлашуви яхши самара беради. Бунда пастки қисмда жойлашган ҳар бир халқанинг диаметри юқорида жойлашган халқанинг диаметрига нисбатан каттароқ қилиб жойлаштирилиши насос тўхтаган

пайтда токчалар орасидаг ҳажмларда механик қўшимчаларнинг бюир хил чўкишини таъминлайди. Шунингдек токчаларни кўндаланг қия жойлашуви плунжердан чиқаётган суюқлик оқимининг гидродинамик қаршилигини камайтиради ҳамда кўтариш қувурларига суюқликнинг ўтишини осонлаштиради.

Сувланган кудуқларда ишлатилаётган насослар бузилмасдан ишлаши даврийлиги қазиб олинаётган суюқликнинг сувланганлигига боғлиқ бўлиб, кудуқ маҳсулоти сувланганлик даражаси 35 % гача бўлган тақдирда насос ва унинг элементларининг ишлаши ишончлилиги ошиши ва маҳсулот сувланганлиги 70 % дан ошганда насослар ишлаш ишончилигининг камайиши кузатилади. Қўйма насосларда бузилишлар сони маҳсулот таркибида сувлангаликнинг ошиши билан камаёди, энг кўп бузилишлар сувланганликнинг 75 % гача содир бўлади. Кам дебитли кудуқларда НСВ1 насослари билан жиҳозланган кудуқлар маҳсулотларининг 30-75% оралиқлардаги қийматларда турғун ишончилилик билан ишлаши кузатилади. Кудуқ сувланганлигининг 75 % қийматларидан юқорида насослар бузилишлари сони ошади. Қазиб олинаётган маҳсулот қовушқоқлигининг юқори қийматларида чуқурлик насоси ишлаши ишончилиги ошади. Бу ҳолатни кудуқ кўзғалувчи звенолари сиртларини қовушқоқ нефть таъсирида мойланиши ва унинг натижасида ишқаланиш кучининг камайиши билан тушунтириш мумкин.

Шунингдек юқори қовушқокли нефтларни қазиб олишда ҳам чуқурлик насосларида ишқаланувчи сиртларнинг ейилиши натижасида бузилишлар сони камаяди, айниқса бу ҳолат кам дебитли қудуқларда кўпроқ кузатилади. Нефть қудуқларидан унинг таркибидаги йўлдош газларни биргаликда қазиб олишда қўлланилаётган насосларнинг тури ва ўлчамларини танлаш муҳим масалалардан бири ҳисобланади. Насосга кириб келаётган нефть билан бирга бўлган ва унда эриган газлар насоснинг маҳсулот узатиш миқдорини камайтиради, насос штангалари ва тебратмадагтгоҳлардаги юкланишлар ўзгаради. Шунинг учун ШЧН ишлаб чиқаришда қудуқ маҳсулотидagi суюқлик таркибидаги газ омили миқдорига боғлиқ равишда насоснинг тўлиши коэффиценти ўзгаришлари назарда тутилади. Лекин бундай ҳолларда насоснинг тўлиши коэффицентининг юкланиш тавсифномаларининг ўзгаришларига боғлиқ равишда ўрнатилиши фақатгина аниқ қудуқ мисолида амалга оширилиши мумкин. Бунда қудуқни ишлатишда насоснинг ишлашига таъсир этувчи барча содир бўлиши мумкин бўлган омилар турли хилдаги динамограммаларни ўрганиш орқалигина амалга оширилади.

Қудуқ маҳсулоти таркибида водород сульфиднинг бўлиши юқори дебитли қудуқлардаги насосларда бузилишларнинг ортишига сабаб бўлади, кам дебитли қудуқларда эса маҳсулот таркибида водород сульфид миқдорининг ортиши билан насосларнинг бузилмасдан ишлаш давомийликлари қисқаради. Водород сульфиднинг юқори миқдорда бўлиши эса насослар ишлашини енгиллаштиришга олиб келади ва бузилишлар сони камаяди. Лекин бунда кам дебитли қудуқларда насоснинг маҳсулот билан туташган қисми элементларида ва насос штангаларида маҳсулот сувланганлиги ортиши билан водород сульфид таъсиридаги электрохимий коррозиянинг юзага келишига сабаб бўлади.

Плунжери ва цилиндр ўртасидаги тирқиш қиймати насос иш унумдорлигига таъсир этади. Масалан плунжер диаметри 32 мм ли насосда нефтнинг сирқиб тўкилиши натижасида йўқотишлар сарфи ўрганилганда плунжер ва цилиндр орасидаги тирқишларнинг ҳар хил қалинликларида уларнинг тўғри чизиқли ўзгариши кузатилади. Плунжер ва цилиндр оралиқларидаги тирқишнинг кичик қийматларида нефтнинг сирқиб тўкилиши ҳам кам бўлади ва қудуқ чуқурлигининг ошиши билан сирқиб тўкилиш ҳам ошиб боради. Юқорида келтирилганларни ҳисобга олган ҳолда сувланган қудуқларда қўлланиладиган насосларнинг бузилишлари маҳсулот таркибида механик заррачаларнинг, қатлам сувлари ва водород сульфиднинг бўлиши, ҳамда нефтнинг қовушқоклиги ва насоснинг чуқурликга туширилиши баландликларини ўрнатиш ва шу кабиларга боғлиқ. Насоснинг ишлаш унумдорлигини ошириш плунжер юриши узунлигини ошириш, тебранишлар сонини ва насос диаметрларини ўзгартиришлар ҳамда уларнинг элементларининг ишлаш давридаги ишончилигини таъминлаш кабилар орқали эришилади.

Адабиётлар

1. Сургучев М.Л., Горбунов А.Т. и др. Методы извлечения остаточной нефти. -М.: Недра, 1991.
2. Мищенко П.Т. Скважинная добыча нефти. -М.: Нефть и газ, 2003.
3. Справочник по добыче нефти. /Под редакцией К.Р.Уразакова. -М.: Недра, 2000 г.

НЕФТЬ САҚЛАШ УЧУН ПЎЛАТ РЕЗЕРВУАРЛАР ИШОНЧЛИЛИГИНИ ОШИРИШ

*Юлдашев Т.Р. “Нефт ва газни қайта ишлаш технологияси” кафедраси профессори
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти*
*Самадов А.Х. “Технологик машиналар ва жиҳозлар” кафедраси катта ўқитувчиси
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти
e-mail: azizbek_samadov1986@mail.ru*

Нефть ва унинг маҳсулотларини сақлаш учун қўлланиладиган пўлат резервуарлар кон резервуарлар саройининг асосий жиҳозларини ташкил этиб, уларнинг зарурий ишончлилигини таъминлаш асосан лойихалаш ва ўрнатиш босқичларида амалга оширилсада, уларнинг асосий ишлаш кўрсаткичларини белгиловчи ишонччилик сифатлари жиҳозлардан фойдаланиш пайтида амалга ошади. Резервуарлардан аниқ шароитларда фойдаланишда уларнинг лойихавий вариантдаги ва фойдаланишдаги ишонччилик кўрсаткичлари амалда бир биридан фарқ қилади.

Резервуарлардан фойдаланиш даврида идиш тубига ва ён томонларига уларни тўлдириш ва маҳсулотни сақлаш давларида юкланишларнинг ўзгариши натижасида резервуарлар сизимининг ошиши, резервуар асосининг чўкиши, резервуарнинг катта ва кичик нафас олишларида идиш деворининг деформациялари ва шу каби омиллар идишнинг бутун қисмини доимий равишда кучланиш остида бўлишига олиб келади. Бундай ҳолларда резервуар туб қисми энг кўп вақт кучланиш таъсирида бўлиши идиш асосининг нотекис чўкишига сабаб бўлади. Носимметрик юкланишлар резервуарнинг бутун конструкциясида деформацияларни юзага келтиради.

Идиш туби ва деворларининг деформацион кучланишлар ҳолати натижасида идишнинг ҳажми ўзгаришлари ва айниқса атроф муҳит ҳароратининг ўлчаш асбоблари кўрсаткичлари ноаниқликларига сабаб бўлиши турли хилдаги мушкулотли ҳолатларга сабаб бўлади. Шунинг учун резервуар туби ва деворларининг деформацияланишини доимий равишда кузатиб ва ўлчаб туриш, айниқса резервуарларни бушатган кейин уларга техник хизмат кўрсатишда эгилишдаги кучланиш таъсирида содир бўладиган идиш туби нотекис чўкиши қийматларини ўлчаш ва баҳолаш зарур бўлади.

Одатда пўлат резервуарларнинг хизмат муддатлари 20-30 йил оралиқларида ўрнатилади, лекин улардан фойдаланиш асосан келтирилган муддатлардан кам бўлиши ва баъзи ҳоллардагина кўп бўлиши мумкин. Шунинг учун резервуарларнинг хизмат муддатини ўрнатиш бу нисбий тушунча сифатида қабул қилинади ва ҳозирги вақтда резервуарлардан фойдаланиш муддати назарий жиҳатдан чегараланмайди.

Резервуарларнинг ташқи геологик шароитларга ва юқорида келтирилган омиллар таъсирида уларнинг тублари ва деворларида пайдо бўладиган деформацион кучланиш таъсиридаги нотекис чўкиш ва кенгайишларга йўл қўймаслик учун резервуарларни тўлдиришда суюқлик сатхини кўрсатилган лойихавий баландликгача етказмаслик орқали эришиш мумкин. Бунда ҳар бир резервуарлар саройидаги идишлар сонидан келиб чиққан ҳолда резервуарларни ўртача тўлдириш коэффицентини 0,5-0,7 оралиқларда ушлаб туриш деформацион кучланишлар таъсирини кескин камайтиради. Айниқса резервуарларни таъмирлашдан сўнг тўлдириш коэффицентини 0,3-0,5 оралиқларда бўлиши янада улардан узоқ муддат ишлаш қобилиятини таъминлаб беришга кафолат беради.

Ҳозирги пайтда конлардан нефтнинг асосий қисми қатлам босимини ушлаб туриш учун қатламга сув ҳайдаш усули билан казиб олинаётганлиги ва бунда ҳайдаш суюқлиги сифатида турли хил таркибдаги ер сирти сувларидан фойдаланилиши, сувнинг стерилланмаганлиги сабабли қудуқларда ва маҳсулдор қатламда сульфаттикловчи, тионли углеводородоксидловчи ва бошқа шу турдаги бактерияларнинг ривожланишига олиб келмоқда ва бу кон амалиётида қўлланилаётган кимёвий таҳлиллар натижаларида кузатилиб турилибди. Бактериялар коррозия ҳавфи микроорганизмлар бўлиб,

ўзларининг биоценозини шакллантиради ва биоген водород сульфидни ҳосил қилиши нефть конлари жиҳозларининг кучли даражадаги коррозиясига сабаб бўлади.

Резервуарларни рулонли йиғишда оддий конструкцион пўлатлардан тайёрланган рулонлардан фойдаланилади ва бу материалларнинг водород сульфидли муҳитлардаги коррозион емирилишлари ўта даражада жадаллашади. Айниқса муҳит таркибида олтингугуртли бирикмалар, хлоридлар, карбонатлар ва механик қўшимчалар ва қатлам сувларининг бўлиши резервуарлар ички қисмида турли хил кўринишлардаги коррозион емирилишларни келтириб чиқаради

Ҳар қандай ҳолатда ҳам нефтни пўлат резервуарларда сақлашда тиндириш жараёни содир бўлади, нефтнинг таркибидаги қатлам сувлари ва унинг билан биргаликдаги тузлар, ҳамда олтингугуртли қаттик бирикмалар идиш тубида чўкмалар ҳосил қилади. Резервуар тубида водород сульфидли бирикмалар ва тузли қатлам сувларининг ҳосил бўлиши металл сирти билан ўзаро таъсирлашувда электрохимий коррозияни келтириб чиқаради.

Нефтнинг таркибидаги парафинлар, ароматик ва тўйинмаган углеводородлар металлларга нисбатан коррозион фаол ҳисобланмайди, лекин нефтни тиндириш жараёнида идиш тубида ҳосил бўладиган чўкмалар кучли даражада коррозион фаоллигини кўрсатади. Металл сирти билан сульфидли бирикмаларнинг қатлам суви билан биргаликдаги таъсирида металл сиртида мустаҳкам адгезион қатламлар ҳосил бўлиши резервуарларни таъмирлашда уларни механик усулларда тозалаб олишни талаб қилади. Бундай жойларда металл сиртининг мустаҳкам адгезион қатламнинг билан биргаликда кўчиши рўй бериб идиш туби қалинлиги камайдиган баъзи ҳолларда идиш туби ўйилади.

Резервуарлардан 8-10 йил фойдаланиш давридан кейин уларнинг туб қисмида ва пастки биринчи поғонасида ўйиқлар кўринишидаги нуқсонлар вужудга келади ва ўйиқларнинг идиш девори бўйича бор бўйига ривожланишида маҳсулотларнинг оқиб чиқиши ва исрофлари, ҳамда ёнғин ҳосил бўлиши шароитларини вужудга келтиради.

Hozirgi vaqtda dimetil efirni olishning asosiy sanoat jarayoni metanolni katalitik degidratlantirish jarayoni hisoblanadi. U yuqori bosim va 260-300 °S haroratda amalga oshiriladi. Biroq, bu harorat oralig'ida jarayonning yuqori selektivligiga erishish mumkin emas, chunki uglerod saqlovchi birikmalar hosil bo'ladi. Shuning uchun maqsadli mahsulot tannarxiga ta'sir qiluvchi DME ni qo'shimcha tozalash bosqichini o'tkazish kerak. Shunday qilib, metanning bug'-karbonatli konversiyasi amalga oshiriladi, bu nafaqat karbonat angidriddan foydalanish muammosini hal qiladi, balki sintez-gazida uglerod oksidi konsentratsiyasining sezilarli darajada oshishiga va vodorod konsentratsiyasining pasayishiga olib keladi.

Metanol degidratatsiya reaksiyasida tanlangan katalizatorlarning faolligini o'rganish uchun katalizator hajmi 2 ml, 10 ml, 22 ml, 100 ml bo'lgan laboratoriya, oqimli-katalitik qurilmayasalgan va yig'ilgan. Xom ashyo sifatida qurilmada sintez-gazidan olingan metanol ishlatilgan. Sintez-gazining tarkibi ham gaz xromatografik, ham ko'chma, lokal gaz-analizatori yordamida tahlil qilindi. Sintez gazida kislorod, azot, uglerod oksidi va dioksid va vodorod miqdori aniqlandi. Barcha tajribalarda gaz analizatori va gaz xromatografidagi gazni tahlil qilish natijalari yaxshi mos edi. Sintez-gazining metanolga konversiya reaksiyasi va metanol gidratlanmsh reaksiyasi mahsulotlarini tahlil qilish uchun gaz xromatografik usullari ishlab chiqilgan. Kislorodli uglevodorodlarni aniq ajratish uchun gaz xromatografi nasadkali kolonnalari uchun tashuvchilar tanlangan. Reaksiya mahsulotlarida metanol, dimetil efir va suvning har qanday konsentratsiyasida tahlilning yuqori aniqligi qayd etildi. Tajribalar xom ashyodagi metanolning turli konsentratsiyalarida, suyuqlik bo'yicha 0,5-12 soat⁻¹ hajmli oqim tezligida, reaksiya zonasidagi harorat 90 dan 180 °Cgacha bo'lgan holda amalga oshirildi. Umuman olganda, katalizatorlarning ikkala turi ham bir xil reaksiya haroratida bir xil faollikni ko'rsatdi, bundan tashqari 160 °Cdan yuqori haroratlarda polimer tashuvchili katalizator o'z faoliyatini tezroq yo'qotdi.


Laboratoriya qurilmasida tajribalarning birinchi seriyasi natijalari 1-jadvalda ifodalangan. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan jarayonning birinchi, ikkinchi, to'rtinchi bosqichlari tez hisoblanadi, metanol-dimetil efiri sistemasi esa deyarli muvozanatli ekanligi kelib chiqadi.

1-jadval


27%mas ZnO*13%mas CuO*60%mas Al₂O₃ katalizatorining faolligini o'rganish bo'yicha kinetik tajribalarning birinchi seriyasi natijalari.

№ tajriba	Metanolning mol oqimlari, mol/soat	T, K	R, MPa	Metanol konversiyasi, %	
				Taj.	Hisob.
1.	2.46	413	0.10	15.1	14.90
2.	2.46	423	0.10	32.2	31.22
3.	2.46	433	0.10	51.9	52.79
4.	2.46	443	0.10	73.5	73.78
5.	2.46	453	0.10	86.0	85.77
6.	4.18	463	0.17	90.5	90.26
7.	4.18	423	0.17	43.9	43.89
8.	4.18	433	0.17	64.5	64.36
9.	4.18	443	0.17	81.8	81.78
10.	4.18	453	0.17	89.4	89.57

27%mas ZnO*13%mas CuO*60%mas Al₂O₃ Modelning differensial tenglamalari IV tartibli yarim yashirin Runge-Kutta usuli bilan hal qilindi. Ushbu usul har bir qadamda tenglamaning o'ng tomonini to'rt marta hisoblashni talab qiladi.



1-rasmda. Metanol sintezi reaksiyasi muvozanat konstantasining reaksiyani o'tkazish haroratiga bog'liqligi



2-rasm. 1 atm bosimda va dastlabki aralashmada metanolning molulushi 0,6 (Δ), 0,8 (*), 1,0 (\square)ga teng bo'lganda metanol konversiya darajasining haroratga bog'liqligi

Kimyoviy o'zgarish jarayonini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot **27%mas ZnO*13%mas CuO*60%mas Al₂O₃** Dona modeli sifatida kvazigomogen model ishlatilgan. Modelning makrokinetik parametrlari ma'lum korrelyasion tenglamalar yordamida hisoblab chiqilgan va ularning qiymatlari eksperimental ma'lumotlar yordamida yanada takomillashtirilgan. Ushbu modelga muvofiq katalizator granulari uchun samaradorlik omillarining qiymatlari hisoblab chiqilgan. Ma'lum bo'lishicha, barcha moddalar uchun samaradorlik omillarining qiymatlari taxminan 0,6 ga teng.

ADABIYOTLAR

1. Wood D. // Oil & Gas J. 2007. No 12. P. 20.
2. Buronov F., Fayzullayev N. Synthesis and application of high silicon zeolites from natural sources //AIP Conference Proceedings. –AIP Publishing LLC, 2022.–T. 2432. – №. 1. – C. 050004.
3. Bukhorov A. Q., Fayzullaev N. I. Kinetic laws of dimethyl ether synthesis in synthesis gas //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – T. 2432. – №. 1. – C. 050012.
4. Jasur Shukurov., Normurot Fayzullaev. Kinetic laws of dimethyl ether synthesis reaction **E3S Web of Conferences 389**, 01037 (2023)

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ UYUMINING ENERGETIK TAVSIFI

Tilloyeva Shaxnoza Faxritdinovna

O'qituvchi-stajyor

Buxoro muxandislik-texnologiya instituti

O'zbekiston ulkan uglevodorod zaxiralariga ega. Mamlakatimizda neft-gaz sanoatining yangi inshootlarini barpo etish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish ishlari jadal davom etmoqda. "O'zbekneftgaz" korxonalarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi institutlari va oliy o'quv yurtlari bilan yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ko'plab loyihalarni amalga oshirmoqda. Mamlakatimizdagi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan ishlab chiqarishga tatbiq etilayotgan innovatsion loyihalar tufayli neft va kimyo sohasida ham ko'plab yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilishiga erishilmoqda. Mahsulotlar sifati yanada yaxshilanib, jahon bozorida mustahkam o'rin egallamoqda.


Neft yoki gazning quduqqa qarab oqimi qatlam bosimi va quduq tubi bosimi ayirmasi bilan bog'liq bo'ladi. Bosimlar ayirmasining miqdori quduqdan olinadigan suyuqlik yoki gaz

miqdori, suyuqlik va tog' jinslarining fizikaviy xususiyatlari va qatlam energiyasi turi bilan belgilanadi. Uyumdagi energiya zahirasi neft yoki gazning qatlamdan quduq tubiga oqimini ta'minlashga sarflanadi. Bu energiya zahirasi qatlam bosimi bilan bog'lik.

Qatlam energiyasi manbai sifatida qatlam suvlari tayziqi energiyasi ozod va bosim pasayishida neftdan ajraladigan erigan gaz energiyasi, sikilgan tog' jinslari va suyuqliklar energiyasi va neftning og'irlik kuchi ta'siridagi energiyasi xizmat qiladi. Neft yoki gaz bir vaqtning o'zida bir yoki bir necha qatlam energiyalarining ta'sirida harakat qilishi mumkin.

Uyumlarning ishlashi va ishlatilishi to'laligicha konlarning energetik xususiyatlari bilan belgilanadi.

1 - rasmda chekka suvlar tayziqi mavjud bo'lgan uyum shakli sxematik tarzda tasvirlangan. Bu uyumda neft oqimi kontur chekka qismida H balandlikdagi suyuqlik sathi orqali bajariladi. Bunday uyumlarda burg'ulangan quduqqa neft oqib kelishi va yuqoriga ko'tarilish chekka suvlar tayziqi ta'sirida amalga oshadi. Bu holatda chekka suvlar tayziqi samaradorligi nafaqat qatlamning quduq ustki qismidan ham balandroq qismga chiqqanligi, balki qatlam tog' jinslarining o'tkazuvchanligi va suyuqliklarning qovushqoqligiga ham bog'lik.



1-rasm.


1-tabiyy yog'ingarchiliklar

2-qatlam chekka suvlari harakati

Tog' jinslarining o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan hollaridagi mavjud tayziq ta'sirida qatlam tizimi orqali etarli miqdorda suyuqlik oqimi ta'minlansa, chekka suvlar tayziqi energiyasi uzoq muddat suyuqlik oqimini ta'minlashi mumkin.

Siqilgan ozod gaz energiyasi.

Qatlam energiyasining boshqa turi sifatida siqilgan ozod gazning taranglik energiyasi xizmat qiladi. Uyumda gaz, gaz do'ppisi sifatida yoki qatlam bosimi to'yinganlik bosimidan kamayishi jarayonida suyuqlikdan ajralib chiqadigan gaz pufakchalari sifatida uchraydi. Yopiq turdagi uyumda asosiy energiya sifatida siqilgan ozod gaz energiyasi xizmat qilishi sharoiti 2 - rasmda keltirilgan.



2-rasm. Газ дупписи босим ҳаракати тасвири

Нефт

Газ

Сув

Bu holatda quduq tubi bosimi pasaytirilsa, gaz do'ppisi energiyasi va neftdan ajralib chiqqan gaz energiyasi ta'sirida quduqqa neft oqimi ta'minlanadi. Buning asosiy sababi sifatida neftning gaz bilan to'yinganligida va bosim pasayishi natijasida suyuqlikdan gazning ajralishida deb tushunish mumkin. Uyumda siqilgan gaz energiyasi zahirasi cheklangan bilib, u gaz do'ppisi hajmi, neft zahirasi, qatlam bosimi va neftda erigan gaz miqdoriga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В.С. Бойко «Разработка и эксплуатация нефтяных месторождений», Москва, Недра, 1990г.

2. Разработка и эксплуатация нефтяных, газовых и газоконденсатных месторождений. Под редак. Гиматудинова Ш.К.- М: Недра, 1988. -299с

BITUM KOMPOZITSIYALARIDA ISHLATILADIGAN KOMPONENTLARNING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARINI O'RGANISH

Jurayev Vays Narzullayevich

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali "Energetika va mashinasozlik" fakulteti dekani. +998935722278

Respublikamizda so'nggi yillarda hududiy yo'llar va aerodromlarni tez o'zgaruvchan ob-havodan kelib chiqib, jahon standartlariga javob beruvchi asfalt-beton qoplamalari asosida ta'mirlash va ularni sovuqqa, issiqqa, ishqalanishga, cho'zilish va egilishga chidamliligini oshirish borasida bir qancha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada mahalliy xomashyolar asosida avtomobil yo'llari va aerodromlarni qoplash uchun respublikamizda ob-havo tez o'zgarishiga mos keluvchi polimer-bitum kompozitsiyalarini olish va yotqizish texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki Respublikamizning tez o'zgaruvchan ob-havoga ega bo'lib, tog'li va cho'l xududi yo'llarida asfalt-beton qoplamalar tez ishdan chiqishiga olib keladi. Bunga sabab ularda qo'llanilayotgan kompozitsiyaning asosi bo'lgan bitumlarni sovuqqa va issiqqa chidamli emasligidir (1-jadval). Yo'l bitumlari va ular asosida olingan yo'l qoplamalarining issiqqa, sovuqqa va ishqalanishga chidamliligini oshirish uchun mahalliy xomashyolar asosida ingrediyentlar tanlanildi va ularni fizik-kimyoviy xossalari o'rganildi.

1-Jadval

Yo'l bitumlarining asosiy sifat ko'rsatkichlari

Bitum markalari	Yumshash harorati H va Sh, °C	Muzlash harorati, Fraas, °C	Ignani kirish chuqurligi, 0°C, 0.1 mm	Ignani kirish chuqurligi, 25°C, 0.1 mm	Cho' ziluvchanligi 0°C, sm	Cho' ziluvchanligi 25°C, sm	Elastikligi 0°C, %	Elastikligi 25°C, %
BND 40/60	59,35	-22,4	12,5	40	7,6	24	21,05	33,3
BND 50/70	58,5	-24,8	31	50	10,4	30,7	5,7	18,6
BND 60/90	47	-15	20	61-90	3,5	55	4	13
BND 90/130	43	-17	28	91-130	4	65	-	-

Gazopiroliz smola. «Uz-Kor Gas Chemical» qo'shma korxonasi yiliga 10 ming tonna tarprodukt (GPS – gazopiroliz smolasi) chiqindi sifatida hosil bo'ladi, u qora rangli hidsiz qattiq modda (2-jadval).

2-Jadval

Gazopiroliz smolaning kimyoviy tarkibi

Uglerod soni	Alkanlar	Dienlar	Olefinlar	Sikloalkanlar	Arenlar	Σ
5	0,8	0,89	4,91	0,19	0	6,79
6	0,22	0,41	3,87	0,41	32,94	37,85
7	0,25	0,14	0,84	0,45	11,23	12,91
8	0,12	0,08	0,18	0,48	9,75	10,61

9	0,04	0,1	0,04	0,15	7,56	7,89
10	0,03	0,11	9,07	0,4	5,23	14,84
11	0,18	0,69	2,95	0	0,47	4,29
12	0	0,15	1,84	0	0	1,99
Σ	1,64	2,57	23,7	2,08	67,18	97,17

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki GPS ning tarkibi asosan tabiiy gazni pirolizi jarayonida hosil bo‘lgan alkanlar, dienlar, olefinlar, sikloalkanlar va arenlardan tashkil topgan, uning molekulyar massasi 1000-1200 atrofida erish harorati 180 °C.

Maydalangan shina kukuni. Ma‘lumki eskirgan shinalarni qayta ishlatish muammosi hozirgi kunda dolzarbdir. Shuning uchun maydalangan shina kukunlarini polimer-bitum kompozitsiyalarida asosiy ingrediya qilib tanlab olindi. (3-jadval). Jadvaldan ko‘rinib turibdiki tanlangan ingrediya xossalari kompozitsiyada ishlatish uchun yetarli va shu holatida ishlatishga tavsiya etildi.

3-Jadval

Maydalangan shina kukuni xossalari

Ko‘rsatgichlar nomi	Xossalari
Zarrachalar o‘lchami, mm	0,25 – 2,8
Zichligi, kg/m ³	1250 – 1256
Sochma og‘irligi, kg/m ³	430 – 435
Solishtirma yuzasi, sm ² /g	1100 – 2200
pH ko‘rsatgichi	7 – 8
Yog‘ shimishi, ml/100 g	92 – 105

Ikkilamchi alkanolaminlar. Bular gazni qayta ishlash sanoatida adsorbent sifatida ishlatilgan va chiqindi sifatida chiqadi. Ikkilamchi alkanolaminlarning fizik-kimyoviy xossalari gazlarni tarkibidagi nordon gazlarni absorbsiya qilishi hisobiga o‘zgargan, ya‘ni qaynash harorati va qovushqoqligi oshgan, muzlash harorati esa pasaygan (4-jadval).

4-jadval

Ikkilamchi alkanolaminlarning fizik-kimyoviy xossalari

Alkanolamin eritmalari	Konsentratsiya		Qaynash harorati, °S, (180 kPa)	Muzlash harorati, °S	Qovushqoqligi (0 °S, 103 Pa*s)
	kmol/m ³	%			
IMEA	2,5	65	123	-11	1,6
IDEA	2	71	124	-12	2,0
IMDEA	2	74	126	-14	2,9

IMEA-ishlatilgan monoetanolin; IDEA-ishlatilgan dietanolin; IMDEA-ishlatilgan metildietanolin.

Uni tarkibi o‘rganilganda tabiiy gaz tarkibidagi nordon gazlardan (H₂S, CO₂, SO va ularning birikmalari) va tuzlardan iboratligi aniqlandi. Ikkilamchi alkanolaminlar tarkibidagi nordon gazlar birikmalarini inobatga olib ular polimer-bitum kompozitsiyasida strukturalanish jarayonida tezlashtirgichlar sifatida ishlatish mumkinligi uchun o‘rganib chiqildi. Ularni ishlatishdan oldin tarkibidagi suv chiqarib yuborildi.

Fosforli alkilamid yog‘ kislotasi. Paxta yog‘i chiqindisi asosida olingan fosforli alkilamid yog‘ kislotasini polimer-bitum kompozitsiyasida strukturalanishni tezlashtirish uchun ishlatildi. Fosforli alkilamid yog‘ kislotasining molekulyar massasi 1100-1200 ga teng. Uni tarkibini infraqizil spektroskopiya usuli bilan tahlil qilinganda, unda quyidagi 900, 1070, 1210, 1310 va 1370 sm⁻¹; 2360, 2930 va 3300 sm⁻¹ yutilish chiziqlari kuzatildi: unda =CO, -N, ≡R=O, =O, =N-H

guruhlarini borligini ko'rsatadi. Bu guruhlardan ko'rinib turibdiki fosforli alkilamid yog' kislotasini oltingugurtli vulkanlash sistemalarida tezlashtirgich sifatida ishlatish mumkin.

Oltinugurt. Neft va gazni qayta ishlash sanoati chiqindisi, polimer-bitum kompozitsiyasida strukturalovchi modda sifatida ishlatildi.

Elastomerlar. Izopren va butadienstirol elastomerlari polimer-bitum kompozitsiyasida elastiklikni va ishqalanishga chidamlilikni oshiruvchi ingredient sifatida foydalanildi. Tanlangan har bir ingredientni bitum kompozitsiyasining ma'lum xossalriga ta'siri o'rganildi va olingan natijalar asosida optimal sharoiti tanlandi.

Ishda zamonaviy fizik va fizik-kimyoviy (IQ, reologik, termomexanik, optik mikroskopik) tahlillari, shuningdek olingan tajribaviy ma'lumotlarni statistik qayta ishlashning matematik usullardan foydalanildi.

Neft-gazni qayta ishlash sanoati chiqindilari, eskirgan rezina-texnika buyumlari va shinalari asosida ko'p funksiyali ingredientlarni xossalari o'rganildi. Ularni qo'llash orqali o'zgaruvchan ob-havo sharoitida ishlatiladigan issiqqa, sovuqqa, ishqalanishga, cho'zilishga va siqilishga chidamli polimer-bitum kompozitsiyalarini tarkibi olish va ularning texnologiyasini ilmiy asosi yaratilganligi bilan izohlandi. Ko'p funksiyali ingredientlar kelgusida import o'rmini bosadigan, raqobatbardosh, maqsadli, o'zgaruvchan ob-havo sharoitida ishlatiladigan hamda berilgan struktura va xususiyatlarga ega bo'lgan polimer-bitum kompozitsiyalar ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. A.S. Ibadullaev, E.U. Teshabaeva, Juraev V.N. Создание и применение ингредиентов на основе местных природных ресурсов и отходов производств в эластомерных композиционных материалах // журнал Химия и химическая технология, Ташкент, 2016. - С. 66-71.

2. Juraev V.N., Boborajabov B.N., Vapaev M.D., Ibadullaev A. Modification of bitumen bu waste of gas-processing, gaso-chemical and rubber industries // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. Austria, 2019. -№ 5-6, -P. 32-36.

РЕЗУЛЬТАТЫ НАУЧНОГО АНАЛИЗА РАЗРАБОТКИ СУЛЬФИДА НАТРИЯ ДЛЯ ОБОГАЩЕНИЯ РУД ИЗ ГАЗОВ, ВЫДЕЛЯЮЩИХСЯ ПРИ ГАЗОПЕРЕРАБОТКЕ

Пулатов Г.М., Юсупов Ф.М.

Институт общей и неорганической химии АНРУз Узбекистан, Ташкент. Тел: +998978744736

В настоящее время, в мире считается важной научно-практической задачей разработка новых технологий, которые способствуют развитию высокотехнологичной производственной базы для комплексной переработки и рационального использования минерального сырья и техногенных отходов в промышленности [1]. В данном направлении является актуальным создание новых способов комплексной переработки и разработки энерго- и ресурсосберегающих технологий получения импортозамещающей продукции с использованием отходов нефтегазовой и химической промышленности [2].

Наличие сероводорода (H_2S) в газовых выбросах нефтяной, газовой и нефтехимической промышленности вызывает загрязнение окружающей среды и коррозию оборудования. Эти газовые потоки, называемые отходящим газом, имеют высокую концентрацию H_2S , которую можно использовать для производства сульфида натрия (Na_2S) путем реактивной абсорбции H_2S . Na_2S имеет широкое применение в химической промышленности.

Таблица

Технологический режим для получения сульфида натрия

№	Наименование стадии процесса	Контролируемые параметры, ед. изм.	Нормы технологического режима	
			мин	мак
1	Подача кислого газа (H ₂ S-48%, CO ₂ -52%)	Расход, м ³ /час	10	20
2	Газ на входе	Температура, °С	50	50
3	Абсорбент после насыщения	Температура, °С	70	80

Для промышленного производства сульфида натрия применяется метод абсорбции сероводорода в раствор гидроксида натрия с последующим выпариванием. В процессе поглощения сероводорода сначала образуется гидросульфид натрия, что используется для получения этого продукта.

Многие отходящие газовые потоки в нефтяной, газовой и нефтехимической промышленности, называемые отходящими газами, аналогичны газам, образующимся на установках термического крекинга и гидроочистки, которые содержат сероводород (H₂S). Наличие H₂S в отходящих газах может вызвать загрязнение окружающей среды и коррозию оборудования. H₂S — высокотоксичный газ, оказывающий наркотическое действие на нервную систему, включая паралич обонятельных нервов (Таб.).

Отделенный от природного газа кислый газ, который содержит сероводород, абсорбируют в 40% раствор гидроксида натрия в течении двух часов. Далее из полученного раствора выпаривается вода в выпарной установке в течении двух часов.

Целью представленной работы является мониторинг вредных соединений, образующихся при исследовании плазмохимической технологии утилизации сероводорода из попутного нефтяного и кислого газов с получением элементной серы. Данная технология реализуется в лабораторном виде путем создания электрического разряда наносекундной длительности в форме стримерной короны в специальном устройстве – реакционной камере. Технология позволяет практически полностью разложить сероводород на элементную серу и молекулярный водород, причем обладает высокой селективностью вне зависимости от вида сырья и содержания в нем сероводорода. При очистке попутного газа в одну ступень удалось достичь степени очистки 66,6%; при пятиступенчатой очистке степень очистки достигает 99,6%; при очистке кислого газа эффективность в одну ступень составляет 99,6%

Полученные кристаллы сульфида натрия высушиваются в течении часа, охлаждаются и измельчаются. Продукт фасуется в герметичную упаковку.

Учёными ИОНХ АН создана пилотная установка для получения сульфида натрия из сероводорода. Пилотная установка состоит из двух колонн и выпарного аппарата. В первую колонну помещается раствор поглощающий углекислый газ, во второй раствор гидроксида натрия, который поглощает сероводород. В данной статье изучены физико-химические свойства кислых компонентов природного газа и нефтяного газа, к числу нежелательных химических примесей, содержащихся в природных и в нефтяных газах относятся токсичные и коррозионно-агрессивные серосодержащие соединения, а также негорючие инертные газы, снижающие теплоту сгорания углеводородного газа.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бахадори А. Контроль загрязнения на нефтяных, газовых и химических предприятиях. // Springer Cham Heidelberg, New York, Dordrecht, London. 2014, С. 115-118.
2. Ф.М. Юсупов, Г.М. Бектурдиев, Г.М. Пўлатов. Получение сульфида натрия из сероводорода.// Композиционные материалы №1/2021. Ст. 65-67

ВЛИЯНИЕ ТОЛЩИНЫ НАКИПИ НА КОЭФФИЦИЕНТ ТЕПЛОПЕРЕДАЧИ В ГОРИЗОНТАЛЬНОЙ ТРУБЕ

О.Ю. Исмаилов¹, А.М.Хурмаматов¹, Д.Н.Исаматова²

¹Институт общей и неорганической химии

²Ташкентский химико-технологический институт

Слой накипи в трубках теплообменников НПЗ образуется за счет осаждения механических примесей и выпадения кристаллов минеральных солей, содержащихся в подогреваемом углеводородном сырье. Накипь на поверхности теплообмена формируется в течение продолжительного времени, под воздействием высокой температуры греющего теплоносителя и при малых скоростях потока сырья. С течением времени слой накипи, имеющий малую теплопроводность, растет, уплотняется и упрочняется. Это приводит к снижению значения коэффициента теплопередачи в аппарате и понижению его тепловой эффективности.

Образование накипи в трубках приводит к существенной потере тепловой энергии, величина которой может достигать от нормируемых 2÷8 до 60 % по отношению к полезно переданной. Кроме этого, дальнейший рост толщины накипи приводит к существенному уменьшению поперечного сечения теплообменных труб по всей их длине, что ухудшает гидродинамические характеристики аппаратов, а в отдельных случаях - к их закупориванию.

Для исследования зависимости коэффициента теплопередачи от режима движения нефтегазоконденсатной смеси в горизонтальной трубе при условиях накипеобразования собрана экспериментальная установка.

Эксперименты по изучению закономерностей образования накипи в горизонтальной трубе проведены при объемном расходе нефтегазоконденсатной смеси от 4 до 28 л/мин, её давлениях $8 \div 50 \cdot 10^3$ Па и температуре 170 °С.

Результаты расчета коэффициента теплопередачи в горизонтальной трубе в условиях накипеобразования приведены в таблице.

Согласно данным таблице, в начале опытов, когда слой накипи на поверхности стенки трубы еще отсутствует и режим движения нагреваемой смеси ламинарный ($Re = 2280$), коэффициент теплопередачи имеет максимальную расчетную величину - $K = 714,4$ Вт/(м²·К). В дальнейшем, когда толщина накипи в трубе растет до 4 мм, величина коэффициента K резко снижается в 2,6 раза и составляет 266,5 Вт/м²·К.

При условиях вероятности образования слоя накипи толщиной до 4 мм снижения численного значения коэффициента теплопередачи в трубе опытного аппарата составляет: в переходном режиме движения смеси ($Re = 6309$) в 3,2 раза - от 936,5 до 292,3 Вт/(м²·К), а в турбулентном ее режиме движения ($Re = 1274,9$) - до 4 раза, от 1274,9 до 318,7 Вт/(м²·К).

Таблица

Изменение коэффициента теплопередачи от режима движения нефтегазоконденсатной смеси в горизонтальной трубе при условиях накипеобразования

Горячий теплоноситель (пары бензина)		Холодный теплоноситель			Коэффициент теплопередачи K , Вт/(м ² ·К)					
					при толщине накипи в трубе δ , мм					
Re	α_1 , Вт/м ² ·К	$\omega_{см}$, м/с	Re	α_2 , Вт/м ² ·К	0	0,5	1,0	2,0	3,0	4,0
160739	3409	0,21	2280	947	714,4	590,3	503	388	316	266,5
155320	3312	0,53	6309	1398	936,5	734,2	603,8	445,6	353	292,3
151860	3250	0,85	10119	1773	1084,3	822,2	662	476,5	372	305,3

150652	3238	1,06	12620	2011	1164,4	869	692	491,8	381,5	311,5
150138	3215	1,48	17619	2365	1274,9	927,2	728,5	509,9	392,3	318,7

Таким образом, расчетно-экспериментальное изучение процесса нагревания нефтегазоконденсатных смесей углеводородными парами показали, что в условиях накипеобразования коэффициент теплопередачи в опытном трубчатом аппарате снижается при ламинарном режиме потока смеси в 2,6 раза, в переходном режиме в 3,2 раза и в турбулентном режиме - в 4 раза.

Для обеспечения нормальной работы теплообменников в условиях образования и роста накипи рекомендуется выбрать скорость потока нефтегазоконденсатной смеси, исходя из расчетов технико-экономических показателей процесса, обеспечивающих уменьшения толщины накипи в трубках и увеличения коэффициента теплопередачи в аппарате.

Литературы

1. Альтшуль А.Д., Калицин В.И., Майрановский Ф.Г., Польшунов П.П. Примеры расчетов по гидравлике// Учебное пособие для вузов. «Альянс», – 2013. – 255 с.
2. Исмаилов О.Ю., Установка для изучения образования отложения внутренней поверхности труб теплообменных аппаратов // Узбекский химический журнал. – Ташкент. –2016. – №6. –С. 49-55.

ISHLATILGAN DIETANOLAMIN ERITMASINI IONALMASHINISH USULIDA TOZALASH VA UNING ISHCHI XOSSASINI QAYTA TIKLASH

G.T.Bozorova, Igamkulova N.A., Raximov X.N., Mengliev Sh.Sh.

TKTI, Xusniddin.raximov.89@gmail.com

Yurtimizda 2001 yilgacha tabiiy gazdan faqat xalq xo‘jaligi, avtomobillar uchun motor yoqilg‘ilari sifatida foydalanib kelingan. Qazib olinayotgan tabiiy gazni 2-2,5 %dan kimyo sanoatida (“Navoiyazot” AJ, “Farg‘onaazot” AJ va “Maxam-Chirchiq” AJ) xomashyo sifatida foydalanilgan. Bugungi kunga kelib esa tabiiy gaz kimyo sanoati uchun asosiy xomashyo bazasi bo‘lib qoldi. 2001 yilda “Sho‘rtan GKM”, 2015 yilda “Uz-Kor Gaz Chemical” MChJ qo‘shma korxonasining ishga tushurilishi va bular negizida barcha viloyatlarimda termoplast korxonalarini faoliyat olib borayotganligi fikrimizni yaqqol dalilidir. Lekin shuni alohida ta’kidlash kerakki, tabiiy gazni sanoatda xomashyo sifatida ishlatish uchun ularni zaharli birikmalardan (H_2S, CO_2 va merkaptanlardan) chuqur tozalash talab etiladi. Chunki gaz tarkibidagi turli xil aralashmalar uning yonish issiqlik koeffitsientini pasayishi, ularni tayyorlash, tashish va saqlash quvuruzatgichlarini, jihozlarini korroziyalaydi, katalizatorlarni ishdan chiqaradi, ekologik muammolarni yuzaga ketirib, insoniyat salomatligiga, tabiatga hamda hayvonot olamiga salbiy ta’sir qiladi.

Gazni tozalash texnologiyasining samaradorligi oshirish, asosan jarayonni to‘g‘ri tanlash bilan belgilanadi. Gaz tarkibidagi oltingugurtning miqdoriga qarab texnologiya va etanolaminning shu konsentratsiyaga mos eritmasi tanlanadi.

Tabiiy gazlarni zaharli birikmalardan tozalashda metildietanolaminning 20-30 % suvli eritmalari ishlatiladi. Bu eritmalarni, gazlarni tozalash jarayonida bir necha bor ishlatilishi va ko‘p marotaba yukori xaroratda kayta regeneratsiyalanishi natijasida uning ekspluatatsion va fizik-kimyoviy xossalari (solishtirma og‘irligi, qovushqoqligi, sirt tarangligi va boshqalar) yomonlashadi, amin eritmalari turli xil tuzlar, birikmalar bilan to‘yinadi, destruksiyaga uchrab, polimerlanishgacha boradi, natijada gaz tozalashga yaroqsiz bo‘lib qoladi [1].

Gaz tozalashda ishlatilgan aminlarni tahlil qilganimizda (1-jadval), quyidagilar aniqdandi:


1-jadval

Tabiiy gazni tozalashda ishlatilgan 30 %-li DEA eritmasining tarkibi

№	Ishlatilgan DEA eritmasining tarkibi	O'lchov birligi	Eritmada-gi miqdori	izoh
DEA konsentratsiyasi 30 %				
1.	Erkin DEA	%	22,37	74,6 %
2.	Bog'langan DEA	%	7,63	25,4 %
3.	Termik barqaror tuzlar (TBT)	ppm	2553	2,5 marotaba ko'p
4.	Termik barqaror amin tuzlari	%	0,49	me'yordan yuqori
5.	Kuchli kationlar	ppm	67	me'yordan yuqori
6.	Aminokislotlar	ppm	4233	xavfli daraja
7.	Glikolyatlar	ppm	627	1,3 marotaba ko'p
8.	Asetatlar	ppm	439	me'yordan yuqori
9.	Bitsinlar	ppm	1648	2,8 marta ko'p
10.	Oksalat	ppm	498	2 marotaba ko'p
11.	Temir birikmalari	ppm	118	24 marotaba ko'p
12.	Cho'kkan zarralar	mg/l	93	me'yordan yuqori
13.	S birikmalari ko'pi bilan	%	2,4–2,8	me'yordan yuqori
14.	Smolasimon moddalar	%	2,5–3,5	me'yordan yuqori
15.	Gidratlar	%	3,5–4,0	me'yordan yuqori
16.	Mexanik aralashmalar	mg/l	779–1059	me'yordan yuqori
17.	H ₂ S	mg/m ³	5-7	me'yor
18.	SO ₂ , %	%	1,5	me'yor

DEA eritmasini zararli qo'shimchalardan tozalash uchun Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan A-400 va Purolite kompaniyasining gel holdagi A-200 kuchli asosli anionitlaridan foydalanildi. Smolalarni tayyorlash GOST 20301-74; GOST 20255.1-89; GOST 20255.2-89 talablariga muvofiq o'tkazildi.

Qumli filtr tasnifi.



1


Kolonnadagi qum hajmi – 657 cm³
 Qum qatlamini balandligi – 55 cm
 Diametri – 3,9 cm

- Qum yuzasining maydoni – 12 cm²
 Eritmani o'tkazish tezligi– 1,5-2,1 l/soat
 Unumdorlik – 2,11 m³/m²·s
 Faollashtirilgan ko'mir AG-3
 Ko'mirning hajmi AG-3 –100 cm³,
 2. Og'irligi (quruq ko'mirning) – 50 g
 Ko'mir qatlami balandligi – 46 cm
 Diametr – 1,66 cm
 Ko'ndalang kesim maydoni – 2,17 cm²
 Eritmani o'tkazish tezligi–1,5-2,1 l/soat
 Unumdorlik – 2,4 m³/ m²·s
 3. Smolali kolonka AV-400
 Diametr – 1,63 cm
 Tayyorlangan smola hajmi .–100 cm³
 Smola ustuni balandligi – 48 cm
 Ko'ndalang kesim maydoni – 2,083 cm²
 Eritmani o'tkazish tezligi – 1,5-2,1 l/soat
 Unumdorlik – 2,36 m³/ m²·s

1-rasm Ishlatilgan yaroqsiz etanolamin eritmasini zaharli moddalardan tozalash. 1-Qumli filtr, 2-aktivlangan ko'mir, 3- A-200, A-400 anioniti

Ishlatilgan yaroqsiz etanolamin eritmasini tozalash uchun tabiiy daryo qumidan foydalanildi. Yirik aralashmalar va toshlar yacheykalari 2 mm bo'lgan g'alvirda ajratib olindi, so'ngra elandi va yacheykalari 0,34 mm bo'lgan g'alvirda changi yuvildi. Filtr uchun donalarining kattaligi (0,34÷1,0) mm bo'lgan kvarts qumdan foydalanildi. 1,5-2,1 l/soat tezlikda eritma qumli filtdan o'tkazilib mexanik aralashmalardan tozalanadi (1-rasm) [2].

Yuqoridagi filtrlash usuli yordamida absorbent eritmasi tozalanganda mexanik aralashmalar va smolasimon moddalarning 75,0÷83,0 % gacha kamaytirishga erishildi. DEA eritmalari tuzlardan A-200 va A-400 anionit filtirlari yordamida tozalanganda absorbent tarkibidagi tuzlar miqdori 85-90% gacha tozalandi.



2-расм ДЭА хроматограммик тахлилли

Olib borilgan laboratoriya tadqiqot ishini natijalarini xromotografik tahlil qilganimizda (2-rasm) tozalashga berilgan dastlabki va oxirgi etanol amin eritmasining tarkibi taqqoslanganda,

eritma tarkibidagi og‘ir aralashmalar (mexanik aralashmalar, birikkan aminlar, haroratga chidamli tuzlar va h.k.) dastlabki holatga nisbatdan kamayganligini, eritmani talab darajasigacha tozalashga erishildi.

Toza ishlatilmagan etanolaminlarning tarkibiy qismlari xromatomass-spektroskopiya va element tahlillari o‘rganildi. Ishchi absorbentlar tarkibida 30% gacha DEA va 2-3% gacha piperazin (gazni CO₂dan tozalash ko‘rsatgichini yaxshilash uchun) mavjud bo‘ladi. Ishlatilgan–to‘yingan 30 % absorbsion eritmasining tarkibida esa DEAning miqdori 70-75 % gacha kamayib, uning tarkibida aminokislotalar, glikolyatlar, asetatlar me‘yordan oshib ketganligi, TBTlarning miqdori 2,5 marta, bitsinlar (N, N-Bis(2-gidroksietil) gliptin; dietilolgliptin; dietanolgliptin; digidroksietilgliptin) miqdori 2,8 martaga, oksalatlar 2 martaga ko‘payganligi fizik-kimyoviy tahlil usullari orqali o‘rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.N. Raximov, T.B. Turaev, A. Ikramov, D.N. Olimov. Ishlatilgan yaroqsiz etanolaminlarni zararli moddalardan tozalash//Kompozitsion materiallar Ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali №3/2021.T.-2021 154-157 b.
2. Тураев Т.Б. Буриев М.М. Технология регенерации отработанного диэтаноламина. Международной научная–техническая конференция. Нефтегазопереработка и нефтехимия–2015, России. Уфа с. 62-63

OQOVA SUVLARNI KIMYOVIY TOZALASH TAVSIFI

A.A.Ochilov¹, Uzakbaev K.A.², Umarov A.A.³

1. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti doktoranti PhD, dotsent;

2. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti;

3. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti erkin izlanuvchi.

Bizga azaldan ma‘lumki biror bir nimaning miqdorini ko‘p ekanligini hamda narxi yoki qadrini kamaytirib ko‘rsatish uchun suvni misol qilib olamiz. Go‘yoki dunyodagi eng ko‘p resurs bu suv deb hisoblaymiz, aslida esa barchasi boshqacha bo‘lishi mumkinligini har doim ham o‘ylab ko‘rmaymiz.

Adabiyotlarda keltirilishicha yer sharidagi suvning umumiy hajmi 1400 mln. km³ ga teng ekan albatta bu raqam juda miqdorda ekanligini ko‘rsatadi, lekin ushbu suvning faqatgina 3 % ini chuchuk suvlar tashkil qiladi. Insoniyat ishlab chiqarishda qishloq xo‘jaligida, juda katta miqdorda suvni iste‘mol qiladi.

Sanoat ishlab chiqarish, korxonalarida, qishloq xo‘jaligida maishiy xizmat korxonalarida hosil bo‘lgan suvlar - oqova suvlar hisoblanadi.

Oqova suvlarni tozalashning bir necha samarali usullari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning ichida eng samarali usul fizik-kimyoviy tozalash usullari hisoblanadi.

Fizik-kimyoviy usulda oqova suvlar koagulyatsiya, flotatsiya, adsorbsiya, ionalmashish, ekstraksiya, rektifikatsiya, bug‘lantirish, distillatsiya, kristalizatsiya, desorbsiya kabi jarayonlar asosida tozalanadi. Bu usullar oqova suvdagi erigan mineral, organik va gaz birikmalarini ajratishda, hamda juda mayda dispers suzib yuruvchi zarralarni ajratishda qo‘llaniladi.

Umuman olganda tozalashning u yoki bu usulini tanlash, tozalanishi lozim bo‘lgan oqova suvning sanitarik va texnologik talablari, chiqindi moddalar konsentratsiyasi, oqova suv miqdori, zaruriy material va energetik resurslarning bor-yo‘qligiga asoslanadi.

Suv namunalari quvur liniyasidan namuna olish jo‘mrangi orqali olinadi, u orqali haydash uchun tayyorlangan suv mahsuldor qatlamga yuboriladi. Namuna olish uchun jo‘mrakdan suvni erkin halatda 5-10 daqiqa davomida to‘kib tashlaganidan so‘ng namuna olinadi.

Suvni tozalash tizimining normal ishlashi vaqtida suvdan namuna olish ish smenasida bir marta amalga oshirilishi kerak. Suvni tozalash tizimining texnologik ish rejimi o‘zgartirgan yoki

buzilgan taqdirda, tizimning normal ishlash rejimi tiklanmaguncha tahlil qilish uchun qo'shimcha suv namunalari olinadi.

Uglevodorodlar miqdorini aniqlash uchun suv namunalarining hajmi tavsiya etilgan neftlarning tarkibiga qarab 200 dan 1000 ml gacha bo'lishi mumkin.

Oqova suvlarning tarkibini aniqlashda ishonchli ma'lumotlarni olish uchun kamida 2 ta namunani olish kerak.

Namunalarni, hajmi oldindan ma'lum bo'lgan toza, quruq shishalarda, maydalangan shisha tiqinlar bilan (yoki ba'zi hollarda polietilen tiqinlar bilan) olinadi.

Namuna olishda qo'shimcha hujjat tuziladi va tahlilga nusxa sifatida ilova qilinadi. Qo'shimcha hujjat quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:


- namuna olingan sana (yil, oy, kun, soat);
- namuna olish joyi;
- namuna olish paytida suv harorati;
- olingan namunalar sifatiga ta'sir qiluvchi maxsus shartlar;
- namunalarni olgan shaxsning lavozimi va imzosi.

Oqova suvlar tarkibiy jihatdan qayta foydalanishga yaroqsiz hisoblanadi. Ushbu oqova suvlarni utilizatsiya qilishda asosan chuqur quduqlar qazib yer ostiga haydaladi yoki masus suv hig'ish havzalariga tashlanadi. Bunda har ikkala holatda ham ekologik talablar ya'ni sanitar - gigenik talablarni qo'pol buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa ishlab chiqarish korxonalariga jarima yoki iqtisodiy choaralar ko'rilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Hosil bo'layotgan oqova suvlarni tozlash uchun mexanik usul bilan birgalikda kimyoviy usullarni olib borilishi kerak.

Oqova suvlarni kimyoviy usulda tozlashning koagulyatsiya usulida tozalash olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu usulda suvdagi dispers zarralarning bir-biriga yopishib yiriklashishi, ularni o'zaro qo'shilishidan hosil bo'ladi. Koagulyatsiya jarayoni oqova suvdagi mayda dispers zarralarning cho'kishini tezlashtiradi. Oqova suvni tozalashda suvga maxsus koagulantlar qo'shiladi. Koagulantlar ta'sirida mayda dispers zarralar suvda yirik pag'a-pag'a (achigan sutdagi quyqalar kabi) zarralarga aylanadi va ular o'z og'irlik kuchi ta'sirida cho'kadi. Bunda suvga koagulant qo'shilganda metall gidrooksidlari hosil bo'ladi, ular qisman musbat zaryadlangani uchun manfiy zaryadlangan kolloid va muallaq zarralarni o'ziga tortadi. Oqibatda zarralar o'zaro tortishib yiriklashadi va suv tagiga cho'kadi 1-rasm.



1-rasm. Oqova suvni koagulyatsiya usulida tozalash qurilmasining texnologik sxemasi:

1-eritma tayyorlash sig'imi; 2-dozator (me'yorlab beruvchi); 3-aralashtirgich; 4-pag'a hosil qilish kamerasi; 5-tindirgich.

Koagulant sifatida sanoatda aluminiy tuzlari, temir tuzlari va ularning aralashmalari qo'laniladi. Ko'pincha $Al_2(SO_4)_3 \cdot 12H_2O$, $NaAlO_2$, $Al_2(OH)_5Cl$ - aluminiy geksaxlorid va shu kabi tuzlar ishlatiladi.

Koagulantni va suvni aralashtirish uchun gidravlik va mexanik aralashtirgichlar ishlatiladi. Gidravlik aralashtirgichlarda aralashtirish jarayoni suv oqimining yo'nalishini va tezligini o'zgartirish hisobiga amalga oshiriladi.

Mexanik aralashtirgichlarda esa aralashtirish jarayoni aralashtirgichni bir maromda sekin olib borish bilan amalga oshiriladi, chunki aralashtirgich tez aylantirilganda hosil bo'lgan yirik zarralar yemirilishi mumkin. Shundan keyin koagulant bilan aralashgan suv zarralar (pag'alar) hosil bo'lish kamerasiga yuboriladi. Bu yerda pag'alarni hosil bo'lish vaqti 10-30 minutni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musayev M.N. Sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyasi asoslari. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011.- 500b.
2. Turobjonov S., Tursunov T., Po'latov X. Oqava suvlarni tozalash texnologiyasi. –T.: Musiqa, 2010. -250 b.
3. Frank Woodard, Ph.D. Industrial Waste Treatment Handbook. Butterworth–Heinemann, 2001:P-486.

ПОЛУЧЕНИЕ СИНТЕЗ-ГАЗА

М.Т.Рахмонкулов, Б.О.Жумабоев, Ш.А.Ризаев
Каршинский инженерно-экономический институт

Синтез-газ представляет собой смесь водорода H_2 и оксида углерода CO , которая используется во многих процессах химической и нефтехимической промышленности. В производстве метанола и аммиака, а также напрямую H_2 и CO . Синтез-газ используется также в переработке нефти и многих других отраслях, например в металлургии (рисунок 1).




Рисунок 1. Основные современные пути использования синтез-газа [1].

Синтез-газ можно получить практически из любого углеродсодержащего сырья, таких как уголь, нефтяной кокс, биомасса и природный газ. Наиболее дешевым способом является использование ПГ в качестве сырья [2]. Основным современным методом получения СГ является окислительная конверсия метана. В данном процессе метан окисляется водяным паром, диоксидом углерода или кислородом, а также их комбинациями. В зависимости от выбранного способа, состав СГ и аппаратное оформление процесса будут сильно отличаться.

Паровая конверсия метана.

Паровая конверсия в настоящее время является наиболее применяемым в промышленности способом превращения метана в СГ. Широкое использование паровой


конверсии метана в промышленности началось в 60-е годы XX века после перехода с угля как основного сырья для

химической промышленности на природный газ [3]. По всему миру стоит большое количество таких установок, к примеру фирмой Lurgi установлено более 100 таких установок.

В случае паровой конверсии метана (SMR – steam methane reforming), окисление проводят водяным паром при высоких температурах по следующей основной реакции:



Реакция окисления гомологов метана протекает аналогично. Так, взаимодействие их с водяным паром может быть в общем виде выражено уравнением:



Побочным продуктом паровой конверсии метана является диоксид углерода CO_2 , образующийся в количестве нескольких процентов по реакции водяного сдвига:



Паровая конверсия в трубчатой печи относится к числу термодинамически необратимых процессов. Для его протекания нужна высокая температура, которая обеспечивается сжиганием топлива. Типичными параметрами процесса паровой конверсии метана являются температура 700-950 °С и давление 20-40 бар. Кол-во подаваемого водяного пара на процесс, выражается через мольное соотношение $\text{H}_2\text{O}/\text{C}$, которое обычно находится в диапазоне 2 – 3,5. Обычно СГ по данному методу получается с сильно завышенным мольным соотношением H_2/CO для синтеза углеводородов, и составляет около 3.

Паровая конверсия метана протекает в присутствии катализаторов – переходных металлов VIII группы, таких как Rh~Ru>Ni>Ir>Pd~Pt>>Co~Fe. Несмотря на то, что активность родиевого катализатора ~ в 13 раз выше, чем никелевого, в промышленности используют именно последний, поскольку благородные металлы дороги, а кобальт и железо в условиях реакции быстро окисляются и дезактивируются. Из неблагородных металлов наибольшей активностью обладает никель [4].

Чтобы развить поверхность катализатора, никель наносят на носитель. Типичным носителем являются оксиды $\alpha\text{-Al}_2\text{O}_3$, MgO, MgAl_2O_4 , ZrO_2 и т.п. Например, катализатор компании Haldor Topsoe или его российский аналог катализатор ГИАП-16 содержит 25 % Ni, нанесенного на MgO с добавкой 6 % Al_2O_3 . Такой катализатор имеет общую удельную поверхность 2–3 м²/г, поверхность никеля 0,5 м²/г и срок службы 1–3 года. Для лучшего массопереноса катализатор используют в виде небольших гранул или колец. Перед проведением паровой конверсии метана катализатор обычно восстанавливают в потоке водорода.

Ограниченная активность катализатора препятствует установлению термодинамического равновесия, соответствующего составу реагирующей смеси, давлению, температуре и соотношению реагентов (пар/газ), что приводит к необходимости либо подачи некоторого избытка технологического пара, либо повышения температуры для достижения заданной степени превращения метана. Подвод тепла к реагирующей смеси приводит к росту косвенных потерь, обусловленных необратимостью процессов горения и теплообмена.

На практике потери активности катализатора конверсии составляют менее 10 % вследствие транспортных ограничений. В литературе принято активность катализатора характеризовать температурной поправкой на недостижение равновесия Δt_p . При этом под Δt_p понимают разность между реальной температурой и температурой, рассчитанной по термодинамическому равновесию. В производстве аммиака увеличение Δt_p с 0 до 20 °С приводит к росту относительных потерь эксергии на 2,7 %. Эти потери не зависят от аппаратного оформления процесса паровой конверсии.

Одним из важных требований к составу конвертированного газа является допустимое количество остаточного метана, которое для разных процессов колеблется от 0,3 до 3 % об.




Рисунок 2. Влияние параметров парового риформера на степень конверсии метана.

Равновесный состав СГ зависит от температуры и давления процесса, а также состава исходной смеси. Реакция конверсии углеводородов идет с увеличением объема и с поглощением тепла. Согласно принципу Ле-Шателье, химическое равновесие реакции паровой конверсии сдвигается вправо при повышении температуры, уменьшения давления, увеличения соотношения водяного пара к метану в исходной смеси. При этих параметрах достигается максимальная степень превращения метана (рисунок 2).

Независимо от того, что со снижением давления степень конверсии метана возрастает, на практике применяют повышенное давление, необходимость которого обусловлена дальнейшей переработкой СГ, поскольку последующие процессы синтеза требуют более высоких давлений – 20, 50 или даже 100 атм. Несмотря на то, что это приводит к нежелательному сдвигу равновесия реакции и требует увеличения соотношения пар/газ, это оказалось более выгодным, так как в результате уменьшаются затраты электроэнергии на дальнейшую переработку, очистку и сжатие газовой смеси.

Компримирование СГ, обладающего весьма низкой теплоемкостью, приводит к его значительному разогреву и требует проведения многократного промежуточного охлаждения газа. Кроме того, присутствие до 70 % водорода в СГ требует использования специальных сплавов, устойчивых к явлению водородного охрупчивания. В некоторых случаях, компрессор СГ является самым дорогим аппаратом во всей технологической цепочке переработки ПГ. С повышением давления также уменьшаются размеры оборудования.

Выбранным условиям процесса соответствует определенный состав газа. На рисунке 3 показано влияние изменения равновесного состава СГ на выходе из риформера при изменении температуры конверсии.




Рисунок 3. Равновесный состав сухого синтез-газа на выходе из риформера (при $P = 26$ бар и $H_2O/C = 2,5$).

Повышение температуры паровой конверсии метана способствует подавлению реакции водяного сдвига. Равновесие данной реакции при температурах ниже 820 °С смещено в сторону образования CO₂ и H₂. Соответственно для повышения выхода CO и снижения соотношения H₂/CO в СГ, температура процесса должна быть как можно выше.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Ullman's encyclopedia of Industrial chemistry. Weinheim, Germany.: Wiley-VCH, 2007.
2. Spath P.L., Dayton D.C. Preliminary Screening Technical and Economic Assessment of Synthesis Gas to Fuels and Chemicals with Emphasis on the Potential for Biomass Derived Syngas. Golden: National Renewable Energy Lab Golden Co., 2003.
3. Rostrup-Nielsen J.R. Steam reforming catalysts. Copenhagen: Danish Technical Press, 1975.
4. Subramani V., Sharma P., Zhang L., Liu K., Song C. Hydrogen and Syngas Production and Purification Technologies // Hydrocarbon Processing for H₂ Production. - New-York.: Wiley, 2010. P. 14-126.

MAHALLIY XOM ASHYOLAR ASOSIDA DEEMULGATOR OLISH VA TAHLIL QILISH

¹Adizov B.Z., ²Ochilov A.A., ³Uzakbaev K.A., ⁴I.Qo'shakov

1.O'ZRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti, laboratoriya mudiri, t.f.d., kat.i.x.;

2.Buxoro muhandislik-texnologiya instituti doktoranti, PhD., dotsent;

3.Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti;

4.Buxoro muhandislik-texnologiya instituti talabasi


Hozirgi kunda dunyoda barqaror suv neftli emulsiyalarni suvsizlantirish va tuzsizlantirish uchun kimyoviy, mexanik va elektrokimyoviy usullardan foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, xususan, suvneftli emulsiyalarning tarkibi va xususiyatlarini ularning barqarorligiga kimyoviy va fizik usullar ta'sirini aniqlash; barqaror suvneftli emulsiyalarni parchalash uchun samarali deemulgatorlarni tanlash; turli suvneftli emulsiyalarini deemulgirlashni kimyoviy, elektrokimyoviy va mexanik usullarini birlashtirib qo'llashga alohida e'tibor berilmoqda.

Neftni tayyorlash qurilmalarida suv neft emulsoyalarini tozalashda aksariyat hollarda import deemulgator K-1dan foydalanib kelinmoqda. Lekin emulsiyalarning tarkibini o'zgarishi deemulgator samaradorligiga ta'sir ko'rstmoqda. Shu sababli import deemulgator o'rmini bosuvchi yangi deemulgator ishlab chiqish talab etiladi.

Bugungi kunda deemulgatorlarni ishlab chiqarishning rivojlanishi sulfogruhur (SO₂OH) yoki sulfat guruhi – OSO₂OH ni saqlagan noionogen sirt faol moddalarning olinishiga qaratilgan.


Yog'larni (moylarni) sulfatlash 35 °C dan oshmagan haroratda va sulfat kislotasini (H₂SO₄) juda ortiqcha amalga oshiriladi. Ushbu usulda alizarin moyi kastor moyini sulfatlash orqali olinadi. Ushbu usulning ximizmi oltingugurt kislotasini to'yinmagan yog' kislotalarining gidroksil guruxlari va etilen bog'larida eterifikatsiyalash orqali bog'lanish va ikki holatda ham suv ajralishi bilan tushuntiriladi. Bu yerda asosiy e'tibor sulfat kislotasini ortiqcha sarfini 20 dan 60 % gacha to'g'ri tanlashga qaratiladi, chunki stexiometrik hisoblar yetarli samarani ta'minlaydi. Moyni sulfatlash 3-4 soatda amalga oshiriladi.

Mahalliy yog'- moy sanoati ikkilamchi xom ashyosining ekstraksiya usulida olingan ekstraksiya paxta moyini (EPM) 1-rasm da 35 °C da, ko'p miqdorda (20-60 %) miqdorda 50 % sulfat kislotasi bilan sulfirlab, so'ngra 20-30 % miqdorda NaOH ning suvli eritmasi sulfirlangan EPM ga aralastirgich orqali 20-30 minut vaqt moabaynida 200-300 ayl/minutda aralastiramiz so'ngra nyetralizator qurilmasida 2 soat vaqt mobaynida nyetralash jarayoni amalga oshiriladi va keyin rezervuarga sulfirlangan SD-1 deemulgatorini olamiz. Agar olinayotgan sulfirlangan deemulgator poroshok holatida olinish talab etilsa rezervuardan keyin quritgich va qadoqlash jihozlari ham o'rnatiladi.



1-rasm. Mahalliy xom ashyolar asosida SD-1 sulfirlangan deemulgator olish sxemasi.

Mahalliy yog' - moy sanoati ikkilamchi xom ashyosining ekstraksiya usulida olingan ekstraksiyon paxta moyini (EPM) 2-rasmda 35 °S da, ko'p miqdorda (20-60 %) miqdorda 50 % sulfid kislotasi bilan sulfirlab, so'ngra 20-30 % miqdorda NaOH ning suvli eritmasi sulfirlangan EPM ga aralashtirgich orqali 20-30 minut vaqt moobaynida 200-300 ayl/minutda aralashtiramiz so'ngra nyetralizator qurilmasida 2 soat vaqt mobaynida nyetralash jarayoni amalga oshiriladi va keyin rezervuarga sulfirlangan SD-2 deemulgatorini olamiz. Agar olinayotgan sulfirlangan deemulgator poroshok holatida olinish talab etilsa rezervuardan keyin quritgich va qadoqlash jihozlari ham o'rnatiladi.



2-rasm. Mahalliy xom ashyolar asosida SD-2 sulfirlangan deemulgator olish sxemasi.

Ekstraksiyalangan paxta moyi asosida ishlab chiqilgan deemul'gatorlar SD-1 va SD-2 hamda ishlab chiqarishda foydalanilib kelinayotgan import deemulgator K-1 (XXR) ga qaraganda ko'proq darajada emulsiyalardni parchalash samaradorligi yuqori ekanligi 2-jadvaldan ko'rinib turibdi.

Deemul'gatorning solishtirma sarfi ayniqsa og'ir neftlarning SNE ni suvsizlantirish va tuzsizlantirish jarayonlarining asosiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Taklif qilinayotgan deemul'gator ma'lum deemul'gatorga nisbatan ancha faolligi 2-jadvaldan ko'rinib turibdi, ya'ni yuqori sirt tarangligiga, yuvish va ko'pik hosil qiluvchanlik qobiliyatiga ega, bu esa og'ir neftlardan hosil bo'lgan barqaror SNE ni parchalashda juda muhim hisoblanadi.

2-jadval

K-1 (XXR) va SD-1, SD-2 bilan SNE larini parchalashda qoldiq suvlar ko'rsatkichlari

Deemulgator nomlanishi	Deemulgator sarfi, g/t	Boshlang'ich suv tarkibi, %	SNE da qoldiq suv tarkibi, %
------------------------	------------------------	-----------------------------	------------------------------

K-1 (XXR) nazorat	70-90	85,0	1,42-1,2
SD-1	70-90	85,0	1-1,05
SD-2	70-90	85,0	0,87-0,5

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki chetdan keltirilgan deemul`gator K-1 (XXR) ning o'rniga SD-1 yoki SD-2 ni qo'llash mumkin. SD-1 da oltingugurtli birikmalar, gossipol, xlorofill va ularning hosilalari borligi uchun uning deemul` girlovchi xossasi yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.O.Sattorov Neft va gazni yig'ish, tayyorlash va uzatish. O'quv qo'1. Buxoro. 2020. 305 bet.

2. A.A. Очилов Создания композиций деэмульгаторов для разрушения устойчивых эмульсий тяжелых нефтей. Science and education, Scientific journal. In volume 2. Issue 2, February 2021. P.192-197.

3. Очилов А.А., Абдурахимов С.А., Адизов Б.З., Рахимов Б.Р. Разработка композиции деэмульгаторов, применяемых в разрушении высокоустойчивых водонефтяных эмульсий тяжелых нефтей. Монография. – Бухоро, Дурдона. 2020. – 120 б.

ПАРОВАЯ КОНВЕРСИЯ МЕТАНА


М.Т.Қаршиев, Б.О.Жумабоев, Ш.А.Ризаев
Каршинский инженерно-экономический институт

Каждый из этих способов имеет свои преимущества и недостатки, однако все они являются действенными приемами к достижению оптимального выхода продукта по сравнению с синтезом за один проход перерабатываемого газа.

Список использованной литературы

1. Хасин А.А. Основные пути переработки природного газа в компоненты топлив и ценные химические продукты: учебное пособие для магистрантов и аспирантов. Новосибирск: Редакционно-издательский центр НГУ 2015. 100 с

2. Peter M. Maitlis, Arno de Klerk. Greener Fischer—Tropsch Processes. Weinheim, Germany.: Wiley—VCH, 2013. 372 p.
3. A. de Klerk, E. Furimsky. Catalysis in the Refining of Fischer-Tropsch Syncrude. Cambridge, UK: RSC Publishing, 2010. 279 p.
4. Schweitzer J.M., Vigiúé J.C. Reactor Modeling of a Slurry Bubble Column for Fischer-Tropsch Synthesis // Oil & Gas Science and Technology. 2009. V. 64. № 1. P. 63-77.

ТАБИЙ ГАЗНИ ҚАЙТА ИШЛАШ МАҲСУЛОТИ – АЦЕТИЛЕН АСОСИДА N-ВИНИЛМОРФОЛИН СИНТЕЗИ

D.X.Mirxamitova, D.A.Jadilova
Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali
E-mail: dmirkhamitova@gmail.com

Bugungi kunda Respublikamiz zamonaviy neft-kimyó, neft va gazni qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning yangi texnologik bosqichiga ko'tarilib bormoqda. Bu esa neft-gazni chuqur qayta ishlash bo'yicha bir qator samarali izlanishlar olib borishga e'tibor qaratish lozimligini belgilaydi. Ma'lumki, tabiiy gazni qayta ishlash mahsuloti bo'lgan – asetilen sanoat mahsuloti hisoblanadi. Shu sababli asetilen asosida olinadigan mahsulotlarni tannarxi iqtisodiy jihatdan foyda keltiradi. Azot tutgan birikmalarning vinil hosilalari neft-gaz kimyosi sohalarida, qishloq xo'jaligida, farmasevtika, kimyo sanoati, tekstil, lok-bo'yoq va kompozitsion materiallar olishda qo'llanilmoqda. Shu tufayli azot atomi tutgan birikmalarni asetilen ishtirokida vinillash jarayoniga ta'sir etuvchi turli tabiatli katalizatorlar, organik erituvchilar va ularning aralashmalari, shuningdek yuqori asosli muhitlar ishtirokida vinil hosilalarini hamda muhim kimyoviy komponentlar sintez qilish texnologiyalarini yaratish dolzarb hisoblanadi.

Ishda morfolinni geterogen-katalitik vinillash jarayoni tadqiq qilindi. Reaksiya oqimida ishlaydigan reaktor va geterogen katalizatorlar ishtirokida amalga oshirildi. Bunda kontakt sifatida granula xolatdagi faollantirilgan ko'mirga shimdirilgan KOH (30 % mass.) ishlatildi va jarayonda N-vinilmorfolin hosil bo'lishi aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, 150-250 °C harorat oralig'ida hosil bo'lgan N-vinilmorfolinni unumi oshishiga olib keladi va mos ravishda 15% va 54 % ni tashkil qiladi. Haroratni yanada oshirish bilan mahsulot unumini keskin kamayishiga olib keladi. Bunda 280-290 °C 29% ni hamda 290-300 °C da 10% ni tashkil qildi.

Shunday qilib, morfolinni gaz fazada geterogen usulda vinillash jarayoni uchun 250-255 °C harorat muqobil deb topildi, bunda mahsulot unumi 54 % ni tashkil qildi.

Olingan moddaning hosil bo'lish mexanizmi analizi shuni ko'rsatadiki, morfolin molekulasining azot atomidagi vodorodi bilan kaliy gidroksid kislorodi orasida kuchsiz vodorod bog' hosil bo'lishi hisobiga kaliy ioni va vodorod ioni orasida almashini sodir bo'ladi hamda dissotsiyanish natijasida muvozanat sodir bo'ladi. So'ngra morfolin ionining asetilenga nuklefil birikishi natijasida karbanion hosil bo'ladi va ikkinchi morfolin molekulasiga ta'siri natijasida N-vinilmorfolin hamda morfolin ioni hosil bo'lishi hisobiga jarayon davom etadi.

Sintez qilingan morfolinni vinil hosilasi tuzilishi zamonaviy spektral usullar yordamida tahlil qilindi, shuningdek biologik faolligi, zaharlilik darajasi aniqlandi va keng miqiyosda o'rganishga tavsiya etildi. Morfolinni asetilen asosida geterogen-katalitik vinillash usuli o'quv jarayoniga tadbiiq qilingan.

NEFTDAN AVTOMOBIL YONILG'ILARINI OLISHNING ASOSIY USULLARI

F.D.Egamnazarova, I.Q.Sattarov
"Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instititi"

Neftni qayta ishlashning fizikaviy va kimyoviy usullari mavjud. Suyuq yonilg'ining asosiy qismi neftni to'g'ridan to'g'ri haydash, ya'ni fizikaviy usul asosida (bunda uglevodorodlarning

kimyoviy tuzilishi o'zgaraydi) yoki termik qayta ishlash, ya'ni kimyoviy usul asosida (bunda uglevodorodlarning kimyoviy tuzilishi o'zgaradi) olinadi. Neftni to'g'ridan to'g'ri haydash. Neft tarkibidagi uglevodorodlar turli xil fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarga ega va, shu bilan birga, ularning qaynash harorati ham turlichadir. Neftga dastlabki ishlov berish jarayoni ulevodorodlarning qaynash haroratari turlicha ekanligiga asoslangan.

Neft maxsus pechlarda qizdirilganida avval undan qaynash harorati pastroq bo'lgan uglevodorodlar, harorat ko'tarilganidan keyin esa qaynash harorati yuqoriroq bo'lgan uglevodorodlar bug'lanadi. Bunda ajralib chiqqan bug'lar sovutiladi, suyuqlikka aylantiriladi va distillatlar (qaynash haroratlari yaqin bo'lgan fraksiyalar) yig'iladi. To'g'ridan to'g'ri haydashda, odatda, quyidagi distillatlar olinadi: avtomobil, aviatsiya benzinlari va turli erituvchilar olishda ishlatiladigan benzin distillatlari (taxminiy qaynash harorati 50–180°C); reaktiv yonilg'i va kerosin olinadigan kerosin distillatlari (120–315°C); dizel yonilg'isi olish uchun solyar distillatlari (180–360°C); kreking uchun xomashyo olish uchun vakuumli gazoyl (350–500°C). Dizel fraksiyalari haydalganidan keyin qoladigan qoldiq (qaynash harorati 500°C dan yuqori) bitum tayyorlashda foydalaniladi. Og'ir distillatlar (mazut)dan ularning kimyoviy tarkibiga qarab surkov moylari ishlab chiqarishda va qozon yonilg'ilari sifatida foydalaniladi. Neftni to'g'ridan to'g'ri haydashda 10–12 foiz benzin, 15–20 foiz reaktiv yonilg'i yoki kerosin, 15–20 foiz dizel yonilg'isi va 50 foizgacha mazut olinadi.

Distillatlardan tayyor mahsulotlar olish uchun ularga qo'shimcha ishlov (tozalash, turli komponentlar aralashtirish va boshqalar) berish lozim. To'g'ridan to'g'ri haydashda olinadigan benzin, reaktiv va dizel yonilg'ilari miqdori ko'p bo'lmaganligi tufayli og'ir fraksiyalarning ko'p qismi kimyoviy ishlov berishga yuboriladi. Kreking jarayon. Bu jarayon yuqori molekular fraksiyalarning mayda molekular massali fraksiyalarga parchalanishiga asoslangan.

Kreking usulida neftdan benzin fraksiyalarining ajratib olinishi 50–60 foizgacha yetadi. 17 Kreking jarayon issiqlik ta'sirida o'tkazilsa, termik kreking (bu usul asosida A-66 benzin olingan) deb ataladi. Kreking jarayon issiqlik ta'sirida va katalizatorlar ishtirokida o'tkazilsa, parchalanish katalitik kreking (bu usul asosida A-72 va A-76 benzinlari olinadi) deyiladi. Termik kreking jarayoni quyidagi omillarga bog'liq: harorat, bosim, jarayonning davomiyligi va xomashyo tarkibi. Masalan, 400°C haroratda mazutdan 30 foiz benzin ajratib olish uchun 12 soat talab etilsa, harorat 500°C gacha yetkazilganida esa atigi 30 soniya vaqt talab etiladi. Kreking jarayonda olingan benzinlar tarkibida ko'p miqdorda to'yinmagan uglevodorodlar mavjud bo'lib, ular neft to'g'ridan to'g'ri haydash olingan benzinlarda bo'lmaydi. Shuning uchun ham kreking benzinlar saqlashda unchalik turg'unlik xususiyatiga ega emas va detonatsiyaga chidamliligi past. Ularning turg'unligini oshirish maqsadida ularga oz miqdorda (foizning yuzdan yoki mingdan bir ulushi miqdorida) maxsus antioksidlovchi suyuqliklar, ya'ni stabilizatorlar aralashtiriladi. Antioksidlovchi sifatida naftol, smolalarning fenolli fraksiyalari (240–310°C) va paraoksidifenilaminlar ishlatiladi.

Agar kreking jarayon 2–5 MPa bosim ostida va 480–500°C haroratda amalga oshirilsa, bu jarayon suyuq fazali kreking deyiladi, bosim 0,2–0,6 MPa hamda harorat 520–550°C va undan ortiq bo'lganida esa bug' fazali kreking deyiladi. Bug' fazali jarayonda olingan benzin tarkibida to'yinmagan uglevodorodlar nisbatan ko'p bo'ladi, shuning uchun suyuq yonilg'i (suyuq fazali jarayonga nisbatan) kam olinadi.

Katalitik kreking texnologiyasi termik krekinga nisbatan takomillashgan bo'lib, bunda hosil bo'lgan to'yinmagan uglevodorodlarning bir qismi to'yingan ko'rinishga o'tadi. Buning natijasida katalitik kreking natijasida olingan benzinning sifati yuqori bo'ladi. Katalitik kreking 450–590°C haroratda va 0,1–0,2 MPa bosimda katalizatorlar (alumaslikatlar va boshqa moddalar) ishtirokida o'tkaziladi. Bunda xomashyoni kreking qurilmasidan bir marta 18 o'tkazishda 40–50 foiz benzin, 30–40 foiz dizel va 10–15 foiz qaz fraksiyalari olinadi. Neft mahsulotlarining sifatini yaxshilash maqsadida ularning tarkibidagi uglevodorodlarning molekular massasini pasaytirish kreking jarayoni reforming (bu usul asosida AI-93 benzini olinadi) deb ataladi. Bu jarayon 460–520 °C harorat va 0,98–1,47 MPa bosimda bajariladi, bunda 70–95 foiz benzin ajralib chiqadi. Yuqori sifatli yonilg'ilarni olish uchun yana bir qancha ikkilamchi jarayonlar o'tkazilishi zarur.

Buning natijasida uglevodorodlarning tuzilishi biroz o'zgaradi. Proliz (aromatlash), gidroforminq, alkilash, izomentsiyalash va boshqalar ikkilamchi jarayonlar jumlasiga kiradi.

Gazsimon uglevodorodlar sintezi. Gazlarni sintezlash uglerod oksidi (CO)ning vodorod bilan yuqori bosim va katalizator ishtirokida o'zaro ta'siri natijasida har xil uglevodorodlar olinishiga asoslangan. Sintezlash jarayoni atmosfera bosimi ostida, ba'zan yuqori bosim ostida (10–12 MPa), katalizatorlar bilan ta'minlangan maxsus reaktorlarda 180–210°C haroratda o'tkaziladi. Gazlarni sintezlash natijasida benzin, gazsimon fraksiya va moy kondensati olinadi. Sintezlash jarayonida 40–45 foiz benzin, 15–20 foiz dizel yonilg'isi va 10–17 foiz og'ir fraksiyalar ajratib olinadi. Bu yonilg'ilar tarkibida parafinli uglevodorodlar ko'p bo'ladi, aromatik uglevodorodlarning ulushi 3–5 foizni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Api Popoola, OE Olorunniwo, O Ige. Corrosion Resistance Through the Application of Anti-Corrosion Coatings / Additional information is available at the end of the chapter <http://dx.doi.org/10.5772/57420>. February 2014.
2. ISO 8044-1999: Corrosion of metals and alloys – Basic terms and definitions, ISO / TC 156 Corrosion of metals and alloys, 3rd ed., ISO Publications
3. A. Gandhi. Storage Tank Bottom Protection Using Volatile Corrosion Inhibitors // Supplement to Materials Performance, January 2001.p.28-30.
4. M. Alexandre, P. Dubois. Polymer-layered silicate nanocomposites: preparation, properties and uses of a new class of materials // [Materials Science and Engineering: R: Reports Volume 28, Issues 1–2](#), 15 June 2000, Pages 1-63.
5. M.I. Abdou1 , H.El-Sayed Ahmed , M.A. Wahab. Enhancement of anti-corrosion and mechanical properties of alkyd-based protective paints for steel petroleum structures incorporating natural limonite pigment // Cogent Engineering ISSN: (Print) 2331-1916 (Online) Journal homepage: <https://www.tandfonline.com/loi/oaen20>.
6. J.Xu, Y.Cao, L.Fang, J.Hu. A one-step preparation of inhibitor-loaded silica nanocontainers for self-healing coatings // [Corrosion Science. Volume 140](#), 1 August 2018, Pages 349-362.
7. X. Liu, Ch.Gu, Z. Wen, B.Hou. Improvement of active corrosion protection of carbon steel by water-based epoxy coating with smart CeO₂ nanocontainers // [Progress in Organic Coatings Volume 115](#), February 2018, Pages 195-204.
8. J.Su, J.Zhang. Improvement of mechanical and dielectrical properties of ethylene propylene diene monomer (EPDM)/barium titanate (BaTiO₃) by layered mica and graphite flakes // [Composites Part B: Engineering Volume 112](#), 1 March 2017, Pages 148-157.
9. M.M. Stack. Mapping tribo-corrosion processes: some new directions for the new millennium, Tribology International.2002, 35, 679-687
10. A.Grossman. Corrosion of Aboveground Fuel Storage Tanks // Material Performance, 2005, September, p. 44.

СИЛЬВИНИТ РУДАСИНИ БОЙИТИШ УЧУН ФЛОТАЦИОН РЕАГЕНТЛАРНИ ОЛИШ ШАРОИТЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ

¹Жумаева Г.Ю., ²Ниязова Д.Б., ³Эсиметов И.Д., ⁴Бухаров Ш.Б.

¹ЎзР ФА Умумий ва ноорганик кимё институти таянч докторант

²ЎзР ФА Умумий ва ноорганик кимё институти стажёр тадқиқодчи

³ЎзР ФА Умумий ва ноорганик кимё институти лаборатория мудури,
т.ф.д., проф.


⁴Тошкент кимё-технология институти, Кимёвий моддалар технологияси факультет
декани, т.ф.д., доц.

Ҳозирги вақтда фойдали қазилмаларни бойитишнинг самарали усуллари ишлаб чиқишга катта эътибор қаратилмоқда. Флотация усули ёрдамида кимё саноатида рудаларни бойитишда асосий усули бўлиб, қазиб олинган фойдали қазилмаларда таркибида керакли рудаларни концентратциясини фойдаланиб келинмоқда. Ҳозирги кунга йиғувчи реагентларнинг бир қанча турларидан фойдаланиб келинмоқда, лекин фойдаланиб келаётган реагентларнинг ҳаммаси ҳам талаб саноат талабларига жавоб бермайди [1-2].


Олинган тадқиқот объектлар таркиби ва хусусиятларини ўрганиш усуллари келтирилган. Танлаб олинган моддаларнинг тузилиши ва хусусиятларини ўрганишда ИҚ-спектроскопия, ДТА, ГСХ, ТСХ ва бошқа замонавий таҳлил усулларидан фойдаланилган.

Янги флотореагентларни синтез қилиш учун танлаб олинган биринчи объект – соапстокдир. Газ-суюқлик хроматографияси ёрдамида ўтказилган тадқиқотлар натижаларида дастлабки соапстокда 10 та тўйинган ва 3 та тўйинмаган ёғ кислоталаридан ташкил топганлиги келтирилган.

Флотация учун дастлабки ва олинган реагентнинг таркибини аниқлаш учун «Agilent Technology» GC 6890/MS5973N қурилмасидан фойдаланган ҳолда хром-масс-спектроскопия усулидан фойдаланилди. Олинган натижалар расмда келтирилган.



a) 1 - Tetradecane; 2- Pentadecane; 3- n-Cetan; 4 - n-Heptadecane; 5 - n-octadecane



б) 1) 2-methylpentane; 2) 3-methylpentane; 3) hexane; 4) cyclopentane; 5) cyclohexane; 6) 2-Ethylhexane; 7) trans-1-ethyl-3-methylcyclopentane; 8) n-octane; 9) ethylcyclohexane; 10) octane; 11) 5-methylnonan; 12) 9-methyleicosane; 13) 3-methylnonan; 14) 2-heptenal; 15) decane; 16) 1-cyclohexyl; 17) 4-ethyldecane; 18) undecane; 19) 3-methyl-undecane; 20) 1-hexyl-3-methylcyclopentane; 21) dodecane; 22) 1-hexylcyclohexane; 23) tridecane; 24) 3-methyl-tridecane; 25) n-tetradecane; 26) 5-methyltetradecane; 27) pentadecane; 28) n-hexadecan; 29) nonyl-cyclohexane; 30) 5-methyl-pentadecane; 31) n-octadecane; 32) cyclohexylmethane; 33) n-eicosane; 34) n-docosane; 35) 2-methyl-cyclodecanone; 36) n-Tetracosane; 37) Z,Z-3,13-octadecadien-1-ol; 38) hexacosane

Олинган натижалар шуни кўрсатадики, импорт йиғувчи аналогнинг асосий таркибида C_{14} дан C_{18} гача бўлган углеводородлар мавжуд. Бироқ, чиқиндиларнинг таркиби кўп компонентлиги билан ажралиб туради. Унинг таркибида циклик ва ациклик тузилишга эга паст ва ўрта молекуляр углеводородлар мавжуд. Хроматограммаларда тўйинмаган углеводород радикаллари, шунингдек, гидроксилли радикаллар учун характерли чўккилар филтрлаш жараёнидан сўнг йўқолганлиги шунингдек, енгил фракциялари ажратилган кейин пентан, гексан ва гептан изомерларига хос бўлган чўккилар ҳам йўқолганлиги кузатилди.

Паст хароратда ҳайдаб олинган фракциянинг асосий таркиби C_5 - C_9 углеводородлар аралашмасидан иборат. Уларда гидрофил функционал гуруҳлар кузатилмайди. Шунинг учун бу фракцияни гидрофоб хусусиятли органик эритувчи сифатида тавсия қилиш мумкин.

Олинган ўрта фракция аралашмаларининг физик-коллоид хоссалари ўрганилгандан сўнг, сільвинит рудаларини флотация жараёнида йиғувчи сифатида саноатда фойдаланиш имкониятини беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абрамов А.А. Флотационные методы обогащения: Учебник. — 4-е изд., переработ. и доп. — М.: Издательство «Горная книга», 2016. — 595 с.:
2. Годэн А.М. Флотация: Пер. с англ. / Под ред. О.С. Богданова и Е.В. Даниловой. М.: Гос. НТИ лит-ры по горному делу. - 1959. - 653 с.

RESPUBLIKAMIZDA NEFT VA GAZNI QAYTA ISHLASH IMKONIYATLARI

F.D.Egamnazarova

“Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti”

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini jahon andozalari darajasiga etkazish, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash hamda neft va gazni qayta ishlash bo'yicha

texnologik jarayonlarni chuqurlashtirish "O'zbekneftgaz" MXK rivojlanishining asosiy yo'nalishi bo'ldi.

Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini rekonstrukciya qilish bilan birga, bu erda gidrodesul'furizatsiya qurilmalari yangi kompleksining qurilishi beqaror (xom) neftni qayta ishlash darajasini oshirish va mahsulotning eksportga yo'naltirilgan yangi turlarini o'zlashtirish imkonini berdi. Quvvati 8,7 mln.t. bo'lgan (Oltiariq filiali bilan birga) Farg'ona zavodi Markaziy Osiyo mintaqasida betakror neft mahsulotlari keng assortimentini ishlab chiqarishga qodir. Xususan, ishlab chiqariladigan dizel yoqilg'isi tarkibidagi oltingugurt miqdori bo'yicha jahon sifat andozalariga mos keladi. Ichki va tashqi bozorlarda barqaror yuqori talabga ega bo'lgan raqobatbardosh "Fersol" va "Ferlita" plastik moy ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Buxoro neftni qayta ishlash zavodi neftni qayta ishlash sohasidagi eng ilg'or texnologiyalar asosida qurildi. Quvvati 2,5 mln.t. bo'lgan ushbu zavodning ishga tushirilishi yuqori sifatli och tusli neft mahsulotlari: avtobenzin, dizel yoqilg'isi, aviakerosin va boshqalarni ishlab chiqarishni oshirish imkonini berdi. Buxoro zavodida ishlab chiqariladigan mahsulot xalqaro sifat andozalariga to'liq mos keladi.

Neftni qayta ishlash sanoati "O'zbekneftgaz" MXK mahsulot eksportining umumiy dinamikasi shakllantirilishida muhim rol o'ynaydi. 1995-2003 yillarda qayta ishlangan neft mahsulotlarini eksport qilish hajmi 1,34 marta oshdi, ya'ni 2003 yilda 38,9 mln. AQSH dollaridan ortiq summadagi qayta ishlangan neft mahsulotlari eksport qilindi.

Yangi Buxoro neftni qayta ishlash zavodining qurilishi, shuningdek, Farg'ona va Oltiariq zavodlarining rekonstrukciya qilinishi bilan respublika bir yilda 11,2 mln. t. hajmdagi neftning qayta ishlanishini ta'minlovchi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ldi. Mamlakatda har yili 1,5 mln.t. avtomobil benzini, 1,7 mln. t. dizel yoqilg'isi ishlab chiqarilyapti.

O'zbekiston gazni qayta ishlash quvvatlari:

O'zbekistonning gazni qayta ishlash quvvatlari 3 ta korxonada mu-jassamlangan, bular: Muborak gazni qayta ishlash zavodi, "SHo'rtan-neftgaz" USHK va yangi ishga tushirilgan "SHo'rtangaz-kimyo" kompleksi.

Muborak gazni qayta ishlash zavodidagi asosiy texnologik jarayonlar beqaror (xom) gazni tozalashga, konlarda past haroratli separatsiya yo'li bilan olinadigan beqaror gaz kondensatidan suyultirilgan gaz olish hamda Klaus usuli va bevosita achitish yo'li bilan kislotali gazdan oltingugurt olishga asoslangan. Har yili ushbu zavodda 24 mlrd.kub. metrdan ortiq tabiiy gaz qayta ishlanadi. Kelgusida gazni oltingugurtdan tozalash bo'yicha yangi zamonaviy bloklarning ishga tushirilishi ko'zda tutilgan.

"SHo'rtanneftgaz" USHKning qayta ishlovchi qurilmalarida oltingugurtdan tozalashga asoslangan ajoyib texnologiya qo'llaniladi.

"SHo'rtangaz-kimyo" kompleksi har yili 4,5 mlrd.kub.m. gazni qayta ishlashga, 125 ming t. polietilen, 137 ming t. suyultirilgan gaz, 130 ming t. gaz kondensati, shuningdek, 4,2 mlrd.kub.m. gaz va 4 ming t. oltin-gugurt ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Tozalangan gaz magistral gaz-transport sistemasiga yuboriladi.

Ishlab chiqariladigan ushbu mahsulotlarga tashqi bozorda ham talab katta, ya'ni suyultirilgan gaz yuqori sur'atlarda eksport qilinmoqda. 2003 yilda 11 mln. AQSH dollaridan orgiq summadagi suyulgirilgan gaz eksport qilindi.

SHo'rtan GKK 150 turdagi yuqori, o'rta va past bosimli polietilenni ishlab chiqarishga mo'ljallangan. "SHo'rtan gaz-kimyo" kompleksida ishlab chiqarilayotgan polietilendan respublika ichki ehtiyojlari uchun ham, chet elda ham keng foydalanilmokda.

Ushbu kompleks mahsulotlaridan yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda, ya'ni plyonkalar ishlab chiqaruvchi zavodlarning mavjud quvvatlarini oshirishda, kabel sanoati ehtiyojlarini qondirishda, shuningdek, to'qima qoplar hamda oziq-ovqat va sanoat tovarlarini o'rab-bog'lashda ishlatiladigan lentalar ishlab chiqarishni ta'minlashda keng foydalaniladi.

SHo'rtan GKK mahsulotlari keng assortimenti mutlaqo yangi ishlab chiqarishlar, yangi texnologiyalarni joriy etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni faol rivojlantirishning o'ziga

xos katalizatori bo'lgani holda, O'zbekiston iqtisodiyoti ko'plab tarmoqlari barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlaydi, bu respublikaning eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

"Sho'rtangaz-kimyo" kompleksining ishga tushirilishi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan strategik vazifalardan birining bajarilishi ta'minlanadi, bu vazifa - xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida mamlakatning eksport salohiyatini oshirishdan iborat.

Magistral gaz quvurlari salohiyati:

O'zbekiston tabiiy gaz qazib olish va uni qayta ishlash, ichki va tashqi iste'molchilarga etkazish imkonini beruvchi gaz quvurlarining sertarmoq, qudratli tizimiga ega. Respublikaning magistral gaz quvurlari umumiy uzunligi 13 ming km.dan ortiq masofani tashkil qiladi. Magistral gaz quvurlari diametri asosan, 700 dan 1220 mm.gacha bo'lgan quvurlardan iborat. "O'rta Osiyo Markaz" gaz quvurlari tizimiga diametri 1400 mm.gacha bo'lgan quvurlar kiradi. Umuman, tizimda 250 ta gaz haydash agregatlari faoliyat ko'rsatadi.

Mamlakatning shimoli-g'arbida asosan, tabiiy gaz tranziti va eksporti uchun mo'ljallangan qudratli "O'rta Osiyo - Markaz" va "Buxoro -Ural" gaz-transport tizimlari faoliyat ko'rsatadi. Bu O'zbekiston gaz-transport tizimining o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning davlatlararo ahamiyati muhim hisoblanadi. Ushbu tizim bo'yicha O'zbekistonning tabiiy gazi qo'shni davlatlar - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, shuningdek, shimoliy yo'nalishga transportirovka qilinadi.

Respublika iste'molchilariga, ayniqsa qish oylarida, tabiiy gaz etkazib berishni barqarorlashtirish maqsadida "Gazli - Nukus" (1997 y.) va "SHo'rtan-SHerobod" (2003 y.) magistral gaz quvurlari qurilib, ishga tushirildi.

"Gazli - Nukus" gaz quvuri tabiiy gazni eksport qilish hamda Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini gaz bilan ta'minlashga xizmat qiladi. YAngierdagi kompressor stanciyasini kengaytirish bilan uzunligi 300 km. bo'lgan "Paxtakor - YAngier - Toshkent" gaz quvuri qurilishi 1998 yilda tugallandi. Qurilgan tizim Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysi aholisini gaz bilan ishonchli ta'minlash imkonini beradi, gaz iste'mol qilish va etkazib berishning mavsumiy notengligini tartibga solish Xo'jaobod, SHimoliy So'x va Gazli er osti omborlari yordamida amalga oshiriladi.

Ichki va tashqi bozorlarga gaz etkazib berishning ishonchligini oshirish maqsadida 2004-2020 yillarda gaz-transport tizimini yanada takomillashtirish rejalashtirilgan, u quyidagilarni nazarda tutadi:

- tabiiy gaz etkazish tizimini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish, 198 km. magistral gaz quvurlari kurish;
- uzunligi 445 km. va 878 km. bo'lgan ishlab turgan magistral gaz quvurlarini kengaytirish va rekonstruksiya qilish, shuningdek, Sarimay yangi gaz haydash komprssor stanciyasini qurish;
- harakatdagi 20 ta gaz haydash kompressor stanciyalarini, shuningdek, ishlab turgan er osti gaz omborlarining 4 ta kompressor stanciyalarini rekonstruksiyalash va kengaytirish;
- uzunligi 123,3 km. bo'lgan gaz-o'tkazgich quvurlari qurish va rekon-struksiyalash amalga oshirilishi hisobiga 2014 yilga kelib, gaz eksporti hajmini 16 mlrd. kub. metrgacha etkazish imkoni yaratiladi.

Neft-gaz tarmogi rivojlanishidagi ustuvor investicion loyihalar, bashorat qilinayotgan neft-gazli hududlar:

Geologiya-razvedka ishlarining samaradorligini oshirish, uglevodorod xomashyosining razvedka qilingan zahiralari hajmini oshirish, bevosita xorijiy sarmoyadorlarni neft-gaz sektoriga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2000 yil 28 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Neft va gaz konlarini razvedka qilish hamda ularni qazib chiqarishga bevosita xorijiy sarmoyadorlarni jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni chiqdi. Ushbu farmon xorijiy kompaniyalar faoliyati uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan birga, respublika hududida shartnoma munosabatlari va koncessiya faoliyati uchun asos hisoblanadi. Farmonga ko'ra, xorijiy sarmoyadorlar uchun soliq stavkalarini pasaytirish va qator yangi rag'batlantirishlar, shuningdek, sarmoyadorlar uchun boy neft-gaz mintaqasi - Ustyurtda va boshqa istiqbolli konlarda koncessiya bo'yicha razvedka qilish uchun maydonlar taklif etildi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda valyuta bozorini bosqichma-bosqich erkinlashtirish bo'yicha olib bori-layotgan izchil siyosat neft-gaz sohasidagi loyihalarning investicion jozibadorligini oshirishning asosiy omillaridan biri bo'ldi. Ayirboshlash kurslarini birxillashtirish va valyuta siyosa-tini erkinlashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar 2003 yilda milliy valyutaning ayirboshlanishini ta'minladi.

Chet el ekspertlarining baholashlariga ko'ra, O'zbekistonda "O'zbek-neftgaz" kompaniyasining harakatda bo'lgan mavjud konlarida neft va gaz qazib chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirish imkoniyatlari bor. Kompaniya tomonidan xorijiy sarmoyadorlar bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi va tayyorlandi: "Sofregaz" (Franciya) - "Siquv-kompressor stanciyasi qurish bo'yicha Zevarda, Qultog', Pamuk konlarini jihozlash"; VSI Industries (AQSH) - "Gazli" er osti gaz omborida siquv-kompressor stanciyasini qurish"; "Tu-Xa" (Xitoy) - "Gazli konida neft qazib chiqarish hajmini oshirish"; "Dun'shen" (Xitoy) - "Andijon viloyatining uzoq vaqt ishlab-tayyorlashga mo'ljallangan konlarida geologiya-razvedka ishlarini olib borish va neft qazib chiqarishni jadallashtirish".

"O'zbekneftgaz" kompaniyasi 16 ta investiciya loyihasidan tashqari, O'zbekistonning neft-gazli mintaqalariga potencial sarmoyadorlarni jalb qilish va o'zaro foydali asosda qo'shma faoliyat olib borish uchun 13,5 ming kv.m. maydonni mayda uchastkalarga bo'lib chiqish bo'yicha qaror qabul qildi. Ushbu bloklarning chegarasi shartli bo'lib, sarmoyadorlarning taklifiga ko'ra, geologiya-razvedka ishlari olib borilishida o'zgartirilishi mumkin.

"O'zbekneftgaz" Farg'ona va Surxondaryo mintaqalarida uzoq vaqt faoliyat yuritiladigan konlarda neft qazib olishni jadallashtirish bo'yicha xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlik qilishga tayyor.

Xorijiy investiciyalar jalb qilinishining ustuvor yo'nalishi -uglevodorod xomashyosi qayta ishlanishini jadallashtirish hisoblanadi. SHu munosabat bilan, sarmoyadorlar "SHo'rtaneftegaz" USHK va Muborak gazni qayta ishlash zavodida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha, shuningdek, SHo'rtan GKK xomashyosidan tayyor tovar va mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etishlari mumkin.

"O'zbekneftgaz" kompaniyasi o'zaro foydali asosda neft-gaz sohasidagi etakchi xorijiy sheriklar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatmokda. SHu bilan birga, turli shakllarda investiciya loyihalarini amalga oshirishdan manfaatdor bo'lgan chet el kompaniyalari bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanligini bildiradi.

Foydaliy adabiyotlar

1. Oliy ta'lim-meyoriy xujjatlar to'plami. Toshkent. «Sharq». 2001 y. 671 b.
2. Proskuryakov V.A., Drabkin A.YE. Ximiya nefti i gaza. –M.: Ximiya, 1995.
3. Uilyam L. Leffler Pererabotka nefti. –M.: Olimp-biznes, 1999.
4. Farmazov S.A. Oborudovaniye neftepererabativayushix zavodov i yego ekspluatatsiya. –M.: Ximiya, 1984.
5. Smidovich YE.V. Texnologiya pererabotki nefti i gaza. Kn. 2.-M.: Ximiya, 1980. 328 s.
6. Sulimov A.D. Kataliticheskii riforming benzinov. M: Ximiya, 1986, 152 s.
7. Xaqqulov K.J. Sovremennoye sostoyaniye i perspektivi razvitiya neftegazovoy promishlennosti Uzbekistana. Uzb.jurn. nefti i gaza, 1998/3, s 30-

МЕТАНДАН ЭТИЛЕН ОЛИШ УСУЛЛАРИ

Тиллоева Шахноза Фахритдиновна

Ўқитувчи-стажёр


Бухоро муҳандислик-технология институти

Тел: 93656-51-15

Айни вақтда дунё миқёсида табиий газ захиралари 144 трлн.м³ ни, Ўзбекистонда 2 трлн. м³ ни ташкил этади. Ҳозирги вақтда саноатда кўпгина муҳим маҳсулотлар (хлорсақловчи эритувчилар, углерод сульфид, цианид кислота ва бошқалар) метандан синтез қилиб олинади. Метаннинг сув буғлари билан каталитик конверсияси водород ва


синтез-газ олишнинг асо-сий усулидир. Ўз навбатида синтез-газдан турли хил кислород сақловчи би-рикмалар (метанол, формальдегид, сирка кислота, этиленгликол); олефин-лар, углеводородлар, мотор ёнилғиси ва бошқа маҳсулотлар олинади.

Метандан этилен олишнинг муҳим 2 йўли. Табиий газни суяқ ёқилғиларга айлантиришнинг ҳозирги анъанавий усули кўп босқичли бўлиб, юқори ҳарорат ва юқори босим остида боради. Бу жараёни саноатга жорий этиш катта маблағ сарфлаш билан боғлиқ.



Метилхлорид орқали метандан этилен олиш


Метанни оксихлорлаб метилхлорид олиш:



Метанни оксихлорлаш реакцияси атмосфера босимида 550-420⁰Сда

боради. $\text{CH}_4:\text{HCl}:\text{O}_2=12:2:1$; ҳажмий тезлик 8100 л/л·кат·соат; $\tau = 1,8$ сек. $V_{\text{кат}} = 14$ см³.




Метил хлориднинг олефинларга айланиши:



Катализатор-SAPO-34; метил хлорид конверсияси-80%; этилен ва пропиленга

нисбатан селективлик 80-85 %; температура -420-450 ⁰С.


Иккинчи усул бўйича этилен олиш қуйидаги реакцияларга асосланган:




Метандан этилен олишнинг биринчи ва иккинчи усуллари саноатда яхши йўлга қўйилган.

Метанни оксиконденсатлаб этилен олиш жараёни: Метанни оксиконденсациялаш реакцияси очилганига 30 йилдан ошди, аммо ҳанузгача юқори фаоллик ва унумдорликка эга бўлган барқарор катализатор яратилмаганлиги сабабли бу реакция саноатга жорий этилган эмас.

Метанни оксиконденсатлаш реакциясини қуйидаги тенглама билан ифодалаш мумкин:



Барча ҳосил бўладиган моддаларни инобатга олган ҳолда қуйидаги йиғинди реакцияни ёзиш мумкин:



$$\Delta H_{800^\circ\text{C}} = -514 \text{ кЖ/моль.}$$

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Лукин В.Д., Анцыпович И.С. Регенерация адсорбентов. – Л.: Химия, 1993 – 216 с., ил.
2. Дергачев А.А. Синтез алифатических и ароматических углеводородов из низкомолекулярных олефинов и парафинов на цеолитных катализаторах // Химия твердого топлива. -1998.-№ 6. -С . 4-22.

ИЗУЧЕНИЕ СТРУКТУРЫ И ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА ОПОКОВИДНЫХ ГЛИН КЕРМИНЕ

*Ганиева С.Х., Сманов Б.А., Адизов Б.З., Хамидов Б.Н.
Институт общей и неорганической химии АН РУз, Ташкент*

Одними из наиболее реальных источников пополнения масляных ресурсов являются регенерация (восстановление качества) масел и повторное их использование [1]. При использовании новых технологических процессов особое внимание, в первую очередь, необходимо уделять широкому использованию местных сырьевых ресурсов. Отметим, что применение местного сырья открывает широкие возможности для развития производства адсорбентов, без особых затрат [2]. В этой связи, важным является всестороннее изучение свойств местных адсорбентов, прежде всего, опоковидных глин Кермине и определение возможности их практического применения.

Суммарное содержание кремнезёма складывается из трёх составляющих: опаловый кремнезём, кремнезём, входящий в состав глинистых минералов и кремнезём, представленный терригенным кварцем. Содержание кремнезёма в глинистых минералах определяется их видом и составляет в среднем по массе: в каолините – 38,9 %, монтмориллоните – 33,4 %, гидрослюдах – 32-40 % и глауконите – 45-58 %, которые часто встречается в опоках. Содержание глинозёма в опоках предопределяется исключительно присутствием глинистых минералов. В исследованных пробах их содержание составляет от 8,01 % у средне глинистых опок и до 13,71 % у глинистых опок. По содержанию Al_2O_3 можно судить о «глинистости» опок и делать предварительные выводы об их технологических свойствах. Принятое для глинистого сырья суждение, чем выше содержание оксида алюминия, тем выше огнеупорность, для опоковидных пород не совсем верно, т.к. глинистые минералы, представленные в основном гидрослюдами, наряду с глинозёмом, привносят и оксиды-плавни – Na_2O , K_2O , FeO , Fe_2O_3 , MgO .

Результаты химического анализа исследуемой пробы опоковидной породы представлены в таблице 1.

Таблица 1

Химический состав опоковидных глин Кермининского месторождения

Содержание оксидов, %									
П.п.п.	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	CaO	MgO	SO_3	R_2O	Пр.	Σ
1,59	80,6	9,59	1,59	0,27	0,80	0,76	2,04	2,78	100,0

В соответствии с данными таблицы 2, химический состав исследуемой породы представлен преимущественным содержанием SiO_2 (80,6%) и Al_2O_3 (9,59%) с примесями Fe_2O_3 в количестве 1,59%; CaO –0,27%; MgO –0,80%; SO_3 –0,76%.

В соответствии с полученными данными химического анализа (табл.1), а также исходя из специфики взаимодействия с водой исследуемой породы, ее можно классифицировать как опоку глинистую, которую можно использовать в качестве

адсорбента для регенерации отработанных нефтяных масел и как пуццолановую добавку для получения добавочных и многокомпонентных цементов. Для фазовой идентификации предполагаемой опоковидной породы и определения ее принадлежности к классу опок проводили ее рентгенофазовый анализ. Набор рефлексов на дифрактограммах опок этих месторождений показывает их полиминеральный состав [3].




Рисунок 1. Рентгенограмма опоковидной породы Кермининского месторождения

На рисунке 1 приведена рентгенограмма опоковидной породы Кермининского месторождения. В соответствии с данными рисунка 1, фазовый состав пробы опоковидной породы представлен преимущественным содержанием диопсида: кальций - магниевого силиката $\text{CaMg}(\text{Si}_2\text{O}_6)$ и аморфного кремнезема в виде опала $\text{SiO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O}$. Присутствуют примеси кальцита CaCO_3 , магнетита Fe_3O_4 , мусковита $\text{KAl}_3\text{Si}_3\text{O}_{10}(\text{OH})_2$ и др.

Для изучения структуры и определения элементного состава проведены электронно-микроскопические исследования. Микрофотографии опоковидных глин Кермининского месторождения, полученные на электронном микроскопе SEM - EVO MA 10 с анализатором, приведены на рисунке 2.

В соответствии с рисунком 2, на электронных микрофотографиях с поверхности скола опоковидных пород, четко выявляется шероховатая микро глобулярная структура, состоящая из частиц различных размеров и разнообразных форм, среди которых преобладают короткие призматические и реже - таблитчатые кристаллы, их промежутки заполнены плотной зернистой массой, на их поверхности встречаются чешуйчатые образования.




Рисунок 2. Электронный снимок (а) и спектры элементов (б) опоковидных глин Кермининского месторождения.

Таким образом, по содержанию основных оксидов порода участка опоковидных глин Кермининского месторождения, классифицируется как средне-глинистая опока, обладающая достаточной адсорбционной способностью. Изучая кинетику поглощения паров воды и бензола в статистических условиях, мы пришли к выводу, что чем больше величина общего объема пор образца, тем быстрее устанавливается адсорбционное равновесие.

Список использованной литературы:

1. Надиров Н.К. Отработанные масла, смазочные материалы и перспективы их утилизации. Доклад II межд. научн. надировских чтений «Научно-технологическое развитие нефтегазового комплекса». – Алматы- Кызылорда. -2004, -С. 258-267.
2. Салимов З.С., Кудратов А.М., Убайдуллаев Б.Х. Адсорбционная очистка сточных вод. Монография. Изд. «Фан». Ташкент.- 2010,- 151с.
3. Котляр В.Д., Братский В.Д., Устинов А.В. Вещественный состав и дообжиговые керамические свойства глинистых опок // Инженерный вестник Дона.–2010.–№ 4.–С. 33-39.

DEVELOPMENT OF A COMPOSITION OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY LUBRICANTS FROM LOCAL RAW MATERIALS

Ganieva S.Kh., Khamidov B.N., Smanov B.A., Adizov B.Z.

*Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences
of the Republic of Uzbekistan*

One of the ways to solve the environmental problems of our time requires the search for alternative safe sources of raw materials and energy. This is due not only to the need to reduce environmental pollution, but also to the importance of the transition from exhaustible raw material sources to the expanded use of renewable resources. This is important when using lubricants in the technosphere and biosphere [1].

Work in this direction has long been carried out all over the world. In the field of using renewable raw materials, the leading role belongs to bioresources - primarily oilseed crops, since vegetable oils are a completely acceptable alternative to petroleum feedstock for the production of fuels and lubricants.

The aim of the research was to study the physicochemical parameters and the fatty acid composition of corn oil produced by the Tashkent starch and milk plant of the Golden Corn company in order to create new compositions for the production of biodegradable lubricating oils, replacing petroleum oils, which have a kinematic viscosity at 100°C in the range of 7.0- 9.0 mm²/s. Studies of corn oil were carried out using classical and modern research methods in accordance with GOSTs. Comparative physical and chemical parameters of motor and biodegradable oils were determined according to TSh 39.3-199:2003 Specifications. Analysis of the IR spectra of corn oil was carried out on a SHIMADZU spectrophotometer. The qualitative and quantitative content of chemical elements, the elemental composition of finely dispersed graphite substances after the second flotation purification was determined by X-ray fluorescence analysis.

The above studies indicate that at present the use of vegetable oil in its natural state as a dispersion medium should be limited to their function instead of petroleum or some synthetic ones, and the main role, obviously, belongs to vegetable oils, as cheaper, affordable, produced from easily renewable raw materials with increased biodegradability and which will be a nutrient medium in the soil for microorganisms [2].

In accordance with the developed methodology, we have obtained a composition of biodegradable motor oil based on corn oil using fine graphite as an additive from the second flotation purification of graphite ore with a carbon content of 31%.

The resulting composition of biodegradable motor oil M-8G₂B_k was analyzed for the main quality indicators. The physicochemical parameters of the resulting composition were determined, indicating that the biodegradable lubricant is superior to M-8G₂ engine oil in many respects.

As the results of the table show, the resulting composition of biodegradable motor oil based on corn oil, compared to M-8G₂ motor oil, has high viscosity-temperature characteristics, such as a viscosity index of 160, a kinematic viscosity at 100°C of 9.82 mm²/s, at 40° C - 30.84 mm²/ s, pour point - (-19°C), etc., but has a low base number - 0.21 mg KOH/g, the value of which can be increased using detergent and antioxidant alkaline additives.

The composition of motor oil M-8G₂B_k was studied for the degree of biodegradation in soils in comparison with petroleum-based motor oil. Microbiological analyzes of soils were carried out according to the methods generally accepted in soil microbiology. Microbiological monitoring included the study of the abundance of the main agronomically important groups of soil microorganisms involved in the cycle of nitrogen, phosphorus, potassium, carbon, as well as other microelements in the soil - ammonifiers, oligonitrophils, phosphorus mobilizing bacteria, actinomycetes and micromycetes in the arable (0-30 cm) layer soils [3].

When assessing the structural state, the soil had a satisfactory condition: structural coefficient K=46.2; soil density from loose sample 1.17 g/cm³; solid phase density 2.58 g/cm³; total porosity 54%; humidity 23%; pH 8.

According to the obtained microbiological monitoring data, i.e. according to the change in the number of ecological groups of microorganisms in the contaminated soil, the dependence of the composition M-8G₂B_k was calculated in comparison with the oil M-8G₂ (Figure).




Figure. Dependence of the change in the number of ecological groups of microorganisms in the sample M-8G₂B_k compared to the oil sample M-8G₂

According to Figure, it was established that soil contamination with motor oil M-8G₂ based on petroleum oil leads to a change in the number of various physiological groups of microorganisms and the intensity of microbiological processes. The sensitivity of each group of microorganisms to petroleum organic matter is different due to their different ability to decompose petroleum hydrocarbons. The number of microorganisms in the soil contaminated with the oil sample decreased by five orders of magnitude along the curve as shown in Figure, and in the soil contaminated with motor oil based on vegetable oils M-8G₂B_k, their number decreased by two orders of magnitude, this explains the fact that the prototype M-8G₂B_k is a nutrient medium for microorganisms, integrating into the food chain of the soil ecosystem without disturbing its biocenosis [4].

Thus, a sample of motor oil M-8G₂B_k is a non-toxic substance, having in its composition corn oil, a flotation agent - a fraction from oil distillation 220 ° C, fine graphite from the second

flotation purification of graphite ore, which in turn are a nutrient medium for microorganisms compared to oil sample and is biodegradable.

The results of the analyzes performed show that using corn oil, a skimmer and a graphite additive, it is possible to obtain high quality motor oil with higher biodegradability than mineral oil.

When analyzing the graphite component as an additive to oil to increase its wear resistance, X-ray fluorescence analysis was used for the first time, on the basis of which the percentage of carbon, which is involved in the formation of adsorption nanostructured formations in the areas of interaction of friction units, was determined.

It can be noted that the lubricating composition under study exceeds the M-8G₂ mineral oil by a factor of two in terms of viscosity index. The pour point and kinematic viscosity of the biodegradable composition also comply with the requirements of GOST. Thus, according to the main physico-chemical parameters, the proposed composition fully meets the requirements of GOST, except for the alkaline number, however, the reduced value of which is not so critical and fits within the acceptable range.

Thus, the M-8G₂Bk biodegradable lubricating oil obtained from vegetable renewable resources is easily biodegradable, non-toxic and environmentally friendly, the involvement of vegetable oils, products of biological origin, in the composition of lubricants is more than promising.

References

1. Evdokimov A.Yu., Fuks I.G., Lyubinin I.A. Lubricants in the technosphere and biosphere (environmental aspect). Kyiv, Attica Publishing House, 2012. 292p. (In Russian).
2. Khamidov B.N., Ubaidullaev B.Kh., Mirzaeva M.M., Ganieva S.Kh., Smanov B.A. Alternative lubricants with increased biodegradability based on safflower oil. Technologies of oil and gas, 2021, no. 2 (133), pp. 19-21. (In Russian).
3. Cheverdin A.Yu., Cheverdin Yu.I., Turusov V.I. The influence of biological products based on associative bacteria on the microbiological activity of segregated chernozem // Agrochemistry, 2019. -№ 12, -P. 22-31. (In Russian).
4. Ganieva S., Khamidov B., Mirzaeva M., Smanov B. Ecological aspects of obtaining biodegradable M-8G₂Bk and M-8G₂Bs motor oils on a vegetable basis. Universum: technical sciences: scientific journal. - No. 10(79). Part 2. –P.57-62. (In Russian).

ИНТЕРКАЛИРЛАНГАН АДСОРБЕНТЛАРНИ ТИТРЛАШ МЕТОДИ ЁРДАМИДА НОЛ ЗАРЯД НУҚТАСИНИ АНИҚЛАШ

Жураева Ф.Н., Ниязова Д.Б., Абдикамалова А.Б., Эшметов И.Д.

ЎзР ФА Умумий ва ноорганик кимё институти

e-mail: feruza.nurmatovna@gmail.com

Бугунги кунда замонавий тадқиқотлар металлларнинг полиоксокатионлари ва бентонитларга асосланган юқори ғовакли материалларни яратишга бағишланган. Шу боис, табиий ва синтетик қатламли тизимларни интеркалирлаш соҳасида фундаментал тадқиқотларни олиб бориш, олинган сорбент ва катализаторларнинг синтез усули, таркиби ва хусусиятлари ўртасидаги боғлиқликни аниқлашга алоҳида эътибор қаратилиб, уларнинг турли таркибли оқова сувларни тозалашга тадбиқ этилишини ўрганиш ҳамда ғовакли материаллар синтез қилиш ва тозалаш технологияларини ишлаб чиқиш долзарб ҳисобланади.

Республикамызда бентонитлар ва бошқа қатламли тизимлар асосида функционал материаллар ишлаб чиқариш технологиясини модернизация қилишга катта эътибор қаратилмоқда. Бу жиҳатдан миллий иқтисодиёт, саноат ва атроф-муҳит муҳофазаси талабларига жавоб берадиган қатламли тузилишга эга бўлган маҳаллий хом ашёлар асосида адсорбент ва катализаторлар олишга қаратилган илмий тадқиқотлар алоҳида аҳамиятга эга.

Интеркалирланган тизимлар асосидаги адсорбентларни синтез қилиш мақсадида хом-ашё сифатида Навоий вилоятининг Навбахор ишқорий бентонити (НИБ) танлаб олинди. Дастлаб намуналар маълум методикалар [1] асосида бойитилди. Бойитилган намунанинг минералогик таркиби ва структурасидаги ўзгаришлар рентгенографик, электрон микроскопик ва кимёвий таркибни ўрганилди [2].


Ноль заряд нуктаси (НЗН) кўплаб кимёвий ҳодисалар адсорбция, коллоид суспензияда заррачаларнинг ўзаро таъсириллашиши, коагуляция, минералнинг эриши ва электрокимёвий ҳодисаларда ҳал қилувчи муҳим параметр бўлиб ҳисобланади.

НЗН кўпинча классик усулларда потенциометрик ва массали титрлаш методлар ёрдамида аниқланди. Аммо, потенциометрик аниқлаш бўйича маълумотлар жуда қарама-қарши бўлиб, қийматлар жараённинг бориш шароитига қараб 2,6 дан 8,8 гача ўзгаради. Шу қаъби бир қатор манбаларга таяниб НЗН ни аниқлашнинг массали титрлаш усули танланди.

НЗН ни аниқлашда эритувчиси сифатида натрий хлориднинг 0,1; 0,01; 0,001 М эритмалари тайёрланди. Жараёнлар тўлиқ магнитли аралаштиргичда олиб борилди. Дастлаб 100 мл стаканга 60 мл олдиндан тайёрланган NaCl эритувчиси солинди ва рН қиймати ўлчанди. Эритмага кетма кет 0,1 г миқдорда намуналардан солиниб борилди. Система мувозанатга келгунга қадар 10-15 мин давомида аралаштирилди ва рН қиймати аниқланди. Кетма-кет бентонит намуналарини суспензияга қўшиш рН кўрсаткичи тўлиқ ўзгаришсиз қолгунга қадар давом эттирилди. рН ўзгаришининг ион эритма кучига боғлиқлиги ўрганилди. Тизимнинг ион кўрсаткичи NaOH ва HCl фиксанал эритмалари орқали ўзгартирилди.

Олинган натижалар темир-алюминий интеркалирланган бентонитлар юзаси зарядининг нольга тенг бўладиган нуктасини, яъни НЗН аниқлаш имконини берди. рН кўрсаткичлари 10,4; 9,4 ва 4,4 ион кучи бир хил эритмаларда рН нинг массага боғлиқлик эгрлари туташиш нуктаси НИБ ва НИБ-Fe/Al намуналари учун мос равишда 7,93 ва 4,55 қийматларига туғри келишини 1-расмдан кўриш мумкин.

1-расм



1-расмда а) НИБ б) НИБ-Fe/Al намуналарни 1)- 10,4 2)-9,4 ва 3)-4,4 бўлган муҳит эритмаларда олинган рН НЗН нинг эгрлари.

Бу туташиш нукталари ўрганилаётган намуналар НЗН қиймати бўлиб, улар дастлабки бентонит намуналарга солиштирганда анча паст эканлигини кўришимиз мумкин.

Дастлабки намуналар диссоцияланиши натижасида ишқорий муҳит ҳосил қилиб, НЗН суспензиялари рН қиймати 7,93 туғри келади. Интеркалирланган бентонит намуналарини Fe³⁺/Al³⁺ полигидроксокатионлар билан модификациялаш натижасида бу кўрсаткич 4,55-4,61 гача пасайишини поликатионлар Na⁺ катионларига алмашинганлиги исботлайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Жураева Ф. Н., Абдикамалова А.Б., Эшметов И. Д., Бойитилган гил минералларининг физик-кимёвий хоссалари // Международная научно-техническая конференция роль современной химии и инноваций в развитии национальной экономики. Фергана, 27-29 мая 2021 года. – С. 328-330.

2. Ибадуллаева С.М., Жураева Ф.Н., Маматалиев Н.Н., Абдикамалова А.Б., Эшметов И.Д. Исследование структурных особенностей и поверхностных свойств некоторых бентонитовых глин Узбекистана // Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. – 2021. №1. – С. 15-21.

VERMIKULIT ASOSIDA SINTEZ QILINGAN IONITLARGA NEFT VA GAZ TARKIBIDAGI CU(II) KATIONLARI YUTILISHI TAHLILI

O.X.Tursunmuratov- 3-kurs tayanch doktorant, katta o'qituvchi

B.A.Axadov-Kimyo yo'nalishi, 4-kurs bakalavr talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Ilmiy va metodologik kimyo kafedrası

E-mail:Obidosiyo@gmail.com;

So'ngi yillarda tezlik bilan rivojlanayotgan sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari suv havzalarini ifloslanishiga, ayniqsa chuchuk suvlarning sifati jihatdan tarkibining buzilishiga olib kelmoqda. Bu ifloslanish kelib chiqishi manbai turli-tuman bo'lib, quyidagi moddalarni: metallar, ozuqa moddalari va polisiklik aromatik uglevodorodlar kabi ifloslantiruvchi moddalarni misol keltirish mumkin. Ushbu ifloslantiruvchi moddalar orasida og'ir metallar juda katta ekologik xavf hisoblanib, organik ifloslantiruvchilardan farqli ravishda, ular amalda parchalanishi qiyinligi sababli, uzoq vaqt saqlanadi. Har yili antropogen va tabiiy jarayonlar natijasida suv va tashqi muhitga tonnalab og'ir metallar chiqariladi, bu esa butun biosfera uchun tashvishga aylanmoqda. Chiqindi oqava suvlar tarkibida aniqlangan eng keng tarqalgan, zararli og'ir metallar quyidagilar: Co(II), Cd(II), Cr(VI), Hg(II), Ni(II), Pb(II) va Cu(II) kationlaridir[1].

Chuchuk suvdan chiqindi moddalarni olib tashlashning bir qancha usullari: biologik tozalash, filtrlash, kimyoviy koagulyatsiya, sedimentatsiya, elektrokoagulyatsiya, kristallanish va adsorbsiya usullari qo'llanilib kelinadi.

Tuproq minerali vermikulit ham yaxshi adsorbent bo'lib, qatlamlari orasida bog'lanishlar biron tashqi kuchlar orqali buzilsa, vermikulit kengayadi yoki hatto parchalanadi. Kengaygan vermikulit qatlamlari dastlabkiga qaraganda juda katta sirt maydoniga ega bo'ladi, bu xossa atrof-muhitdagi ifloslantiruvchi zararli moddalarni yutilishi imkoniyatini beradi. Shuning uchun so'ngi ilmiy tadqiqot ishlarda oqava suvlarni tozalash uchun vermikulit xomashyosi va kengaytirilgan vermikulitdan foydalanish o'rganilgan ishlar ko'paymoqda. 1-jadvaldan ko'rish mumkin tuproq ya'ni Gil minerallarining turlari juda xilma xil bo'lib ular tarkibi, xossalari va tuzilish bilan ajralib turadi. Bundan tashqari gil minerallarining yutish xossasi bilan ham turli tuman, og'ir metallar yutish xususiyatining so'ngi tadqiqot natijalari keltirilgan[2].

Quyidagi tadqiqot ishida har xil ilmiy izlanuvchilarning vermikulit asosida olingan ionitga Cu(II) kationlari yutilishi keltirilgan bo'lib, natijalari bilan qisqacha ma'lumot berilgan.

2. Karapinar N., Donat R. Adsorption behaviour of Cu²⁺ and Cd²⁺ onto natural bentonite // Desalination. 249. 2009. P. 123–129.
3. Saeed M. M., Radioanal J., Nucl. Chem. 256. 2003. P. 73–77.
4. Березин И. В., Мартинек К. Основы физической химии ферментативного катализа. М.: Высшая школа. 1977. 280 с.

GLUCYRRHÍZA GLABRA ЎСИМЛИГИ ИЛДИЗИ ЭКСТРАКТИ ҚОЛДИҚЛАРИДАН АСОСИДА ОЛИНГАН АДСОРБЕНТГА ТОЛУОЛ БУҒЛАРИ АДСОРБЦИЯСИ ДИФФЕРЕНЦИАЛ ИССИҚЛИГИ

¹Джуманова Зиёда Кеунимжаевна, ²Абдурахмонов Элдор Баратович

¹Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат Университети E-mail: ziyada07@list.ru

²ЎзР ФА Умумий ва ноорганик кимё институти E-mail: eldor8501@gmail.com

Кенг ассортиментли сорбентларнинг яратилишига углеродли ҳар хил бошланғич материаллар ва уларни ғовакли углеродли материалларга айлантиришга имкон берадиган ишлов бериш усуллари катта ёрдам беради [1].

Ҳозирги вақтда ғовакли углеродли материалларни ишлаб чиқаришнинг саноат усуллари учун асосий хомашё: ёғоч ва унинг чиқиндилари (қобиғи, lignin), ёғсиз коксланмаган кўмир, жигарранг кўмир, торф, баъзи полимерик материаллар, ёнғоқ қобиғи (кокос ёнғоғи ва бошқалар).), қаттиқ мева қобиқлари (зайтун, шафтоли), углерод қора, пек, кокс (нефт ва кокс кимёси маҳсулотлари) ва бошқалар [2].

Углерод материалларини ишлаб чиқариш учун асосий хом ашёлардан бири углеводород хом ашёси пиролиз маҳсулотлари нефт, кўмир ва табиий газдир [3].


Углерод сорбентларининг хоссалари уларнинг табиати билан белгиланади. Уларнинг тузилиши углерод атомлари қатламларидан графитга ўхшаш тузилган ва углерод атомларининг ички ва қатламлараро жойлашиш даражасида фарқ қиладиган тузилма

сифатида ифодаланиши мумкин. Ушбу материаллар ўз ҳажмида ғовакли бўшлиққа эга бўлиб, унинг хусусиятлари бирламчи буюртма қилинган кристалитларнинг катталиги, уларни ҳосил бўлиш табиати ва ўзаро йўналиши билан белгиланади [4].

Гранулали фаоллаштирилган углероднинг турли хил иш шароитида инерт газли оқимдан учувчи органик бирикмаларни самарали адсорбциялашда ишлашини экспериментал тарзда аниқлаш ишлари олиб борилган. Гранулали фаол углеродда толуолнинг учувчан органик бирикмасини (УОБ) адсорбциясини ўрганиш бўйича тажрибалар ўтказилди. Тажрибалар ҳар хил иш шароитида ўтказилган адсорбцион устунда ўтказилди. Экспериментал ўзгарувчилар диапазони қуйидагича: кириш газининг концентрацияси (7000 - 24775 ppm), газ оқими тезлиги (50-70 мл/мин) ва адсорбент устунининг баландлиги (0,015 - 0,025 м).

Фаоллантирилган кўмирнинг сорбцион жараёнларни фундаментал тадқиқ қилишда юқори вакуумли адсорбцион қурилмада ўтказилган тажрибалардан олинган натижаларга асосланади.

1-расмда 303 К ҳароратда маҳаллий кўмир, кокс ва асфальтендан олинган углерод материалли адсорбентга толуол адсорбцияси изотермаси келтирилган. Олинган адсорбентнинг микроғовакларига толуол адсорбция изотермаси дастлаб $\ln(P/P_0) = -9,92$ ни кўрсатади. Толуол молекуласининг ўлчами 0,67 нм ташкил этади. Дастлабки молекулаларнинг ютилиш изотермаси қиймати асосланиб олинган углерод материалли адсорбентнинг микроғовакларига адсорбцияланишидан далолат беради. Адсорбентга толуол молекулалари адсорбция миқдори 1 ммоль/ггача бўлган қийматда кучли адсорбцияланади. Бу адсорбция қийматида толуол молекулаларининг адсорбция изотермаси $\ln(P/P_0) = -3,5$ ни ташкил қилади. Кейинги толуол молекулалари адсорбциясида изотерма чизиқларини адсорбция ўқи томон интилиши бироз тезлашади. Адсорбцияланган толуол молекулалари миқдори 2 ммоль/гдан ортгандан кейин адсорбция ўқиға интилиши кучайиб боради ва 3,5 ммоль/гга тўйинади. Демак, адсорбция миқдори 1,5 ммоль/ггача бўлганда углерод материалли адсорбентнинг микроғоваклари қисмида адсорбцияланиди. Буни изотерма чизиқлари ўзгаришида ҳам кузатиш мумкин. Толуол молекулаларининг ютилиш миқдори 1,5 ммоль/гдан кейин эса углерод материалли адсорбентнинг микроғовакларидан ўтиб, мезоғовакларнинг актив марказлари қисмига адсорбцияланади. Адсорбция 3,5 ммоль/гга етганда қурилмадаги босим 35,7 мм.сим. уст. тенг бўлади. Бу қиймат толуолнинг 30⁰С ҳароратдаги тўйиниш буғ босимиға жуда ҳам яқинлашиши ва углерод материалли адсорбентнинг олинган адсорбат молекулаларига тўйиниши кузатилади.



1-расм. 303 К ҳароратда олинган фаоллантирилган кўмирга толуол буғлари адсорбциясининг изотермаси

Кўмир, кокс ва асфальтендан олинган углевод материалли адсорбентга толуол адсорбция изотермаси уч ҳадли микроғовакларнинг тўйиниш назарияси тенгламаси ёрдамида (МХТН) тавсифланди.

$$a=1,74\exp[(A/11,36)^2]+1,29\exp[(A/2,78)^2]+0,63\exp[(A/0,26)^1],$$

a -микроғовакларда адсорбция микдори $C_6H_6CH_3$, $A=RT\ln(P^0/P)$ -эркин энергия иши (кЖ/мол ь).

Δ-экспертмент қиймат; ▲-МХТН тенгламаси орқали ҳисобланган нуқталар

Олинган углевод материалли адсорбентга толуол молекулалари адсорбцияси дифференциал иссиқликлари пағонали кўринишда пасайиб боради. Дастлабки адсорбция иссиқлиги 98,91 кЖ/мольни ташкил қилади. Адсорбция иссиқлигининг юқори бўлиши микроғоваклардаги металл катионлари билан ютилган толуол молекулалари ўзаро таъсирлашиб комплекслар ҳосил бўлиши ҳисобига юқори энергия билан боради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Фенелонов, В. Б. Пористый углерод / В. Б. Фенелонов. – Новосибирск : Ин-т катализа СО РАН, 1995. – 518 с.
2. Кирш, Ю. Э. Поли-N-винилпирролидон и другие поли-N-виниламиды / Ю. Э. Кирш. - М. : Наука, 1998. – 252 с.
3. Конкин, А. А. Углеродные и другие паростойкие и волокнистые материалы / А. А. Конкин. - М. : Химия, 1974. - 376 с.
4. Ловиц, Т. Е. Избранные труды по Химии и химической технологии / Т. Е. Ловиц. – М. : АН СССР, 1955. – 622 с.

GLYCYRRHIZA GLABRA ЎСИМЛИГИ ИЛДИЗИ ЭКСТРАКТИ ҚОЛДИҚЛАРИДАН АСОСИДА ОЛИНГАН ФАОЛЛАНТИРИЛГАН КЎМИРГА ТОЛУОЛ БУҒЛАРИ АДСОРБЦИЯ ТЕРМОКИНЕТИКАСИ

Джуманова Зиёда Кеунимжаевна

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат Университети E-mail: ziyada07@list.ru

Шаҳар ҳавосининг сифати, асосан, тутун ва соғлиқ муаммолари туфайли, жамоатчиликни ташвишга солмоқда. Янги ифлослантирувчи моддалар тобора кўпроқ тан олинмоқда. Ҳавонинг ифлосланиш манбалари, шунингдек, ифлослантирувчи моддалар кўпайди. Улардан баъзилари учувчан органик бирикмалар каби ҳавони хавфли ифлослантирувчи моддалар чиқаришга олиб келди [1]. УОБлар алифатик ва ароматик углеводородлар бўлиб, улар таркибида кислород, олтингугурт, азот, галогенлар каби гетеро-атомлар бўлиши мумкин. Алдегидлар, кетонлар, углеводородлар ва бошқалар каби углеводга асосланган молекулаларнинг кенг ассортименти УОБ лардир. Учувчи органик бирикмалар озон ва бошқа фотохимёвий оксидловчи моддаларнинг пайдо бўлишига, шаҳар тутунига олиб келади. Кўпгина УОБ лар токсик, кансероген ёки мутаген, шаҳар муҳитида топилган даражаларда аниқланган [2]. УОБ таъсирлари кўпинча ҳид билан боғлиқ, бошқа пайтларда эса ҳид бўлмайди. Иккала ҳолат ҳам зарарли бўлиши мумкин. УОБ чиқиндиларини омборларидан бартараф қилиш, технологик идишларни шамоллатиш, қувурлар ва асбоб-ускуналардан оқиш натижасида пайдо бўлади [3]. Кундалик ҳаётимизда минглаб турли УОБлар ишлаб чиқарилади ва ишлатилади. Масалан Бензол, толуол, метилен хлор, формалдегид, ксилен, этилен гликол, 1,3-бутадиеен ва бошқалар. Атмосферага сунъий манбалар орқали йилига тахминан 235 миллион тонна УОБ чиқарилади [4].

Glycyrrhiza glabra ўсимлиги илдизи экстракти қолдиқлари 800⁰С да қиздирилади. Қиздириш натижасида таркибдаги кўшимча газлар чиқиб кетади. Ундан пиролиз усулида активлантирилган кўмир олинади.

Олинган адсорбентга толуол адсорбцияси изотермаси юқори вакуумли адсорбцион курилманинг босимини аниқлаш қисмида аниқланди. Адсорбция дифференциал иссиқлиги

босим қийматларига ва Тиан-Кальве моделидаги ДАК 1-1 калориметридан чиқаётган энергияни назарий ҳисоблаш орқали ўлчанади. Адсорбция изотермаси аниқлашда ҳажмий ва капилляр (суюқлик) усулда фойдаланилди. Адсорбция изотермаси аниқлик хатолиги 0,1% ва иссиқлиги 1% гача бўлади [4].

Адсорбат сифатида олинган толуол сорбцияда фойдаланишдан аввал цеолитлар аралашмасида ва вакуум шароитида тозаланди. Ютилувчи моддаланинг буғ босими, яъни абсолют толуол учун жадвалларда келтирилган буғ босими маълумотлари билан бир хил бўлгунча таркибидаги қўшимча газлар чиқариб юборилади.


Маҳаллий ангрен кўмирини активлаб активлантирилган кўмир адсорбенти намунасига толуол адсорбцияси 303 К да олиб борилди.

Адсорбция энтропиясини ҳисоблашда Гиббс-Гельмгольц формуласидан фойдаланилди.

$$\Delta S_d = \frac{\Delta H - \Delta G}{T} = \frac{-(Q_d - \lambda) + A}{T}$$

Бу ерда, λ -иссиқлик конденсацияси, ΔH и ΔG -энтальпия и эркин энергия ўзгариши, T - ҳарорат.

1-расмда олинган углерод материалли адсорбентга толуол молекулалари адсорбцияси энтропия графиги келтирилган. Адсорбция энтропияси ютилган адсорбат молекулаларининг адсорбент ғоваклари ҳолатини ва актив марказлари билан ўзаро таъсирлашишини тавсифлайди.



1-расм. 303 К ҳароратда олинган углерод материалли адсорбентга толуол буғлари адсорбциясининг моляр интеграл энтропияси

Олинган углерод материалли адсорбентга-толуол буғи адсорбция жараёнининг энтропия эгри чизиғи адсорбент тўйиниб бориш миқдорларига мувофиқ равишда тўлқинсимон кўринишга эга бўлди. Энтропия графигидан маълумки 1,75 ммоль/ггача бўлган қийматларда толуол буғи молекулалари кучли адсорбцияланади, яъни ўртача интеграл энтропия чизиғидан пастда жойлашади. 1,75 ммоль/гдан кейинги адсорбцияланган толуол молекулалари ўртача интеграл энтропия чизиғидан юқори бўлиши бу углерод материалли адсорбентнинг микроғовакларини тўлдириб мезоғовакларга ўтиши билан изоҳланади.

Толуол молекулалари стандарт энтропия қийматини 0 деб олдик. Адсорбцияланган толуол молекулалари 3,0 ммоль/гдан кейин стандарт ҳолатдаги толуол энтропияси қиймати бироз юқори бўлади. 3 ммоль/ггача бўлган сорбцион жараёнда адсорбция энтропияси адсорбент турли ўлчамдаги ғовакларига кучли локализацияланганлигини билдиради. Дастлабки тўйиниш босқичларида толуол молекулалари углерод материалли адсорбентнинг микроғовакларида кучли адсорбцияланади, яъни толуол молекулалари кўзгалмаган ҳолатда бўлади, -50 Ж/моль*К гача бўлган адсорбция жараёнида толуол қаттиқ ҳолат энтропияси қийматида боради. Унда сўнг аста секинлик билан толуол суюқ ҳолат энтропиясига ўтади. Тадқиқот ишида олинган углерод материалли адсорбентга толуол молекулари адсорбцияси ўртача интеграл энтропияси -45,41 Ж/моль*К ни ташкил қилади.

Олинган углерод материалли адсорбентга толуол молекулалари адсорбцияси дифференциал иссиқликлари пағонали кўринишда пасайиб боради. Дастлабки адсорбция иссиқлиги 89,91 кЖ/мольни ташкил қилади. Адсорбция иссиқлигининг юқори бўлиши микроғоваклардаги металл катионлари билан ютилган толуол молекулалари ўзаро таъсирлашиб комплекслар ҳосил бўлиши ҳисобига юқори энергия билан боради. Олинган тажриба натижаларига асосланиб, адсорбция изотермаси, дифференциал иссиқлиги, энтропия ва термокинетика қийматлари бир бирига мутоносиб келиши исботланди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. M. Magureanu, N.B. Mandache, P. Eloy, E.M. Gaigneaux, V.I. Parvulescu, "Plasma-assisted catalysis for volatile organic compounds abatement", Applied catalysis B: Environmental, 61, 2005, pp.12-20.

2. A. Srivastava, "Source apportionment of ambient VOCs in Mumbai city", Atmospheric Environment, 38, 2004, pp. 6829-43.

3. F.I. Khan, A.K. Ghoshal, "Removal of volatile organic compounds from polluted air", Journal of Loss Prevention in the Process Industries, 13, 2000, pp. 527-45.

4. A.O. Malley, B.K. Hodnett, "The influence of volatile organic compound structure on conditions required for total oxidation", Catalysis Today, 54, 1999, pp. 31-38.

DONADOR SEOLITLARNI TAYYORLASH VA ULARNING XARAKTERISTIKASI

Dimetova F.D., Abduraxmonov E.B.

Umumiy va noorganik kimyo instituti

Seolitlarning natriy shaklini olish uchun xom ashyo bo'lak silikat, alyuminiy gidroksid va kaustik soda hisoblanadi. Alyuminiy gidroksid natriy gidroksidning qaynayotgan eritmasida eritiladi, suyultiriladi va shu bilan natriy aluminatning ishchi eritmasi olinadi. Silikat bloki jonli bug 'bilan qaynatiladi, undan so'ng suyuq shisha eritmasi kerakli konsentratsiyani olish uchun suv bilan suyultiriladi.

Silikat va natriy aluminat eritmaları aralashmasi 1-mikserga kiradi, bu erda intensiv aralashtirishda gidrogel hosil bo'ladi. Ushbu gidrogel kristalizator 2 ga yuboriladi. A tipidagi zeolit ishlab chiqarilganda, kristalizatoridagi harorat 80-90 °C, yashash vaqti esa 6 soat; X tipidagi zeolitni olishda mos keladigan ko'rsatkichlar 95-100 °C va 12 soatni tashkil qiladi. Gel kristalizatorida jim yoki jonli bug' yordamida isitiladi. Ikkinchisi kristalizatorning yuqori mahsuldorligi uchun ishlatiladi.

filtr pressida ona suyuqlikdan ajratiladi, bunda ortiqcha ishqor bir vaqtning o'zida suv bilan yuviladi. Ona suyuqligi ba'zan ishchi eritmalarıni olish uchun qayta ishlatiladi. Kristallitni eritmadan sentrifugalash orqali ham ajratib olish mumkin. Kristallit zarralari 1 dan 15 mikrongacha bo'lgan o'lchamlarga ega va kamdan-kam holatlardan tashqari, texnologik jarayonlar uchun adsorbent sifatida foydalanish mumkin emas. Shuning uchun 15-20% yuqori o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan plastik kaolinit yoki bentonit gil kristallitga biriktiruvchi sifatida qo'shiladi 4. Yoğurma vaqti 30-40 minut.

Yuguruvchilardan chiqadigan pasta taxminan 35% namlikka ega, bu granulyatsiya uchun zarur bo'lgan mustahkamlikni ta'minlaydi. Ba'zi hollarda qo'shimcha pasta odatda 2 dan 4 mm

gacha bo'lgan kerakli o'lchamdagi granularlar olinadi. Granulasyon har xil turdagi mashinalarda amalga oshirilishi mumkin. GrozNII o'rnatishda bu maqsadda baraban tipidagi planshet mashinasi muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Granularlar 120-150 °C da belbog'da yoki boshqa turdagi apparatlarda quritiladi. Barabanli aylanuvchi elakda 8 quritilgan granularlardan mayda bo'laklar olinadi va takroriy aralashtirish uchun qaytariladi. Granularlarga termal va mexanik kuch berish uchun ular 575-650 °C da aylanadigan yoki milya pechida 9 kuydiriladi. Kalsinlanishning davomiyligi 6 dan 24 soatgacha. Olovli pechda granularlar oltingugurtsiz tabiiy gazni yoqish natijasida hosil bo'lgan chiqindi gazga qarshi oqim bilan harakatlanadi. Tayyor granullangan zeolitlar havo o'tkazmaydigan idishlarga qadoqlanadi.

A va X tipidagi zeolitlarni ishlab chiqarishning texnologik reglamentidagi asosiy farq nafaqat kristallanish bosqichining harorat rejimida, balki gidrogelni tayyorlash shartlarida hamdir. NaX zeolit gidrojeli nisbatan yuqori silika va gidroksidi tarkibga ega bo'lishi kerak. SiO₂ ning molyar nisbati: Kristallanishdan oldin gidrogeldagi Al₂O₃ zeolit A ni olishda 1,7-1,9, zeolit X ni olishda 2,4-4,0 ni tashkil qiladi. Molar nisbati Na₂O : Al₂O₃ mos ravishda 2,3-2,5 va 2,7-5,2 ni tashkil qiladi.

X tipidagi zeolitni olish jarayonida boshqa turdagi zeolit - fillipsitning parallel shakllanishini istisno qiluvchi chora-tadbirlarga alohida e'tibor beriladi. Shu maqsadda, xususan, gidrogel kristallanish jarayonida aralashtirilmaydi.

Issiqlik quvvati bilan bir qatorda, regeneratsiya va sovutish bosqichlarini hisoblash asos bo'lgan asosiy ko'rsatkichlardan biri issiqlik o'tkazuvchanligi hisoblanadi. Issiqlik o'tkazuvchanligi, issiqlik sig'imi kabi, harorat bilan o'zgaradi. Sferik oraliq qatlamda statsionar oqim usuli bilan o'rnatilgan CaA va NaA zeolitlarining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientiga bog'liq.

Adsorbentning issiqlik o'tkazuvchanligiga muhit va adsorbsiyalangan moddaning issiqlik o'tkazuvchanligi ta'sir qiladi. Shunday qilib, 100 °C haroratda CaA zeolitining issiqlik o'tkazuvchanligi havo atmosferasida 0,67, CO₂ atmosferasida esa atigi 0,50 kJ / (m h K) ni tashkil qiladi. Samarali issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti qiymatiga sezilarli o'zgartirishlar regeneratsiya bosqichida qattiq fazadan chiqarilgan desorbat tomonidan issiqlik konveksiyasi bilan amalga oshirilishi mumkin. Oddiy haroratda suvsizlangan kristallarning issiqlik o'tkazuvchanligi 2,1 kJ / (m h K).

Belgilanganidek, granulyatsiya paytida zeolitga birlashtiruvchi qo'shiladi, bu qo'shimcha, ikkilamchi g'ovaklikni ta'minlaydi. Zeolitdan foydalanish jarayoniga qarab, bog'lovchi sifatiga turli talablar qo'yiladi. Bog'lovchi yuzasida adsorbsiya o'ziga xos emas va odatda bog'lovchining o'ziga xos sirt maydoni 10 m² / g dan oshmasligi kerak. Gil ko'pincha birlashtiruvchi sifatida ishlatiladi. Oson polimerizatsiya qilinadigan mahsulotlar qayta ishlanadigan hollarda, bog'lovchi katalitik faol bo'lmasligi kerak; Ushbu turdagi bog'lovchilarga Qrim keel va tsement kiradi.

Ushbu namunalar uchun ikkilamchi teshiklarning dominant radiusi 3400-5400 Å ni tashkil qiladi. Ikkinchi kichik cho'qqi radiusi 700 Å bo'lgan teshiklarga to'g'ri keladi. Bosish bosimining oshishi bilan g'ovaklarni taqsimlash egri chiziqlarining maksimumlari kichikroq radiuslar tomon siljiydi [63]. Tseolitlarning sanoat namunalarida [64], g'ovak taqsimoti egri chizig'i 2300 Å samarali radiusga mos keladigan tepalik bilan tavsiflanadi; Ikkilamchi g'ovak strukturaning hajmining 50% 1600 dan 3550 Å gacha bo'lgan samarali g'ovak radiuslaridagi g'ovaklarga to'g'ri keladi, g'ovak hajmining 46% radiusi 1600 Å dan kam va faqat 6% 3550 Å dan yuqori bo'ladi.

NEFT GAZ QAZIB CHIQRARISH KORXONALARI OQAVA SUVLARI TAHLILI VA TOZALASH USULLARI

*Ko'ychiyev I.E., Ganiyev B.Sh., Mardonov O'. M., Abduraxmonov S.F.,
Baxriddinov A.H., Xoliqova G.Q.
Buxoro davlat universiteti*

Bugungi kunda sayyoradagi umumiy suv ta'minoti taxminan 1,4 mlrd.m³ ni tashkil qiladi. Shunday qilib, har bir kishiga taxminan 200 mln.m³ to'g'ri keladi. Bir qarashda, bu juda katta miqdor. Shu bilan birga, zaxiralarning 96,5% jahon okeanining sho'r suvlari bo'lib, ular iste'mol qilish uchun yaroqsiz, yana 1% yer osti suvlari ekanligini hisobga olish kerak. Chuchuk suvning umumiy miqdori esa – 35 mlrd.m³ ga teng. Dunyo bo'yicha chuchuk suvning ishlatilishi yiliga 3900 mlrd.m³ ni tashkil qiladi. Shu miqdorning yarmisi butunlay ishlatiladi, ya'ni butunlay yo'qoladi, qolgan yarmi esa oqova suv ko'rinishida qaytib keladi.

BMT tomonidan 2020 yilda taqdim etilgan hisobotga ko'ra, agar 2000 yilda suv tanqisligi yiliga 230 milliard m³ deb baholangan bo'lsa, 2025 yilga kelib u yiliga 2 trillion m³ ga oshadi. Bu esa suv tanqisligi muammosining ortishiga olib keladi. Jahon resurslari instituti ma'lumotlariga ko'ra, suv ta'minoti bo'yicha dunyodagi eng noqulay davlatlar 13 ta davlat bo'lib, ular orasida qo'shni davlatlar Turkmaniston, Ozarbayjon bilan O'zbekistonning mavjudligi, Respublikamizda ichimlik suvini tejash va oqava suvlarini tozalash aholi hamda olimlar oldidagi asosiy vazifalardan biri demakdir [1,2].

Hozirgi vaqtda neft sanoatining rivojlanishi tez sur'atlarda davom etmoqda. Neft va gazni qazib olish, tashish, qayta ishlash, shuningdek turli xil sanoat korxonalaridagi baxtsiz hodisalar paytida atrof-muhitning ifloslanishi kuzatiladi. Jumladan, suv havzalarining ifloslanishi muammosi alohida ahamiyatga ega. Bunday ifloslanish nafaqat atrof-muhitga, balki birinchi navbatda inson salomatligiga zarar yetkazadi. Ayniqsa neft va gazni qayta ishlash sanoatining oqava suvlari turli organik qatlamli plyonka hosil qilib, atrof-muhitdagi biosenoza zararli ta'sir etadi, ya'ni organik plyonka qatlami kislorod almashinuvini tiriklik uchun cheklaydi. Shularni inobatga olgan holda neft va gazni qayta ishlash sanoat korxonalarida chiqindi oqava suvlari tarkibini chuqur ilmiy asoslangan holda o'rganib, ularni tozalash bo'yicha usul va texnologiyalarni yaratish bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi.

Tadqiqot vazifasi sifatida Gazli neft gaz qazib chiqarish boshqarmasi va Muborak neft gaz qazib chiqarish boshqarmasi misolida oqava suvlar tarkibini tahlil etilib, ularni olingan tahlil natijalar asosida tozalash texnologiyasini yaratish belgilangan.

Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi usullardan foydalanildi.

1. pH - miqdorini aniqlash.
2. χ - solishtirma elektr o'tkazuvchanlikni aniqlash.
3. Cl⁻ - ionlari miqdorini fotometrik aniqlash.
4. Sianur kislotasi miqdorini fotometrik aniqlash
5. Quruq tuz miqdorini aniqlash (QTM).

Yuqoridagi tahlil usullari asosida 1-jadvalga ko'ra namunalarning tarkibi o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra GGQ-1 namunasida sianur kislotasi miqdori juda yuqori bo'lib, uning pH-miqdori 5,74 ga teng. GGQ-2 namunasida Cl⁻ ionlari miqdori 0.21 mg/l va QTM miqdori 12.839 g ga teng.

1-jadval

Tozalash uchun o'rganilgan oqava suv namunalarning ko'rsatkichlari

Tahlil namunasi	pH	χ mKcm/cm	Cl ⁻ mg/l	QTM g	Sianur kislotasi mg/l
Ichimlik suvi	7	0.30	0	0.01	0
GGQ-1	5.74	725	0.52	0.017	25
GGQ-2	6.36	72.10	0.21	12.839	9
MGQ-1	6.97	13.69	0.25	2.101	11
MGQ-2	7.07	2.287	0.33	0.148	16

Izoh: GGQ-1 va GGQ-2 – Gazli neft gaz qazib chiqarish boshqarmasi oqava suvi, MGQ-1 va MGQ-2 Muborak neft gaz qazib chiqarish boshqarmasi oqava suvi

GGQ-1 namunasi tozalangandan so`ng sianur kislotasi miqdori 21 birlikka kamayib, 4 ga tenglashadi. QTM miqdori ham kamayib 0.017 dan 0.006 gacha o`zgardi. GGQ-1 namunasi tozalangandan keyin QTM miqdori 5 baravarga kamayib kuzatildi va Cl⁻ ioni sorbsiyalanganligi hisobiga fotometrik analizda aniqlanmadi. MGQ-1 namunasi analizida sianur kislotasi miqdori 11 mg/l dan 7 mg/l gacha pasayishi aniqlandi. MGQ-2 namunasining fotometrik analizi natijasiga ko`ra Cl⁻ ioni va sianur kislotasi tozalashdan so`ng aniqlanmadi (2-jadval).

2-jadval

Tozalashdan so`ng o`rganilgan oqava suv namunalariining ko`rsatkichlari

Tahlil namunasi	pH	χ mKcm/cm	Cl ⁻ mg/l	QTM g	Sianur kislotasi mg/l
Ichimlik suvi	7	0.30	0	0.01	0
GGQ-1	7.54	920	0.11	0.006	4
GGQ-2	6.77	77.40	0	2.587	0
MGQ-1	6.81	12.79	0.19	0.444	7
MGQ-2	7.66	2.600	0	0.100	0

Adabiyotlar ro`yxati

1. Привалова Н. М. и др. Очистка нефтесодержащих сточных вод с помощью природных и искусственных сорбентов //Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета. – 2015. – №. 113. – С. 297-306.

2. Amonov M. R. et al. Study of chemical properties combination chemical method of wastewater treatment by methods IR-spectroscopy and X-ray diffraction //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 389. – С. 01020.

DIZEL YOQILG'ISINING MOYLASH XUSUSIYATLARINI YAXSHILASH

¹Sodiqov U.X., ¹Xaydarov B.M., ²Abduraxmonov E.B.

¹Farg`ona politexnika instituti

²Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dizel yoqilg'isining moylash xususiyatlari uning asosiy ishlash ko'rsatkichlaridan biridir. Yoqilg'ining moylash xususiyatlarining pasayishi dvigatel qismlarining va ayniqsa, yoqilg'i uskunasiining nozik juftliklarining aşınmasına sezilarli ta'sir ko'rsatadi [1].

Yoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha xalqaro standartlarga o'tish, Evro 3,4,5 talablariga javob beradigan yoqilg'i ishlab chiqarish GOST 305 bo'yicha yoqilg'iga nisbatan yoqilg'i tarkibidagi oltingugurt miqdorini deyarli bir darajaga kamaytirishni oldindan belgilab beradi. -82. Bu fakt dizel dvigatelining chiqindi gazlarining ifloslanishi va toksikligini kamaytirish zarurati bilan izohlanadi.

Dizel yoqilg'isining moylash xususiyatlarini oshirish uchun yirik yuqori texnologiyali korxonalarda yoqilg'i ishlab chiqarishda ularga maxsus qo'shimchalar qo'shiladi [1].

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yoqilg'ining moylash xususiyatlarini yaxshilash imkoniyatlari cheklanganligi sababli, Internetdan olingan noaniq ma'lumotlardan foydalangan holda, unga moylash moylari asossiz qo'shiladi. Bizning holatda, yoqilg'ining ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha tadqiqotlar olib borish, vazifa ifloslangan yoqilg'idan mexanik aralashmalar, suv va qatronlarni olib tashlashdir. Biz ishlab chiqayotgan tozalash usuli karbamidni ajratuvchi vosita sifatida ishlatadi. Karbamid, aniqlanganidek [2], moylash materiallarining moylash va tribologik xususiyatlarini oshirishning noyob xususiyatiga ega.

Shunga muvofiq, karbamid ta'siridan keyin (tozalash jarayonida) dizel yoqilg'isi va yoqilg'ining moylash xususiyatlarini yaxshilaydigan yuqori samarali qo'shimchalar qo'shilgan yoqilg'ilarda qiyosiy tadqiqotlar va sinovlar o'tkazildi.

Ko'rib chiqilayotgan qo'shimchalar Germaniyada ishlab chiqarilgan qo'shimchalar - Keropur DP 604T va AQShda ishlab chiqarilgan MPG-BOOST qo'shimchalari edi.

Keropur DP 604T dizel yoqilg'isi uchun ko'p funktsiyali qo'shimchalar to'plami bo'lib, uning sifatini yaxshilash uchun ishlatiladi. 1-jadvalda qo'shimchani ayrim xossalari keltirilgan [3].

1-jadval – Keropur DP 604T (BASF) qo'shimchasining xususiyatlari


Murakkab	Organik erituvchidagi polimerlar aralashmasi
Tashqi ko'rinish	Shaffof kehribar suyuqlik
Eruvchanlik	Alifatik va aromatik erituvchilarda eriydi
15 °C kg/m ² zichligi	943
20 °C da yopishqoqlik, mm ² /s	3,4
Yonish nuqtasi, °C	65
Tavsiya etilgan doza, mg/kg	600

Ishlab chiqaruvchiga ko'ra, tavsiya etilgan dozalarda qo'llanilganda, qo'shimcha yonilg'i tizimini korroziyadan himoya qiladi, dizel yoqilg'isining moylash xususiyatlarini yaxshilaydi va setan sonini biroz oshiradi. Past harorat yoki rang xususiyatlari kabi dizel yoqilg'isining boshqa xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi va boshqa qo'shimchalarning (masalan, depressantlar) samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Ma'lumotlarni tahlil qilib, biz 1-sonli yoqilg'ining qo'shimchalar bilan bulutli nuqtasi biroz o'zgarganligini va besh turdagi depressant-dispersiyali qo'shimchalar bilan ikkinchi yoqilg'ida deyarli o'zgarmaganligini ta'kidlaymiz. Bu, asosan, n-parafinli uglevodorodlar miqdorini o'zgartirmasdan, kristallanadigan parafinlarning tuzilishini o'zgartirish, ularning hajmini kamaytirishdan iborat bo'lgan depressant qo'shimchalarning ta'sirining taniqli tushuntirishini tasdiqlaydi. Dizel yoqilg'isi aralashmalarini depressant qo'shimchalar bilan cho'ktirishda tankda cho'kindi hosil bo'lishi kuzatilmadi. 1-sonli dizel yoqilg'isining muzlash nuqtasi deyarli barcha holatlarda - 24 °C dan - 30 °C gacha, 2-sonli dizel yoqilg'isi uchun esa - 18 °C dan - 31 °C gacha kamaydi.

Ma'lumki, dizel yoqilg'isi yuqori erish nuqtasiga ega bo'lgan juda ko'p uglevodorodlarni o'z ichiga oladi. Massasi bir xil, ammo tuzilishi har xil bo'lgan uglevodorodlar keng diapazonda erish nuqtalariga ega bo'lishi mumkin. Dizel yoqilg'isini sovutganda birinchi navbatda oddiy tuzilishdagi kerosin uglevodorodlari cho'kadi [1].

№1 namunadagi dizel yoqilg'isining quyilish nuqtasining 2-namunadagi 12 °C nisbiy o'zgarishiga nisbatan o'rtacha 6 °C ga qayd etilgan o'zgarishi ularning turli xil uglevodorod tarkibi va ishlab chiqarish texnologiyasi bilan tavsiflanishi mumkin. dizel yoqilg'isi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ikkala holatda ham qo'shilgan qo'shimchalarning konsentratsiyasi bir xil edi.



1-rasm. Yoqilg'i xususiyatlariga qarab susaytiruvchi qo'shimchalarning (DQK) ratsional kontsentratsiyasini aniqlash uchun nomogramma (F - nuqtalarda fraksiyonel tarkibi, H-P - parafin miqdori %), cheklovchi filtrlash harorati (FChH) tahlili asosida o'rnatiladi.

Nazariy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqaruvchilar tomonidan turli yoqilg'ilar uchun o'rnatilgan qo'shimchalarning kontsentratsiyasi har xil bo'lishi mumkin, bu kontsentratsiya omilining yakuniy natijaga ta'sirini minimallashtirish vazifasini qo'yadi. Depressant qo'shimchalarning kontsentratsiyasini aniqlash uchun nazariy tadqiqotlarda olingan nomogrammaga asoslanib (1-rasm), ularni qo'llash tezligi yoqilg'ining fraksiyonel tarkibi va n-tarkibi bilan bog'liq bo'lgan PTF ning maksimal filtrlash haroratining qiymati bilan tartibga solingan. parafinlar. Variant sifatida, muzlatish haroratining o'zgarishiga turli xil qo'shimchalar kontsentratsiyasida aralashtirish rejimlari, harorat, vaqt, intensivlik ta'sirini hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shkolnikov V.M. Yoqilg'i, moylash materiallari, texnik suyuqliklar [Matn]. Moskva: Texinform, 1999. 596 b.
2. Ostrikov V.V. Ishlatilgan motor moylarini tozalash usuli // Yoqilg'i va moylar kimyosi va texnologiyasi, 1998 yil, № 5, p. 28-29.
3. Nagornov S.A., Romantsova S.V., Matveev O.V. Yog 'omborlarida yoqilg'i-moylash materiallarini saqlash va ularning sifatini ta'minlash // Qishloq joylari uchun asbob-uskunalar va jihozlar - 2005. - No 7, s. 39-41.

DIZEL YOQILG'ISINING PAST HARORATLI XUSUSIYATLARINI YAXSHILASH OID TADQIQOTLAR

¹Xaydarov B.M., ¹Sodiqov U.X., ²Abduraxmonov E.B.

¹Farg'ona politexnika instituti

²Umumiy va noorganik kimyo instituti

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yil davomida asosan dizel yoqilg'isi bilan ishlaydigan maxsus texnikadan foydalanishni oldindan belgilab beradi. Mamlakatning aksariyat hududlarida iqlim sharoitini hisobga olgan holda, noyabrdan martgacha atrof-muhit harorati - 10 °C dan pastga tushadi, bu esa uskunani yozdan qishki yoqilg'i turlariga o'tkazishni talab qiladi. Bu davrda esa har yili qishloq tovar ishlab chiqaruvchisi muammolarga duch keladi – qishki yoqilg'i hali sotib olinmagan, lekin hali ham foydalanish kerak bo'lgan yozgi yoqilg'i zaxiralari mavjud [1-3].

Zamonaviy voqelikning yana bir muhim omili neft mahsulotlari savdosining tijoratlashuvidir, bunda qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi sababli kichik yetkazib beruvchi firma va tashkilotlardan arzon sifatli qishki yoqilg'i sotib olinadi [2].

Bularning barchasi oxir-oqibatda, traktorlar va avtomashinalar qishda ishlay olmasa, dvigatel ishga tushmagani yoki ma'lum sharoitlarda yoqilg'i ta'minotining to'xtatilishi va yonilg'i filtrlarining ishdan chiqishi tufayli to'xtab qolishi salbiy oqibatlarga olib keladi.

Yoqilg'i Farg'ona viloyatidagi qishloq xo'jaligi korxonalarida traktor va avtomobillarda foydalanish uchun sotib olingan. Ikkala namunani ham shartli ravishda qoniqarli ishlash ko'rsatkichlari va past haroratli xususiyatlarga ega yozgi yoqilg'ilar sifatida tasniflash mumkin. Yoqilg'iga quyidagi markali qo'shimchalar qo'shildi: "KeropurDP604T", "Keroflux 3501", "InfineumR442M", "Difron 3319" va "DDP-antigel". Yoqilg'i 40 ° C ga qizdirilgandan so'ng qo'shimchalar qo'shildi va aralash doimo aralashiriladi.

Ma'lumotlarni tahlil qilib, biz 1-sonli yoqilg'ining qo'shimchalar bilan bulutli nuqtasi biroz o'zgarganligini va besh turdagi depressant-dispersiyali qo'shimchalar bilan ikkinchi yoqilg'ida deyarli o'zgarmaganligini ta'kidlaymiz. Bu, asosan, n-parafinli uglevodorodlar miqdorini o'zgartirmasdan, kristallanadigan parafinlarning tuzilishini o'zgartirish, ularning hajmini kamaytirishdan iborat bo'lgan depressant qo'shimchalarning ta'sirining taniqli tushuntirishini tasdiqlaydi. Dizel yoqilg'isi aralashmalarini depressant qo'shimchalar bilan cho'ktirishda tankda cho'kindi hosil bo'lishi kuzatilmadi. 1-sonli dizel yoqilg'isining muzlash nuqtasi deyarli barcha holatlarda - 24 ° C dan - 30 ° C gacha, 2-sonli dizel yoqilg'isi uchun esa - 18 ° C dan - 31 ° C gacha kamaydi.

Tadqiqot o'tkazish va depressant qo'shimchalar ta'sirida dizel yoqilg'isi xususiyatlarining o'zgarishini baholash uchun ikki turdagi yoqilg'i asos qilib olindi - "Rosneft" kompaniyasining vakolatxonasidan (№ 1) va tijorat neft mahsulotlarini etkazib berish korxonasidan (№ 2) (1-jadval).

1-jadval - 1 va 2-sonli dizel yoqilg'isi namunalarining xususiyatlari

Ko'rsatkichlar	Дизель ёқилғиси	
	№ 1	№ 2
20 °C da kinematik viskozite, mm ² /s	3,7	3,5
20 °C da zichlik, kg/m ³	835	830
Yonish nuqtasi, °C	64	67
Bulutli nuqta, °C	- 8	- 10
To'kish nuqtasi, °C	- 24	- 18
Kislotaligi, mgKOH/g	3,5	4,5
Setan indeksi	40,8	40,7
Tarkib:		
mexanik aralashmalar,%	Yo`q	Yo`q
suv, %	Yo`q	Yo`q
Fraksiyonel tarkibi, °C		
NK	165	179
10 %	206	205
20 %	228	219
o'ttiz %	241	233
40%	255	248
50 %	271	265
60%	283	281
70%	305	289
80%	322	318
90%	345	345
96%	373	371
Haroratgacha distillangan, %		
180 °C	4	0
340 °C	88	89

Ma'lumki, dizel yoqilg'isi yuqori erish nuqtasiga ega bo'lgan juda ko'p uglevodorodlarni o'z ichiga oladi. Massasi bir xil, ammo tuzilishi har xil bo'lgan uglevodorodlar keng diapazonda erish nuqtalariga ega bo'lishi mumkin. Dizel yoqilg'isini sovutganda birinchi navbatda oddiy tuzilishdagi kerosin uglevodorodlari cho'kadi [4].

№1 namunadagi dizel yoqilg'isining quyilish nuqtasining 2-namunadagi 12 °C nisbiy o'zgarishiga nisbatan o'rtacha 6 °C ga qayd etilgan o'zgarishi ularning turli xil uglevodorod tarkibi va ishlab chiqarish texnologiyasi bilan tavsiflanishi mumkin. dizel yoqilg'isi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ikkala holatda ham qo'shilgan qo'shimchalarning konsentratsiyasi bir xil edi.

Nazariy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqaruvchilar tomonidan turli yoqilg'ilar uchun o'rnatilgan qo'shimchalarning konsentratsiyasi har xil bo'lishi mumkin, bu konsentratsiya omilining yakuniy natijaga ta'sirini minimallashtirish vazifasini qo'yadi. Depressant qo'shimchalarning konsentratsiyasini aniqlash uchun nazariy tadqiqotlarda olingan nomogrammaga asoslanib, ularni qo'llash tezligi yoqilg'ining fraksiyonel tarkibi va n- tarkibi bilan bog'liq bo'lgan PTF ning maksimal filtrlash haroratining qiymati bilan tartibga solingan. parafinlar. Variant sifatida, muzlatish haroratining o'zgarishiga turli xil qo'shimchalar konsentratsiyasida aralashtirish rejimlari, harorat, vaqt, intensivlik ta'sirini hisobga olish kerak.

Depressant qo'shimchalarning ma'lum konsentratsiyasini qo'shgandan so'ng, filtrlash chegarasi harorati o'rtacha 5 - 10 darajaga o'zgardir, bu esa uni asl yoqilg'iga qaraganda pastroq muhit haroratida ishlatishga imkon beradi.

Bundan tashqari, depressant-dispersiya qo'shimchalarining yoqilg'ining bulutlanish nuqtasi, quyilish nuqtasi va maksimal filtrlash haroratiga ta'sirini tahlil qilganda, dastlabki xususiyatlari yomonroq bo'lgan o'ziga xos yoqilg'ida qo'shimchalarning ta'siri sezilarliroq ekanligi aniqlandi.

Shunday qilib, o'tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari qishda qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlatiladigan dizel yoqilg'ilarining past haroratli xususiyatlarini yaxshilash uchun depressant qo'shimchalardan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarning hayotiylikini ko'rsatadi. Va depressant qo'shimchalarning konsentratsiyasini aniqlashning ishlab chiqilgan nazariy yondashuvi va nomogramma yordamida aniqlash natijalari eksperimental tadqiqotlar ma'lumotlariga juda mos keladi. Shu bilan birga, muzlatish harorati va maksimal filtrlash haroratini pasaytirish uchun olingan qiymatlarni disperslash qo'shimchalarining texnologik jarayoni, ularni yoqilg'iga qo'shish, intensiv aralashtirish va santrifujlash usulini takomillashtirish orqali sezilarli darajada yaxshilash mumkin deb taxmin qilinadi. ishlab chiqilgan yoqilg'ini tozalash moslamasi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nagornov S.A., Romantsova S.V., Matveev O.V. Nostandart neft mahsulotlari sifatini tiklash // Qishloq joylari uchun asbob-uskunalar va jihozlar - 2006. - No 8, s. 37-38.
2. Ostrikov V.V. Yoqilg'i-moylash materiallaridan foydalanish samaradorligini oshirishning dolzarbligi.// Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish. – 2013. - No 3. – B. 32.
3. Ostrikov V.V., Kornev A.Yu., Zimin A.G., Shikhalev I.N., Bektilevov A.Yu. Dizel yoqilg'isining past haroratli xususiyatlarini qo'shimchalar bilan yaxshilash // Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish. – 2013. - No 4. – B. 30-32.
4. Shkolnikov V.M. Yoqilg'i, moylash materiallari, texnik suyuqliklar [Matn]. Moskva: Texinform, 1999. 596 b.

ПОЛИМЕР КОМПОЗИЦИЈЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Лутфуллаев С.Ш., Назаров Ф.Ф.

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти

Ҳозирги кунда фан ва техниканинг ривожини саноатни деярли барча тармоқларида кенг қўлланиладиган полимер композицион материалларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Юқори молекулали бирикмалар асосида олинган полимер композицион материаллар (ПКМ) нинг юқори хоссалари синтетик ва сунъий толаларда, каучук ва резиналарда,

қоплама ва плёнкаларда, сунъий чармда намоён бўлади. Шунинг учун полимерни ташкил қилувчи ингредиентлар билан полимер орасида кетадиган физик - кимёвий ҳодисаларни ўрганиш, уларни бошқариш орқали олдиндан хоссалари ростланган полимер материаллар яратишга имкон яратади.

Янги полимер композицион материалларни яратишдан асосий мақсад физик-механик хусусиятлар комплексини яхшилашдир. Хусусиятлар комплексининг асосий кўрсаткичи - материалнинг синишга (структуравий бузилишга) қаршилиқ кўрсатиши, яъни мустаҳкамликдир. Мустаҳкамликнинг энг юқори қиймати идеал ёки идеалга яқин структурали системалар учун характерлидир. Чунончи, С-С-боғларнинг узилишга кўрсатадиган қаршилиқларининг йиғиндиси сифатида олинган, полимернинг чўзилишдаги мустаҳкамлигининг ҳисобланган қиймати 19000 МПа га тенг. Бу аслида С-С-боғлардан тузилган идеал кристаллнинг мустаҳкамлигидир.

Мустаҳкамликнинг ҳақиқий қиймати бироз камроқ. Чунончи, ПЭ монокристаллнинг мустаҳкамлиги 13000 МПа ни ташкил қилади, ўта ориентирланган ПП толасининг мустаҳкамлиги - 9000, эритмадан ориентациялаб тортилган ПЭ толасининг мустаҳкамлиги эса 4000 МПа га тенг. Бироқ, мустаҳкамликнинг бундай қийматларини ҳам пластмассаларни қайта ишлашнинг саноат усулида олиб бўлмайди, ва ПЭНП нинг босим остида экструзиялаб олинган оддий плёнкаси эса атиги 10-12 МПа мустаҳкамликка эга.

Ҳозирги кунда дунё бўйича ишлаб чиқарилаётган полимер композицион материалларининг 70% га яқини поливинилхлорид (ПВХ) асосида ишлаб чиқарилмоқда. Шунинг учун ҳам полимер композицион материалларнинг турларини янада кенгайтириш мақсадида 2019 йил декабр ойидан бошлаб Навоий шаҳрида ПВХ маҳаллий хом-ашёси ишлаб чиқарила бошланди. Эндиликда мамлакатимизда ПВХ асосида ҳам турли хилдаги композицион материаллар ишлаб чиқариш мумкин. Шунинг билан биргаликда ПВХ ни қайта ишлашда қўлланиладиган турли хилдаги импорт қўшимчаларни маҳаллий хом-ашё ва саноат чиқиндилари билан алмаштириш каби муҳим муаммоларни ҳал қилиш талаб этилади.

Термопластик ПКМ лар яратиш ва уларни амалиётда қўллашнинг асосий хусусиятлари уларни юқори солиштирма мустаҳкамликка эга эканлиги ва солиштирма мустаҳкамликни таъсир қилаётган кучга оптимал тақсимлана олиши билан боғлиқдир. ПКМ ларни айнан шу хоссаси, яъни юқори солиштирма мустаҳкамликка эгаллиги ва “технологичност” – яъни «технологиябоб» каби хоссалари билан бошқа анъанавий конструкция материаллардан устун турадилар.

ПКМ лардан конструкциялар яратиш кўпгина вазифаларни амалга ошириш билан боғлиқ. Бу вазифалар эса ишлатилаётган материални ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқдир. Шунинг учун ПКМ лар яратишни лойиҳалаштириш асосида маҳсулот конструкцияси ёки конфигурациясига эмас, балки материални ўзини конструкциялашга боғлиқ (армирлаш тармоқлари, қатламлари нисбати, турли армирловчи материалларни бири-бири билан қўшила олиши билан боғлиқ). Бизга маълумки, полимерларни кимёвий таркибини ўзгартириш (модификация қилиш) орқали уларнинг хоссаларини исталган томонга ўзгартириб, турли хилдаги полимер материаллари олиш мумкин [1, 2]. Бунинг учун уларнинг таркибига турли хилдаги қўшимчалар ҳам киритишга тўғри келади. Жумладан, тўлдирувчилар, ёғловчи моддалар, антистатиклар, пластификаторлар, антиоксидантлар ва бошқалар. Қўшимчаларнинг нархи турлича бўлиб, баъзилари қўшимчаларнинг (айниқса термостабилизаторлар) нархлари асосий хом-ашёдан ҳам бир-неча баробар қиммат туради. ПВХ композицияси асосида турли хил материаллар олиш имконияти уларнинг таркибига қўшиладиган қўшимчаларнинг киритилиши билан боғлиқ бўлиб, материалнинг хоссасини биз истаган томонга ўзгартириш имкониятини беради. Шунинг учун ҳам маҳаллий хом-ашёлар асосида қўшимчалар ишлаб чиқариш шу кеча-кундузда ечимини кўтаётган долзарб муаммолардан бири бўлиб турибди.

Ҳозирги кунда кимёвий технология соҳасида бирламчи ва иккиламчи ПЭ асосидаги материалларнинг ёнувчанлик кўрсаткичларини камайтириш бўйича илмий-тадқиқот

ишлари олиб борилмоқда. Жумладан, Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институтида ҳам ушбу мавзу бўйича тадқиқот ишлари олиб борилиб, ПЭ асосидаги композицион материаллар олиш бўйича ижобий натижалар олишга эришилмоқда [3].

Адабиётлар

1. С.Ш.Лутфуллаев. Производства поливинилхлоридных (ПВХ) композиций. «Актуальные проблемы отраслей химической технологии», Международная научная конференция. Бухара 10-12 ноября 2015 года. 320-322 бет.
2. С.Ш.Лутфуллаев, Ш.Х.Тавашов. Композиционные материалы - материалы будущего. «Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш, сақлаш ва дастлабки қайта ишлашнинг қишлоқ хўжалиги, экология ва табиий ресурслардан самарали фойдаланишни ривожлантиришдаги ўрни» Республика миқёсидаги илмий-техник конференция. ҚарМШИ 2017 йил 14-15 апрель.
3. Ф.Ф.Назаров, С.Ш. Лутфуллаев. ПВХ композитлар учун антипиренлар. Сборник трудов международной научно-технической конференции «Парадигмы в современных химико-физических технологиях: взаимодействие традиций и инновационных подходов» Янгиер-2022 й. 117 б.

POLIETILENDA ISHLATISHGA YAROQLI TO‘LDIRUVCHILAR

dots. Cho‘liyev J.R, magistrant Ro‘ziqulov A.A.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Polimerlarni to‘ldirish uchun qattiq, suyuq va gaz holatdagi organik moddalardan foydalaniladi, bunda ular polimerning to‘xtovsiz fazalarida yoyilib, fazalarning urtasidagi chegara hajmini to‘ldirib, geterofaz sistemasini hosil qiladi. Polimerlarga to‘ldiruvchilarni qo‘shishdan maqsad, ishlatish uchun xususiyati yaxshilangan yangi polimer yaratish; polimerlarning texnologik xususiyati va qayta ishlanishini yaxshilash; materiallarni arzonlashtirish; chiqindilarni utilitatsiya qilish va ekologik va iqtisodiy masalalarni yechish; xom ashyo bazasini va to‘ldiruvchilar assortimentini ko‘paytirish.

To‘ldiruvchilarning polimer tarkibiga kiritilishi, to‘ldiruvchili materialning yangicha xususiyatga ega bo‘lishida muxim ahamiyatga ega, polimer tarkibida to‘ldiruvchi qanchalik ko‘p bo‘lsa, materialning xususiyati shunchalik o‘zgarib boraveradi.

To‘ldiruvchili polimerning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, to‘ldiruvchi-polimer fazalari oraliq chegaralari paydo bo‘lib, ulardan olingan materialning texnologik va ishlatish xususiyatlariga ta‘sir etadi.

To‘ldiruvchilar polimerning oquvchanligini oshirishi yoki pasaytirishi mumkin, formalanishi va formasini saqlab qolishini yaxshilaydi, termik va mexanik torayib ketishini oldini oladi, issiqlikdan kengayishini, yoyilishini o‘zgartiradi va polimer materiallarning ishlatilishini keng jabxalarda qullanishiga ёрдам беради.

Shu to‘ldiruvchilarni polimerga qo‘shib, yengil va og‘ir issiq o‘tkazuvchilar, elektr o‘tkazuvchilar va elektr o‘tkazmovchilar, ikki val orasidagi ishqalanishni oshiruvchi yoki kamaytiruvchi, zarbga chidamli, yuqori modulli va o‘ta mustaxkam har xil polimer materiallari olish mumkin.

To‘ldiruvchilarni polimerga qo‘shganda materiallarning ayrim xususiyatlari yaxshilanadi va aksincha ayrimlari yomonlashadi.

Masalan, o‘ta qattiq to‘ldiruvchilar materialning egiluvchanligini yaxshilaydi, ammo deformatsiyasini kamaytiradi. Shuning uchun to‘ldiruvchilarni tanlashda, materialning nimaga qo‘llanilishini xisobga olish kerak.

To‘ldiruvchilar polimerning texnologik xususiyatlarini (qovushqokligi, issiq o‘tkazuvchanligi) o‘zgartirish yo‘li bilan uni keng kulamda qo‘llanishiga imkon beradi.

To'ldiruvchilar qovushqoqligi kam bo'lgan polimerlarning quyuqlantirish uchun xizmat qiladi. Kukun xolda ishlatiladigan to'ldiruvchilarni ozginadan polimerlarga qushib ular tarkibidagi kristallanish darajasini rostdash mumkin.

Ayrim xollarda arzon to'ldiruvchilarni polimer xajmini tuldirish uchun ishlatish natijasida, polimerning narxini pasaytirib, undan olinadigan buyumni arzonlashtirishga erishiladi.

Barcha tabiatda uchraydigan to'ldiruvchilar agregat holatlari bo'yicha 3 xilda bo'ladi: gaz, suyuq va qattiq, bunda qattiq to'ldiruvchilari bo'lib metal, keramik, mineral, uglerod(ko'mir) va polimer ishlatiladi.

Polimer bog'lamlari to'ldiruvchilarining yetishmovchiligi va narxining balandligi, polimer kompozitlariga mineral to'ldiruvchilarini qo'shishga bo'lgan qiziqishni va ulardan keng foydalanishga yo'l ochdi.

Polimerlar tarkibiga maxalliy to'ldiruvchilarni qo'shish, ularning xususiyatlarini aniq va kerakli talablarga javob berishlarini o'rganishni taqazo etadi. Yangi tanlangan to'ldiruvchilardan maqsadli foydalanish uchun, ularda qo'yidagi faktorlar bo'lishi kerak:

Kimyoviy tarkibining doimiyligi;

Maxsulotning tozaligi, metall qirindilar, o'zgaruvchan valentliklar bo'lmasligi kerak;

Maxsulot nam bo'lmasligi;

Disperslangan, №14 sitadan o'tmagan qoldiqlarning bo'lmasligi;

Maxsulotning zaxarsizligi;

Yangi xom ashyoning aniq kelajagi va kerakligicha zaxirasi borligi. To'ldiruvchilar parchalarining o'lchami, tabiati, tarkibi, soni va formasi ularni foydalanadigan texnologik talablar asosida tanlanadi, bundan tashqari polimer bog'lamlari xususiyatlari, fazalar o'rtasidagi qatlam tarkibi xam xisobga olinadi.

To'ldiruvchilarni kelib chiqishidan tabiiy va sintetik, tarkibi bo'yicha esa organik va noorganik, xarakati bo'yicha polimer faol va polimer faolsizga bo'lish mumkin. To'ldiruvchilar olinadigan xom ashyo qo'yidagilarga bo'linadi: birlamchi- maqsadli qazib olingan xom ashyo va ikkilamchi ishlab chiqarish qoldiq maxsulotlari.

Tabiiy mineral to'ldiruvchilarga barcha metallmas foydali qazilmalar kiradi, jumladan betonitlar, karbonatli jinslar, siolitlar, talk va boshqalar. Sanab o'tilgan mineral moddalar Respublikamizning asosiy mineral to'ldiruvchilar xom ashyosi bazasini tashkil etadi.

Bilamizki, mineral to'ldiruvchilar polimerlar bilan o'zaro ta'siri darajasi bo'yicha aktiv (kolloidli kremniy kislotasi, alyumin va Kalsiy selikatlari), yarim faol (kaolin, bentonit va b.) va inert (ohaktosh, talk, fosfogips va b.)larga bo'linadi, bu to'ldiruvchilar xususiyatlariga qarab tanlab olinadi va boshqa faktorlariga xam e'tibor beriladi. Chet ellarda polimer kompozitsiyali materiallarga qo'shiladigan mineral to'ldiruvchilarga qattiq talab qo'yiladi

Sanoatda ishlab chiqarilayotgan to'ldiruvchilarni o'lchami va strukturasi qarang, 4 ta asosiy xilga bo'lish mumkin: dispersli (kukun xolida); tolali (tola, ip, jgutlar va b.); varaqli (plyonkali) strukturali (xajmli gazlama, kigizlar, skletli va g'ovakli karkaslar). Polimerlar tarkibiga har xil o'lchamdagi va strukturadagi to'ldiruvchilar qo'shilganda, polimer kompozitsiyali materiallarning xususiyatlari va strukturalari o'zgarib ketadi. Struktura prinsipi bo'yicha to'ldirilgan polimerlar, qo'yidagicha sinflanadi: disperslab to'ldirilganlar (gaz, suyuq, qattiq, qisqa tolali to'ldiruvchilar); bittali armirlangan (tola, iplar, jgutlar), ikkitali armirlangan (gazlamalar, lentalar, matlar, plyonka va setkalar) va uch yunalishli (xajmli va karkasli to'ldiruvchilar); o'zaro biri biriga kirib ketuvchi sistemalar (polimerlar aralashmasi, regenirlanmovchi materiallar). Dispers strukturali to'ldiruvchili materiallar izotrop xususiyatiga ega bo'ladi. Armirli plastiklar anizotropik xususiyatda bo'ladi. Polimer materiallar tarkibidagi qisqa ($l < 10d$) va uzun tola (100 mmgacha)larning polimer bo'ylab bo'linishi va joylashishiga qarab izotrop va anizotrop xususiyatlarga ega bo'ladi. Polimerlar tarkibiga to'ldiruvchilarni kiritishning samaradorligi, to'ldiriluvchili plastmassalarning texnologik va ekspluatatsion o'zgarish xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Б.Э.Эшмуратов «Разработка технологии получения полимерных композиционных материалов из полиэтилена с использованием нефтяного растворителя АНПЗ и отхода ШГХК низкомолекулярного полиэтилена» диссертациясидан фойдаланилган 2002й 17-18бет.

2. Abdurashidov, To'xtamurod. Plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasi: texnika oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'lianma / T. Abdurashidov; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. -T.: Musiqa, TOSHKENT – 2010.

3. A.V.Umarov, G.I.Muxamedov, X.O.Quchqarov. Polimerli kompozit materiallar fizikasi: / O'quv qo'llanma / Namangan 2017. - 287 b.

4. U.A.Ziyamuxamedova. Materialshunoslik. Darslik. – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 276 b.

UGLEVODOROD FRAKSIYALARINI AJRATISHDA GIDROKOL JARAYONINING MOHIYATI

Buronov Firdavsiy Eshburiyevich¹

Saidov Saida'lo Mirsaidovich²

¹Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o'qituvchisi

Qarshi, O'zbekiston.

²Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

NGS-529-22A guruh magistratura talabasi

Gidrokol jarayonining maqsadi, neft mahsulotiga nisbatan 80% dan yuqori rentabellikga ega motorli benzin ishlab chiqarish hisoblanadi. Neftning mahsulot taqsimoti shundan iboratki Fisher Tropsch neftni qayta ishlash zavodi konverratsiya jarayonlarini talab qilgan naftaning qaynash oralig'ida material miqdorini oshiradi. Neftni qayta ishlash zavodi ham talab qilinadigan motor-benzin xususiyatlariga mos keladigan naftani yangilaydigan konversiya jarayonlari 1950-yillardan boshlangan. O'sha davrda odatiy motorli benzinning (tadqiqot) oktan soni 87 va tetraetil qo'rg'oshin (TEL) qo'shilgandan keyin motor oktan soni 83 ga teng bo'lgan. Miqdori qo'shilishi mumkin bo'lgan TEL 1,3 kg*m³ bilan cheklangan edi. Ko'pgina xususiyatlar tartibga solinmagan va texnik xususiyatlar faqat takliflar edi.

Hydrocol neftni qayta ishlash zavodining dizayni an'anaviy xom neftni qayta ishlash zavodi dizaynidan sezilarli darajada farq qildi. Qayta ishlash atmosfera distillashidan boshlanadi. Bunda Fisher Tropsch sintezida tarkibidagi kislorodlar uglevodorodlar bilan birgalikda qaynashi aniqlandi. Bu kisloroddan ikki to'rt soni og'irroqdir. Har qanday neftni qayta ishlash zavodi bu oksigenatlarni uglevodorodlarga ularning qaynash nuqtasini 50 °C ga o'zgartirish hisobiga amalga oshiriladi. Bunday qaynash diapazoni kengayishiga yo'l qo'ymaslik uchun neftni qayta ishlash zavodining dizayni atmosferik distillashdan oldin, kislorodlarni uglevodorodlarga aylantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu dizayn yondashuvining yana bir maqsadi sinkruziyaning korroziyaligini kamaytiriladi neft tarkibidagi karboksilik kislotalarni aylantirish orqali.

To'liq neft fraktsiyasi boksit ustida 400c atrofida bo'lgan haroratda ishlov beriladi. Boksit bu yengil kislotali alyuminiyga boy tabiiy material. Boksitni qayta ishlash bosqichi tijorat jarayoni bo'lib, u neftni qayta ishlash zavodlarida oltingugurtni ajratib olish bosqichi sifatida ishlatilgan Perco-process deb ataladi. Shuningdek boksit bilan ishlov berish ishlab chiqarilgan sinkruddan kislorodni ajratib olish uchun Philips Petroleum HTFT tajriba zavodida ham qo'llanilgan. Boksit bilan ishlov berish barcha kislorodlarni ajratib ololmasa ham, bu jarayon bilan juda yaxshi natijalarga erishildi. Barcha spirtlar va esterlar hidrokarbonlarga (asosan alkenlarga) aylandi va karboksilikning qo'shma konversiyasi kislotalar va karbonillar 90% gacha erishildi. Va qoshimcha ravishdakislorodlarning konversiyaga uchrab alkenlarga aylanishidan tashqari bu jarayon naftaning oktan sonini ham oshiradi. Boksit bilan ishlov berilgan mahsulot debutanizator kolonnasida barqarorlashtirildi C₃-C₄ yuqori mahsuloti (UOP CatPoly) si qattiq fosfor kislotasi catalyst sifatida alken oligamerizatsiyasi uchun foydalanildi. Qattiq fosfor kislotasi oligomerizatsiyasi ozuqa materialiga va ishlatiladigan ish sharoitlariga nisbatan sezgir emas va

asosan nafta oralig`idagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Shuning uchun talabdan kelib chiqib motor benzin ishlab chiqarish Hidrokolni qayta ishlash zavodi hisobga olingan. Oligomerizatsiya 205 °C 3.5 Mpa da amalga oshiriladi 1.5h-1. Mahsulot tarkibidagi alkenlarning 90% dan ortig`i yaxshi sifatli olefinga aylanadi va polimer benzin olinadi. (RON=95.4 MON=82.4). Naftaning distillatga nisbati mahsulot oligerlari 88:12. va debutanizator kolonnasining pastki qismidan stabillashgan moy ajratib olinadi. Va nafta hamda distilyatga ajratildi. Bu fraktsiyalar Hidrokol neftni qayta ishlash zavodida motor benzin va dizel zaxirasini yaratdi. Motor benzini 64% boksit nafta bilan ishlangan aralashmadan, 25% Polimer benzini oligomerizatsiyadan va 11 % tabiiy benzin (n-butanga boy) tabiiy gazni ajratishdan iborat. 1950- yillarda oddatda xom neftdan olingan motorli benzin tarkibi 20-40% alkenlar va 5-30% aromatik moddalardan iborat bo`lgan.

GTL Fraksiyanator seksiyasi suyuq mahsulotlarni reaksion seksiyadan ajratib olishga hamda kerosin va dizel ni boshlang`ich mahsulot sifatida ishlab chiqarishga mo`ljallangan. Kerosin va dizel mahsulotlari tarkibidan nafta ajratib olinadi va keyingi jarayon uchun mahsulot sifatida uzatiladi. Kerosin va dizel Izodewaxing seksiyasiga yuboriladi, izodewaxing katalizatori va undan foydalanish bilan past qattiqlashuvchi dizel yoqilg`isini ishlab chiqarish usuli hisoblanadi. Izodewaxing va konversiyaga uchramagan moylar bilan yana reaksiyon seksiyaga yo`naltiriladi. Mahsulot fraksiyanator kolonnasining loyihalashtirilgan qismida talab qilingan mahsulotni ajratib olish uchun. Suyuq mahsulotlar issiq suyuqlik bosimida ajratish va sovuq suyuqlik bosimida ajratish separatorlaridan ajratilgach fraksiyanator kolonnasiga berishdan avval fraksiyanator mahsulot pechkasida qizdiriladi. Fraksiyanator kolonnasida 36 ta tarelka mavjud va 10 tarelka flash zonasi hisoblanadi. Kolonna yuqorisidan chiqqan gaz fazasi kompressor antipumpaj gaz qismiga qo`shiladi va ventilyator sovutgicha yordamida sovutilgach qisman kondensatlanadi. Va kolonnaning yuqori qismida refluxe ni taminlab beruvchi separatora yig`iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Смидович Э.В. Техналогия переработка нефти и газа 2.М: Химия 1980 стр 274-280.
- 2.Балабердина И. Т. “Физический методи переработка и исползование газа М: Химия 1987 стр 262.
- 3.Бакиров Т.М “Первичная переработка природных газов” М Химия 1987, 262 стр.
- 4.Черножуков Н.И “Техналогия переработки нефти и газа” ч 3, М: Химия 1978,324-стр.

ЭКСПАНЗЕР ГАЗИ КОМПОНЕНТЛАРИНИ КИМЁВИЙ САНОАТДА ҚЎЛЛАШ

¹Обидов Х.О., ²Исаев Б.Н.

1. Бухоро муҳандислик – технология институти, мустақил изланувчи
2. Бухоро муҳандислик – технология институти, талаба

Экспанзер газы – нафақат юқори калорияли ёқилғи, балки нефт кимёвий ва кимёвий саноат учун ҳам қимматбаҳо хомашёдир. Уни қўллаш имкониятлари бой таркиби ҳисобига табиий газниқига қараганда кенгрокдир. Экспанзер газы кўп микдорда мономерлар, синтетик каучуклар ва кўпгина бошқа маҳсулотларни олиш учун зарур бўлган этан, пропан, бутан ва анча оғир углеводородларни сақлайди.

C₃ углеводородлар ва ундан оғирлари, C₇-C₈ изомерларигача бўлганлари термик пролизга учратилади. Дастлаб углеводородларнинг сув буғи билан аралашмасини (конденсация ва кокс ҳосил бўлиш реакцияларини секинлаштириш учун) 500-600⁰С гача қиздирилади, сўнгра аралашма ҳарорати 850 ⁰С гача бўлган пирозмеевикка тушади. Углеводородларнинг реакция зонасида бўлиш вақти 0,3-0,5 сек. Пиролиз маҳсулотлари таркиби дастлабки хомашёга боғлиқ бўлади, аммо пиролиз печи ўртача 20 % метанни, 32-33 % этиленни 15-16 % пропиленни беради, бутилен-бутадиен фракцияси 10 % ни, 7 дан 18% гача пиролизнинг суёқ маҳсулотларини ташкил қилади. Худди шундай этан, ацетилен ва метилацетилен фракциялари, оғир смолалар кам микдорда мавжуд. Компонентларни ажратиш учун босим остидаги ректификациялашни қўлланилади. Пиролиз конденсатида

60-70% ароматик углеводородлар бор. Бу конденсатни, стирол ва диен маҳсулотларидан кутилиш учун гидрогенлайдилар, олтингугуртли бирикмалардан кобальт-молибденли катализаторларда 340 °С гача қиздириш билан тозалайдилар. Натижада водород сульфид ва гидродеалкиллашга юбориладиган тоза C₆-C₈ аралашмаси ҳосил бўлади. Бу босқичдан кейин этан, метан ва бензол ҳосил бўлади.

Шундай қилиб, экспанзер газни пиролиз усули билан қайта ишлашнинг асосий маҳсулотлари бўлиб этилен, пропилен ва бензол ҳисобланади.

Олефинлар ва синтез-газни йўлдош нефт газидан оксипиролизнинг мураккаб жараёнида олиниш усули келтирилган. Биринчи босқичда углеводород хомашёсини кислороднинг кичик қўшимчалари иштирокида қиздирадилар. Бунда C₂₊ углеводородларнинг дегидрогенланиши ва деструкцияси (оксипиролиз) асосан олефин ва метанни бир вақтнинг ўзида синтез-газни олиш билан бир қаторда ҳосил қилиш билан содир бўлади. Биринчи босқич маҳсулотларини ажратмасдан каталитик реакторга юборадилар, унда олефинлар суюқ углеводородларга олигомерланишга ва суюқ маҳсулотларга функционаллаштиришга учратилади. Суюқ маҳсулотларни ажратгандан кейин газ муҳитининг асосий маҳсулотлари бўлиб CH₄, H₂ ва CO ҳисобланади. Бу газлар аралашмасини газ фазали парциал оксидлашга юборадилар, бу метаннинг тўлиқроқ қайта ишланишини таъминлайди.

Экспанзер газни компонентларини совутувчилар сифатида қўллаш.

Тоза пропан ёки бутан ва изобутан аралашмалари озон қатламига ҳисобга олинмайдиган кичик хавфга ва глобал исиш потенциалига эга, шунинг учун улар хлор ва фтор сақлаган хладагентларга ўринбосар бўлиб хизмат қилиши мумкин. Пропан-бутан аралашмасини хладагент сифатида қўллашнинг асосий камчилиги бўлиб компонентларнинг ёнғинга хавфлилиги ҳисобланади.

Газли газни қайта ишлаш заводининг газни қайта ишлаш технологик тизимидаги ҳосил бўладиган экспанзер газлари таркиб жиҳатидан метанга бой ҳисобланиб, бугунги кундаги мавжуд технологик тизимда ушбу газ факелга юборилиб ёқиб атмосферага чиқариб юборилмоқда. Ушбу газдан товар газни ишлаб чиқариш учун уни таркибидаги йўлдош элементдан тозалаш техника ва технологиясини ишлаб чиқишни талаб қилади.

A-AMINOATSETONITRILLARDA BORADIGAN TURLI ALKILLASH REAKSIYALARI


M.I.Jurayeva Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Molekulasida bitta vodorod atomi tutgan α -aminonitrillar uchun, ya'ni N-monoalmashgan α -aminoatsetonitrillar, shuningdek N,N-dialmashgan α -aminoatsetonitrillar metin yoki metilen guruhlari hamda metilen guruhlari bilan faollashgan boshqa birikmalarda (mono-, dinitro, fenil, alkooksikarbonil, sian guruhi yoki uni o'rinbosarlar bilan birgalikdagi) nitril guruhi va boshqa o'rinbosarlar ishtirokida yanada faollashadi. Shuning uchun bunday α -aminoatsetonitrillar alkilgalloidli birikmalar bilan alkilash reaksiyalariga kirishishi, karbonilli birikmalar bilan kondensatsiyaga, faollashgan qushbog' va uchbog'ga birikish reaksiyalariga kirishishi mumkin. Ushbu birikmalarni yuqorida keltirib o'tilgan birikmalar bilan reaksiyaga kirishishi uglerod atomida har xil o'rinbosarlar tutgan mono- va dialmashgan α -aminoatsetonitril birikmalarini sintez qilish imkonini beradi. Bu esa bizga boshqa usullar bilan sintez qilinishi qiyin bo'lgan birikmalarni sintez qilish yo'llarini ochib beradi.

Shuningdek, ushbu yo'l α -aminonitrillarni karbonilli birikmalarga (" α -aminonitrillar gidrolizi" bo'limiga qarang) ya'ni ketokarbonilli hamda ketonitrilli va boshqa birikmalarga o'tishga imkon beradi. Ushbularni hisobga olib ushbu bo'limda α -aminoatsetonitrillarda keltirilgan reaksiyalarni borishiga to'xtalib o'tamiz.


Adabiyotlarda α -dimetilaminofenilatsetonitrilni bir qancha alkillovchi reagentlar bilan alkilash reaksiyalari keltirilgan. Ushbu reaksiyalarda alkillovchi agentlar sifatida benzilxlorid,

α -feniletilxloridlar ishlatilgan. Reaksiya suyuq ammiakda kaliy amid ishtirokida olib borilgan bo'lib, reaksiya mahsulotlarining unumi 70-80 % larni tashkil etgan [37,38].




Ushbu birikmalarni atsetofenonlardan, dimetilamin va nitril ioni tutuvchi birikmalar orqali sintez qilish ham mumkin. Hosil bo'lgan almashingan α -aminonitrillar gidroliz natijasida tegishli arilbenzilketonlarni hosil qiladi.


Qayd etib o'tilgan α -aminonitrilni alkilashni litiyli tuzlar ishtirokida olib borilsa ham bo'ladi. Bunda oxirgi mahsulot izopropil(siklogeksil)bromid bilan o'zaro reaksiyaga kirishib osonlikcha tegishli alkil(циклогексил)- α -dimetilaminofenilatsetonitrillarni hosil qiladi.



α -Dialkilaminoaril- va geterilatsetonitrillar ham alkilgalloid, allilxlorid, bromsirka kislotaning etil efiri va epixloridrinlar bilan o'zaro alkilash reaksiyalariga kirishadi.




Uglerod atomida o'rinbosar tutmagan α -aminoatsetonitrillarni alkilash reaksiyalari o'rganilagan.




α -Dietilaminatsetonitril n-oktilyodid ta'sirida α -dietilaminodekan kislotasining nitriliga aylanadi, uning gidrolizi o'tkazilganda n-nonil aldegi hosil bo'ladi. Ushbu aminonitrilni 1,2-epoksigeptan bilan alkilash reaksiyasi natijasida β -gidroksi- α -aminonitril hosil qilingan. Ushbu birikma kislotali sharoitda gidrolizga uchratilsa okten-2-al hosil qiladi.

2-(2,6-dimetilpiperidino)atsetonitrilning litiyli tuzi ham monoalkilmahsulotlar hosil qilib alkilash reaksiyalariga kirishadi. Ushbu reaksiyani borishini mualliflar metil guruhlari sterik effekti bilan izohlashadi.



α - dialkilaminoalkilatsetonitrillarni alkillash reaksiyalari ham o'rganilgan, ular ushbu reaksiyalarda α -dialkilaminodialkilatsetonitrillar hosil qilishadi.

Adabiyotlarda α -aminonitrillarni ya'ni α -N-fenil-, N-metilakrilonitrillarni alkillash reaksiyalari to'g'risida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. α -N-fenil-, N-metilakrilonitrillar alkil yoki arilmetallar bilan anionlar hosil qilib, ular esa o'z navbatida ushbu alkillash reaksiyalari orqali α -uglerodning alkillanish reaksiya mahsulotlarini hosil qiladi. Ushbu yo'l bilan ko'plab o'zida har xil o'rinbosarlar tutgan α -aminonitrillarning hosilalari olingan. Alkillovchi agent sifatida metil yodid, etil va benzil bromid ishlatilgan.




R=Ar, Aik; R¹ = CH₃; C₂H₅, CH₂C₆H₅


Yenaminonitrillarning alkillash reaksiyalari yo'nalishi bir qancha omillarga bog'liq bo'ladi: alkillash jarayoniga α -uglerod atomi va β -holatdagi uglerod atomi ham uchrashi mumkin. α -N-metil-, N-fenilbuten-3-on kislotaning nitrilini metil yodid bilan metillash reaksiyasi o'tkazilganda metillash γ -uglerod atomiga qo'shbog'ning izomerizatsiyasi orqali α -uglerod atomiga borishligi kuzatildi.

R=Ar, Aik; R¹ = CH₃; C₂H₅, CH₂C₆H₅

Yenaminonitrillarning alkillash reaksiyalari yo'nalishi bir qancha omillarga bog'liq bo'ladi: alkillash jarayoniga α -uglerod atomi va β -holatdagi uglerod atomi ham uchrashi mumkin. α -N-metil-, N-fenilbuten-3-on kislotaning nitrilini metil yodid bilan metillash reaksiyasi o'tkazilganda metillash γ -uglerod atomiga qo'shbog'ning izomerizatsiyasi orqali α -uglerod atomiga borishligi kuzatildi.



γ -holatdagi uglerod atomiga metil guruhini kiritilishi reaksiyaning yo'nalishini o'zgartirib yuboradi; α -morfolinopenten-3-on kislotaning nitrilini etilbromid bilan alkillash reaksiyasida alkillash faqatgina α -holatdagi uglerod atomiga borishi kuzatiladi.



Reaksiyani yo'nalishiga α -aminonitrildagi aminoguruhning tuzilishi o'zining yetarlicha katta ta'sirini o'tkazadi. α -Dimetilamino- va -morfolinotsinnamilatsetonitrilni metil yodid bilan metillash reaksiyasida alkil mahsulotlar sifatida bir xil nisbatdagi α - va γ -metilmahsulotlar hosil bo'ladi. α -Morfolinotsinnamilatsetonitrilni alkillash reaksiyasida esa asosiy mahsulot sifatida α -metilmahsulot hosil bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Kodirov A.A., Mirzayev M.S., Shaxidoyatov X.M. Atsetonsiangidrinlarni aminlar bilan reaksiyalarini o'rganish // Kimyoviy reaksiyalarning sintezi va ularni ishlab chiqarish. Tezis dokl. -T. -1995. S.112
2. Kodirov A.A., Shaxidoyatov X.M. Vzaimodeystviye atsetonsiangidrina s aromatcheskimi aminami // Yosh olimlar va talabalar P-Respublika ilmiy konferensiyasi. Tezis dokl.-T., -1996. S.
3. Tiemann G., Piest K. Ueber Phenylanilidoeisegsaure, ihr Amid und nitril// Chem. Ber. - 1888. -Jg.15.- S. 2028
4. BuchererH., Grolee A. Ueber nitrile arylitter glyisine.//Chem. Ber.-1906. -Jg.39. -S. 999

АНАЛИЗ НЕФТЯНОГО ШЛАМА, СОБРАННОГО В НЕФТЕГАЗОХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА

¹Мухторов Н. Ш., ²Яхьяев Н.Ш., ³Шукуров Ф.З.

1. АО «Узбекнефтегаз» заместитель начальника управления, д.т.н.;
2. Бухарский инженерно-технологический институт, д.ф.т.н., (PhD) ;
3. Бухарский инженерно-технологический институт, студент.

С каждым годом в мире возрастает потребность в получении новых видов продукции путем переработки отходов нефтехимической промышленности. Одной из актуальных задач получения данных новых видов продукции является производство экспортных материалов, направленных на снижение воздействия на внешнюю среду и экологического вреда, а также замену импортируемой продукции.

Для предприятий нефтяной отрасли характерно образование значительного количества нефтесодержащих отходов (НСО) различного происхождения.

Образование нефтешламов при эксплуатации нефтяных месторождений происходит различными путями, за счет сбросов при подготовке нефти, сбросов при зачистке резервуаров, нефтесодержащих промывочных жидкостей, используемых при производстве буровых работ, сбросов при испытании и капитальном ремонте скважин. Также нефтесодержащие отходы могут образовываться при аварийных разливах, транспортировке сырой нефти и продуктов ее переработки, а также при работе очистных сооружений нефтехимических и нефтеперерабатывающих предприятий .

До настоящего времени комплексного решения вопроса утилизации экологически агрессивных нефтесодержащих отходов, образующихся на всех этапах производственных процессов переработки нефти не существует.

Нефтешламы (НШ) является самым значительным по массе отходом нефтяной отрасли. Анализ данных на существование большого количества различных оценок объемов накопленных и вновь образующихся отходов данного вида:

- доля нефтешламов в Узбекистане, по различным оценкам, может составлять 5-8% от объема годовой добычи нефти;
- количество образующихся нефтесодержащих отходов постоянно увеличивается и достигает 5-7 тонн на 1 тыс. тонн перерабатываемой нефти;

Значительные количества отходов сбрасывается в пруды-накопители, занимающие большие площади, что является источником загрязнения окружающей среды, а также исключает их из рационального землепользования.

Представленные данные отражают количественную картину и масштабность проблемы. Однако, есть предположения, что эти цифры являются заниженными из-за трудностей в учете данного вида отходов, а зачастую и их фактического сокрытия. Нефтешламы представляют собой многокомпонентные системы, состоящие главным образом из осмоленных высокомолекулярных нефтепродуктов, воды и минеральных примесей (песок, глина, окислы металлов и т.д.). При рассмотрении проблемы остаточных нефтеотходов необходимо изучение источников их образования, методов утилизации и переработки. Остаточные и осмоленные нефтепродукты в дальнейшем – нефтешламы

могут быть разделены на четыре основные группы в соответствии с условиями их образования: - грунтовые – образуются в результате проливов нефтепродуктов на почву в процессе производственных операций, либо при аварийных ситуациях – 4-5 %; - придонные – образуются при оседании нефтеразливов на дне водоемов и шламбассейнов НПЗ – 6-5 %; - резервуарного типа – образуются при хранении, перевозке нефтепродуктов в емкостях разной конструкции, в нефтебазах и терминалах – 2- 4 %; - нефтеамбарные – выделенные при добыче нефтей после сепарирования и обезвоживания – 85-90 %. Нефтешлам нефтяных резервуаров образуется при расслаивании нефти и оседании на дно резервуара нефтяных осадков. Нефтешлам нефтяных резервуаров имеет пастообразное агрегатное состояние. Состав и характеристики нефтяных осадков зависят от свойств нефти.

Таблица 1. Виды классификации нефтесодержащих отходов

Классификация нефтесодержащих отходов	
1. По условиям образования	
1.1	- сбросы при зачистке нефтяных резервуаров; - аварийные разливы при добыче и транспортировке нефти; - амбарные нефти.
1.2	- грунтовые нефтешламы; - придонные нефтешламы; - нефтешламы резервуарного типа.
1.3	- жидкие нефтеотходы; - отходы ремонта; - нефтегрунт; -асфальто-смолопарафиновые отложения (АСПО).
1.4	- придонные, образующиеся на дне различных водоёмов после произошедшего разлива нефти; - образующиеся при бурении скважин буровыми растворами на углеводородной основе; - образующиеся в процессе добычи нефти, а, точнее, в процессе её очищения. Дело в том, что добытая из скважины нефть содержит многочисленные соли, выпавшие твёрдые углеводороды, механические примеси (в том числе и частицы горных пород); - резервуарные нефтешламы - отходы, которые образуются при хранении и транспортировке нефти в самых разнообразных резервуарах; - грунтовые, являющиеся продуктом соединения почвы и пролившейся на неё нефти. Этот вид нефтешламов (загрязненных почв) относится к отходам только после размещения в накопителях отходов или на полигонах для переработки отходов.
1.5	- отходы безреагентной обработки нефтесодержащих сточных вод; - отходы, образовавшиеся в результате реагентной обработки нефтесодержащих сточных вод; -смешанные отходы трудноразделяемых нефтесодержащих материалов (синтетических ПАВ, флотоконцентратов и др.); - отработанные масла, продукты очистки нефтяных резервуаров.
2. По агрегатному состоянию	
2.1	- жидкие нефтесодержащие отходы; - твердые и высоковязкие нефтесодержащие отходы; - избыточный активный ил

В своем составе нефтешламы могут содержать большое количество компонентов в различных соотношениях. Анализ данных о ранее проведенных исследованиях НСО из различных регионов Узбекистана показывает, что они характеризуются широким

диапазоном состава, однако имеют общую тенденцию физико-химических характеристик слоевых компонентов накопителей НСО.


Использованная литература:

- ГОСТ 2477-65. Нефть и нефтепродукты. Метод определения содержания воды. - М.: Изд-во стандартов. - 1966. - 7 с.
- ГОСТ 2177-99 Нефтепродукты. Методы определения фракционного состава. - М.: Изд-во стандартов. - 2001. - 25 с.
- Nodir Sharifovich Yakhyaev & Abror Akbarovich Aliev. Production Of Heavy Oil Products From Oil Sludge At Atmospheric Pressure. The American Journal of Engineering and Technology, 3(09), 31-36 б, (2021).
- Яхьяев Н.Ш. Термохимическое обезвоживание опытной партии нефтяного шлама с применением деэмульгатора// Universum: технические науки: электрон научный журнал, Июнь 2021. 6(87). Стр 53-55.


A-AMINONITRILLAR SINTEZ QILISH USULLARI

M.I.Jurayeva *Qarshi muhandislik-iqtisodiyot, instituti,*

α -Aminonitrillarni (KCN, NaCN, MH_4CN) kabi sianlovchi reagentlardan sintez qilib olish mumkin. Ushbu sianlovchi reagentlar ishtirokida α -fenilamino- va o-toluidinoizobutironitrillar olingan .




Alifatik va aromatik aldegidlar dialkilaminlar bilan kislotali muhitda sianid ion ishtirokida tegishli α -aminonitrillar hosil qilishi mumkin. Shuningdek, α -aminonitrillar hosil qilish uchun xlorid, perxlor va p-toluolsulfo kislotalar ishlatilgan. Reaksiyani olib borish jarayonida aldegid dialkilamin ishtirokida tegishli sianid kislota tuzlari ta'sirida α -dialkilaminonitrillar hosil qiladi .




Kaliy sianid tuzi atseton va etilendiamindan bis- α -aminonitril sintez qilishda ishlatilgan. Azot atomida o'rinbosar tutmagan α -aminonitril ya'ni birlamchi aminoguruhlik birikmalar sianlovchi reagent sifatida ammoniy sianid ishtirokida olinadi.


Atsetaldegidni ammoniy sianid bilan yoki ammoniy xlor va kaliy sianid aralashmasi ishtirokidagi reaksiyasi natijasida hosil bo'ladigan α -aminopropionitrilni kislotali sharoitda gidroliz qilish α -alaninni hosil bo'lishiga olib keladi.






Xuddi shunday reaksiya atseton va ammoniy sianid ishtirokida boradi va reaksiya natijasida α -aminoizobutironitril hosil bo'ladi keyinchalik uning gidrolizi natijasida α -aminoizomoy kislota hosil bo'ladi .





α -Aminonitrillar sintezining yana bir yo'li aldegidlarni dialkilamin va atsetonsiangidrin bilan o'zaro almashinish reaksiyalaridir.



Siangidrinlar va aminlarning o'zaro reaksiyasi natijasida olinadigan α -aminonitrillar reaksiyalari to'g'risida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Atsetonsiangidrinni alifatik mono (metil, etilaminlar), di-(dimetilamin, dietilaminlar, piperidin, morfolin) va aromatik (m-, p-toludinlar, p-anizidin) aminlar o'zaro reaksiyasi natijasida tegishli birikmalari olingan.




Benzaldegidsiangidrinni arilaminlar bilan o'zaro reaksiyasi natijasida ko'pgina α -arilaminofenilatsetonitrillarni hosil bo'lishi keltirilgan.



Ushbu reaksiyada aminlar sifatida bir qancha quyidagi aromatik aminlar ishlatilgan: anilin, N-metilanilin, o-, m-, p-toluidinlar, m-, p-nitroanilinlar, N-metil-p-nitroanilin, p-bromanilin va 2,4-dibromanilin.

Dialkil α -aminonitrillar olishning yana bir uslubida karbonilli birikmalarni α -N,N-dialkilaminoizobutironitrillarni bilan o'zaro reaksiyasiga asoslangan.



Karbonil birikmalarni α -aminoizobutironitril bilan o'zaro reaksiyasida aminoguruh tutgan o'rinbosarga bog'liq holda tegishli yangi α -aminonitrillar yoki Shiff asoslari hosil bo'lishi mumkin.

Aldegid va ketonlarni birlamchi aminlar bilan atsetonsiangidrin ishtirokidagi reaksiyasi ikki yo'l bilan borishi mumkin:

a) avval aldegidlarni siangidrinlarini hosil bo'lishi bilan keyinchalik ularni aminlar ta'sirida α -aminonitrillar hosil qilishi bilan; b) karbonil birikmalarni birlamchi aminlar bilan reaksiyasi natijasida Shiff asoslarining hosil bo'lishi bilan keyinchalik ularga atsetonsiangidrinidan sinil kislotaning ajralib chiqib α -aminonitrillar hosil qilishi bilan borishi mumkin.

Ushbu reaksiyalarni borishining ehtimolli yo'llaridan biri iminlar hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalardir. Bu fikrning yuritilishining asosiy sababi Shiff asoslarining siangidrinlar bilan o'zaro oson reaksiyaga kirishidir, reaksiyaning oxirgi bosqichida reaksiya mahsuloti sifatida tegishli α -aminonitrillar hosil bo'ladi.

Xuddi shunday sintez usullari va α -aminonitrillarning kimyoviy o'zgarishlari boshqa adabiyotlarda ham keltirib o'tilgan.

Adabiyotlar

1. Kodirov A.A., Mirzayev M.S., Shaxidoyatov X.M. Atsetonsiangidrinlarni aminlar bilan reaksiyalarini o'rganish // Kimyoviy reaksiyalarning sintezi va ularni ishlab chiqarish. Tezis dokl. -T. -1995. S.112

2, Kodirov A.A., Shaxidoyatov X.M. Vzaimodeystviye atsetonsiangidrina s aromatcheskimi aminami // Yosh olimlar va talabalar P-Respublika ilmiy konferensiyasi. Tezis dokl. -T., -1996. S.

SUV-NEFTLI EMULSIYALARNI DEEMULGIRLASH UCHUN “YASHIL” POLIMER SIRT-FAOL MODDALAR

Sattorov Mirvohid Olimovich - BuxMTI Neft-gaz ishi kafedrası dotsenti


Yamaletdinova Aygul Axmadovna - BuxMTI Neft-gaz ishi kafedrası assistenti

Neft qazib chiqarish sanoatining bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biri atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, ekologik toza mahsulot olishga qaratilgan energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni yaratish bo'lib hisoblanadi. Biz olib borayotgan tadqiqotimiz maqsadi ham mahalliy xomashyolar asosida sintez qilingan sirt-faol moddalar (SFM) kompozitsiyasini ishlab chiqish bo'lib, uni import o'rnini bosuvchi sifatida ekologik zararni kamaytiruvchi texnologiyaga qo'llashdan iborat.

O'simliklar va jonivorlardan olinadigan xitin moddasi turli sohalarda qo'llaniluvchi tabiiy xomashyo bo'lib, u asosida olinadigan xitozan ko'p miqdorda vodorod bog'larini hozil qiladi. Shu sabab u suvda eruvchi organik moddalarni bog'lay oladi. Bu neft va gaz sanoatida undan o'rinni foydalanish imkonini beradi. Biroq, bizning ma'lumotimizga ko'ra, xitozan hosillarini neft sohasida qo'llash bo'yicha juda kam ish bor. Shu munosabat bilan xitozan uzun zanjirlar bilan amid hosil bo'lishi bilan noionogen sirt faol moddaga aylanadi. Tayyorlangan sirt faol moddalar turli xil sharoitda xom neft uchun “yashil” deemulgatorlar sifatida tekshirildi.


Tadqiqot ishimizda suv-neftli emulsiyalarni samarali deemulgirash jarayoni uchun “yashil” deemulgatorlar sinfini rivojlantirishga qaratilgan bir qator xalqaro tajribalardan foydalandik. Shulardan biri Misr Neft Tadqiqoti Instituti olimlari tomonidan ilgari surilgan xitozanni ikkita alifatik yog' kislotalari, ya'ni laurik va stearik bilan kimyoviy modifikatsiyalash yo'li bilan tayyorlangan xitozanga asoslangan oltita noionogen sirt faol moddalardir. Bu tadqiqotda mahsulot polietilen glikol (PEG 400, 1000 va 2000 g/mol) bilan reaksiyaga kirishib, efir amid sirt faol moddalarini ishlab chiqardi. Tayyorlangan sirt faol moddalar IQ spektroskopiyasi bilan ajralib turdi va ularning issiqlik xususiyatlari o'rganildi. Tayyorlangan sirt faol moddalarning termal barqarorligi PEG zanjirining uzunligini oshirish orqali ortishi aniqlandi. Tayyorlangan sirt faol moddalarning sirt xususiyatlari turli haroratlarda sirt tarangligini o'lchash orqali hisoblab chiqilgan. Bundan tashqari, tayyorlangan sirt faol moddalarning deemulgirash samaradorligi turli sharoitlarda tekshirildi. Bundan tashqari, maksimal suv ajratish 45 °C da, neytral o'rta va past tuz konsentratsiyasida erishildi. Deemulgirash jarayoni uchun parametr sifatida deemulgirashdan oldin va keyin xom neftning qovushqoqligi ishlatilgan. Bundan tashqari, “yashil” deemulgatorlar tomonidan erishilgan deemulgirash jarayoni optik mikroskop tomonidan nazorat qilingan.

Quyidagi 1-rasmda xitin va xitozanning struktura formulalari keltirilgan bo'lib, biz tadqiqot olib borgan sirt faol moddalar xitin asosidagi xitozandan olinishini inobatga olib, jarayonning borishi asosiy xomashyoga alohida e'tiborni talab etadi.




1-rasm. Xitin (a) va xitozanning (b) struktura formulalari

Xitozan boshlang'ich xitindan 2 bosqichda, xomashyodan xitinni ajratish va uni deatsetillash bilan olinadi. Jarayon yuqori harorat va NaOH katalizatori ishtirokida olib boriladi (2-rasm).



2-rasm. Xitinning xitozanga aylanishi

Toza xitozan va modifikatsiya mahsulotlari (laurik bilan bog'langan xitozan va uning etoksillangan mahsuloti (Ch-La-2000))ning kimyoviy tuzilishi 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. Xitozanning noinogen SFMga kimyoviy o'zgarishi

$n=9,23$ yoki 45 $R=\text{C}_{11}$ yoki C_{17}

Olingan SFM 200 ppm miqdorida suv-neftli emulsiyani deemulgirlash uchun qo'shildi. Jarayon harorati 25-45 °C oralig'ida olib borildi. Bunda eksperimentdan oldingi A, 30 minutdan keyingi B, 2 soatdan keyingi C, 6 soatdan keyingi D holat mikroskop orqali kuzatib borildi (4-rasm).




A) Eksperimentdan oldingi



B) 30 minutdan keyin



C) 2 soatdan keyin (flokulyatsiya)



D) 6 soatdan keyin (separatsiya)

4-rasm. Olingan SFMni xom neftga qo'llab, deemulgirlash jarayoni

Yuqorida keltirilgan natijalardan shunday xulosa qilish mumkinki, tayyorlangan deemulgatorlarning samaradorligi ularning kimyoviy tuzilishi va jarayonni olib borish harorati bilan bog'liq. Suvning maksimal ajralishiga qisqaroq yog' kislotasi zanjiri va uzunroq polietilen glikol zanjiri bo'lgan deemulgator tomonidan erishilganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Савченков, А. Л. Химическая технология промышленной подготовки нефти: учебное пособие / А. Л. Савченков. – Тюмень: ТюмГНГУ, 2011. – 180 с.
2. Лутошкин, Г.С. Сбор и подготовка нефти, газа и воды [Текст]: учебник для вузов / Г.С. Лутошкин. – Изд. 3-е, стереотипное. Перепечатка со второго издания 1979 г. – М.: ООО ТИД «Альянс», 2005. – 319 с.
3. А.-А.А. Azim, А.-Р.М. Abdul-Raheim, R.K. Kamel, M.E. Abdel-Raouf, Demulsifier systems applied to breakdown petroleum sludge, J. Pet. Sci. Eng. 78 (2011) 364–370.

ГЕОЛОГИЧЕСКИЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ ПРОРЫВА ГАЗА ГАЗОВОЙ ШАПКИ И ПОДОШВЕННЫХ ВОД К ЗАБОЯМ СКВАЖИН НЕФТЕГАЗОКОНДЕНСАТНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ БУХАРО-ХИВИНСКОГО РЕГИОНА.

С.А. Аббасова, Л.Н. Насимханов, С.А. Агзамова

Ташкентский государственный технический университет им. И.Каримова

Введение. Текущее состояние разработки нефтегазоконденсатных месторождений (НГКМ) Бухаро-Хивинского региона (БХР) показывают, что за исключением месторождения Кокдумалак по остальным текущий коэффициент извлечения нефти (КИН) остается на низком уровне и не превышает 10%, при сроке разработки от 15 до 25 лет [1: с.49-54, 2: с.3-5, 3: с.18-19, 4: с. 45-43]. Такая низкая эффективность разработки НГКМ связано как с геологическими, так и технологическими факторами. В связи с этим возникает необходимость изучения влияния геологических и технологических факторов на показатели эксплуатации скважин для обоснования эффективных систем контроля извлечения УВ.

Практически в нефтегазоконденсатные месторождения разрабатывается в режимах истощения (за исключением нефтегазоконденсатного месторождения Кокдумалак). На начальной стадии разработки этих месторождений была реализована система, направленная на опережающий отбор нефти при консервации газа газовой шапки. При такой системе эффективность разработки нефтегазоконденсатных месторождений и достижение более высоких значений конечного коэффициента извлечения нефти, чем в других системах, предполагалось достичь путем установления оптимального интервала перфорации, «безгазового» и «безводного» дебита скважин. Однако в первые же годы разработки во многих скважинах наблюдались прорывы газа из газовой шапки и подошвенных вод, что привело к консервации, низким коэффициентам использования фонда и эксплуатации, а в конечном итоге к невыполнению проектных показателей.

Метод. При реализации системы разработки направленной на опережающую выработку нефтяной части залежи при консервации запасов газа газовой шапки основными параметрами является обоснование величины интервала перфорации пласта и предельно «безгазового» и «безводного» дебита скважин. В связи с этим приведем методы расчета этих важных параметров. Расчеты проведены для условия максимальной эффективной нефтенасыщенной толщи пласта, которая определена по формуле [5: с.14-19, 6: с.30-35]:

$$h_0 = [(R_0 - H) - (h_{вп} + R_{нг})], \quad (1)$$

где: H – общая толщина нефтяной оторочки, м;

R_0 – максимальная эффективная нефтенасыщенная толщина, (12 м);

$h_{вп} + R_{нг}$ – суммарная толщина переходных зон (2 м);

$h_0 = 10$ м.

В соответствии с методикой Ю.И. Стклянина и А.П. Телкова длина оптимального интервала перфорации (a_0)

$$a_0 = 0.2 \cdot h_0 = 2 \text{ м}, \quad (2)$$

Расстояние от ГНК (т.е. от переходной зоны «нефть – газ») до верхних отверстий интервала перфорации определено из соотношения:

$$a_{\text{нг}} = \frac{\Delta\gamma_{\text{нг}}(h_0 - a_0)}{\gamma_{\text{в}}}, \quad (3)$$

где:

$a_{\text{нг}}$ – расстояние от ГНК до верхней отметки интервала перфорации, м;

$\gamma_{\text{в}}$ – плотность пластовой воды (1.01 г/см³);

$\Delta\gamma_{\text{нг}}$ – разница между плотностями пластовой нефти ($\gamma_{\text{н}}$) и газа (в пластовых условиях месторождения Южный Кемачи – $\gamma_{\text{нг}} = 0.3$ г/см³);

$$\Delta\gamma_{\text{нг}} = \gamma_{\text{н}} - \gamma_{\text{г}}; \quad (4)$$

$\Delta\gamma_{\text{нг}} = 0.870 - 0.3 = 0.570$. Отсюда $a_{\text{нг}} = 4.51$ м.

Расстояние между нижними отверстиями интервала перфорации и ВНК (в данном случае - верхней границы переходной зоны «вода – нефть») составляет 5.49 м.

$$a_{\text{н}} = h_0 - a_0 - a_{\text{нг}}, \quad (5)$$

Полученные соотношения характеризуют схему вскрытия нефтяной оторочки с эффективной нефтенасыщенной толщиной 10 м (с учетом переходных зон).

Исходя из расчетной схемы вскрытия нефтяной оторочки, оценено предельные дебиты скважин, при которых не должны быть прорывы свободного газа и пластовой воды к их забоям.

Для определения предельно возможного безводного и безгазового дебита использована методика Ю.И. Стклянина и А.П. Телкова. Чтобы иметь возможность использовать ее графики и таблицы, определены необходимые исходные данные:

$$\alpha = a_{\text{нг}}/H; \quad (6)$$

$$\beta = v/H; \quad (7)$$

$$\rho = R_k/\chi H, \quad (8)$$

где: $a_{\text{нг}}$ – расстояние до верхних отверстий интервала перфорации до границы переходной зоны «нефть – газ», м;

H – максимальная толщина нефтяной оторочки, м;

v – расстояние от середины интервала перфорации до ГНК, м;

R_k – радиус контура питания скважины, м;

χ – коэффициент пьезопроводности.

При принятых исходных данных получаем: $\alpha = 0.451$; $\beta = 0.551$; $\rho = 8018$.

При определенных безразмерных плотностях:

$$q_1 = (0.5 \cdot 0.6) = 0.637;$$

$$q_2 = (0.5 \cdot 0.6) = 1.0624;$$

и дебитах:

$$q_1^0 = q_1 \Delta\gamma_1 A; \quad (9)$$

$$q_2^0 = q_2 \Delta\gamma_2 A, \quad (10)$$

где $\Delta\gamma_1$ – разница между плотностями пластовой нефти и газа, г/см³ (0.4);

$\Delta\gamma_2$ – разница между плотностями пластовой воды и нефти, г/см³ (0.14);

$$A = 2\pi k H^2 / \mu, \quad (11)$$

где k – проницаемость коллектора, мД (592);

H – толщина нефтяной оторочки, м (10);

μ – вязкость нефти в пластовых условиях, СПЗ (0.7);

$A = 53.111$;

$q_1^0 = 38.4$;

$q_2^0 = 8.08$.

Согласно методике, выбираем меньшее значение – q_2^0 . Исходя из соотношения:

$$Q \text{ (по газу)} = q_2^0 (b - d) = q_2^0 (\beta - a_0) H. \quad (12)$$

Определим, что максимальный безводный и безгазовый дебит не должен превышать 8.08 т/сут.

Анализ интервалов перфорации скважин показывает, что они редко превышали рассчитанную оптимальную величину 2 м. Однако дебиты скважин превышали расчетные оптимальные «безгазовые» и «безводные» величины, вследствие увеличения депрессии на пласт.

Библиография

1. Назаров У.С., Махмудов Ф.М., Игамбердиева Л.З. К стратегии инновационной деятельности при разработке месторождений нефти Узбекистана. //Узбекский журнал нефти и газа. - Ташкент, 2013. Спец.выпуск. С.49-54.

2. Махмудов Н.Н., Каршиев А.Х., Агзамова С.А., Результате сопоставления основных показателей разработки длительно эксплуатируемых нефтяных месторождений //Инновацион технологиялар журнали. -2013. №3. - С.3-5.

3. Агзамов А.Х., Халисматов И.Х., Махмудов Н.Н. и др. Влияние структуры запасов нефти на нефтеотдачу пластов //Узбекский журнал нефти и газа, 2001. №4. С. 18-19.

4. Назаров У.С., Игамбердиева Л.З., Махмудов Ф.М. К стратегии инновационной деятельности при разработке месторождений нефти Узбекистана. //Вестник ТашГТУ - Ташкент, 2013. №1. - С.45-53.

5. Закиров С.Н., Рошин А.А. Особенности разработки нефтегазоконденсатных залежей при безгазовых дебитах скважин//Геология, геофизика и разработка нефтяных и газовых месторождений. - 2007.-№5.-14-19 с.

6. Закиров С.Н., Рошин А.А.Разработка нефтяных отрочек при сверхкритических дебитах скважин по газу//Геология, геофизика и разработка нефтяных и газовых месторождений. - 2007. - №7. -30-35 с.

PLASTIK SURKOV MOYLARINI OLISSHA QUIY MOLEKULYAR POLIETILENNI QO'SHILMALAR SIFATIDA QO'LLASH

Xamidov Dilshodjon G'aniyevich

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, doktorant

Fozilov Sadriddin Fayzulloyevich

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti,

kafedra mudiri, t.f.d., professor

Hozirgi kunda Respublikamizda yonilg'i va surkov moylarining asosiy manbai bo'lgan neftni qazib olish, neftni qayta ishlash va neft kimyo sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, surkov moylarining sifati yonilg'i tejamkorligiga, avtomobil qismlarining uzoq muddat ishlashiga bog'liq. Surkov moylarini to'g'ri tanlash dvigatelning tejamkorligini oshiradi. Mashina va mexanizmlarning moylanadigan har bir uzellari o'ziga xos bo'lgani sababli ishlatiladigan surkov moylarining aynan bitta markasidan foydalanib bo'lmaydi. Avtomobilni yig'ish va ekspluatatsiya qilishda o'nlab markadagi plastik surkov moylaridan foydalaniladi.

Plastik surkov moylariga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Shu bilan birga neft mahsulotlari zaxirasining kamayib borishi va narxining qimmatligi sababli ulardan tejamli foydalanishni talab etmoqda.

Tabiatda mavjud va neft-gaz sanoatida vujudga keladigan ikkilamchi mahsulot (chiqindi)larni qo'shiladigan qo'shilma sifatida foydalanish surkov moylarning resursini oshirish hamda neft mahsulotlarining tejalishiga olib keladi. Qolaversa, ularning tannarxini pasaytirishga ham erishish mumkin. Avtotransport texnikasida ishlash vaqtida surkov moylariga qo'yiladigan ekspluatatsion talablar to'g'risidagi nazariy ma'lumotlarni o'rganish, avtotransport texnikasida ishlatiladigan surkov moylarining fizik-kimyoviy va boshqa muhim xossalarini o'rganish va tahlil qilish, plastik surkov moylariga qo'shiladigan qo'shilmalar shu surkov moylarining xossalariga ko'rsatadigan ta'sirini tadqiq qilish; plastik surkov moylarini qo'shilmalar qo'shish yo'li bilan

resursini oshirish texnologiyasini ishlab chiqish ushbu ilmiy tadqiqotning amalga oshiradigan maqsad va vazifasi hisoblanadi.

Shoʻrtan gaz kimyo majmuasi va shunga oʻxshash polimer mahsulotlar ishlab chiqarishga moʻljallangan texnologik jarayonlarda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bir qatorda maʼlum bir chiqindi mahsulot, jumladan, quyi molekulyar polietilen (QMPE) hosil boʻladi. QMPEni plastik surkov moylariga qoʻshilma sifatida qoʻshish surkov moylarining assortimentini kengaytirishga va resurslarini yanada oshishiga xizmat qilishi kutilmoqda [1].

Quyi molekulyar polietilen (QMPE) chiqindisi. Polietilen ishlab chiqarishda polimer mahsulotlar bilan birga hosil boʻladi, yaʼni polimerlanish reaksiyasi toʻliq bormagan, tarkibida nomaʼlum suyuq fraksiyalari mavjud boʻlgan quyi molekulyar polietilen sifatida hosil boʻladi va mahsulotlar orasidan siklogeksan erituvchisiga eritib ajratib olinadi. Hosil boʻladigan QMPE chiqindisining miqdori bir yilda 400 tonnani tashkil qiladi [2].

QMPE asosidagi surkov moylarini ishlatish dispers muhitdagi konsentratsiyasi 30% dan oshirilmaganda va harorat chegarasi +50 dan -50°C oraligʻida tafsiya etiladi. Ushbu surkov moylari +70°C haroratda 5 soat vaqt mobaynida metallarga korrozion taʼsiri kuzatilmadi. Quyidagi keltirilgan jadvalda QMPE asosidagi 4 xil namuna kompozitsiyalarning GOST talablari keltirilgan ayrim surkov moylari bilan taqqoslangan tahlillari berilgan va ushbu tahlillar surkov moyi olishda QMPEdan fodalanish mumkinligi koʻrish mumkin [3,4].

Koʻrsatgich	QMPE asosidagi surkov moylari kompozitsiyalari				PVK	SIATI M-205	GOI-54p	Sinov usuli
	1 namuna	2 namuna	3 namuna	4 namuna				
Tomchilanish haroati, °C	60	61	68	73	60 dan kam emas	65 dan kam emas	61 dan kam emas	GOST 6793-74
25°C da penetratsiya, 5 soniyada 0,1 mm	102	205	160	158	90-150	165 dan yuqori emas	200-245	GOST 5346-78
120°C da 10 soat davomida oksidlanishi, mg KOH/g	0,02	0,24	0	0	normada emas	0,2	normada emas	GOST 5734-76
Kolloid barqarorligi, ogʻirligi %	0,307	7,05	2,77	4,17	4 dan yuqori emas	4 dan kam	4 dan yuqori emas	GOST 7142-74
Metallarga korrozion taʼsiri (70°C da 5 soat)	Bardoshlilik (poʻlat, alyuminiy, mis)				bardosh beradi (mis)	bardosh beradi (poʻlat, alyuminiy)	bardosh beradi (poʻlat, mis)	GOST 9.080-77
Qoʻllash oraligʻi, °C	-60 dan 50 gacha				-50 dan 50 gacha	-60 dan 50 gacha	-40 dan 50 gacha	-

QMPE (chiqindi)ni ikkilamchi mahsulot sifatida qayta ishlashcha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan, biroq ishlab chiqarishga joriy qilish mumkin boʻlgan effektiv natijaga hozircha erishilgani yoʻq. Shunday ekan, ushbu chiqindining tarkibini oʻrganish, ular tarkibidan kerak boʻladigan moddalarni ajratib olish, ajratilgan moddalarni antifriksion plastik surkov moylarini ishlab chiqarish jarayonlarida ikkilamchi xom ashyo sifatida qoʻllash orqali surkov moylariga boʻlgan ehtiyoj maʼlum miqdorda qondiriladi va bu orqali ularning resursini oshirishga

sabab bo'lad. Shu bilan birga yil sayin yig'ilib boradigan chiqindilardan unumli foydalanish hamda uning atrof-muhit va tabiatga zararini kamaytirish kabi dolzarb muammolar ham hal qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tilloyev L.I., Xamidov D.G'., Axmedov A.Z. Sho'rtan gaz kimyo majmuasi texnologik jarayonlarida hosil bo'ladigan chiqindilar. Zamonaviy ishlab chiqarishda muhandislik va texnologik muammolarning innovatsion yechimlari. 2019 y. 439 b.

2. Tilloyev L.I., Do'stov H.B., Xamidov D.G'. Gazkimyo majmualari chiqindilari va ularning tarkibiy tahlili. "Fan va texnologiyalar taraqqiyoti". "Фан ва технологиялар тараққиёти". Ilmiy–texnikaviy jurnal №5/2019. 74 b.

3. Булавка Ю.А. Смазочные композиции на основе отходов производства. Материалы IX Международного промышленно-экономического форума «Стратегия объединения: Решение актуальных задач нефтегазового и нефтехимического комплексов на современном этапе». – М., 2016. 133–134 b.

4. Fozilov S.F., Axmedova O.B., Shodiyeva S.F., Islomova M.A., Hakimova Z.M. "Sho'rtan gaz kimyo majmuasi" chiqindisidan suyuq uglevodorodlarni ajratish va ularni sanoatda qo'llash. "Ta'lim jarayonida innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy qilish zamonaviy ta'limning bosh strategiyasi" Respublika ilmiy, o'quv anjuman materiallar to'plami. Buxoro-2018 y. 151 b.

СИНТЕТИК ЁҚИЛҒИ ОЛИШДА ФИШЕР-ТРОПШ СИНТЕЗИ РЕАКТОРЛАРИГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

Бахронов Ж.Ш.-БухМТИ магистратура талабаси

Хамроева Л.Р.-БухМТИ ўқитувчи-стажёри

Сатторов М.О.-БухМТИ доценти

Кимёвий реактор – бу кимёвий ишлаб чиқаришнинг асосий қурилмасидир, иқтисодий ва экологик самара кўп ҳолларда унинг тузилиши ва ишлаш кўрсаткичларига боғлиқ. Қувурсимон реакторни ишлатиш осон. Бу реактор катализаторлар юкланадиган тор узун қувурлар билан жиҳозланган. Синтез-газ бир хил катта тезликда мана шу қувурлардан ўтади. Бу жараёнда газнинг ҳаракати турбулент оқимга эга бўлганлиги эвазига юқори иссиқлик алмашилишига эришилади. Қувурлар орасидаги бўшлиқ иссиқлик ташувчи модда билан тўлдирилади, одатда сув билан, реактордан чиқишда бу сув буғга айланади.

Ҳаракатсиз қатламли катализаторлар билан тўлдирилган қувурсимон реакторнинг асосан ўзгачалиги шундаки, бу реактор синтез қилинаётган маҳсулот газли ёки суюқ ҳолатда бўлишига қарамасдан катта ҳарорат фарқида ишлатилиш мумкин. Суюқ маҳсулотлардан катализаторларни ажратиш муаммоси осон ечилади. Суюқ маҳсулотлар катализаторлар қатламидан сизиб чиқади ва кетадиган газдан ажралиб алоҳида идишда йиғилади. Шунинг учун бу реакторлар юқори молекулали парафинли углеводородлар ишлаб чиқаришда ишлатилади.


Буларга қарамасдан бу реакторлар ҳам камчиликка эга. Реакторнинг юқори қисмида босимнинг ошиши эвазига синтез-газни юқори даражада сиқиш керак бўлади. Бу эса ўз вақтида газни компрессор қилишда катта харажатлар сарф бўлишига олиб келади.

Фишер-Тропш реакциясининг тезлиги диффузия орқали аниқланади ва жараённинг шиддатлигини катализаторлар заррасининг кичиклаштириш эвазига ошириш мумкин.

Аммо катта заррали катализаторларнинг ишлатилиши реакторнинг кўндаланг қисмидаги босим градиентининг ўсишига олиб келади. Шунинг учун реакторни фойдали ишлатиш учун катализаторлар зарраси ва босимни оптимал танлаш керак.

Катализаторлар дизактивація бўлганда, уларни алмаштириш кўп куч талаб этади ва қийин. Агар катта ҳажмли қувурсимон реактор ишлатилганда бу турдаги босқичларни амалга оширишда кўп вақт сарф бўлади, бу эса ўз вақтида ишлаб чиқаришнинг пасайишига сабаб бўлади.

Ва ниҳоят бу типдаги қийин конструкцияга эга реакторларни ясаш қимматга тушади. Тез иссиқлик алмашилининг бошқача йўли бу зарраларни иссиқлик ташувчиларга юткизишдир.



1-расм. Фишер-Тропш ҳаракатсиз қатламли катализаторлар қувурсимон реактори.

Темир асосидаги катализаторлар Sasol фирмаси реакторида қўлланилади. Бу катализаторлар катта зичликка эга бўлади ва қатлам турбулент оқимга эришиши учун катта тезликда газни ҳайдаш керак бўлади. Газнинг юқори тезлигида зарраларнинг устки юпқа қатлами кичик бўлади, шунинг эвазига зарраларнинг устки қисмига ва иссиқлик алмашилиш қурилмасининг деворига диффузияни камайтиради. Иссиқлик алмашилиш жараёнининг ҳосил бўлиши катализаторларнинг иссиқ зарралари иссиқлик алмашилиш қурилмалари девори билан тўқнашганда ҳосил бўлади. Юқоридаги омилларнинг ҳаммаси ҳаракатсиз қатлам реакторига қараганда ҳаракатли қатлам реакторида юқори иссиқлик алмашилиш жараёни таъминлайди. Мавҳум қайнаш қатламли катализаторлар реакторида иссиқлик алмашилиш юзаси кам. Шунини таъкидлаб ўтиш лозимки, бу турдаги реакторларда газнинг тезлиги ошганда босимларнинг фарқи ортмайди. Бу усулда реактордаги босимларнинг фарқи мавҳум қайнаш қатламли катализаторлар оғирлигига тўғри пропорционал.

Физик-кимевий тавсифларнинг таҳлили ва жараённинг қонунийлиги асосида Фишер-Тропш реакторига қуйидаги талабларни қўйиш мумкин:

1. Катализаторлар қатламининг изотермиклиги.
2. Каталитик актив модданинг реакция ҳажмидаги юқори концентрацияси.
3. Газ-суюқлик фазасининг тез ажралиши.
4. Катализаторлар зарраси ўлчамининг кичик характерлиги.
5. Реакторда босимларнинг фарқи кичиклиги.
6. Реакция ҳажмида сув концентрациясининг камлиги.

Мавҳум қайнаш қатламли катализатор бўлган саноат реакторида чизикли тезликнинг юқори бўлганлиги турбулент режимни таъминлайди, аралаштириш циркуляцияси тезлашади. Натижада бу реакция зонаси изотермик ҳисобланади.

Қаттиқ заррачалар қатламининг мавҳум қайнаши суюқлик оқувчанликка эга бўлишини, реакторга янги катализатор қисмини қўшиб туриш қулайлигини, эскисини, яъни ишлатилган катализаторни эса реакцион зонадан узлуксиз чиқарилиб туришини

таъминлайди. Шундай қилиб катализаторни реакцион зонада бўлиш вақтини камайтириш мумкин, натижада синтезни олиб боришда ишга қобилиятли катализатор газ конверсиясини юқори даражада бўлишини таъминлайди. Катализаторни чиқариб олиш ва қўшишнинг оддийлиги реакторга қайтариш вақтини аҳамиятли даражада қисқартиради (ишни тугаллашдан ишни бошланишигача бўлган вақт оралиғи).

Бу турдаги реакторнинг муҳим камчилиги кичик ўлчамга (100 мкм) эга бўлган газ заррачаларидан ўтган катализатор заррачаларини максимал даражада тўлиқ ажратиш қийин. Катализатор заррачаларини ажратиш учун реактордан кейин ўрнатилган циклон қўлланилади. 99% ажратиш даражасида ҳам циклонда катализаторни йўқотиш муҳим аҳамиятга эга. Шунинг учун катализатор чангини ушлаб қолишда кўшимча ёғли скрубберлар ўрнатиш зарур. Газдан ўтган катализатор заррачаларини ажратиш самарадорлигини ошириш учун ғоваксимон металл филтрдан фойдаланиш тавсия қилинади.

Реакторда катализатор циркуляциясида ишчи зонадаги мавҳум қайнаш қатламида чизиқли тезлик жуда юқори, темир катализаторини абразив таъсири натижасида эрозия кузатилади, у ҳолда бу зонада реактор деворини керамика ҳимоя қатлами билан қоплаш талаб этилади. Бундай зонанинг бўлиши ва уни доимий техник назоратда бошқарилиши реакторда бўлиш вақтини ва жараённи олиб борилиш сарфини оширади.

Адабиётлар рўйхати

1. Sasol Chevron. Escravos Gas to Liquids project. <http://www.Sasolchevron.com>. 2006.
2. Бекиров Т.М. Технология обработки газа и конденсат / Бекиров Т.М., Ланчаков Г.А. – М.: ООО «Недра-Бизнесцентр», 2010. - 596 с.
3. Чеботарёв В.В. Расчёты основных показателей технологических процессов при сборе и подготовке скважинной продукции: учеб. пособие. – 3-е изд., перераб. и доп. – Уфа: изд-во УГНТУ, 2007. – 408 с.

GAZ VA NEFT QUDUQLARIDA ISHLATILADIGAN KORROZIYA INGIBITORLARINING TURLI XIL SHAROITLARDA QO`LLANILISHINI TADQIQ ETISH

F.P.Kurbonov¹, V.N. Axmedov².

*Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmai bosh mutaxassisi
Buxoro muxandislik texnologiya instituti professori*

Аннотация: mazkur ishda turli xil chuqurlik va sharoitga ega bo'lgan quduqlarda ingibitorlarning ishlash qobiliyati tahlil qilingan. Laboratoriya sharoitida ayni muhit hosil qilinib, ingibitorning himoyalash darajasi tadqiq qilingan

Калит so'zlar: ingibitor, himoyalash darajasi, korroziya tezligi, effektivlik

Malaka amaliyoti oliy ta'lim muassasasida talabalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashning muhim bosqichi hisoblanib, uning maqsadi institutda olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, kengaytirish va chuqurlashtirish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy ishga tayyorlash va texnik ijodiy kompetensiyalarini va mahoratini oshirishdan iboratdir. Bu tayyorgarlikka korxonaning progressiv rivojlanishi, ishlab chiqarish samaradorligi va ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini oshirish, ta'limni ishlab chiqarish bilan bog'liq holda olib borish,

yuqori malakali ijodiy koppelentligi yuqori kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, ta'lim berish va siyosiy-ijtimoiy topshiriqlarni mustaqil yechish yo'li bilan erishiladi.

Biz Deming sikli asosida bo'lajak muhandis-texnologlarning ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil qilish konseptual metodik tizimiga asoslangan tashkiliy-tuzilmaviy modelidan foydalanib uni quyidagicha amalga oshirdik (1-rasmga qarang):

1-bosqich. Reja – vazifalarni tahlil qilish, ish beruvchilarning bitiruvchilarga qo'yadigan talablarini aniqlash, amaliyot dasturini ishlab chiqish rejalashtiriladi. Hujjatlarni takomillashtiruvchi ishchi guruh, uning rejasi va vazifalar taqsimoti aniqlashtiriladi.

2-bosqich. Bajarish – bu bosqichda o'qitish jarayonida qo'llaniladigan didaktik hamda integrativ tamoyillar asosida amaliyot dasturi takomillashtiriladi, amaliy ta'lim jarayonini integrativ loyihalash amalga oshiriladi. Ular asosida malakaviy va bitiruv oldi amaliyotlari tashkil etiladi.

3-bosqich. Nazorat – innovatsion va integrativ ta'lim muhitiga mos takomillashtirilgan amaliyot dasturini qo'llagan holda ishlab chiqarish amaliyotlari nazorat qilinadi. Talabalar faolligi, amaliyot jarayonining samaradorligi tahlil qilinadi. Kamchiliklar aniqlanadi.

4-bosqich. Harakat bosqichida innovatsion ta'lim muhitida oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari integrativ hamkorligini ta'minlash metodikasi asosida tashkil qilingan amaliyot jarayonida aniqlangan kamchiliklar bartaraf qilinadi, amaliyot natijalari ish beruvchilarning talablariga mosligi tahlil qilib boriladi. Amaliyot jarayonidan kutilgan natijaga erishilguniga qadar bosqichlar sikli davom ettiriladi.

Demak, Deming siklini amaliy ta'limda qo'llash asosida oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari integrativ hamkorligiga erishish, uning uchun zarur bo'lganda bosqichlarni aniq 4 ta sikl asosida bir necha bor takrorlash orqali amaliy kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish, amaliyot jarayonini yengillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'raqulova M.Q. Talabalar texnik ijodkorligini shakllantirishda shaxs kreativligi va kognitivligi. //O'zMU xabarlari. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. Toshkent: 2022. № 1/3/1. 161-164 b.

2. To'raqulova B.B. Texnik kafedralar va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi asosida kadrlar malakasini oshirish //“Yengil sanoat tarmoqlari, muammolari, tahlil va yechimlari” mavzusida Vazirlik miqyosida ilmiy ma ilmiy-texnik anjuman ma'ruzalar to'plami. – Farg'ona, 2022. B. 10-12.

3. Tukhtaeva Z.Sh., Turakulova M.K. Opportunities for the development of creative abilities of the future teacher and student. // Journal of Critical Reviews. 2020. Vol 7, Issue 12. – 103- 107 pages.

4. To'raqulova M.Q. Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini takomillashtirish mexanizmi va modeli. // O'zMU xabarlari. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. Toshkent: 2021. № 1/6. 214-217 b

TEXNIKA YO'NALISHDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING TEXNIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARINING INNOVATSION MODELII.

*BuxMTI “Neftni qayta ishlash texnologiyasi” kafedrasii
katta o'qituvchisi., To'raqulova M.Q.,
dotsent Tilloyev L.I.,
tayanch doktorant Temirov A.X.*

Zamonaviy pedagog mutaxassis, talabalarning shaxsiy va ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmonida 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 70-maqsadida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda ko‘rsatib o‘tilganidek, iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor maqsadlari orasida har bir talabning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, unda mehnatsevarlik va yuqori axloqiy tamoyillarni tarbiyalash uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish vazifasi qo‘yildi. Hozirgi innovatsion ta’lim muhitida talabalarning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biridir. Bu intellektual va ijodiy salohiyatni to‘plashdagi ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lib, uning yordamida jamiyat rivojlanishining yangi marralarini zabt eta oladi, chunki faqat yorqin ijodiy yechimlar iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolardan chiqish yo‘lini topishga yordam beradi.

Qator yillar ilgari o‘tkazilgan ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, inson o‘sib ulg‘aygan sayin ularning ijodkorlik qobiliyatlari susayadi. Sidney universiteti olimasi Robin Gibson hisobotiga ko‘ra:

5 yoshga kelib bolaning ijodkorlik salohiyati 98% ni tashkil qiladi;

10 yoshga kelib, bu foiz 30% ga tushadi;

15 yoshda bu 12%;

biz kattalar davrida bizning ijodimiz 2% dan oshmaydi.

Neft-gaz sohasidagi talabalarning ijodkorligini shakllantirish va rivojlantirishning auditoriyada hamda darsdan tashqari mustaqil ishlarni tashkil etish kabi turlari mavjud.

Auditoriyada texnik ijodkorlikni rivojlantirishning innovatsion yo‘llari quyidagilar:

topshiriqlarni bitta format bilan cheklamasdan, ya’ni talabalarga yozma topshiriq o‘rniga ular podkast, video, loyiha tuzishi, maket yasashi va boshqalarni yaratishga imkon yaratish;

ijodkorlik uchun talabaga yetarlicha vaqt berish. Masalan, talabalar o‘z kreativ g‘oyalarini o‘rganishlari uchun ularga vaqt berish;

talabalarda topshiriqlar haqidagi fikrini kengaytirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishga shart-sharoit yaratib berish; Masalan, texnik qurilma ishlashini o‘rgatish va auditoriyani yanada interaktiv qilish uchun internet tarmog‘idan foydalanish mumkin;

noan’anaviy o‘quv materiallarini auditoriyaga kiritish. Auditoriyadagi sohaga oid adabiyotlardan tashqari ta’lim bilan qiziqarli o‘yin yaratadigan Radiolab va TED Talks kabi o‘quv podkastlari va videofilmlardan foydalanish mumkin;

talabalarning ijodiy g‘oyalari, fikrlari va mahsulotlarini auditoriyaning o‘zidayoq mukofotlash;


talabalarning ijodkorlik kompetensiyalarini ko‘proq shakllantirish uchun auditoriyaning o‘zida texnik ijodkorlik ustaxonalarini yaratish.

Ta’lim rivojlanishining zamonaviy bosqichida modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois ta’limning innovatsion didaktik tizimlarni modellashtirishga yangi talablar paydo bo‘lmoqda. Neft-gaz sohasi talabalarining texnik ijodkorligini rivojlantirish tendensiyalarining innovatsion modeli (1-rasm) ishlab chiqildi. Unda dastlab talabalar texnik ijodkorligini rivojlantirish ta’lim turlarni aniqlashtirildi, ma’ruza tinglash va qayd qilish, taqdimot-namoyishlar qilish, ishlab chiqarish korxonalarida amaliy ko‘chma darslarni tashkil etish, o‘quv-amaliy treninglarni o‘tkazish texnologiyalarini qamrab oladi. Darsdan tashqari ishlarni to‘garaklar, “Technical creativity center”, xalqaro va respublika innovatsion tanlovlar va anjumanlarda, fan olimpiadalariga ishtirok, model va namunalar yaratish, ilmiy maqola va tezislar tayyorlash ko‘rinishida tashkil etish mumkin.

Bulardan tashqari neft-gaz sohasi talabalarini texnik ijodkorligini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilova dasturlari va mobil texnologiyalardan foydalanish ta’limda yuqori samaradorlikni tashkil etadi.

Neft-gaz sohasi talabalarini texnik ijodkorligini rivojlantirish tendensiyalarining innovatsion modelini shakllantirishda bir nechta innovatsion ta’lim metodlari jumladan “Critical thinking development”, “SCAMPER” strategiyasi, “Fikrlarning shiddatli hujumi”, “Classic couple strategy”, “Paradokslar”, didaktik vositalar (elektron; matnli va vizual). Elektron: audio va video,

podkast, Tedtalks, dasturlar, o'quv adabiyotlar hamda texnik lug'at, talabalar texnik ijodkorligini baholash mezonlari ishlab chiqildi. Demak, talabalarda texnik ijodkorlikni rivojlantirish modeli o'quv jarayonining konseptual tashkiliy-funksional blok tarkibiga shablonli chizish, formulali o'lchov, teskari qaror qabul qilish ko'nikmalarini ko'zda tutuvchi mutaxassislikga oid o'quv topshiriqlarini modellashtirish zarur.



1-rasm. Bo'lajak neft-gaz sohasi muhandislarining texnik ijodkorligini rivojlantirish innovatsion modeli

Darsdan tashqari talabalarning texnik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiruvchi metodik ishlarni tashkil etish hamda o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqishda to'garaklar va "Technical creativity center" "Texnik ijodkorlik markazi" faoliyatini yo'lga qo'yish, talabalarning ilmiy amaliy-anjumanlarda ishtirokini ta'minlash, xalqaro va respublika innovatsion tanlovlarda ishtiroki, fan olimpiadalarda ishtiroki kabilarni tashkil etib, ular orqali texnik ijodkorlik ko'nikma va malakalarni shakllantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tukhtaeva Z. Sh., Turakulova M.K., The role of interimedical integration in the formation of the creative activities of students. // "Eurasian journal of science and technology" 2019., R.7-8
2. Turakulova M.K., Rakhmonov K.S. Identification and development of the abilities and creativity of gifted students in higher educational institutions. // Asian journal of multidimensional research (ajmr) India 2020. P 170-174.3.
3. Kanalda salud de mapfre "Kognitiv buzilish nima va uning turlari qanday?"
3. Turakulova M.K., Rakhmonov K.S. Search, selection and planning of targeted training of talented students in technical universities. // "International Engineering Journal For Research & Development" Vol. 5 Issue 3, India 2020., P 132-137
4. Аксенова М.А., Гурина М.А., Дронова Н.А., Шахин В.В. Швайдак. Креативное обучение: от знаний компетенсий через интерактивные технологии. Наука, образование, культура. -П. 73-74.
5. To'raqulova M.Q. Texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining texnik ijodkorligini rivojlantirish metodikasi. Diss.//13.00.02 – ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) (pedagogika fanlari).2023 y.

РАҲБАРЛИК ЛАВОЗИМЛАРИГА ШАКЛЛАНТИРИЛГАН НОМЗОДЛАРНИ БАҲОЛАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСЛУБЛАРИ

Саттаров Ш.А.

*Ўзбекнефтгаз АЖ HR-департаменти Персонални баҳолаш ва рағбатлантириш бўлими
эксперти
sattarovsh1991@gmail.com*

Маълумки, HR соҳаси ўрганилаётганида аввало кадрлар йўналиши билан унинг узвий боғлиқлиги, такрорловчи ҳамда фарқ қилувчи жиҳатларини аниқ тушуниш керак. Бундан ташқари жаҳон тажрибаси ва маҳаллий тенденцияларни ўрганиш, меҳнат бозорида замонавий механизмлардан фойдаланишда муҳим ҳисобланади.

Таъкидлаш жоизки, бугун мамлакатимизда олиб борилаётган туб янгиланишлар даврида меҳнатга оид муносабатларни замонавий тенденциялар асосида қайта ислоҳ қилиш жараёни ҳали давом этмоқда.

Бугунги кунда мамлакатимиз меҳнат муносабатларида иш берувчиларнинг ташкилий-ҳуқуқий шакли орқали уларни турларга ажратиб ўрганиш билан бирга, меҳнат муносабатлари соҳасини тадқиқ қилиш, шунингдек ташкилотларда кадрлар захирасини юритиш, номзодлар салоҳиятини баҳолаш юзасидан амалга оширилиши керак бўлган ишлар талайгина.

Жумладан, кадрларни тайёрлаш узлуксиз занжирини яратиш, иш берувчиларнинг ташкилий-ҳуқуқий шаклидан қатъий назар, меҳнат бозори муносабатларини ягона мувофиқлашган тизимда жамлашга бўлган талаб ҳар қачонгидан ҳам юқорироқ бўлиб бормоқда.

Қуйида юқоридаги мавзу доирасида иш берувчиларни ташкилий-ҳуқуқий шаклига кўра 4 гуруҳга бўлиб, гуруҳларнинг меҳнат муносабатларидаги ролига баҳо берилади.

Булар:

- давлат фуқаролик хизмати;
- қонун чиқарувчи ҳамда суд ҳокимияти, шунингдек бошқа махсус хизматлар;
- давлат улуши мавжуд бўлган йирик ташкилотлар (акциядорлик жамиятлари тарзида ташкил қилинган ташкилотлар) ҳамда ҳусусий корхоналар.

Бизга маълумки, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 11-моддасига кўра Ўзбекистон Республикаси давлат ҳокимиятининг тизими – ҳокимиятнинг қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятига бўлиниши принципига асосланади. Ушбу принципдан келиб чиқиб, давлат ҳокимияти тизимидаги ижро этувчи ҳокимият аъзолари давлат фуқаролик хизмати тизими (давлат реестри)га киритилган.

Шу билан бирга, “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 3-моддасига кўра, Ўзбекистон Республикаси Президентининг, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси депутатларининг ва Сенати аъзоларининг, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ҳамда бошқа маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органлари депутатларининг, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенати девонлари ходимларининг, Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси аъзоларининг, судьяларнинг ва суд тизими ходимларининг, Ўзбекистон Республикаси Марказий банки бошқаруви аъзоларининг, прокуратура, ички ишлар, мудофаа ишлари, фавқулодда вазиятлар, Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси, Давлат божхона хизмати, Давлат хавфсизлик хизмати ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Давлат хавфсизлик хизмати органларида хизматни ўтаётган давлат хизматчиларининг, шу жумладан ҳарбий хизматчиларнинг, давлат органларининг техник, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш ходимларининг фаолияти давлат фуқаролик хизмати рўйхатига киритилмаслиги белгилаб қўйилган.

Юқоридаги ҳар қайси гуруҳ хизмат(ташкилот)лар фаолияти аввало Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, меҳнат кодекси ҳамда меҳнат муносабатларига оид бошқа меъёрий ҳужжатлар асосида тартибга солиниши қатъий белгилаб қўйилган. Фақатгина фаолият ихтисослашуви жиҳатидан келиб чиқиб, айрим ички меҳнат муносабатлари бири-биридан фарқланади. Мисол учун, қонун чиқарувчи ҳамда суд ҳокимияти, шунингдек бошқа махсус хизматларга ишга кириш, ходимларни рағбатлантириш ёки жазолаш, шунингдек уларни лавозими билан боғлиқ муносабатлар алоҳида тарзда тартибга солинса, давлат фуқаролик хизмати рўйхатига кирувчи ташкилотлар учун ҳам алоҳида стандартлар ишлаб чиқилган.

Давлат улуши мавжуд акциядорлик жамиятлари ёки ҳусусий ташкилотлар томонидан янада ўзгача “гибрид”– мослашувчан тизим амалиётидан фойдаланилади. Бундай иш услуби уларда тезкор қарор қабул қилиш ҳамда юқори самарадорликка эришиш имкониятини таъминлайди.

Куйида кузатишларимиз натижаларига асосланиб корхона ва ташкилотларда раҳбарлик лавозимларига кадрлар захирасини шакллантиришда номзодларни баҳолашнинг статистик таҳлил қилиш инструментлари бўйича маълумотлар келтириб ўтамыз.

Юқорида таъкидланганидек лавозимларга номзодлар шакллантиришда қўйиладиган талаблар иш берувчиларнинг ташкилий-ҳуқуқий шакли ҳамда кўрилатган лавозим даражаларининг турларидан келиб чиқиб турлича белгиланади. Номзодларни бирламчи баҳолаш тизими ҳамма ташкилотда деярли бир хил. Фақатгина, ушбу жараёнлар тизимли равишда олиб борилмаганлиги ҳисобига номзодлар учун шаффофдек кўринмайди.

Шу муносабат билан биз томонимиздан асосан юқори лавозимга шакллантирилган номзодларни бирламчи баҳолаш бўйича 1-иловадаги жадвалда келтирилган “трафарет”¹дан амалиётда қўллаш таклиф қилинади.

¹ **Трафарёт** (итал. *traforetto* — тешилган деб таржима қилинади. Бу ўринда қолип маъносида қўлланилган).

Вазирлик, идораларнинг Марказий аппарати тарқибий тузилмалари раҳбарлик (бўлим, шўъба, бошқарма ва департамент бошлиғи) лавозимларига шакллантирилган кадрлар захирасидаги номзоднинг портрет маълумотнома баҳолаш макети

Асосий қисм					Ўрдамли қисм		
Кўрсаткич номи	Вази	Баҳолаш мезони	Салмоғи	Ҳақиқий миқдор	Салмоқнинг ҳақиқий миқдори	Ҳисоблаш методикаси	Маълумотлар манбаи
Туғилган йили							
Республика ҳудудида муқим яшаганлиги							
Оилавий ҳолати							
Маълумоти							
Мутахассислиги							
Ранг даражаси*							
Қайси тилларни ўзлаштирган билиш даражаси							
Иш стаж (иш фаолиятини бошлаган йили)							
Тавсия этилаётган соҳадаги иш стаж							
Фаолият йўналиши							
Боқус							
Жами	0				0		

*давлат фуқаролик хизмати лавозимига киритилган номзодлар учунгина таъсир қилади. Бошқа тоифадаги номзодларнинг ижтимоий ҳайит (амалдаги меҳнат фаолиятини)даги мавқега нисбатан баҳо берилмайди.

Босқичли ўрганишнинг илк қадами сифатида қўлланилган ушбу механизм орқали турли ҳил мутахассилик, лавозим даража ва тажриба шунингдек, бошқа устуворликларга кўра тизимлаштирилиб, лавозим талабларидан келиб чиққан ҳолда рўйхат шакллантирилади.

Саралашнинг кейинги bosқичи меҳнат муносабатларига оид республикада мавжуд тартиб ҳамда ташкилотнинг ички талаблари асосида амалга оширилади.

Ташкилотнинг ичидаги мавжуд бўш иш ўринлари, шунингдек раҳбарлик лавозимларига номзодлар шакллантирилишида фойдаланиш мумкин бўлган самарали инструментлардан яна “360 даражали баҳолаш”, КРІ (инг. Key Performance Indicator) - СМК (самарадорликнинг муҳим кўрсаткичлари)²га асосланган мотивация тизимидан кенг фойдаланиш мумкин.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, меҳнат муносабатларининг ҳар икки томони – иш берувчи ҳамда иш изловчи (номзод)лар ўзлари учун муносиблар орасида энг муносибини танлашга ҳаракат қилади. Бунда тизимнинг мукамал ҳамда адолатли ишлаши иш берувчининг брендига таъсир қилса, номзодлар учун бўлса, соҳага оид билим ва кўникмалари ҳамда меҳнат бозоридаги ҳақиқий қийматининг баҳосини билиш имкониятига эга бўладилар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мухитдинов А. Давлат фуқаролик хизматида фаолият самарадорлигини баҳолаш: хорижий тажриба, миллий амалиёт <https://argos.uz/uz/press-center/news/447>.
2. Клочков А.А. КРІ и мотивация персонала. Полный сборник практических инструментов. С. 5-7.

NEFTNI QAZIB OLUVCHI VA NEFTNI QAYTA ISHLOVCHI SANOAT KORXONALARIDAN HOSIL BO‘LGAN CHIQINDI SUVLARI - SUV HAVZALARINI IFLOSLANTIRUVCHI MANBA SIFATIDA

Salomova F.I., Sherqo‘zieva G.F., Iskandarov A.B., Urmanova L.J.
Toshkent tibbiyot akademiyasi., Toshkent

Ochiq suv havzalari suvini ifloslantiruvchilar ichida eng chidamli va zararliligi bilan farq qiluvchilari bu - neft mahsulotlari, og‘ir metallar, kislota va ishqorlardir. Neft mahsulotlarining ma‘lum qismi suvga tushsa, keyinchalik 300 km gacha tarqalib ketishi mumkin, suv yuzasida

² <https://www.klipfolio.com/resources/articles/what-is-a-key-performance-indicator>

paydo bo'lgan yupqa parda suvni xavodan ajratib gaz almashinishini buzadi. Bir tomchi neft yog'i suv yuzasida 30150 sm diametr dog' paydo qiladi, 1 tonnasi 12 km da neft pardasini hosil qiladi.

Keyingi yillarda chiqindi suv tarkibining taxlil qilinishi, 1 litr suvda muallaq moddalar 1,56 g ekanligini, organik moddalarning oksigenga biokimyoviy (KBBE) talabi 40120 mg ekanligini, oksigenga kimyoviy (KBKE) talabi 400750 mg ekanligini, neft mahsulotlari esa 2025 mg ga ortganligini ko'rsatdi.

Ma'lumki, neftni qazib olish va qayta ishlash juda ko'p miqdorda chiqindi suv hosil bo'lishiga olib keladi. Oxirgi yillarda ushbu sanoatning doimiy ravishda o'sib borishi yanada ham ko'p miqdorda chiqindi suv hosil bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Neft sanoatida hosil bo'layotgan chiqindi suv tarkibini asosiy qismini qatlamlararo suvlar tashkil qiladi. Neftdan ajratish uchun neft termo- va elektrokimyoviy tozalashdan o'tadi. Bu suvlar turli kimyoviy tarkibga ega, ushbu tarkib esa neftni qaerda joylashganligiga bog'liq. Neftni qayta ishlovchi sanoat korxonalarida texnologik jarayonning turli - tumanligi sababli chiqindi suvlari tarkibi bo'yicha 10 xil turda bo'lishi mumkin. Hamma hosil bo'lgan chiqindi suvlar kanalizasiyaning ikki sistemasiga tushadi: ya'ni birinchisi, qayta suv ta'minotida ishlatiladigan va ikkinchisi esa yuqori minerallangan chiqindi suvlarni tashkil etadi, ya'ni bu kompleks tozalashni talab qiladigan chiqindi suvlardir.

Eng katta sanitariya ahamiyatga ega bo'lgan chiqindi suvlarga elektr tuzlantirish uskunalaridan xosil bo'ladigan suvlar kiradi. Ushbu chiqindi suvlarda neftning miqdori 3040 gr/l ni, xloridlar 1015gr/l ni tashkil etadi. Ularning yuqori minerallanganligi sababli qayta suv ta'minotida ishlatib bo'lmaydi. Neftni qayta ishlovchi korxonalarining qolgan chiqindi suvlari o'z tarkibida bir necha gramdan bir necha ming milligram miqdorda parafinlar, oltingugurtvodorod, ammiak, sul'fidlar, fenollar saqlaydi. Kislorodga bo'lgan biokimyoviy ehtiyoj (KBBE) 100-850gr/l ni, kislorodga bo'lgan kimyoviy ehtiyoj (KBKE) 150-700 g/l ni tashkil etadi.

Sanoat korxonalarining qaysi maxsulot ishlab chiqarishiga qarab 1tonna neftni qayta ishlash jarayonida 2 dan 3 m³ miqdorda chiqindi suv hosil bo'ladi. Ushbu sanoat korxonalaridan hosil bo'lgan chiqindi suvlarni to'liq tozalamaslik oqibatida suv havzalarining suv yuzasida neft pylonka (qatlam) hosil bo'lishiga olib keladi, tubiga og'ir neft mahsulatlarining cho'kishi suvga "kerosin" hidini beradi. Suv to'lqinlari va shamol neft pylonkalarini suv havzasining qirg'og'iga yetib kelishiga va qirg'oq o'simliklarining ifloslanishiga olib keladi. Suv ob'ektning tubiga cho'kkan neft ikkilamchi ifloslantiruvchi manbaga aylanadi, hattoki ayrim maxsulotlarda suv havzasidagi suvning tushib ketishi ham ushbu cho'kmalardan ozod kilishga yordam bermaydi.

Ushbu sanoat chiqindi suvlarni faqatgina neftdan emas, balki qo'rg'oshin tetraoetilen, vodorod sulfid, sul'fitlar va fenollardan ham tozalashni talab qiladi. Neft sanoatidagi chiqindi suvlarni tashlash suv havzalarini faqatgina neft bilan ifloslantirib qolmay balki qatlamlararo suvlarning yuqori minerallanganligi sababli suvni tuzlanishiga ham olib keladi. Suv ob'ektlarini neft sanoati chiqindi suvlardan himoya qilish maqsadda kompleks texnologik va sanitar-texnik choralar tadbirlarni o'tkazishni va doimiy ravishda suv sifatini monitoringini olib borishni talab qiladi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 noyabridagi "Suv va suvdan foydalanish" to'g'risidagi Qonunning (O'RQ-733-son) 113-moddasida suvdan foydalanish, suvni iste'mol qilishda suvning hisobi va hisoboti hamda monitoringini yuritish tartibi ko'rsatib qo'yilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz ochiq suv havzalarining suvini yillar dinamikasida ifloslanish holatini taxlil qildik va quyidagi natijalarni oldik: aholi turar joylaridan oqib o'tuvchi ochiq suv havzalari suvidan 2019 yili kimyoviy taxlillar uchun umumiy 1024 ta namunalar olingan bo'lib, ulardan 93 tasi (99,8%) gigienik talablarga javob bermagan, 2020 yili olingan namunalarning umumiy soni 781 ta bo'lib, ulardan 68 tasi (8,7%), 2021 yili esa - 943 ta namunadan 97 tasi (10,2%) gigienik me'yorlarga mos kelmagan.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki 2021 yili ochiq suv havzalari suvining sifat ko'rsatkichi boshqa yillarga nisbatan ko'proq gigienik talablarga javob bermagan. Bu esa aholi salomatligiga va suvdan turli maqsadlarda foydalanishga ta'sir ko'rsatadi. Buning oldini olish uchun eng avvalo hosil bo'layotgan chiqindi suvlarning miqdorini kamaytirish, yangi innovasion

kam chiqindi suv hosil bo'lish texnologiyalarini joriy etish va suv sifatini doimiy ravishda nazorat qilish monitoringini olib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasini "Suv va suvdan foydalanish" to'g'risidagi Qonuni, Toshkent sh., 2021 yil 30 noyabr', O'RQ-733-son.
2. Sherkuzieva, G.F., Danaev, B.F., Juraeva, N.T., & Sayfutdinova, Z.A. (2016). Gigienicheskaya osenka sanitarnogo sostoyaniya reki Surxandar'i. Molodoy ucheniy, (1), 104-107.

TABIIY GAZDAN DIMETILEFIR OLISH JARAYONINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

tayanch doktorant Shukurov J. X., professor Fayzullayev N. I.


Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada metanol va dimetilefir olish jarayonlarini modellashtirish jarayoni ko'rib chiqildi. Reaktordan chiqishda moddalar miqdori xromatografik yo'l orqali tahlil qilindi. DME, metanol, suvni aniqlash Porapak T li kolonkada o'tkaziladi. Sanoat apparatining matematik tavsifida katalizator g'ovaklaridagi diffuzion ingibirlanish hisobga olinmaydi va yirik katalizator granulalari ma'lum bir samarali faoliyatga ega bo'lgan ob'ektlar sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: sintez-gaz, metanol, dimetilefir DME, harorat, degidratlash, konversiya, katalizator, matematik modellashtirish.

Kirish. Hozirgi vaqtda jahonda dimetil efir dizel yoqilg'isiga muqobil energiya manbai sifatida qaralmoqda. Sintez-gazdan dimetilefir sintezi bevosita yoki bilvosita usullarda amalga oshiriladi. Dimetilefirning bevosita sintezi uchun ikki xil: metanol sintezi katalizatori va metanolni degidratlash katalizatorini saqlovchi kompozitsiyalar ishlatiladi [1]. Dunyoda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tarkibida uglerod bo'lgan turli xom ashyoni qimmatbaho kimyoviy mahsulotlarga qayta ishlash mumkin [2]. Qayta ishlash g'oyalaridan biri - bu xom ashyoni (ko'mir, neftni qayta ishlash zavodlaridan gaz, tabiiy gaz, maishiy chiqindilar va boshqalar) oksidlab, is gazi va vodorodga aylantirishdir [3]. Is gazi va vodorodni oksigenatlarga (metanol yoki dimetil efirga) aylantirish mumkin, ular uglevodorodlar yoki qimmatbaho kimyoviy mahsulotlar sintetik manbai bo'lishi mumkin [4].

Tahlil va natijalar. Metanol sintezi uchun quyidagi tarkibdagi yuqori faollikka ega bo'lgan $ZnO \cdot CuO \cdot Al_2O_3 \cdot ZrO_2 / YUKS$ va $ZnO \cdot CuO \cdot Al_2O_3 / YUKS$ katalizatorlaridan foydalanildi. Reaktordan chiqishda moddalar miqdori xromatografik yo'l orqali tahlil qilindi. Katalitik eksperimentlarni o'tkazish uchun ikki oqimli qurilmalar: 0,5-2,5 MPa bosimlar oralig'ida va 0,2-0,6 MPa (past bosim qurilmasi) oralig'ida ishlash uchun foydalanildi. Reaktorning ichki diametri 12 mm, termopara kanali tashqi diametri 3 mm. 0,6 g massali katalizator tortimi, 0,26-0,316 mm li fraksiya foydalanildi. DME, metanol, suvni aniqlash Porapak T li kolonkada o'tkaziladi. Katalizatorni faollashtirish azot-vodorodli oqimda o'tkazildi (≈ 2 hajm.% H_2 N_2 da, sarf ≈ 2 l/soat). Katalitik eksperimentlar o'tkazishda sintez-gaz tarkibi, hajm.%: $CO - 21,8$; $SO_2 - 5,2$; $N_2 - 5,3$; $H_2 - 67,7$. Ushbu ishda bu katalizatorlarni aralashtirishning turli usullari sinovdan o'tkazildi: granulalarning mexanik aralashmasi, katalizatorlarning mayda fraksiyalari aralashmasi - keyingi tabletkalar bilan, shuningdek keyingi tabletkalar bilan titrlash tegirmonida qayta ishlangan katalizatorlar aralashmasi. $ZnO \cdot CuO \cdot Al_2O_3 \cdot ZrO_2 \cdot CaO$ /bentonit katalizatorlari (metanol va kislota-asos) aralashmasi unumdorligining temperaturadan va katalizator birikmalarining og'irligiga bog'liqligi ko'rsatilgan 1-rasm.



1-rasm. Metanol bo'yicha $ZnO \cdot CuO \cdot Al_2O_3 \cdot ZrO_2 \cdot CaO$ /bentonit katalizator solishtirma unumdorligining reaksiya haroratiga bog'liqligi (metanol sintezi rejimi): 1- $ZnO \cdot CuO \cdot Al_2O_3 \cdot ZrO_2 \cdot CaO$ /bentonit- toza; 2- $ZnO \cdot CuO \cdot Al_2O_3 \cdot ZrO_2 \cdot CaO$ -granulalar aralashmasi; 3- $ZnO \cdot CuO \cdot Al_2O_3 \cdot ZrO_2 \cdot$

CaO/Al_2O_3 tabletkalangan; 4- $ZnO \cdot CuO \cdot Al_2O_3 \cdot ZrO_2 \cdot CaO /SiO_2$ tabletkalangan.

Kimyoviy reaksiyalarning stexiometriyasi bo'yicha jarayonda ishtirok etuvchi komponentlar ro'yxati va ularning oqimlarining o'zgarishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Alohida komponentlar oqimini hisoblash

№	Tarkiblar	Oqimlar, kmol/s
1	CO	$X_1^n = X_1^{n-1} + \Delta X_{12} - \Delta X_{24}$
2	CO ₂	$X_2^n = X_2^{n-1} + \Delta X_{51} - \Delta X_{12} + \Delta X_{24}$
3	H ₂	$X_3^n = X_3^{n-1} - 3\Delta X_{51} - \Delta X_{12} + \Delta X_{24}$
4	H ₂ O	$X_4^n = X_4^{n-1} + \Delta X_{51} - \Delta X_{12} + \Delta X_6 - \Delta X_{24}$
5	CH ₃ OH	$X_5^n = X_5^{n-1} + \Delta X_{51} - 2\Delta X_6$
6	CH ₃ OCH ₃	X_6^n
7	CH ₄	$X_7^n = X_7^{n-1}$
8	H ₂	$X_8^n = X_8^{n-1}$

X_1^n - komponenti oqimining n -bosqichdagi qiymati, (1) differensial tenglamalar tizimini sonly usullar bilan echishdan topiladi.

Xulosa. Shunday qilib, metanol va dimetilefir olish jarayonlari modellashtirildi. Matematik tavsif ikki fazali modelga asoslangan bo'lib, unda reaktivlarning oqim hajmida va katalizatorlar yuzasida konsentratsiyasi ko'rib chiqiladi. Agar kerak bo'lsa, model katalizator qatlamidan sovutish yuzasiga issiqlikni olib tashlashni hisobga oladi, bu reaktor devori yoki issiqlik almashinuvi naychalari bo'lishi mumkin. Sanoat apparatining matematik tavsifida katalizator g'ovaklaridagi diffuzion ingibirlanish hisobga olinmaydi va yirik katalizator granulalari ma'lum bir samarali faoliyatga ega bo'lgan ob'ektlar sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR

1. Fornell, R., Berntsson, T., and Asblad, A., Energy, 2013, vol. 50, p. 83.
2. Volnina, E.A., Kipnis, M.A., and Khadzhev, S.N., Neftekhimiya, 2017, vol. 57, p. 243.
3. Aslanov, S.C., Fayzullayev, N.I. Catalytic synthesis of C₂-C₄-alkenes from dimethyl ether// International Journal of Engineering Trends and Technology, 2021, 69(4), str. 67-75
4. Bukhorov A. Q., Fayzullaev N. I. Kinetic laws of dimethyl ether synthesis in synthesis gas // AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – T. 2432. – №. 1. – S. 050012.

NEFT ASOSIDA OLINADIGAN SIRT FAOL MODDALARNING YUVUVCHANLIK XUSUSIYATINI OSHIRISH

*Aslonov Behzod Mavlon o'g'li,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti o'qituvchisi
Fatilloev Shamshod Fayzullo o'g'li,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti o'qituvchisi
Shodiyev Azim Ziyadullayevich,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti o'qituvchisi
Dehqonova Nargiza Abdug'ani qizi
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti o'qituvchisi*

Bugungi kundagi avtomobil sanoatida ishlab chiqarilayotgan avtomashinalar sirt qoplamasi kislota va ishqorlarning doimiy ta'siriga chidamsiz hisoblanadi. Shuning uchun tozalovchi vositalarning muhiti neytral bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tadqiqot natijalarimiz natijasida neytral muhitga ega kontaktsiz yuvish vositasini sintezlandi. Uning texnik, fizik-kimyoviy natijalarini tahlil qilindi. Hozirgi kunda avtomobillarni tezkor, sifatli, arzon, texnik zararsiz yuvish vositalari aktual muammo hisoblanadi. Laboratoriya ilmiy izlanishlarimiz natijasida zararsiz, sifatli, arzon kontaktsiz avto yuvish vositalari haqida ilmiy xulosalar chiqarildi va kimyoviy tarkibini aniqlandi.

Sirt faol moddalar - anionik yoki kationik - avtoshamponlarda yaxshiroq ishlaydi, bu borada shubha yo'q. Kimdir ishqoriy muhitda ifloslanishning hidrofobik komponentlarini - yog'lar va kuyiklarni yaxshiroq yuvadigan anion sirt faol moddalardan foydalanish kerak deb hisoblaydi. Kimdir anion sirt faol moddalar (SLS, SLES, LABSNa) avtoshampun uchun yetarli yuvish samaradorligini ta'minlamaydi va ular faqat ko'piklanish uchun qo'shiladi (1-2%), bu kokamidopropilamin oksidi (1%) bilan birgalikda eng maqbul bo'ladi [1]. Aralashma tarkibidagi boshqa sirt faol moddalar ishqoriy muhitda barqaror va antistatik ta'sirga ega bo'lgan natriy lauril sarkosinat va fosfor kislotasining mono- va diesterlari bo'lishi mumkin. Kontaktsiz avto yuvish vositasi tarkibida sirt faol moddalar 15% bo'lishi yog'li va changli kirlarni oson yumshatishi va eritmada hislotali muhit hosil qilmasligi aniqlandi. Sirt faol moddalar 3 guruhga bo'linadi:

1. Anion aktiv sirt faol moddalar
2. Kation aktiv sirt faol moddalar
3. Noionik sirt faol moddalar [2].

Anion va kationik sirt faol moddalar bitta retseptda yaxshi mos kelmasligini unutmang: anion sirt faol moddalar qo'shilganda, kationiklar inaktivlanadi. Anion sirt faol moddalarning katta qismi bilan kationik sirt faol moddalarni kiritish umuman foydasizdir. Ammo biz yaratgan texnologiya asosida ikkala turdagi sirt faol moddalar bir biriga zid ta'sir qilmaydi.

Ko'pgina muvaffaqiyatli avtoko'pik ishlab chiqaruvchilari o'z mahsulotlarini kationik sirt faol moddalar asosida ishlab chiqaradilar. Ular 3% yoki undan ko'proq miqdorda qo'shadilar. Tegishsiz shampunni kationik sirt faol moddalardan foydalanmasdan shakllantirish mumkin, lekin odatda faqat nisbatan kichik suyultirishga erishish mumkin. Kationik sirt faol moddalar qattiq zarrachalar yuzasini qayta zaryad qiladi va shu tariqa ularni parchalaydi, "kirlarni magnitlaydi" deb ishoniladi. Bundan tashqari, avtomobil bo'yoqlari yuzalar va shisha salbiy holatga tushgani ilmiy isbotlangan. Shuning uchun musbat zaryadlangan sirt faol moddalar molekulari bu sirtlarda osongina adsorbsiyalanadi. Avtoko'piklardagi kationik sirt faol moddalardan, asosan, kvatlar ishlatiladi - mayin yog'ining to'rtlamchi ammoniy tuzlari yoki boshqa yuqori yog'li kislotalar. Kvatlar xomashyo ishlab chiqaradigan ko'plab xorijiy kompaniyalarning assortimentida mavjud. Misol uchun, ular Akzo Nobel, Stepan, Croda, Kao tomonidan ishlab chiqariladi.

Noionik sirt faol moddalar formulalarning muhim tarkibiy qismidir. Ular ko'pincha kationik yoki anion sirt faol moddalar bilan birgalikda qo'llaniladi va tozalash tizimida elektrolitlar mavjudligiga nisbatan kam sezgir. Ular ifloslanishning gidrofobik tarkibiy qismlarini - kir va organik moddalarni yaxshi yuvadi. Noionik sirt faol moddalarning kamida 5%, qoida tariqasida, 2-10 etoksi guruhi bo'lgan etoksillangan spirtlar avtoshamponga qo'shiladi. Xomashyoning eng

yaxshisi sintanollardir. Sintanollar shunday tanlanadiki, ularning HLB taxminan HLB ifloslantiruvchi moddalarga to'g'ri keladi. Bunday holda, bir juft ion bo'lmagan sirt faol moddalarni olish yaxshiroqdir, chunki ifloslanish ham turli xil qutblarga ega.

ADBIYOTLAR RO'YXATI

1. Baroni L, Cenci L, Tettamanti M, Berati M (2007) Evaluating the environmental impact of various dietary patterns combined with different food production systems". Eur J Clin Nutri 61: 279-286.
2. Complexing agents Environmental and Health Assessment of Substances in Household Detergents and Cosmetic Detergent Products. Danish Environmental Protection Agency Accessed.

РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ НЕФТЕМИНЕРАЛИЗОВАННОЙ СМЕСИ НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО СЫРЬЯ

*Тошматов Д.А., Омонов Ш.А., Абдумаликова Х.Б., Бозоров И.Б.
ТКТИ, best3377@mail.ru*

Нефтешламы следует рассматривать не только как отход нефтяной отрасли, но и как источник сырья для получения вторичных битумов, бензиновых и дизельных фракций. С экономической точки зрения, возвращение в производственный цикл выделяемых из нефтесодержащий отход кубовых остатков и дизельной фракции является перспективным направлением [1].

Использование нефтешлама для получения асфальтобитума является одним из рациональных способов его утилизации, так как при этом достигаются существенные эколого-экономические эффективности.

Для наработки методов анализа промысловых нефтешламов неоднократно были доставлены их образцы в ИОНХ АН РУз. Для утилизации промысловых нефтешламов по месту их накопления в нефтеминерализованную смесь разработана технологическая схема и стенд мобильной установки окисления [2].

Наиболее оптимальным технологическим решением в создании производства нефтеминерализованной смеси на основе промысловых нефтешламов нами разработана технологическая схема и его основного аппарата непрерывного окисления кислородом воздуха. Определяющими параметрами в процессе получения качественной нефтеминерализованной смеси из промыслового нефтешлама являются оптимальное соотношение окисляемого и окислителя кислорода воздуха, температура и продолжительность реакции олигомеризации тяжелых фракций нефтей. Для интенсификации процесса окисления был использован природный инициатор реакции, что позволило получать нефтеминерализованную смесь с эффективным молекулярным весом, имеющая сопоставимых показателей (размягчения, пластичность и других) характеристик связующего.

Реактор окисления нефтешлама был специально сконструирован в виде вертикального аппарата с подачей нагретого воздуха. Лабораторный стенд этой технологической установки непрерывного окисления нефтешлама создан для проведения экспериментов по установлению оптимальных параметров получения нефтеминерализованной смеси. При этом по результатам научно-практических экспериментов определены степени новизны разработки как по способу, так и по его технологии получения нефтеминерализованной смеси из промыслового нефтешлама, а также создана новая конструкция реактора окисления и конденсационного выделения топливных фракций нефтешлама [3].

Разновидности нефтеминерализованных смесей были апробированы в качестве связующего покрытия автомобильных дорог.

Показатели лабораторных проб нефтеминерализованных смесей

Наименование показателей	БНД* 60/90	Образцы		
		1	2	3
Глубина проникания иглы при 25 ⁰ С, 0,1 мкм.	93	95	93	92
Температура размягчения, °С	44	43	44	44
Растяжимость при 25 ⁰ С, см.	60	59	61	61
Температура вспышки, °С	248	247	250	248
Температура хрупкости, °С	-16	-16	-16	-17

*БНД 60/90 - Битум дорожный нефтяной, известный аналог.

На основании полученных данных испытания можно сделать следующие заключения:

по внешним характеристикам образцы нефтеминерализованных смесей сходятся используемым дорожным битумам;

представленные образцы нефтеминерализованных смесей по своим свойствам мало отличается от известного дорожного битума;

нефтеминерализованная смесь, полученная из промышленных нефтешламов может быть апробирована и установлены его эксплуатационные свойства в асфальтобетонах.

Получены следующие оптимальные условия получения покрытия для промышленных дорог из нефтешлама:

Температура окисления 250 - 260⁰С

Продолжительность окисления 40-45 ч.

Расход воздуха на сред.мол.массу нефтешлама равным 420 г/моль 150-200 л/ч.

Из сказанных видно, что полученная нефтеминерализованная смесь по качественным показателям не уступает известному БНД-60/90.

Использованная литература

1. Дубышев В.Д. Утилизация нефтешламов // Экология и промышленность России. – 2002. №5. с.20-22.

2. Рассветалов В А., Брондз Б.И., Тяжкороб Л А. Физико-химические свойства нефтешламов, активных илов и их смесей // Разработки в области защиты окружающей среды: Сб. науч. тр. — М.: ЦНИИТЭнефтехим, 1985. — С. 83-79.

3. Тошматов Д.А., Г.А. Байматова. Разработка состава и способа получения нефтеминерализованной смеси. Узбекский химический журнал. №3, 2016. 66-70 с.

МЕСТО И РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОГО КЛАСТЕРА В ПОВЫШЕНИИ НАУЧНОГО И ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ

д.т.н., проф. Сайдахмедов Э.Э.

*Советник Председателя Правления АО «Узбекнефтегаз»,
Заместитель Председателя Правления АО «O'ZLITINEFTGAZ»*

В настоящее время Президентом нашей республики огромное внимание уделяется развитию базовых отраслей экономики, и прежде всего, развитию нефтегазовой отрасли. Создаются самые благоприятные условия для обеспечения устойчивого инновационного развития нефтегазовой отрасли, развития науки и технологий и внедрения передовых инновационных проектов. На это, а также на обеспечение мер по объединению усилий предприятий и организаций отрасли в решении поставленных задач направлены Постановления Президента Республики Узбекистан №ПП-307 от 06 июля 2022 года «Об организационных мерах по реализации Стратегии инновационного развития Республики

Узбекистан на 2022-2026 годы» и №ПП-309 от 07 июля 2022 года «О мерах по созданию Образовательного кластера в нефтегазовой отрасли».

Акционерной компанией во исполнение поставленных задач проводится большая работа по всем направлениям деятельности. При этом, приоритетное внимание уделяется строительству новых технологических мощностей, позволяющих квалифицированно перерабатывать ценное углеводородное сырье в довостребованные товарные нефтехимические продукты, отвечающие современным международным требованиям и реконструкции действующих перерабатывающих предприятий с повышением эффективности их деятельности и улучшения качества выпускаемой продукции.

Следует отметить, что Постановление Президента нашего государства о создании образовательно-производственного кластера позволило создать новые благоприятные условия по обеспечению взаимной интеграции образования, науки и производства в нефтегазовой отрасли путем эффективного взаимодействия и принятия совместных решений по решаемым задачам соответствующих заинтересованных производственных предприятий, образовательных организаций республики и поднять на принципиально новый уровень проводимую совместную работу в данном направлении.

Среди приоритетных направлений деятельности, возложенных на образовательно-производственный Кластер является обеспечение непрерывности и преемственности программ и применение в учебном процессе образовательных учреждений передового зарубежного опыта, включая современные образовательные технологии, а также подготовка, переподготовка и повышение квалификации специалистов и научных кадров для нефтегазовой отрасли на основе современных требований в соответствии с международными образовательными стандартами исходя из потребности производственных предприятий. Осуществляемая системная работа в данном направлении обуславливает повышение уровня подготовки специалистов для нефтегазовой отрасли, а также поднять на качественно новый уровень подготовку и переподготовку кадров, систему повышения квалификации работников отрасли. Именно повышение уровня профессиональных знаний и навыков, а также научного потенциала специалистов и работников отрасли, широкое их участие в научно-исследовательской работе и в разработке и внедрении новых идей и инновационных разработок является основой для дальнейшего эффективного развития нефтегазовой отрасли.

Таким образом, созданный образовательно-производственный Кластер позволяет не только обеспечивать высокий уровень подготовки выпускников высших учебных заведений, переподготовки и повышению квалификации работников отрасли, но и организовать кооперацию и объединение усилий специалистов и научных работников производственных предприятий, а также научно-проектных и образовательных организаций в создании новых научных решений и разработке новых инновационных проектов, направленных на диверсификацию производимой продукции с высокой добавленной стоимостью, локализацию продукции, ввозимой для нужд действующих предприятий отрасли по импорту, а также на производство новых видов экспортоориентированной продукции на основе местных сырьевых ресурсов.

Настоящая конференция, проводимая в рамках деятельности созданного образовательно-производственного кластера наглядный пример по кооперации и объединению талантливых представителей молодежи, где будут представлены и заслушаны доклады и предложения по обсуждению научных разработок и инновационных решений, которые безусловно направлены на дальнейшее развитие нефтегазовой отрасли республики.

METHODS OF TRAINING QUALIFIED ENGINEERING PERSONNEL IN TECHNICAL AREAS

Abdirazzokov Dilshod Farkhod ugli

Magistr, Department "Automation and control of technological processes"

Tashkent state technical university

Abstract: This article contains materials on improving the training of qualified engineering personnel in technical areas in higher educational institutions.

Key words: global university networks, vocational education, engineer, undergraduate, innovation,

All over the world, innovative engineering education is developing, aimed not only at the formation of fundamental knowledge and skills, but also special competencies focused on how to apply them in practice when creating new competitive technologies and technologies. The educational system is being adapted to the conditions of the information society: the field of e-learning is spreading, open electronic educational resources are being created. These resources, developed by universities, are integrated into the many information systems that form the global university networks.

World trends in quality assurance of higher education:

- establishment of common criteria for ensuring and guaranteeing the quality of education of European countries within the framework of the Bologna process, including the transition to a credit system (set-off system);
- creation, development and harmonization of national accreditation systems for educational programs (OP);
- emphasis on internal quality assurance, development and introduction of university quality systems based on various models (ISO, EFQM, ENQA, etc.);
- development of e-learning quality system;
- Wide use of OP vocational and public accreditation systems;
- application of professional standards in the development of documents defining requirements to OP content and conditions;
- Inclusion of students in quality assurance procedures;
- use benchmarking to study the quality and effectiveness of other universities and apply their methods;
- use of effective mechanisms of interaction between the university and the enterprise;
- improvement of the university management system based on quality management systems (a significant part of the main functions of university management is related to quality);
- development of international cooperation in the sphere of guarantee of quality of education.

Ensuring the quality of education at a university is a type of activity that includes strategic planning, personnel policy, clear organization of work, material and technical base, financial resources, etc., as well as quality management. Quality management refers to operational methods and activities used to meet quality requirements. Quality management requires formalized management procedures based on the educational process model [1].

The international criteria for the quality of engineering education used in accreditation of engineering programs at universities in different countries are determined by the Washington Agreement (for countries with an English-language education system) and the European Network for the Accreditation of Engineering Education (for participating countries of the Bologna process). The pan-European requirements for the quality assessment of engineering educational programs are set out in the document "EUR-ACE Framework Standards for the Accreditation of Engineering Programs" [2].

Pedagogical innovations in the international community offer great opportunities for humanity in global educational processes. In particular, the introduction of innovative

developments in the search for theoretical and practical solutions to the problems of creating promising megaportals in the most famous universities and innovative educational centers is the most popular virtualization in the world (Virtualization), modeling (Simulations), optimization (Software Optimization) and modern paradigms of engineering education on the Internet (3D learning, e-learning platforms, Moodle, Ilias, Dokeos and others.) [2].

when analyzing the curricula and programs of technical disciplines of undergraduate and master's degrees of higher education, you can list the following problems:

- insufficient use of personal-oriented educational technologies aimed at developing the abilities of qualified personnel for independent and creative work, good assimilation in the training of general vocational subjects;

- insufficient attention in the preparation of engineers for innovation, training seminars and the development of educational materials;

- the focus of students on the search and analysis of new and the practical application of special disciplines of engineering education is not given due importance;

- insufficient attention to the development of knowledge and skills for the effective use of HEU teachers' information technologies in the educational process and the creation of electronic educational resources.

As a result of the above-mentioned problems and shortcomings, graduates entering technical education initially face difficulties. Firstly, it requires constant work on itself to form your own skills and the necessary level of skill. Secondly, this situation requires a specialist with undeveloped innovative abilities to work constantly to find, analyze and constantly use the most necessary information in the technological process. Therefore, the main task of a higher educational institution is to create an educational environment that in the interests of society would make it possible to prepare a modern specialist with a high level of skill, ready for innovation [3].

To solve the above-mentioned problems at the modern level, an integrated relationship of natural science, general technical and special cycles of disciplines on an information basis is necessary. This is permissible only on the basis of training students in technical specialties on the basis of an integrated information and educational system.

List of references

1. Субетто А.И., Селезнева Н.А. Теоретико-методологические основы качества высшего образования. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2001.

2. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии (Анализ зарубежного опыта) /М.В. Кларин. - Рига: НПЦ «Эксперимент», 1995. - 176 с.

3. Radcliffe, D. (2011). Engineering Competence? An Interpretive Investigation of Engineering Students' Professional Formation. *Journal of Engineering Education*, 100, 703-740.

NEFT SANOATI ISTIQBOLLARI

Ko`ychiyev I.E., Bahridinov A.H., Ganiyev B.Sh.

Buxoro davlat universiteti

Hozirgi vaqtda energiyaning asosiy manbalaridan biri neft va gaz hisoblanadi. Ulardan asosan turli suyuq yoqilg'ilar - benzin, kerosin, dizel va qozonxona (mazut) yoqilg'isi olish uchun foydalaniladi. Shuningdek, neftdan maxsus va surkov moylari ham ishlab chiqariladi. Kimyoviy qayta ishlash jarayonlari orqali olingan maxsulotlar plastmassalar, sintetik kauchuk va smola, sun'iy tola, yuvish vositalari va shu kabi bir qator xalq xo'jaligi uchun zarur mahsulotlar olinadi.

Respublika yoqilg'i-energetika mustaqilligiga erishish maqsadida mavjud ishlab turgan zavodlar qatoriga yangi zavodlar qurishga kirishildi. Yangi quriladigan zavodlar ishga tushishi

bilan ichki bozordagi yoqilg'i maxsulotlariga bo'lgan talabni qondirish bilan birgalikda tashqi bozorga ham maxsulot eksport qilish ko'zda tutilgan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar neft va gazni qayta ishlash zavodlari Oltiariq (1904 yil), Farg'ona (1958 yil), va Muborak (1971 yil) gazni qayta ishlash zavodlari qatoriga 1997 yil 22 avgustda ishga tushirilgan Buxoro neft va gaz kondensatini qayta ishlashga mo'ljallangan zavod va 2001 yilda Sho'rtan gaz-kimyos majmuasi qo'shildi. Hozirgi kecha kunduzda Ustyurt platosida Janubiy Koreya respublikasi bilan hamkorlikda qurilishi boshlangan "Ustyurt gaz-kimyos kompleksi" 2016 yilda ishga tushirilishi ko'zda tutilmoqda. Umuman O'zbekistondagi neft va gazni qayta ishlash sohasini vujudga kelishiga nazar solsak, XIX-asr oxirida Farg'ona vodiysida ochilgan dastlabki konlar asosida 1904 - 1906 yillarda O'zbekistonda birinchi Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi asosan neftni birlamchi qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, hozirgi vaqtdagi ishlab chiqarish quvvati yiliga 1,5 mln. tonnani tashkil etadi.

Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida 1958 yilda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Zavodda neftni birlamchi va ikkilamchi qayta ishlash jarayonlari olib boriladi. Uning hozirgi vaqtdagi ishlab chiqarish quvvati yiliga 5,5 mln., tonna neft va gaz kondensatini qayta ishlashga mo'ljallangan. Zavodda shuningdek, yiliga 500 ming tonna moy ishlab chiqarish quvvatiga ega qurilmalari mavjud. 1996 yil Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi chet el ilg'or texnologiyalari (Yaponiya) asosida qayta rekonstruktsiya qilindi. Hozirda zavodda neft maxsulotlarini 50 dan ortiq turi ishlab chiqariladi.

Respublikamizda neftni qayta ishlash bilan birgalikda gazni qayta ishlash sohasiga ham katta e'tibor berildi. 1971 yilda dekabr oyida "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" birinchi navbati ishga tushirildi. Zavod asosan xalq xo'jaligi uchun eng arzon yoqilg'i, tabiiy gaz etishtirib beradi. Muborak gazni qayta ishlash zavodining dastlabki quvvati yiliga 5 mlrd. m³ tabiiy gazni qayta ishlashdan boshlangan. 1978-1980 yillarda zavodning ikkinchi va uchinchi navbatlari ishga tushirilib, umumiy quvvati 10 mlrd.m³ ni tashkil etadi. 1984-yil to'rtinchi navbati ishga tushirildi va umumiy quvvat yiliga 25 mlrd. m³ ni tashkil etdi. Hozirgi vaqtda umumiy quvvat yiliga 30 mlrd. m³ ni tashkil etadi. Muborak gazni qayta ishlash zavodi xom-ashyo manbalari asosan yuqori oltingugurtli (4,5- 5,0 %) O'rta buloq. Dengizko'l-Havzak, Samontepa konlari va kam oltingugurtli (0,08-0,3 %) Kultak, Zevarda, Pamug', Alan gaz konlaridir. Zavodning asosiy maxsulotlari tabiiy gaz, texnik oltingugurt, barqarorlashtirilgan kondensat va suyultirilgan gaz hisoblanadi.

Istiqlol yillariga kelib, 1997-yilda gaz kondensatini qayta ishlashga mo'ljallangan xorijiy davlatlarning ilg'or zamonaviy texnologiyalaridan biri Franstiyanning "Teknip" kompaniyasi texnologiyasiga ko'ra Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Zavodning umumiy quvvati yiliga 2,5 mln. tonna neft va gaz kondensati aralashmasini birlamchi qayta ishlash jarayonlari olib boriladi. Zavodni xom-ashyo manbai Ko'kdumaloq konlaridan olinayotgan gaz kondensatlari va olinadigan maxsulotlari esa asosan suyultirilgan gaz, yuqori sifatli benzin, kerosin va dizel yoqilg'ilari hamda qoldiq mazut hisoblanadi.

Respublikamizda neft kimyosi va organik sintez moddalar olishni ko'paytirish maqsadida 17-fevral 1998-yil "O'zbekneftgaz" MXK va "ABB Lummus Global" (AQSh), "ABB Soimi" (Italiya), «Nisho Ivai», "Toyo iujiutgiug"(Yaponiya), kompaniyalari o'rtasida gaz kimyo majmuasini loyixalash, qurilmalarni yotqizish, o'rnatish va ishga tushurish bo'yicha shartnoma imzolandi. 2001 yil oxirida "Sho'rtan gaz-kimyos majmuasi" ishga tushirildi va 2002 yil 15-avgustda birinchi o'zbek polietilen ishlab chiqarildi. Gaz kimyo majmuasining umumiy quvvati yiliga 4,2 mlrd.m³ tabiiy gazni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, quyidagi maxsulotlar olinadi:

- donador polietilen (125 ming, tonna);
- suyultirilgan gaz (137 ming, tonna);
- donador oltingugurt (4 mlrd. tonna).

Sho'rtan gaz kimyo majmuasida ishlab chiqarilayotgan barcha polietilen maxsulotlari ekologik va gigiyenik sertifikatlariga egadir. Zavod maxsulotlariga 2005 yil Halqaro ISO- 9001 sifat sertifikati berildi. Hozirgi vaqtda Sho'rtan GKM si maxsulotlarining 70% eksportga chiqarilmoqda. Ya'ni Evropa mamlakatlari Italiya, Gollandiya, Polsha, Vengriya, Osiyo, Eron,

Pokiston, Xitoy, MDH davlatlari: Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlariga eksport qilinmoqda.

Hozirgi vaqtda Respublikamizda yoqilg'i energiyasiga bo'lgan talabni to'la qondirishda "O'zbekneft gaz" AJ asosiy o'rin tutadi.

Hozirda Respublikamizda jahon andozalariga mos keluvchi tayyor neft maxsulotlari tashqi bozorga chiqarilayapti. Shundan xulosa qilish mumkinki bugungi kunda neft kimyo sanoati istiqbolli yo'nalishda rivojlanib bormoqda.

“UZBEKISTAN GTL” МЧЖ ВА БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРИСТЕТИНИНГ ҲАМКОРЛИГИ

Ниёзов Э.Д, Ганиев Б.Ш.

Бухоро давлат университети

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иктисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 27 июлдаги ПҚ-3151-сон қарори ижроси юзасидан жорий йилнинг 25 феввалида Бухоро давлат университети ва “Uzbekistan GTL” масъулияти чекланган жамияти ўртасида таълим ва илмий тадқиқот соҳасида ўзаро англашув меморандуми имзоланди.

Ушбу меморандумнинг мақсади кадрлар тайёрлаш ва илм-фан натижаларидан фойдаланишда таълим, илм-фан ва ишлаб чиқариш соҳалари ўртасида ўзаро яқин мулоқот ва ҳамкорликни йўлга қўйиш, Бухоро давлат университети таркибидаги таълим йўналишлари талабаларининг нефть ва газ соҳасига бўлган қизиқишини орттириш, талаба ва профессор-ўқитувчиларни ишлаб чиқариш жараёнлари билан яқиндан таништириш ва ривожлантиришдан иборат.

Шунингдек, шартнома доирасида томонлар ўзаро ҳамкорлик бўйича қуйидагиларни белгилаб олдилар:

– Талабалар, илмий-педагогик кадрлар ёки томонларнинг ходимлар учун ишлаб чиқариш, ўқув-лаборатория, илмий амалиётини ёки стажировкаларини ташкил этишга кўмаклашиш;

– Илмий-педагог кадрлар, ходимлар ёки мутахассисларнинг малакасини ошириш ва касбий қайта тайёрлашни ташкил этиш;

– Ишлаб чиқаришни оптималлаштириш ва технологик жараёнларда юзага келадиган муаммоларни бирганликда ҳал қилиш учун томонларнинг профессор-ўқитувчи, кадрлар, таянч докторантлар, олимлар ва тадқиқотчиларини жалб этган ҳолда қўшма тадқиқот ва ишланмаларни ўтказиш, жумладан, ҳисоботларни ташкил этиш ёки қўшма тадқиқот ишларини тайёрлаш;

– Мутахассислар алмашинуви, қўшма илмий-тадқиқот лойиҳаларини амалга ошириш, қўшма конференциялар, маърузалар, давра суҳбатлар ўтказишга кўмаклашиш;

– Талабалар ва профессор-ўқитувчи кадрларни ижтимоий ва моддий қўллаб қувватлашга қаратилган тадбирларни ташкил этишда ҳамкорликни мустаҳкамлаш;

– Ёш мутахассисларни рағбатлантириш ва стимуллаштириш мақсадида оммавий ёшлар тадбирларни ўтказиш (танловлар, спорт мусобақалари, ижодий тадбирлар, илмий анжуманлар);

– Мунтазам равишда ишончли ахборотлар мисолида қўшма тадқиқотлар ўтказиш, кейинчалик эса илмий мақолаларни нашр этиш;

– Турли йўналишдаги қўшма тадбирларда мутахассислар, талабалар ва профессор-ўқитувчи кадрлар иштирокини кенгайтириш, иложи бўлса, юқори сифатли ахборот алмашиш учун илмий синфни ташкил этиш.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 декабрдаги ПҚ-60 ҳамда ПҚ-61 қарорига мувофиқ Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар, Давлат олий

таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида қарорга асосан Бухоро давлат университетида 2022 йил январь ойидан молиявий, 2022-2023 ўқув йилидан бошлаб академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллик берилди. Албатта бу иккала қарор ҳам таълим сифатини оширишга хизмат қилади ва шу билан бирга олий таълим муассасаси раҳбарлари ва профессор-ўқитувчиларига катта масъулият юклайди. 60-қарорнинг 2-қисми 6 банди 2-хатбошисида олий, ўрта махсус ва профессионал таълим муассасаларида ўқитиладиган таълим йўналишлари, мутахассисликлар ва касблар рўйхатини тасдиқлаш вазифаси белгиланган. Бу эса олий таълим муассасаларига худудлардаги кадрлар етишмовчилиги муаммоларидан келиб чиқиб, янги таълим йўналишлари ва мутахассисликларини очиш имконини беради. Айниқса бугунги кунда жуда муҳим ҳисобланган кимё, физика, биология, биотехнология, қишлоқ хўжалиги, озиқ-овқат, нефть ва газ ишлаб чиқариш билан бевосита боғлиқ бўлган соҳалар ҳисобланади. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда Бухоро давлат университетида 60720900 – Нефть-газкимё саноати технологияси ва 60710100-Кимёвий технология (ишлаб чиқариш турлари бўйича) таълим йўналишлари очилди. Ушбу йўналишларда таълим жараёнини ташкил этишда албатта турли саноат корхоналарининг ҳамкорлиги ва кўмаги талаб этилади.

Шунингдек, ҳозирда Бухоро давлат университети Органик ва физколлоид кимё кафедраси ҳузурида “Нефть ва газ кимёси” талабалар илмий ва ижодий тўғараги ташкил этилди ва тўғарақда талабалар турли сабоқларни ўрганишмоқда. Тўғарақ аъзоларига Қашқадарё вилояти Ғузор туманида жойлашган “**Uzbekistan GTL**” МЧЖ ҳақида ва ишлаб чиқариладиган турли маҳсулотлар билан ҳам таништирилиб келинмоқда.

Ҳозирги кунда **Uzbekistan GTL МЧЖ** да йўлга қўйилган технология «Sasol» компаниясининг суспензион дистилляция фазасининг уч босқичдан иборат бўлган жараёнига асосланади (Sasol Slurry Phase Distillate Process™) (SPD жараёни). Биринчи босқичда табиий газ кислород билан боғланиб синтез-газини ҳосил қилади. Шундан сўнг синтез-газ Фишер-Тропш конверсияси жараёнидан ўтиб, натижада парафинли синтетик хом нефть ҳосил бўлади. Сўнгги босқичда ушбу синтетик хом нефть крекинг қилиниб, тайёр маҳсулот олинади. GTL технологияси 100 йилдан кўпроқ вақт давомида маълум бўлган, аммо охириги 20 йил ичида кенг тарқалган. Янги, янада барқарор ва арзон катализаторларнинг муваффақиятли ишлаб чиқилиши натижасида GTL қурилмаларининг ҳажми конлар даражасигача кичайиб, мотор ёқилғиси нархларининг умумий ўсиши билан бундай қайта ишлаш мажмуаларининг иқтисодий жиҳатдан самараси ошди. Илгари GTL технологиясини амалга оширувчи лойиҳалар фақат анча катта ҳажмдаги қайта ишланадиган хом ашё (йилига 1,4-2,0 млрд. куб.м. газ). Ҳозирги кунда GTL технологиясини ишлатадиган қурилмаларнинг барқарор рентабеллиги йилига 50,0 млн.куб.м. газдан бошланади.

Ўзбекистонда жадал ривожланаётган нефть ва газкимё саноати ривожланишида малакали кадрлар тайёрлаш мақсадида Бухоро давлат университети профессор-ўқитувчиларини Қозон федерал университетининг Геология ва нефть-газ технологиялари институтига стажировкага юбориш бўйича дастлабки келишувлар амалга оширилди.

2022 йилнинг 7 июль санасида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Нефть ва газ соҳасида таълим-ишлаб чиқариш кластерини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-309 сонли қарори тасдиқланганлиги эса “**Uzbekistan GTL**” МЧЖ ва Бухоро давлат университети ўртасида бошланган ва ҳозирда ҳам давом этаётган ҳамкорликни янада ривожлантириш учун айти муддао бўлиб хизмат қилади. Ушбу қарорнинг 3 банди иккинчи хатбошида белгиланган “Таълим кластерининг иштирокчилари ўртасида ўзаро алоқаларни таъминлаш” вазифаси ҳам “**Uzbekistan GTL**” МЧЖ нинг Республикамизнинг турли олий таълим муассасалари билан ҳамкорлиги кучайиши учун муҳим бир омил ҳисобланади. Ушбу қарорнинг 3-илоvasи иккинчи “Иш берувчи ва кадрлар буюртмачилари таклифлари асосида Таълим кластери таркибидаги олий ва профессионал таълим ташкилотларининг ўқув-методик ҳужжатларини такомиллаштириш” бандига кўра Бухоро давлат университети

профессор-ўқитувчилари томонидан ўзбек ва рус тилида “Нефт ва газ кимёси” номли дарсликларини нашр этилди.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, “Uzbekistan GTL” МЧЖ ва Бухоро давлат университети ўртасида ўқув ва илмий соҳаларда ҳамкорлик бевосита давом этиши Республикамиз иқтисодига хизмат қиладиган кадрлар тайёрлашда амалий аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. 2017 йил 27 июлдаги ПҚ-3151-сон Ўзбекистон Республикаси Президенти “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори (<https://lex.uz/docs/3286194>)

2. 2021 йил 24 декабрдаги ПҚ-60-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” қарори (<https://lex.uz/docs/5793261>)

3. 2021 йил 24 декабрдаги ПҚ-61-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Давлат олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида” (<https://lex.uz/docs/5793251>)

4. 2022 йилнинг 7 июльдаги ПҚ-309-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Нефть ва газ соҳасида таълим-ишлаб чиқариш кластерини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори (<https://lex.uz/docs/6100256>)

SINTEZ GAZIDAN DIMETILEFIR OLISH TEXNOLOGIYASI

Shukurov Jasur Xoshimovich

tayanch doktorant

Samarqand davlat universiteti


Dimetilefir (DME) ishlab chiqarish texnologiyasi bir qator xorijiy kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan Aqsh (Air Products and Chemicals), Buyuk Britaniya (VR), Yaponiya (NKK Corp), Daniya (Haldor Topsoe) va boshqalar. [1]. Tabiiy gazdan motor yoqilg'ilarini ishlab chiqarishning mavjud texnologiyalari quyidagi kamchiliklarga ega: yuqori moddiy xarajatlar, katta energiya sarfi va xom ashyo uchun iste'mol me'yorlari, maqsadli mahsulotning past sifati. Ayni paytda, tufayli uglevodorod xomashyo uchun jahon narxlarining keskin oshishi uchun, keskin neft-kimyo sintezi asosiy mahsulotlari (eten, propen, buten, DME, benzol, alkilaromatik uglevodorodlar) uchun sanoat talabini o'zgarayapti dunyoning turli mintaqalarida tendensiyasi mavjud[2].

Ilmiy tadqiqot ishda DME olish jarayoni tabiiy gazdan to'g'ridan-to'g'ri metanol olish va metanolni bitta apparatda DME ga aylantirishdan iborat. Binobarin, metanolni DME ga qayta ishlashdan oldin uni oraliq mahsulot sifatida ajratish va tozalash bosqichi chiqarib tashlanadi. DME sintezi reaksiyasi ekzotermik bo'lganligi sababli, birinchi reaktorda chiqarilgan issiqlik o'rta bosimli bug' hosil qilish uchun ishlatiladi. Ikkinchi adiabatik reaktordan keyin o'zgarmas gaz issiqlik almashtirgichda xom ashyoni (sintez gazini) qizdirib sovutiladi va kondensatorga beriladi, bu erda mahsulot (suv-metanol-DME aralashmasi) sintez gazidan ajralib chiqadi[3]. Gazsimon faza ikkita oqimga retsirkulyasiya gazi va chiqindi gazlarga, oqimdagi inersiya to'planishiga yo'l qo'ymaslik uchun bo'linadi[4].

Dimetil efirning kondensatsiya sig'imi pastligi tufayli razryad gazlari absorbsiya kolonnasiga yuboriladi, bunda dimetil efirning qoldiqlari undan metanol bilan ajratib olinadi. Bundan tashqari, yakuniy mahsulot sifatida sof DME (99%) olinishi mumkin. Ushbu texnologik sxema bo'yicha 0,5 tonna Sintez gazdan 0,86 tonna benzin yoki 1,2 tonna DME olish mumkin. Katalizator turli vaqtlarda qayta tiklanadi va doimiy ishlab chiqarishga erishiladi. Sintez gazdan

DME sintezi va jarayonining kinetik qonuniyatlari quyidagi 1-rasmda keltirilgan qurilmada o'rganildi.

Qurilmaning asosiy tarkibiy sxemasi va uning tavsifi. Katalitik qurilmaning ishlash printsipti quyidagicha. Tizim azot bilan tozalanadi va ventillar (1)-(6) yordamida ishchi bosim hosil qilinadi. Bosim (9) bosim regulyatori yordamida manometrlar (7)-(8) tomonidan boshqariladi. Ish xavfsizligi signalizatsiya moslamasi (10) tomonidan ta'minlanadi. Uglerod (II) oksidi va vodorod ikkita alohida quvur liniyasi orqali, silindrlardan bosim regulyatorlari (11)-(12) va gaz oqimi regulyatorlaridagi (13)-(14) chang filtrlari orqali reaktorga yetkazib beriladi. So'ngra vodorod va uglerod (II) oksidi to'sish qobiliyatli klapanlar va teskari klapanlar orqali katalitik reaktorga (15) beriladi, u erda ular reaktorning kirish joyida aralastiriladi va kerakli haroratgacha qizdiriladi. Reaktor bloki reaktor, elektr pechi va tizimdan, teskari klapanlardan iborat. Reaktorning ichki diametri 12 mm bo'lgan zanglamaydigan po'lat quvurdirdan tashkil topgan. Reaktor bir zonali elektr pech bilan isitiladi, bu esa katalizator qatlami ustidagi haroratni $\pm 5^{\circ}\text{C}$ xatolik bilan ushlab turish imkonini beradi. Reaktor bloki katalizator qatlamida (16) joylashgan va dasturlangan to'rt kanalli haroratni rostlaydigan TXA boshqaruvchi xromalumelli termoparaga (0-1200°C) termometri (17) ga ulangan. Reaktorning pastki qismida katalizator joylashgan shisha tolali katalizatorni o'tqazuvchi panjara mavjud. Katalizator qatlamining balandligi 4,4 sm, harorat 200 dan 300°C gacha o'zgarib turadi. Pech va bug'latkichning harorati bir vaqtning o'zida nazorat qilinadi. Reaktorda reaksiyadan so'ng hosil bo'lgan suv, metanol va uglevodorodlarni (dimetil efir, CO, H₂, CO₂, CH₄, metanol bug'i) larni tizimdan chiqarish uchun mahsulotlarning gaz aralashmasi bir martalik sovutgichdan (18) va xona haroratida aylanma suv bilan yuqori bosimli separator (19) da ajratish moslamasidan o'tadi va ularni yuqori bosimli separatorida mahsulotlar ajratilgandan so'ng, kondensatni rostlovchi ventil (20) orqali kondensat qabul qilgich (21) ga tushiriladi. Gaz mahsulotlari yuqori bosimli separatorni yon shtutser, vintel, orqa qaytuvchi bosim reduktori (9) orqali so'ruvchi ventilyatori yordamida analitik boshqaruv tizimi (22) orqali chiqadi.



1-rasm – Sintez gazidan DME olish uchun mo'ljallangan jarayonlarni o'rganish uchun katalitik qurilma sxemasi

Sintezda yangi selektiv seolit katalizatorlari qo'llaniladi. Sintez gaz asosidagi DME ishlab chiqarish uchun past haroratli jarayon texnologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, u energiya sarfini

kamaytirish bilan birga an'anaviy sanoat jarayonlariga nisbatan jarayonning unumdorligini va ishlab chiqarilgan DME sifatini oshiradi. Metanol va DME yuqori kremniyli seolitlarda quyidagi olefinlarga konversiyasini reaksiya mahsulotlarida olefinli uglevodorodlari umumiy miqdorini 60% haj. dan ortiq ta'minlaydigan katalitik jarayoni yaratilgan. Ikkinchisi yangi avlod motor yoqilg'isi uchun samarali xom ashyo bo'lib xizmat qilishi mumkin, bu tajriba bilan tasdiqlangan.

ADABIYOTLAR

1. Wood D. // Oil & Gas J. 2007. No 12. P. 20.
2. Buronov F., Fayzullayev N. Synthesis and application of high silicon zeolites from natural sources //AIP Conference Proceedings. –AIP Publishing LLC, 2022.–T. 2432. – №. 1. – C. 050004.
3. Bukhorov A. Q., Fayzullaev N. I. Kinetic laws of dimethyl ether synthesis in synthesis gas //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – T. 2432. – №. 1. – C. 050012.
4. Jasur Shukurov., Normurot Fayzullaev. Kinetic laws of dimethyl ether synthesis reaction **E3S Web of Conferences** **389**, 01037 (2023)

PAST HARORATLI KONDENSATSIYA USULLARINI QO'LLANILISHINI ASOSLASH

Samadov A.X., "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrasida katta o'qituvchisi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Kamolov B.S., "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrasida assistenti Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

e-mail: azizbek_samadov1986@mail.ru

Tabiiy gazning tarkibidan nordon komponentlarni va og'ir uglevodorodlarni ajratib olishda ko'pgina texnologiyalardan foydalaniladi. Ushbu maqolada gazning tarkibidan og'ir uglevodorodlarni ajratib olish va kondensatsiyalash texnologiyasini qo'llash asoslangan.

Kalit so'zlar: kondensatsiya, past harorat, sovitish, kombinatsiyali, harorat, jarayon, barqarorlashtirish.

Past haroratli kondensatsiya jarayonida sovitish maqsadli komponentlar ajratib olinishning kerakli chuqurligi bilan aniqlanadigan, gaz fazasining berilgan kondensatsiyalanish darajasigacha davom etadi. Buning uchun sovitish jarayonining oxirgi harorati beriladi. Bu haroratga hisoblangan miqdordagi sovuqlikni berish yo'li bilan erishiladi [1].

Gaz oqimi sovitilishining oxirgi haroratini berish uchun, bosimning tanlangan qiymatlarida fazalarning o'zgarish haroratlarini aniqlash kerak bo'ladi. Individual moddalar kritik harorat T_{kp} va kritik bosim p_{kp} ga mos keluvchi kritik nuqtasi mavjud bo'ladi. Bu harorat va bosimning ikkala fazasi ham mavjud bo'lgan maksimal qiymatdir. Kritik haroratdan yuqori haroratda faqatgina bitta faza mavjud bo'ladi va hech qanday boshqa parametrlar bilan birgalikda ham uni ikki fazali holatga o'tkazib bo'lmaydi. Demak, bir komponentli gazni qisman yoki to'liq siqish jarayonlarini faqatgina gazni kritik haroratdan pastroq haroratgacha dastlabki sovitishdan so'ng amalga oshiriladi.

Amaliyotda kritik oraliqlar tarkibiga bog'liq holda parametrlarning keng diapazonida kuzatiladigan ko'p komponentli gaz aralashmalari bilan ko'p ishlashga to'g'ri keladi.

Agar kondensatsiyalanish jarayoni kondensatsiyalanayotgan komponentlarning kritik qiymatlaridan past bosim va haroratda amalga oshirilsa, unda bu komponentlarning kondensatsiyalanishi bilan bir vaqtda aralashmaning kritik haroratidan past kritik haroratga ega bo'lgan komponentlarning qisman kondensatsiyalanishi ham yuz beradi. Buning sababi, uglevodorod gazlari uglevodorod suyuqliklariga aralashish xususiyatiga ega. Masalan, metan (molyar ulushi 10%) va propandan (molyar ulushi 90%) tashkil topgan aralashma gaz aralashmasini 2,0 MPa bosimda 10°C gacha sovitishda to'liq kondensatsiyalanishi mumkin [8]. Shunday qilib, kritik harorati $T_{kp} = -82^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'lgan metan, propan mavjud bo'lganida kritik haroratidan ancha yuqori haroratda suyuqlikka aylanadi.

Gazning suyuqlikka aralashishi, kondensatsiyasi kabi, issiqlik ajralishi bilan kechadi. Aralashish issiqligining qiymati kondensatsiyalanish issiqligi qiymatidan juda kam farq qiladi. Haroratning tushib borishi bilan hosil bo'layotgan suyuqlik miqdori ortib boradi va uning tarkibi o'zgaradi:

Bir vaqtning o'zida bug' fazasi ham og'ir komponentlarning kondensatsiyalanganligi sari yengil uchuvchi komponentlar bilan to'yinadi. Aralashmaning sovitilishi davom ettirilganda jarayon bug' fazasining to'liq kondensatsiyalanganiga qadar davom etadi. Shuning uchun uglevodorod gazlarini ajratish jarayonlarida, kondensatsiyalanishning kerakli darajasini olishga imkon beruvchi oxirgi sovitish harorati beriladi [2].

Harorat va bosim qiymatlarining turli kombinatsiyalarida dastlabki gazning bir xil kondensatsiyalanish darajasiga erishish mumkin. Tizimda bosimning oshirib borilishi bilan doimiy haroratda kondensatsiyalanish darajasi ortadi, jarayonning tanlovchanligi pasayadi hamda jadalligi bosim va harorat o'zgarishiga to'g'ri proporsional emas. Past bosim sharoitlarida kondensatsiyalanish darajasi bosimning o'zgarishi bilan tezda o'zgaradi. Bosimni yanada oshirish davom ettirilganda kondensatsiyalanish jadalligi pasayadi. Haroratning o'zgarishi ham analogik ta'sir ko'rsatadi: kondensatsiyalanish darajasi haroratni belgilangan qiymatgacha (gaz tarkibiga bog'liq holda) tushirilganda yanada jadalroq ortadi va undan past haroratlarda kondensatsiyalanish tezligi sekinlashadi.

Shunday qilib, uglevodorodlarning kondensatsiyalanish darajasini ikki usul bilan oshirish mumkin: doimiy haroratda bosimni oshirish bilan yoki doimiy bosimda haroratni pasaytirish bilan. Biroq bu xolatda kondensatsiya jarayoni o'zining o'ziga xosligiga ega bo'ladi. Doimiy haroratda bosim oshirilganda kondensatsiyalanish darajasining ortishi uglevodorodlar ajralishi aniqligining yomonlashishi bilan bir vaqtda sodir bo'ladi, chunki og'ir komponentlar bilan birga sezilarli miqdorda yengil komponentlar ham suyuq fazaga o'tib qoladi. Shuning uchun gazning yetarlicha toza individual komponentlarini yoki uglevodorodlarning aniq fraksiyalarini olish uchun jarayonni o'ta past bosim va past haroratlarda, shuningdek rektifikatsiya kolonnalarida hosil bo'lgan suyuq fazalarga aralashgan yengil komponentlarni olib tashlash uchun suyuq fazani keyingi demetanizatsiya yoki deetanizatsiya qilinadigan past haroratli kondensatsiya bilan birgalikda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.


Shunday qilib PHK qurilmalarining zamonaviy sxemalari quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi: gazni berilgan bosimgacha (zarur bo'lganda) kompressorlash; gazni quritish; ikki fazali tizim hosil qilish uchun gazni sovitish; hosil bo'lgan suyuq fazani deetanizatsiya (demetanizatsiya) qilish [3].

PHK sxemalari kondensatsiyalanish bosqichlari soni va sovuqlik manbasiga ko'ra klassifikatsiyalanadi. Kondensatsiyalanish bosqichlari soniga ko'ra PHK sxemalari bir, ikki va uch bosqichga bo'linadi. Har bir bir martali kondensatsiyalanish jarayonidan so'ng hosil bo'lgan ikki fazali aralashmani suyuq fazani chiqarib olish bilan ajratish amalga oshiriladi.

Chuqur sovuqlikni olish uchun kaskad sovituvchi sikllardan foydalaniladi. 1-rasmda tabiiy gazni quruq gaz va EUKF (yengil uglevodorodlarning keng fraksiyasi) ga ajratish uchun tashqi sovituvchi sikli uch bosqichli PHK qurilmasining tartibli texnologik sxemasi ko'rsatilgan. Xomashyo gaz ikkita oqimga ajraladi va rekuperativ 1, 2 issiqlik almashgichlarda ajratishning uchinchi bosqichidan va deetanizatorning yuqorisidan olingan quruq gazning teskari oqimi va ajratishning uchala bosqichidan kondensatsiyalangan uglevodorodlarning qo'shilgan oqimi bilan sovitiladi. So'ngra xomashyo oqimi propanli bug'latgichda 3 sovitiladi va ajratishning birinchi bosqichiga kelib tushadi. Gaz oqimi sovutgichda ikki fazali tizim hosil bo'lguncha yana sovitiladi va ajratishning ikkinchi bosqichiga kelib tushadi, undan so'ng kondensatsiya va ajratishning yana bir bosqichi turadi.

Ajratgichlar 4, 5, 6 larning barchasining suyuq fazalari birlashadi va rektifikatsiyaning to'liq sxemasi bo'yicha ishlovchi deetanizatorga taminot bo'lib tushadi. Deetanizator yuqorisidan ajratishning uchinchi pog'onasining gaz fazalari bilan birlashib, magistral gaz quvuriga jo'natiladigan quruq gaz olinadi. Deetanizatsiya bloki PHK qurilmasining kerakli elementi hisoblanadi, chunki quruq gazda propaning ko'p miqdori tovar mahsulotining yo'qotilishiga,

pastki mahsulotda etanning ko'p miqdori esa – kondensatsiyalanmagan propan yoki propan-butan fraksiyalarining ishlab chiqarilishiga olib keladi.



1 – rasm. Gazni past haroratli kondensatsiyalash uch bosqichli qurilmasining tartibli sxemasi:

1, 2 – issiqlik almashgichlar; 3 - propanli bug'latgich; 4, 5, 6 - ajratgichlar; 7 - rektifikatsiyalash kolonna; 8- reflyuksli yomkost; 9 - reboylar

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ахметов С. А. Технология глубокой переработки нефти и газа: Учебное пособие для вузов. — Уфа: Гилем, 2002. — 672 с.

2.Баннов П. Г. Процессы переработки нефти: В 3 т. — М.: Изд-во ЦИНТИХИМнефтемаш, 2000—2003. — Ч. I, 2000. — 224 с.; Ч. II, 2002. — 551 с.; Ч. III, 2003. — 504 с.

3.Зиберт Г.К., Седых А.Д. Кащинский Ю.А., Михайлов Н.В., Демин В.М. Подготовка и переработка углеводородных газов и конденсата. Справочное пособие - М.;ОАО «Недра - Бизнецентр»; 2001 – 316 с. Ил.

POLIMERLAR DESTРУКСИЯСИ

dots. Cho'liyev J.R, magistrant Xushvaqtoev E.I.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Polimer materiallarni destruksiya jarayoni turli xil tashqi ta'sirlardan kelib chiqadi: havo kislorodi, ultrabinafsha nurlanish, harorat, mexanik kuchlanishlar va boshqalar. Bu tashqi ta'sirlarning barchasi polimerlarning fizik va mexanik xususiyatlarining pasayishi bilan birga fizik va kimyoviy tuzilishining o'zgarishiga olib keladi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar polimerlarga uni qayta ishlash, saqlash, mahsulotni ishlatish paytida, shuningdek qayta ishlash paytida ta'sir qiladi. Ta'sir qilish vaqti nisbatan qisqa bo'lishi mumkin, ammo polimer materialida kimyoviy va fizik o'zgarishlarning paydo bo'lishi uchun yetarli.

Destruksiya jarayonini ko'p omilli jarayon deb hisoblash kerak, chunki polimer materialida uning foydalanish davomida yuzaga keladigan kimyoviy va fizik o'zgarishlardan tashqari, ularning polimerning makroskopik xususiyatlari bilan bog'liqligini hisobga olish kerak.

Polimerlarni destruksiyasi polimer materialining tashqi ta'sirlarga chidamliligi bilan bog'liq bo'lib, bu polimer makromolekulalarining tuzilishi va kimyoviy tarkibiga, ishlov berish sharoitlariga, aralashmalar va turli xil stabilizatorlarning mavjudligiga, molekulyar og'irligi va molekulyar massa taqsimlanishiga bog'liq.

U yoki bu tashqi molekulyar strukturaning shakllanishi, polimerda qoldiq kuchlanishlarning paydo bo'lishi tanlangan rejimlarga va polimerni qayta ishlashning texnologik

usullariga bog'liq, ya'ni polimer materiallarning destruksiya qobiliyati polimer sintezi, unga asoslangan mahsulotlar va kompozit materiallar ishlab chiqarish bosqichida yotadi.

Shlyapnikov ishlarida izotrop polimerlarning tashqi molekulyar strukturasi oksidlanishining yalpi kinetikasiga ta'sirini tizimli o'rganishga kirishildi.

Masalan, polimerlarda oksidlanish degradatsiyasi paytida radikal yemrilish kinetikasi polimerning kristallik darajasi, kristallarning kattaligi, radikal tarkibidagi makromolekulaning konformatsiyasi hamda radikallarning qaysi fazada joylashganligi kabi bir qator struktura omillariga bog'liq ekanligi aniqlandi. Shunday qilib, polipropilenning kristalli fazasida peroksid makroradikatlari amorf fazaga qaraganda barqarorroq bo'ladi.


Polietilen kristallari kislorod molekularini eritmaydi, shuning uchun polietilenda kislorodning eruvchanligini uning amorf fazasining fraksiyasi bilan baholash mumkin.

Korshak, Mozgovaya va Shkolinaning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, havoda saqlanganda poliamidlar vaqt o'tishi bilan oksidlanib, peroksidlarni hosil qiladi va haroratning oshishi yanada kuchli oksidlanishga olib keladi. Shunday qilib, poliamidlarni havoda qisqa muddatli isitish bilan peroksidlarning sezilarli shakllanishi sodir bo'ladi, ammo vayronagarchilik hali kuzatilmaydi.

Xarding va Maknulti neylon tarkibi havoda isitiladi qanday o'zgarishini tekshirishganda oksidlanish degradatsiyasi mo'rtlik ko'rinishi va materiallar kuch kamayishiga olib keladi gidroliz bilan birga, moddiy uchraydi, deb topildi. Poliamidlarning qizishi vaqtida, shuningdek havodagi kislorod ta'sirida amid guruhining harakatchan vodorod atomining ajralishi, kislorod ko'priklarining hosil bo'lishi va poliamidlarning erimaydigan triamerlarga aylanishini kuzatish mumkin.

Polimer materiallarda turli xil kimyoviy transformatsiyalar ularning suv, kimyoviy birikmalar, polimer material tarkibidagi aralashmalar va boshqalar bilan o'zaro ta'siri natijasida ham sodir bo'ladi. Ko'pgina kimyoviy o'zgarishlarning boshlanishi va kuchayishi tashqi omillar ta'sirida sodir bo'ladi: ultrabinafsha nurlanish, harorat, radiatsion nurlanish, shuningdek mexanik va elektr ta'sirlari. Kimyoviy transformatsiyalar kursi molekulararo va ichki molekulararo darajalarda xarakterlidir. Kimyoviy o'zgarishlarning ikkita varianti mumkin: depolimerizatsiya (destruksiya) va o'zaro bog'liqlik. Destruksiya holatida oksidlangan past molekulyar birikmalar (kislotalar, aldegidlar, spirtlar va boshqalar) hosil bo'lishi bilan zanjir uzilishi sodir bo'ladi, ikkinchi holda, boshlang'ich polimerga nisbatan yuqori molekulyar mahsulotlar paydo bo'ladi.

Erkin radikal reaksiyalar mexanizmi bo'yicha kimyoviy transformatsiyalar (destruksiya) uchta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: faol markazlarning boshlanishi, rivojlanishi va parchalanishi. 1-rasmda parchalanish jarayonining asosiy bosqichlari ko'rsatilgan.



1-rasm. Elementar polimer oksidlanish reaksiyalarining umumiy sxemasi

Qayta ishlash jarayonida polimerlarga turli xil tabiatdagi mexanik kuchlar ta'sir qiladi, bu yesa uni ko'pomilli fizik-kimyoviy jarayonga aylantiradi, bu jarayonda turli xil kimyoviy transformatsiyalar bo'ladi. Mexanokimyoviy jarayonlarga olib keladigan kuchlar vintli, cherviyakli va aylanadigan mikserlarda polimerlarni qayta ishlash paytida, suyuq va qattiq

muhitda ultratovush tebranishlariga duch kelganda, suyuq muhitda elektrogidravlik zarba tufayli va hokazo.

Qayta ishlash jarayonida qayta ishlash sikllarining soni muhim rol o'ynaydi.

Qayta ishlash jarayonida polimer materiallar bir nechta ishlov berish sikliga o'tadi, ya'ni ular bir necha bor materialning qo'shimcha yo'q qilinishiga olib keladigan turli xil ta'sirlarga duch kelishadi. Shunday qilib, qayta ishlash sikllarining ko'payishi polimer materiallarning fizik va mexanik xususiyatlarining pasayishiga olib keladi. YUZPE namunalarini bir nechta qayta ishlash (10 dan ortiq sikl) bo'yicha tadqiqotlar keltirilgan. Takroriy ishlov berish materialning qovushqoqligini oshishiga olib kelishi, deformatsiya va mustahkamlik xarakteristikalari esa deyarli o'zgarasligi aniqlandi.

Ikkilamchi polimer materiallar qanday xossalarga ega bo'lishini taxmin qilish va ularni qo'llashning mumkin bo'lgan sohalarini aniqlash uchun polimerlarning xossalarini qayta ishlashning ko'pligiga bog'liqligini aniqlash kerak.

Qayta ishlangan materiallarning xususiyatlari majmuasini shakllantirishda ishlov berishning tabiati va shartlari muhim rol o'ynaydi, masalan, bir xil sikllarni qayta ishlangan materiallar, ammo har xil turdagi uskunalarda yordamida xususiyatlarda sezilarli darajada farq qiladi.

Ishda bir vintli ekstruderda qayta ishlangan yuqori zichlikdagi polietilen (YUZPE) namunalarini o'rganish natijalarini taqdim etadi. Namunalarning oqim egri chiziqlarini o'rganish sikldan siklga ishlov berish sikliga butun kesish stavkalari oralig'ida samarali yopishqoqlikning pasayishini ko'rsatdi, ya'ni ishlov berishning ko'pligi polimerning ma'lum darajada yo'q qilinishiga olib keladi. Shu bilan birga, xuddi shu polimerni egizak vintli ekstruderda takroriy ishlov berish paytida shunga o'xshash tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, past kesish tezligida samarali yopishqoqlik qiymatlarining oshishi kuzatiladi. Bunday holda, ikkita jarayon sodir bo'ladi - destruksiya va tiklash. Bir vintli ekstruderda ishlov berishda harorat va ishlov berish vaqtining oshishi makromolekulalarning yorilishi tufayli polimer eritmasining yopishqoqligini pasayishiga olib keladi. Shuningdek, u yoki bu jarayonning ustunligi qayta ishlash jarayonida mavjud bo'lgan kislorod miqdoriga yoki polimer namunasining molekulyar tuzilishi turiga bog'liq bo'ladi.

Polimerlarni mexanik qayta ishlash jarayonida mexanodestruksiya kabi mexanokimyoviy o'zgarishlarning turi ustunlik qiladi. Polimer tarkibining ishlash xususiyatlariga mexanik destruksiyaning ta'siri polimerning o'ziga xos turiga va ishlov berish paytida energiya ta'siriga qarab har xil bo'lishi mumkin. Polimerda sodir bo'ladigan destruksiya miqdori polimerning molekulyar og'irligi va molekulyar massa taqsimotining o'zgarishi bilan aniqlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurashidov, To'xtamurod. Plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasi: texnika oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / T. Abdurashidov; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. -T.: Musiqqa, TOSHKENT – 2010.

2. A.V.Umarov, G.I.Muxamedov, X.O.Quchqarov. Polimerli kompozit materiallar fizikasi: / O'quv qo'llanma / Namangan 2017. - 287 b.

3. U.A.Ziyamuxamedova. Materialshunoslik. Darslik. – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 276 b.

4. Вологжанина С.А., Иголкин А.Ф. Упаковочные материалы в пищевых отраслях// Учеб.-метод. пособие/ С.А. Вологжанина, А.Ф. Иголкин. – СПб.: Университет ИТМО, 2015. – 41 с.

CORROSION RISK MANAGEMENT FOR PROCESS SAFETY IN OIL AND GAS, REFINING, PETROCHEMICAL AND CHEMICAL INDUSTRIES

Alec Groysman

Chemical Engineering Department, Technion (Israeli Institute of Technology), Haifa, Israel

Honor President of the Israeli Association of Chemical Engineers and Chemists

E-mail: alecgroysman@gmail.com Website: www.groysmanalec.com

The aim of this work is to analyze how corrosion risk management influences process safety. Both issues are wide and occupy an important niche in the oil and gas, refining and petrochemical industries. *Corrosion risk management* includes identifying, analyzing, assessing, and managing corrosion hazards. *Process safety* is a discipline that focuses on preventing fires, explosions, and accidental releases at chemical process facilities. Corrosion can cause all these detrimental events. A *hazard* is a substance, object, or situation with the potential for an accident or damage. *Corrosion* is one of the biggest *hazards* because it is related to substances, objects, and situations leading to the interaction between them and the deterioration of both.

Numerous data show that large failures resulting in harmful consequences occur because of corrosion once a week in many chemical enterprises.

There is much literature about both topics, corrosion risk, and process safety, separately but there is nearly no research concerning intersections. Usually, specialists in process safety do not know much about the subject of corrosion. Accordingly, corrosionists do not specialize in process safety. In this work, I analyze the role of corrosion risk management in the prevention of corrosion accidents related primarily to the safety of personnel, equipment, and the environment.

We unite three wide phenomena-concepts: *corrosion*, *corrosion risk management*, and *process safety*. Corrosion management is achieved by the use of anti-corrosion measures, corrosion monitoring, regular inspection, audits, the study of each accident, implementation of meetings, publications of minutes, education, and knowledge transfer. Corrosion risk is achieved by identifying, analyzing, assessment of occurring, and modeling possible corrosion phenomena. Process safety includes the prevention of unintentional releases of dangerous chemicals and energy during processes that can have a serious effect on the staff, plant, and environment. This is achieved by the prevention of equipment malfunction, over-pressures, over-temperatures, leaks, spills, and *corrosion*. All these phenomena are interlinked and interdependent. Process safety programs focus on the design and maintenance of equipment, effective alarms and control points, procedures, education, and training. Corrosion risk management is an active instrument in all these aspects of process safety and takes part in achieving its main purposes.

The level of corrosion failure and its consequences, defining corrosion risk, may be different: the leak of crude oil, natural gas, water, liquid and gaseous hazardous chemicals, fire, explosion, damages, deterioration of the environment, injuries, and death of people and animals.

Due to the biological and psychological properties of human nature, we are unlikely to exclude human mistakes. The human factor plays a vital role in both corrosion risk management and process safety, and as a result in the prevention of corrosion failures and improvement of both.

We should pay significant attention to education, dissemination of information, knowledge transfer, collaboration, and communication.

Correct corrosion risk management gives rise to the improvement of process safety at stages of design, fabrication, implementation, erection, service and maintenance of equipment and constructions in the oil and gas, refining, petrochemical and chemical industries. Many practical examples will be given during the lecture.

FAVVORA USULIDA ISHLAYDIGAN QUDUQLAR PROFILINI TANLASH


¹Toshev Sh.O., ²Ravshanbekov N.D.

*Toshev Sherzod Orziyevich - Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti
Ravshanbekov Nuraddin Dilshod o'g'li - Buxoro muhandislik-texnologiya instituti 3-bosqich talabasi*

Neft gaz qazib olish sanoatida quduqlarning inshooti har xil maqsadlar uchun mo'ljallanadi va ular tuzilmali, izlov, qidiruv, ishlatish, haydovchi va maxsus turlarga bo'linadi. Ishlatish quduqlari orqali neft, gaz yoki gazkondensat qazib olish amalga oshiriladi; haydovchi quduqlar orqali – qatlamga suv, gaz, bug' haydaladi. Konlarni ishlatish jarayonida bir qator sabablarga muvofiq qazib oluvchi quduqlar haydovchi quduqlarga o'tkaziladi yoki teskari holda foydalaniladi. Konlarda maxsus mo'ljallangan quduqlardan konni ishlatishni nazorat qilishda, tuzilmali, kollektorlarning xossasi, qatlamdagi issiqlikning ta'sir etishi va hokozolar aniqlashtiriladi.

Ishlatish quduqlari inshootlarning eng muhim qismi hisoblanadi. Ularning umumiy yig'indisi quduqlarning ishlatish fondini taqdim qiladi, bahosi zamonaviy konlarning texnik jihozlanishining umumiy 70-80 % ni tashkil qiladi.

Bunday quduqlarning profili quduqlarning qazish texnologiyasini talabidan va ishlatish usulidan kelib chiqib har xil bo'ladi. Neft va gaz qazib olishni jadallashtirish maqsadi quduqlar mahsuldor qatlamning ichiga gorizontal yo'nalishda burg'ilib kiriladi. Gorizontal quduqlarni burg'ilash texnologiyasi murakkab va narxining baland bo'lishiga qaramasdan qazib olish debitining yuqoriligi tufayli iqtisodiy samaradorligi yuqoridir.


**1-rasm. Ishlatish quduqlarining profilini sxemasi**

1-tik uchastkasi; 2-burilish uchastkasi; 3-qiya uchastkasi; 5-tik uchastka

Quduqlarning profillari 1-rasmda ko'rsatilgan unda a-tik, b-qiya quduq tubi tiklikdan bir oz egilgan. 1-rasm, b-dan kurinib turibdiki u uchta uchastkadan tashkil topgan – tik, o'tish, maksimal zenit o'tish burchakka mos keladi va quduq tubigacha qiya to'g'ri yo'naltirilgan.

Profilda 1-rasm, d-da zenit burchagi kichik uchastkaga ega ekanligi bilan farq qiladi. Profil (1-rasm, e) tik uchastkaga ega, zenit burchagini olish uchastkasi, qiya-to'g'ri uchastka, zenit burchakni kamayish uchastkasi va pastki tik uchastkaga ega. Bu profil juda murakkab, quduq stvolini tikligi bir nechta mahsuldor qatlamlarni kesib o'tadi. Profil (1-rasm, f) qiya-to'g'ri chiziqli uchastkani mavjud emasligi bilan farq qiladi. Profilda (1-rasm, g) qiya-to'g'ri chiziqli uchastka mavjud emas. Har bir sxemalarda ko'rsatilgan ishlatish quduqlarining profillari quduqlarni ishlatish hususiyatlaridan kelib chiqib jihozlar tushiriladi.

Mahsuldor qatlamning drenajlashishini yaxshilash uchun quduqning tik qismidan qatlamga bir necha quduqlar burg'ilanadi, bunday quduqlarga ko'p tubli (yoki stvolli) quduqlar deyiladi.



2-rasm. Ishlatish quduq'ining sxemasi

1-tizma boshchasi; 2-yo'llanma; 3-konduktor; 4-ishlatish tizmasi; 5-klapan; 6-filtr.

Ishlatish quduqning tartibli sxemasi va uning jihozlari 2-rasmda ko'rsatilgan. Quduq uchta asosiy uchastkalardan tashkil topgan – yer usti, stvol va filtr va har biri mos ravishda jihozlar bilan jihozlangan: tizma boshchasi (1), yo'llanma (2), konduktor (3), ishlatish tizmasi (4), filtr (6). Quduqning eng pastki qismi tubi deyiladi. Quduq paker yoki ba'zida qirquvchi-klapan bilan (5) jihozlanadi.

Eng so'nggi ichki mustahkamlash tizmasi ishlatish tizmasi deyiladi va qatlam bilan quduq usti qismini bog'lovchi kanal hisoblanadi. Quduqning tubi qismiga filtr o'rnatiladi. Quduqning diametri uni ishlatish uchun jihozlarni joylashtirish ishkoniyyatini ta'minlanishi, ishlatish davrida hamma texnologik jarayonlarni va operatsiyalarni amalga oshirish talab qilinganda bajarish imkoniyatini berishi kerak. Tizmaning uzoq muddat xizmat qilishi quduqning xizmat qilish muddatiga to'g'ri kelishi kerak.

Tashqi mustahkamlash tizma quduqning yo'llanmasi – bir necha metr (10 metrgacha) chuqurlikka tushiriladi va butun uzunligi bo'yicha sementlanadi. Yo'llanmaning ichki qismidan konduktor 200 metrdan 600-800 metrgacha tushiriladi va u ham butun uzunligi bo'yicha sementlanadi.

Konduktor va ishlatish tizmalarining oralig'iga texnik yoki oraliq tizmasi o'rnatiladi. Ular quduqni qurishda texnologik vazifalarni bajaradi, soni va tushirish chuqurligi tog' jinslarining geologik xususiyati, quduqning chuqurligi, burg'ilash jarayonining texnik va texnologiyasidan kelib chiqib tanlanadi.

Tizma boshchasi konduktorga montaj qilinadi, konduktor, texnik tizma, ishlatish tizmasini birlik tizimga bog'laydi va quduqqa ishlatishi uchun tushiriladigan va quduq ustiga o'rnatiladigan qurilmalarni o'rnatishda baza sifatida xizmat qiladi.

